BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

7(1)
2026



ISSN 2181-6833

ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

7-son (2026-yil, iyul)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

PEDAGOGIK MAHORAT
Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2026, № 7

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Satibekova Mayramkul Abdikulovna, Jusup Balasagin nomidagi Qirg‘iziston milliy universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Azizov Abdulatif Abduxalimovich, Bobojon Gafurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), akademik
Batchuluun Yembuu, Mongoliya davlat ta’lim universiteti professori, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nodira Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Axmadova Umidaxon Shavkat qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasulova Zilola Durdimurotovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 7, 2026

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям **«Педагогика»** и **«Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Сатыбекова Майрамкул Абдикуловна, доктор педагогических наук (DSc) профессор (Кыргызстан)
Азизов Абдулатиф Абдухалимович, доктор педагогических наук (DSc), профессор, академик (Таджикистан)
Батчулуун Ямбуу, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор (Монголия)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нигора Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нодира Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Ахмадова Умидахон Шавкат кизи, доктор филологических наук (DSc), доцент
Расулова Зилола Дурдимуротовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 7, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
	ABDULLAYEVA Dilnoza Qurbonbek qizi	Internet muhitida agressiv xulq-atvorni tushuntiruvchi nazariy yondashuvlar	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
	FAYZIYEVA Umida Asadovna	Pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	14
	AXMEDOV Farxod Furqatovich	Voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi zamonaviy psixologik omillar va ularni profilaktika qilish strategiyalari	22
	BALTAYEVA Nodira Timur qizi	Ta’lim tizimida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuv	29
	NAZAROV Erkin Sodiqovich, BOBOYEV Maqsud Mahmudovich	Ta’lim samaradorligini ta’minlashda ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va tatbiq etishning nazariy asoslari	33
	BOLTAYEVA Qambar Abdullayevna	Akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy intellektual salohiyatini rivojlantirish modeli	37
	DJURABOYEV Maqsudbek Karimbek o‘g‘li	Pedagogik amaliyotning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishda mikro o‘qitish va elektron portfoliolar integratsiyasi	43
	ELMANOV Abbos Begmat ugli, MIRZAUMIDOV Asilbek Shuxratjonovich	The paradox between STEM program choice and intrinsic technical interest among high school graduates: evidence from Uzbekistan	48
	ESHPULATOV Shakir Nabiyevich, RASULOVA Mastura Adilovna	Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning roli	55
	G‘AFFOROV Xasan Ravshanovich	G‘oyani shakllantirish, loyihalash, amalga oshirish va foydalanish (CDIO) hamda sanoat integratsiyasi asosida talabalarning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	59
	ЭЛЬМАНОВ Аббос Бегмат угли, МИРЗАУМИДОВ Асилбек Шухратжонович	Выявление профилей профессиональной компетентности в инженерном образовании на основе кластерного анализа	63
	ISROILOVA Rushshona Sunnatovna	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalarning didaktik imkoniyati	71
	NURMETOV Xushnud Safarbayevich	Malaka oshirish jarayonida biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirishning pedagogik-metodik mexanizmlari	78

	QAYUMOVA Kumush Abdurazzoq qizi	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida muammoviy ta’lim STEAM ta’limi uchun didaktik asos sifatida	82
	QULDOSHEVA Shahlo Ibragim qizi	Oila va maktabgacha ta’lim hamkorligida integrativ yondashuv asosida bolalar irodasini toblash metodikasini takomillashtirish	86
	RASULOV G‘iyosiddin Fayzullayevich	Bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	91
	RAXIMOV Nasriddin Nomozovich, HAQNAZAROVA Xurshida Kenjayevna	Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini STEAM asosida rivojlantirish	95
	RAXMATOV Ilhom Ismatovich, NARZULLAYEVA Zarnigor Muxiddinovna	Ta’lim transformatsiyasi jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	101
	RAXMATOVA Sevara Abdulloyevna, GULYAMOV Djaxangir Raxmatullayevich	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda kompetensiyaviy yondashuv: ijtimoiy-pedagogik omillar va samaradorlik	106
	SHOMIRZAYEV Maxmatmurod Xuramovich, G‘ANIYEVA Dilfuza A’lam qizi	Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari	111
	RAXMONOV Bo‘ron Normamatovich	Oliy ta’lim muassasalari talabalarining fanlararo aloqadorlik asosida axborot kompetensiyasini rivojlantirishdagi yondashuvlar tahlili	115
	RAXMONOVA Dilovar Ostanaqulovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom turmush madaniyati asosida tarbiyalashning xalqaro tajribalari	120
	SADIKOVA Ixbol Iskandarovna	Elektron ta’lim muhitida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish asoslari	127
	KURBANOVA Gulnoz Negmatovna, SHARIPOVA Ferangiza Sayodovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi” tushunchasining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasi	131
	SULTONOVA Mashhura Rustamboyevna	Yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinish va kasbiy rollar muvozanatini hayotdan qoniqish darajasiga ta’siri	136
	SUYUNOVA Marjona Xudoyshukur qizi	Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari	140
	USMONOVA Xadicha Bahodir qizi	Intellektual buzilishlarga ega o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy kompetentlikni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va AKT vositalaridan foydalanish	145
	XAMRAYEVA Diyora Burxon qizi	Pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish muammolari va istiqbollari	150
	YUSUFZODA Shabnami Yunus	Grafik malaka tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	157

	ADIZOVA Nilufar Quvondiq qizi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini Reggio Emilia yondashuvi asosida rivojlantirishning pedagogik asoslari	162
	NIYAZOVA Nilufar Farxadovna	Psixologik farovonlik va hayot mazmunining onkologik kasalliklarga chalingan bemorlar hayot sifatiga ta’siri	170
	TO‘RAYEV Farxodjon Farmonovich	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tub va murakkab sonlar tushunchalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	178
	TURSUNALIYEVA Nazokat Toxir qizi	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish	185
	TILAVOV Muxtor Hasan o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik modeli va uning samaradorligi	190
	JABBOROVA Saodat Zoirovna	Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirish metodikasi	199
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM			
	ELOV Ziyodullo Sattorovich, ABLAYEVA Xosiyat Otabek qizi	Boshlang‘ich ta’limda PIRLS xalqaro baholash dasturini qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari	205
	IKROMOVA Sevinch Elniyoz qizi	Boshlang‘ich sinf matematika ta’limida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	213
	TESHAYEVA Sarvinoz Jamshidovna	Maktabgacha ta’limda kompyuterli o‘qitishdan foydalanish orqali ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish	217
TILLARNI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI			
	ADHAMOVA Iroda Akmal kizi	Integrating language therapy techniques to develop students’ oral speech in english language classrooms	222
	KULMIROV Jonibek Gulomiddin ugli	A proposed model to improve speaking skill through problem-based learning for university students	227
	MO‘MINOV Alisher Taxirjanovich	DSAT imtihonida matematika bo‘limidan yuqori natijalarga erishishda til to‘siqlarini bartaraf etish metodikasi	231
	DUROVA Shaxnoza Shokirovna	Diskurs markerlarining kogerentlikni yaratishdagi o‘rni	237
	ШАРИПОВА Дилбар Гулямовна	Методические подходы к обучению морфологии русского языка студентов нефилологических направлений подготовки	241

DOLZARB MAVZU

INTERNET MUHITIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI TUSHUNTIRUVCHI NAZARIY YONDASHUVLAR

Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
dilnozabdullayeva1700@gmail.com

Ushbu maqolada internet muhitida agressiv xulq-atvorni tushuntiruvchi zamonaviy ijtimoiy-psixologik nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada internet-agressiyaning kelib chiqish sabablari, psixologik mexanizmlari va ijtimoiy omillari yoritilgan. Xususan, ijtimoiy o‘rganish, frustratsiya–agressiya, deindividuatsiya, ijtimoiy identifikatsiya hamda kognitiv yondashuvlarning internetdagi agressiv kommunikatsiyani tushuntirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, internet-agressiyaning yoshlar ruhiy salomatligi va kommunikativ madaniyatiga salbiy ta’siri tahlil qilingan hamda uning oldini olishning psixologik va pedagogik yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot doirasida talabalar ishtirokida kichik tajriba-sinov ishlari ham o‘tkazilib, media savodxonlik va virtual etika bo‘yicha profilaktik mashg‘ulotlarning internet-agressiyani kamaytirishga ijobiy ta’siri aniqlangan. Olingan natijalar Styudent mezoni asosida statistik jihatdan tahlil qilinib, tajriba samaradorligi tasdiqlangan. Tadqiqot natijalari internetdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish hamda yoshlar orasida sog‘lom kommunikativ madaniyatni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *internet-agressiya, agressiv xulq-atvor, kiberbulling, virtual kommunikatsiya, anonimlik, deindividuatsiya, frustratsiya, ijtimoiy identifikatsiya, kognitiv yondashuv, media savodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik profilaktika.*

THEORETICAL APPROACHES EXPLANATING AGGRESSIVE BEHAVIOR IN THE INTERNET ENVIRONMENT

This article analyzes modern socio-psychological theoretical approaches explaining aggressive behavior in the Internet environment. The article covers the causes, psychological mechanisms and social factors of Internet aggression. In particular, the role of social learning, frustration-aggression, deindividuation, social identification and cognitive approaches in explaining aggressive communication on the Internet is revealed. Also, the negative impact of Internet aggression on the mental health and communicative culture of young people is analyzed, and psychological and pedagogical ways to prevent it are indicated. As part of the research, a small pilot study was also conducted with the participation of students, which revealed the positive effect of preventive training on media literacy and virtual ethics on reducing Internet aggression. The results were statistically analyzed based on the Student criterion, and the effectiveness of the experiment was confirmed. The results of the study indicate the need to develop skills in responsible Internet use, increase media literacy, and form a healthy communicative culture among young people.

Keywords: *internet aggression, aggressive behavior, cyberbullying, virtual communication, anonymity, deindividuation, frustration, social identification, cognitive approach, media literacy, social networks, psychological prevention.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЪЯСНЕНИЮ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ИНТЕРНЕТ-СРЕДЕ

В данной статье анализируются современные социально-психологические теоретические подходы к объяснению агрессивного поведения в интернет-среде. В статье рассматриваются причины, психологические механизмы и социальные факторы интернет-агрессии. В частности, раскрывается роль социального обучения, фрустрации-агрессии, деиндивидуализации, социальной идентификации и когнитивных подходов в объяснении агрессивной коммуникации в интернете. Также анализируется негативное влияние интернет-агрессии на психическое здоровье и коммуникативную культуру молодёжи, и указываются психологические и педагогические способы её предотвращения. В рамках исследования также было проведено небольшое пилотное исследование с

участием студентов, которое выявило положительное влияние профилактического обучения медиаграмотности и виртуальной этике на снижение интернет-агрессии. Результаты были статистически проанализированы на основе критерия Стьюдента, и эффективность эксперимента была подтверждена. Результаты исследования указывают на необходимость развития навыков ответственного использования Интернета, повышения медиаграмотности и формирования здоровой коммуникативной культуры среди молодежи.

Ключевые слова: *интернет-агрессия, агрессивное поведение, кибербуллинг, виртуальная коммуникация, анонимность, деиндивидуализация, фрустрация, социальная идентификация, когнитивный подход, медиаграмотность, социальные сети, психологическая профилактика.*

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi internetni jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantirdi. Hozirgi davrda internetdan ayniqsa yoshlar va talabalar ta’lim olish, muloqot qilish, axborot almashish hamda o‘z qiziqishlarini namoyon etish maqsadida faol foydalanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalarning keng ommalashuvi insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiyani yanada tezkor va qulay shaklga olib chiqdi. Biroq virtual muhitning kengayishi bilan bir qatorda internetda agressiv xulq-atvor, kiberbulling, trolling, haqoratli izohlar va psixologik bosim kabi salbiy holatlar ham ko‘payib bormoqda. Tadqiqotchilar internetdagi anonimlik hissi ayrim foydalanuvchilarda mas’uliyat hissining pasayishiga hamda agressiv munosabatlarning kuchayishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi [1]. Shuningdek, virtual muloqotning haddan tashqari ortishi yoshlarning ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etilgan [2]. Internet muhitidagi agressiv xatti-harakatlarning oldini olish uchun yoshlarning media madaniyatini shakllantirish, ularda raqamli etikaga oid bilimlarni rivojlantirish hamda virtual muloqotda mas’uliyat hissini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki internetdan to‘g‘ri foydalanish madaniyati insonning nafaqat axborot iste’moliga, balki uning psixologik xavfsizligi va shaxslararo munosabatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda internet-agressiya muammosi faqat psixologik jihatdan emas, balki keng ijtimoiy hodisa sifatida ham o‘rganilmoqda. Virtual makonda uchraydigan tajovuzkor munosabatlar insonning emotsional holatiga salbiy ta’sir etib, unda ruhiy zo‘riqish, doimiy xavotir, tushkunlik va jamiyatdan yakkalanish kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida onlayn agressiv muloqotning tobora kengayib borayotgani psixologiya va pedagogika sohalarida ushbu muammoni chuqur tadqiq etish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli internet muhitida sog‘lom kommunikativ madaniyatni shakllantirish va yoshlarni virtual tahdidlardan himoya qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Internet-agressiya hodisasini izohlash maqsadida zamonaviy psixologiya fanida bir qator nazariy konsepsiyalar va yondashuvlar shakllangan. Ushbu yondashuvlar internet muhitida kuzatiladigan agressiv xatti-harakatlarning psixologik omillari, kommunikativ xususiyatlari hamda ijtimoiy sabablarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi [3]. Mazkur tadqiqotda virtual agressiyani tushuntiruvchi asosiy nazariy qarashlar va ularning raqamli kommunikatsiya jarayonlarida qanday namoyon bo‘lishi ko‘rib chiqiladi. So‘nggi ilmiy izlanishlarda internet-agressiya virtual makonda shaxsga psixologik bosim o‘tkazish yoki unga ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan salbiy xatti-harakatlar yig‘indisi sifatida tavsiflanadi [1]. Ushbu holatlarga kiberbulling, trolling, haqoratli izohlar, shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy tarqatish (doxing), onlayn tahdidlar hamda kamsituvchi munosabatlar kiradi. Bunday agressiv faoliyat internet foydalanuvchilari o‘rtasidagi sog‘lom muloqot muhitining buzilishiga va insonning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga sabab bo‘lishi mumkin [2].

Internet-agressiyani izohlashda ijtimoiy o‘rganish nazariyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, inson virtual makondagi xatti-harakatlarni kuzatish, baholash va ularga taqlid qilish orqali o‘z kommunikativ uslubini shakllantiradi [4]. Ayniqsa, internet tarmoqlarida agressiv mazmundagi kontentlarning keng tarqalishi foydalanuvchilarning muloqot madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi raqamli muhitda ayrim blogerlar, strimerlar hamda ommabop sahifalar auditoriya e’tiborini jalb qilish maqsadida keskin yoki tajovuzkor uslubdagi kommunikatsiyadan foydalanmoqda. Ko‘pincha haqoratli chiqishlar, mojaro va ziddiyatli munozaralar internet foydalanuvchilari orasida tezroq ommalashib, ko‘proq muhokamalarga sabab bo‘lmoqda [5]. Natijada ayrim yoshlar agressiv munosabatni mashhurlikka erishish yoki e’tibor qozonish vositasi sifatida qabul qilishi mumkin. Bu esa virtual makonda salbiy kommunikativ stereotiplarning shakllanishiga olib keladi.

Zamonaviy ilmiy izlanishlarda ijtimoiy tarmoqlarning algoritmik tizimi agressiv mazmundagi kontentlarning keng tarqalishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi [6]. Chunki kuchli emotsional reaksiyalar uyg‘otadigan materiallar foydalanuvchilar tomonidan tezroq ulashiladi va qisqa vaqt ichida katta auditoriyani qamrab oladi. Natijada tajovuzkor yoki keskin kommunikatsiya internet muhitida odatiy hol sifatida qabul qilina boshlashi mumkin. Bu esa internet-agressiyaning asta-sekin ijtimoiy

normalashuviga olib keluvchi omillardan biri sifatida baholanadi [7]. Mazkur nazariy qarashga asoslanib, virtual makondagi agressiv xatti-harakatlarning oldini olishda media savodxonlikni rivojlantirish, foydalanuvchilarda internet etikasi va kommunikativ madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, ularni zararli axborot ta’sirini tahlil qila olishga yo‘naltirish ham internet-agressiya xavfini kamaytiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Frustratsiya-agressiya nazariyasi internet muhitida kuzatiladigan tajovuzkor xatti-harakatlarni izohlashda keng qo‘llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, insonning ehtiyojlari yoki maqsadlari to‘sqinlikka uchragan vaziyatlarda frustratsiya holati yuzaga keladi va bu agressiv reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin [8]. Virtual makonda esa foydalanuvchilar turli psixologik bosimlar, ijtimoiy solishtirish hamda emotsional zo‘riqishlarga muntazam duch kelib boradi. Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning muvaffaqiyatli hayoti, moddiy farovonligi yoki ommabopligi namoyish etilishi ayrim insonlarda ichki qoniqmaslik, hasad hissi va ruhiy taranglikni kuchaytirishi mumkin [9]. Natijada bu holat salbiy izohlar yozish, haqoratli munosabat bildirish yoki tajovuzkor kommunikatsiya shakllarida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, internetdagi anonimlik darajasi frustratsiyani ochiqroq ifodalash imkonini yaratadi. Real hayotda yashirin qoladigan agressiv fikrlar virtual muhitda nisbatan erkin tarzda bayon qilinadi. Ayniqsa, onlayn o‘yinlar, siyosiy bahs-munozaralar hamda ommaviy kommentariyalar maydonida emotsional keskinlik tezda agressiv muloqotga aylanishi mumkin [10]. So‘nggi tadqiqotlarda internetdagi ruhiy zo‘riqish va agressiv kommunikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab ilmiy izlanishlar orqali tasdiqlanmoqda. Shu sababli stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, psixologik profilaktika ishlarini kuchaytirish hamda foydalanuvchilarda emotsional nazoratni shakllantirish internet-agressiyaning oldini olishda muhim omil sifatida baholanadi. Internet muhitida anonimlikning mavjudligi virtual agressiyaning kuchayishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

Deindividuatsiya nazariyasiga ko‘ra, inson anonim guruh tarkibida o‘zining shaxsiy identifikatsiyasini kamroq his etadi, bu esa xatti-harakatlar uchun javobgarlik hissining susayishiga olib keladi [11]. Virtual platformalarda foydalanuvchilarning taxallus yoki yashirin profillar orqali faoliyat yuritishi ularda “meni hech kim tanimaydi” degan psixologik tasavvurni shakllantirishi mumkin.

Natijada ayrim foydalanuvchilar real hayotda namoyon etmaydigan tajovuzkor munosabatlarni internet muhitida erkinroq ifodalay boshlaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar anonimlik va agressiv kommunikatsiya o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda [3]. Ayniqsa, ommaviy kommentariyalar maydonidagi tortishuvlar, kiberbulling holatlari yoki “cancel culture” jarayonlarida deindividuatsiya hodisasi yaqqol kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda inson individual mas’uliyatdan ko‘ra guruh kayfiyati va kollektiv emotsiyalarga ko‘proq ergashadi. Shu sababli internet muhitida salbiy hissiyotlar tez ommalashib, kollektiv agressiya shakllanishiga zamin yaratadi [12]. Bu holat virtual kommunikatsiyada etik me’yorlarni mustahkamlash va foydalanuvchilarda mas’uliyatli muloqot madaniyatini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi internet-agressiyani guruhlararo munosabatlar va ijtimoiy qarama-qarshiliklar orqali izohlovchi muhim yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, inson o‘zini ma’lum bir ijtimoiy guruh vakili sifatida qabul qiladi va natijada “biz” hamda “ular” kabi qarama-qarshi tasavvurlar shakllanadi [13]. Virtual makonda bunday guruhiy identifikatsiya siyosiy, diniy, madaniy yoki sport jamoalari o‘rtasidagi munosabatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar o‘z guruhining manfaatlarini himoya qilish jarayonida boshqa qarashdagi insonlarga nisbatan tajovuzkor yoki murosasiz munosabat bildirishi mumkin. Bu esa internetdagi agressiv kommunikatsiyaning kuchayishiga olib keladi [14]. Shu bilan birga, zamonaviy algoritmlar foydalanuvchilarga asosan ularning qarashlariga mos kontentlarni tavsiya qilishi sababli “echo chamber” hodisasi keng tarqalmoqda. Natijada insonlar asosan bir xil fikrdagi auditoriya bilan muloqot qilgan holda qarama-qarshi nuqtai nazarlarga nisbatan toqatsizroq bo‘lib qolishi mumkin. Ayniqsa, internetdagi siyosiy va ijtimoiy bahs-munozaralarda guruhiy identifikatsiyaning kuchayishi konfliktlarning keskinlashuviga sabab bo‘ladi. Bunday holatlarda virtual qarama-qarshiliklar ommaviy tus olib, agressiv kommunikatsiya tez tarqaladi [15]. Shu sababli internet muhitida tolerantlik, konstruktiv muloqot va media madaniyatni rivojlantirish zamonaviy jamiyat uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kognitiv yondashuv internet-agressiyani insonning tafakkur jarayonlari, axborotni qabul qilish va talqin etish xususiyatlari bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson tomonidan voqea yoki xabarlarning noto‘g‘ri interpretatsiya qilinishi agressiv reaksiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin [16]. Virtual kommunikatsiyada esa yuz ifodasi, ovoz ohangi va emotsional belgilar yetarli darajada aks etmasligi sababli xabar mazmunini noto‘g‘ri tushunish ehtimoli ortadi. Internetdagi yozma muloqotda oddiy hazil, tanqid yoki neytral fikr ayrim foydalanuvchilar tomonidan haqorat yoki salbiy munosabat

sifatida qabul qilinishi mumkin. Ayniqsa, stress, ruhiy zo‘riqish yoki salbiy emotsional holatda bo‘lgan insonlar virtual xabarlarni ko‘proq negativ ma’noda talqin qilishga moyil bo‘ladilar [17]. Natijada oddiy muloqot vaziyatlari ham keskin konflikt va agressiv kommunikatsiyaga aylanishi mumkin.

Kognitiv yondashuv internet-agressiyaning shakllanishida nafaqat tashqi muhit omillari, balki insonning ichki psixologik jarayonlari ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu bois emotsional intellektni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish hamda foydalanuvchilarda tanqidiy va ongli muloqot madaniyatini mustahkamlash internet-agressiyaning oldini olishda muhim omil hisoblanadi [18].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot internet muhitida agressiv xulq-atvorni tushuntiruvchi ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning nazariy, empirik hamda statistik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini internet-agressiya, kiberbulling, virtual kommunikatsiya va agressiv xulq-atvorga oid zamonaviy psixologik hamda pedagogik ilmiy manbalar tashkil etdi. Xususan, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, frustratsiya–agressiya nazariyasi, deindividuatsiya nazariyasi, ijtimoiy identifikatsiya va kognitiv yondashuv asosida internet-agressiyaning psixologik mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo‘llanildi.

Empirik tadqiqot bosqichida talabalar orasida internet-agressiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash maqsadida kichik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqotda jami 30 nafar talaba ishtirok etdi va ular nazorat hamda tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida media savodxonlik, virtual etika, internet madaniyati va agressiv kommunikatsiyaning salbiy oqibatlariga oid psixologik-profilaktik mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Nazorat guruhida esa maxsus trening mashg‘ulotlari olib borilmadi. Tadqiqot davomida kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Talabalarning internetdagi agressiv munosabatlarga moyilligi maxsus savolnomalar asosida baholandi. Olingan natijalar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasidagi farqning ishonchliligi Styudent mezoni orqali aniqlanildi. Tadqiqot metodologiyasi internet-agressiyaning psixologik omillarini aniqlash, uning yoshlar kommunikativ madaniyatiga ta’sirini baholash hamda profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini tekshirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqotda internet-agressiyaning talabalar orasida namoyon bo‘lish darajasi va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida kichik tajriba-sinov ishi o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 30 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi:

Nazorat guruhi – 15 nafar talaba

Tajriba guruhi – 15 nafar talaba

Tajriba guruhida internet madaniyati, media savodxonlik, virtual etika hamda agressiv kommunikatsiyaning salbiy oqibatlariga oid qisqa psixologik trening va suhbatlar tashkil etildi. Nazorat guruhida esa maxsus profilaktik mashg‘ulotlar olib borilmadi. Tadqiqot davomida talabalarning internetdagi agressiv xulq-atvori maxsus so‘rovnoma asosida baholandi. Olingan natijalar Styudent (Student) mezoni yordamida statistik jihatdan tahlil qilindi.

1-jadval.

Internet-agressiya ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati

Guruhlar	Ishtirokchilar soni (n)	O‘rtacha ko‘rsatkich (M)	Standart og‘ish (σ)	t_empirik	t_kritik	p	Natija
Nazorat guruhi	15	18.4	3.1	4.83	2.05	$p \leq 0.05$	Farq ishonchli
Tajriba guruhi	15	13.2	2.8	4.83	2.05	$p \leq 0.05$	Farq ishonchli

Jadval natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida internet-agressiya ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan past ekanligi kuzatildi. Bu esa o‘tkazilgan psixologik-profilaktik mashg‘ulotlarning ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Olingan statistik natijalarga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq ishonchli deb topildi. Chunki empirik qiymat (4.83) kritik qiymatdan (2.05) katta bo‘ldi. Bu esa media savodxonlik, virtual etika va psixologik profilaktik mashg‘ulotlar internet-agressiyani kamaytirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida talabalar orasida:

- agressiv izohlarga nisbatan tanqidiy yondashuv,
- virtual muloqot madaniyati,
- emotsional nazorat,
- internetdagi mas’uliyat hissi kabi ko‘nikmalar rivojlangani kuzatildi.

Internet-agressiyaning ijtimoiy-psixologik oqibatlari zamonaviy jamiyatda dolzarb muammolardan biri sifatida baholanmoqda. Virtual makonda uchraydigan agressiv munosabatlar inson ruhiy holatiga salbiy

ta’sir ko‘rsatib, depressiya, doimiy xavotir, stress hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin [1]. Ayniqsa, kiberbulling va onlayn tahdidlar uzoq davom etgan hollarda insonning psixologik barqarorligiga jiddiy zarar yetkazadi. Ba’zi vaziyatlarda esa internetdagi bosim ijtimoiy yakkalanish yoki suitsidal fikrlarning shakllanishiga ham sabab bo‘lishi mumkin [2]. Shuningdek, internetdagi agressiv kommunikatsiya yoshlarning muloqot madaniyatiga ham salbiy ta’sir etadi. Virtual muhitda tajovuzkor uslubning odatiy hol sifatida qabul qilinishi real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarda ham qo‘pollik, murosasizlik va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Natijada jamiyatda konfliktli vaziyatlar, intolerantlik hamda insonlar o‘rtasidagi ishonchsizlik darajasi ortishi mumkin [19]. Bundan tashqari, internet-agressiya axborot xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nafrat nutqi, virtual tahdidlar va ommaviy manipulyatsiyaga asoslangan axborotlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois internet muhitida sog‘lom kommunikativ madaniyatni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish va foydalanuvchilarning psixologik himoyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar. Internet muhitidagi agressiv xulq-atvor zamonaviy jamiyatning murakkab ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri hisoblanadi. Uni tushuntirishda ijtimoiy o‘rganish, frustratsiya-agressiya, deindividuatsiya, ijtimoiy identifikatsiya va kognitiv yondashuvlar muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyalar internet-agressiyaning individual, kommunikativ va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, anonimlik, guruhiy polarizatsiya va virtual kommunikatsiyaning hissiy xususiyatlari internetdagi tajovuzkorlikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Internet-agressiyaning oldini olish uchun media savodxonlik, psixologik profilaktika, kommunikativ madaniyat va virtual etikani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni internetdan mas’uliyatli foydalanishga o‘rgatish esa zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Internet-agressiyaning oldini olish yo‘llari. Internet-agressiyaning oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Avvalo,

- yoshlar orasida media savodxonlikni rivojlantirish zarur. Foydalanuvchilar internetdagi manipulyativ yoki agressiv kontentni tanqidiy baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak.

- ta’lim muassasalarida virtual kommunikatsiya etikasi va internet madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi muhimdir. O‘quvchilarga internetdagi mas’uliyatli xulq-atvor qoidalari tushuntirilishi zarur.

- psixologik profilaktika ishlari ham katta ahamiyatga ega. Stressni boshqarish, emotsional intellekt va konfliktologik ko‘nikmalarni rivojlantirish internetdagi agressiv munosabatlarning kamayishiga yordam beradi. Shuningdek, internet platformalari tomonidan kiberbulling va tajovuzkor kontentga qarshi samarali nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Kowalski R.M., Limber S.P., Agatston P.W. Cyberbullying: Bullying in the Digital Age. — Wiley-Blackwell, 2012.

2. Hinduja S., Patchin J.W. Cyberbullying Prevention and Response: Expert Perspectives. — Routledge, 2015.

3. Suler J. Cyberpsychology and the Online Disinhibition Effect. International Journal of Applied Psychoanalytic Studies, 2015.

4. Bandura A. Social Learning Theory and Digital Behavior. Journal of Media Psychology, 2012.

5. Anderson C.A., Bushman B.J. Media Violence and Online Aggressive Behavior. Annual Review of Psychology, 2018.

6. Gillespie T. Custodians of the Internet: Platforms, Content Moderation, and the Hidden Decisions That Shape Social Media. Yale University Press, 2018.

7. Vaidhyanathan S. Antisocial Media: How Facebook Disconnects Us and Undermines Democracy. Oxford University Press, 2018.

8. Berkowitz L. Frustration-Aggression Hypothesis: Examination and Reformulation. Psychological Bulletin, 2012.

9. Vogel E.A., Rose J.P., Roberts L.R. Social Comparison, Social Media, and Self-Esteem. Psychology of Popular Media Culture, 2014.

10. Runions K.C., Bak M. Online Moral Disengagement, Cyber Aggression, and Cyberbullying. Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking, 2015.

11. Postmes T., Spears R. Deindividuation and Antisocial Behavior in Computer-Mediated Communication. Journal of Social Psychology, 2011.

12. Lapidot-Lefler N., Barak A. Effects of Anonymity, Invisibility, and Lack of Eye-Contact on Toxic Online Disinhibition. Computers in Human Behavior, 2012.

13. Tajfel H., Turner J.C. Social Identity and Intergroup Relations in Digital Communication. Journal of Social Issues, 2013.

14. Reicher S., Spears R., Postmes T. Social Identity Model of Deindividuation Effects in Online Interaction. Group Processes & Intergroup Relations, 2016.

15. Sunstein C.R. #Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. Princeton University Press, 2017.

16. Beck A.T. Cognitive Therapy and Emotional Disorders in Digital Communication. New York: Penguin Books, 2011.

17. Crick N.R., Dodge K.A. Social Information Processing and Aggressive Behavior Online. Journal of Personality and Social Psychology, 2014.

18. Mayer J.D., Salovey P. Emotional Intelligence and Interpersonal Communication. Psychology Press, 2017.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARIDA KASBIY TAYYORGARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Fayziyeva Umida Asadovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
umidaxon2017@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-6878-2637

Mazkur maqolada pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar, ijtimoiy muhit, motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, kommunikativ kompetensiya hamda ta’lim jarayonining innovatsion xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritilgan. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, hamkorlik pedagogikasi va refleksiv faoliyatning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, pedagogika talabalari, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, kasbiy kompetentlik, motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, kommunikativ kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, professional rivojlanish.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ

В данной статье рассматриваются социально-психологические механизмы формирования профессиональной подготовки студентов педагогических направлений. Проведен комплексный анализ психологических и социальных факторов, влияющих на профессиональное становление будущих педагогов, включая профессиональную мотивацию, профессиональную идентичность, рефлексию, коммуникативную компетентность и особенности образовательной среды. Особое внимание уделено компетентностному подходу, личностно-ориентированному обучению, педагогике сотрудничества и развитию рефлексивной деятельности как важнейшим условиям повышения качества профессиональной подготовки. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании образовательного процесса в педагогических высших учебных заведениях и разработке эффективных технологий профессионального развития будущих учителей.

Ключевые слова: *профессиональная подготовка, студенты педагогических направлений, социально-психологические механизмы, профессиональная компетентность, мотивация, профессиональная идентичность, рефлексия, коммуникативная компетентность, компетентностный подход, личностно-ориентированное обучение, профессиональное развитие.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING AMONG PEDAGOGY STUDENTS

This article examines the socio-psychological mechanisms underlying the development of professional training among students majoring in pedagogy. The study provides a comprehensive analysis of the psychological and social factors influencing the professional development of future teachers, including professional motivation, professional identity, reflective thinking, communicative competence, and the characteristics of the educational environment. Particular attention is given to the competence-based approach, learner-centered education, collaborative pedagogy, and reflective practice as essential conditions for improving the quality of professional preparation. The findings contribute to the development of scientifically grounded recommendations aimed at enhancing professional competence and increasing the effectiveness of teacher education in higher educational institutions.

Key words: *professional training, pedagogy students, socio-psychological mechanisms, professional competence, professional motivation, professional identity, reflection, communicative competence, learner-centered education, competence-based approach, teacher education, professional development.*

Kirish. Ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichi bo‘lajak pedagoglarning nafaqat nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini, balki ularning kasbiy kompetentligini, ijtimoiy faolligini, psixologik barqarorligini hamda innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorligini kompleks ravishda rivojlantirishni talab etmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va ta’limning xalqaro integratsiyasi sharoitida pedagog kasbi mazmun jihatidan sezilarli darajada murakkablashmoqda. Natijada oliy pedagogik ta’lim muassasalari oldiga bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish vazifasi qo‘yilmoqda [1].

Bugungi kunda pedagogning kasbiy tayyorgarligi faqat fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish bilan belgilanmaydi. Zamonaviy pedagog ta’lim jarayonini boshqara oladigan, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan, samarali muloqotni tashkil etadigan, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila oladigan, o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga qodir mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. Shu sababli, kasbiy tayyorgarlikning psixologik va ijtimoiy determinantlarini o‘rganish pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda [2].

Kasbiy tayyorgarlik murakkab, ko‘p komponentli va dinamik jarayon bo‘lib, unda shaxsning motivatsion yo‘nalganligi, kasbiy qadriyatlari, ijtimoiy tajribasi, emotsional-intellektual salohiyati, refleksiv qobiliyati hamda kommunikativ kompetensiyasi o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ayniqsa pedagogika yo‘nalishi talabalarida ushbu sifatlarning shakllanishi keyinchalik ularning ta’lim sifatiga, kasbiy moslashuviga hamda pedagogik faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [3].

So‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishi pedagoglarni tayyorlash mazmuniga yangi talablarni kiritdi. Endilikda oliy ta’lim tizimi bitiruvchining bilim hajmidan ko‘ra uning kasbiy vazifalarni mustaqil hal eta olish qobiliyatini, ijodiy fikrlashini, moslashuvchanligini va doimiy kasbiy rivojlanishga tayyorligini ustuvor mezon sifatida baholamoqda. Mazkur yondashuv kasbiy tayyorgarlikni faqat o‘quv fanlarini o‘zlashtirish natijasi sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanish mahsuli sifatida talqin etishga imkon beradi [4].

Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar pedagogika talabalarining kasbiy shakllanishida markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu mexanizmlar tarkibiga kasbiy motivatsiya, identifikatsiya, ijtimoiy moslashuv, refleksiya, empatiya, kommunikativ faoliyat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyoji hamda pedagogik qadriyatlarning interiorizatsiyasi kiradi. Mazkur omillar birgalikda talabaning kasbiy "Men" konsepsiyasini shakllantiradi va kelajakdagi pedagogik faoliyatining psixologik poydevorini yaratadi [5].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy tayyorgarlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan tadqiq etilgan. Biroq aksariyat tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikning alohida komponentlari yoki pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan bo‘lsa-da, pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning yaxlit tizimi, ularning o‘zaro integratsiyasi va oliy pedagogik ta’lim sharoitida namoyon bo‘lish xususiyatlari yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan [6].

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta’lim sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham mazkur muammoning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, ularning innovatsion faoliyatga tayyorligini ta’minlash va shaxsiy-kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash bugungi kunda pedagogika fanining ustuvor ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi [7].

Mazkur tadqiqotning maqsadi pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning tarkibiy elementlari va o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda oliy ta’lim jarayonida ushbu mexanizmlarni samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika, psixologiya va ta’lim menejmenti fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, u ko‘plab ilmiy maktablar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy tayyorgarlikni faqat kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy, psixologik va kasbiy rivojlanishining uzviy birligi sifatida baholash tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda [8].

Kasbiy rivojlanishning nazariy asoslari xorijiy psixologiya fanida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol tadqiq etila boshladi. D. Super kasbiy rivojlanishni inson hayotining uzluksiz jarayoni sifatida talqin qilib, kasbiy o‘zini anglash va kasbiy identifikatsiya jarayonlari mutaxassis shakllanishining asosiy omili ekanligini ta’kidlagan. Olimning fikriga ko‘ra, talabalik davri kasbiy “Men” konsepsiyasining shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi va aynan shu davrda shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga nisbatan barqaror munosabati shakllanadi [9].

J. Holland tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy moslik nazariyasi esa kasbiy muvaffaqiyatning asosiy sharti sifatida shaxs xususiyatlari bilan kasbiy muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, pedagogik faoliyatga moyilligi yuqori bo‘lgan talabalarda kommunikativlik, ijtimoiy faollik, empatiya, mas’uliyat va insonparvarlik kabi sifatlar ustuvor rivojlanadi. Bu esa kasbiy tayyorgarlik jarayonida individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [10].

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch (self-efficacy), kuzatish orqali o‘rganish hamda ijtimoiy tajriba alohida e’tirof etiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muvaffaqiyatli pedagoglar faoliyatini kuzatish, mentorlik tizimi, pedagogik amaliyot va refleksiv tahlil muhim psixologik mexanizmlar hisoblanadi [11].

L. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida ta’lim va rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik chuqur asoslab berilgan. Olim ta’lim jarayonida ijtimoiy hamkorlik va muloqotning ustuvor ahamiyatini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv pedagogika talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda hamkorlikda o‘qitish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, jamoaviy refleksiya va kasbiy muloqot texnologiyalarining samaradorligini ilmiy jihatdan izohlash imkonini beradi [12].

A. Leontyev va S. Rubinshteyn tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasida kasbiy rivojlanish shaxsning faol amaliy faoliyati orqali yuzaga keladigan jarayon sifatida izohlanadi. Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyalashuvi talabaning kasbiy tafakkurini rivojlantiradi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini kuchaytiradi hamda refleksiv kompetensiyani shakllantiradi [13].

Mahalliy va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham pedagogik kompetentlikning psixologik asoslariga katta e’tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar kasbiy motivatsiya, pedagogik qobiliyatlar, kommunikativ madaniyat, emotsional intellekt, refleksiya va kasbiy qadriyatlarning bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatidagi o‘rni keng tahlil qilinganligini qayd etadilar. Ayniqsa kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi pedagogik ta’lim mazmunini tubdan yangilashga xizmat qilayotganligi alohida ta’kidlanadi [14].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda pedagogning kasbiy tayyorgarligi ko‘pincha ko‘p komponentli tizim sifatida tavsiflanadi. Ushbu tizim motivatsion, kognitiv, operatsion, kommunikativ, refleksiv va aksiologik komponentlardan tashkil topadi. Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi pedagogning kasbiy moslashuvi, ijodiy faoliyati hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash salohiyatini belgilaydi [15].

So‘nggi yillarda raqamli pedagogika va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi kasbiy tayyorgarlik mazmuniga ham yangi talablarni kiritmoqda. Ilmiy manbalarda pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, media savodxonligi, axborot madaniyati, onlayn kommunikatsiya ko‘nikmalari hamda raqamli ta’lim muhitida ishlash qobiliyati zamonaviy kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida baholanmoqda. Shu sababli, pedagogika yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni rivojlantirish raqamli transformatsiya sharoitida yangi mazmun kasb etmoqda [16].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy tayyorgarlikning samaradorligi talabaning akademik muvaffaqiyati bilan bir qatorda uning psixologik farovonligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, kasbiy motivatsiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa refleksiya, emotsional intellekt va kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada rivojlanganligi pedagoglarning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi hamda ularning pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi [17].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ijtimoiy kapital tushunchasi ham bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Talabaning professor-o‘qituvchilar, kursdoshlar, amaliyot rahbarlari hamda professional hamjamiyat bilan samarali hamkorlik qilishi uning kasbiy tajribasini boyitadi, pedagogik qadriyatlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi va kasbiy identifikatsiyaning barqarorlashuvini ta’minlaydi [18].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati kasbiy tayyorgarlikning alohida komponentlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Biroq pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yagona integrativ tizim sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan kompleks tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Ayniqsa motivatsiya, refleksiya, kasbiy identifikatsiya, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omillarining o‘zaro ta’sir mexanizmlarini aniqlash bugungi ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda .

Shu nuqtai nazardan, pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini kompleks ravishda tadqiq etish, ularning tarkibiy tuzilmasini aniqlash

hamda oliy ta’lim amaliyotiga mos innovatsion modelni ishlab chiqish zamonaviy pedagogik ta’limni takomillashtirishning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi .

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga asoslandi. Tadqiqot davomida kasbiy rivojlanish, kasbiy kompetentlik, motivatsiya, refleksiya, ijtimoiy moslashuv va pedagogik faoliyatga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari qiyosiy tahlil qilinib, nazariy umumlashtirish usulidan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik qismida pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan **84 nafar talaba** ixtiyoriy ravishda ishtirok etdi. Respondentlar turli bosqichlarda tahsil olayotgan talabalar orasidan tasodifiy tanlash usuli asosida jalb qilindi. Tadqiqot ishtirokchilariga ilmiy tadqiqotning maqsadi tushuntirildi hamda anonimlik va maxfiylik tamoyillariga to‘liq rioya qilindi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning shaxsiy ma’lumotlari qayd etilmadi va olingan natijalar faqat ilmiy maqsadlarda qo‘llanildi .

Empirik ma’lumotlarni yig‘ishda psixologik diagnostika, pedagogik kuzatish, anketa-so‘rov, o‘z-o‘zini baholash metodlari hamda yarim tuzilgan suhbatlardan foydalanildi. Kasbiy motivatsiyani aniqlash uchun motivatsion diagnostika elementlari, refleksiv qobiliyatni baholash uchun refleksiya ko‘rsatkichlari, kommunikativ kompetensiyani aniqlash uchun ijtimoiy-kommunikativ faoliyat mezonlari hamda kasbiy identifikatsiyani baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan diagnostik savollar majmuasidan foydalanildi .

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ilmiy adabiyotlar o‘rganildi, tadqiqotning nazariy modeli ishlab chiqildi va diagnostik vositalar tanlab olindi. Ikkinchi bosqichda respondentlardan empirik ma’lumotlar yig‘ildi hamda dastlabki statistik ishlov berish amalga oshirildi. Uchinchi bosqichda esa natijalar umumlashtirildi, statistik tahlil qilindi va kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar ilmiy jihatdan izohlandi .

Olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda **SPSS Statistics** dasturidan foydalanildi. Statistik tahlil jarayonida tavsifiy statistika (o‘rtacha qiymat, standart og‘ish), ishonchlilik tahlili, Pearson korrelyatsiya koeffitsienti hamda Student t-mezoni qo‘llanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi **p≤0,05** mezoni asosida baholandi. Ushbu usullar tadqiqot natijalarining obyektivligi va ishonchliligini ta’minlash imkonini berdi .

1-jadval.

Pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o‘rganish metodologiyasi

Tadqiqot yo‘nalishi	Qo‘llanilgan metod	Baholash mezoni	Statistik usul
Kasbiy motivatsiya	Anketa va motivatsion diagnostika	Motivatsiya darajasi	O‘rtacha qiymat, t-test
Kasbiy identifikatsiya	O‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi	Kasbiy identifikatsiya ko‘rsatkichi	Pearson korrelyatsiyasi
Refleksiv kompetensiya	Refleksiya diagnostikasi	Refleksiya darajasi	O‘rtacha qiymat
Kommunikativ kompetensiya	Psixologik test va kuzatish	Kommunikativ faollik	t-test
Ijtimoiy moslashuv	So‘rovnoma	Moslashuv darajasi	Korrelyatsion tahlil
Kasbiy tayyorgarlikning umumiy darajasi	Integral baholash	Yuqori, o‘rta, past	Kompleks statistik tahlil

Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda validlik va ishonchlilik tamoyillariga alohida e’tibor qaratildi. Diagnostik vositalarning mazmuniy validligi ilmiy ekspertiza orqali tekshirildi, ichki izchillik ko‘rsatkichlari esa statistik tahlil yordamida baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish maqsadida turli metodlarning o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi ma’lumotlarni triangulyatsiya qilish imkonini yaratdi. Bu esa kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yanada aniqroq va kompleks baholashga xizmat qildi .

Mazkur metodologik yondashuv pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy shakllanish jarayonini har tomonlama tahlil qilish, ijtimoiy-psixologik omillarning o‘zaro ta’sirini aniqlash hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli empirik asos yaratadi .

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari kasbiy rivojlanishning asosiy komponentlari o‘rtasida sezilarli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Statistik tahlil natijalari motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, kommunikativ

kompetensiya va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari talabalarning umumiy kasbiy tayyorgarlik darajasiga bevosita ta’sir etishini tasdiqladi. Dastlab respondentlarning kasbiy tayyorgarlik komponentlari bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya va kasbiy motivatsiya nisbatan yuqori shakllangan bo‘lsa, refleksiv faoliyat hamda kasbiy identifikatsiya ko‘rsatkichlari ayrim respondentlarda o‘rtacha darajada ekanligi kuzatildi. Bu holat bo‘lajak pedagoglarda o‘z kasbiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va o‘zini kasbiy jihatdan rivojlantirishga yo‘naltirilgan refleksiv faoliyatni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi .

2-jadval.

Pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarlik komponentlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlari (n=84)

Ko‘rsatkich	O‘rtacha qiymat (M±SD)	Darajasi
Kasbiy motivatsiya	4,31±0,49	Yuqori
Kommunikativ kompetensiya	4,18±0,53	Yuqori
Ijtimoiy moslashuv	4,06±0,56	O‘rtacha-yuqori
Kasbiy identifikatsiya	3,91±0,58	O‘rtacha
Refleksiv kompetensiya	3,79±0,61	O‘rtacha

2-jadval natijalaridan ko‘rinadiki, respondentlarda eng yuqori ko‘rsatkich kasbiy motivatsiya (M=4,31) bo‘yicha qayd etilgan. Mazkur holat pedagogika yo‘nalishi talabalarining tanlagan kasbiga nisbatan ijobiy munosabatini va pedagogik faoliyatni egallashga ichki ehtiyoj mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, refleksiv kompetensiyaning boshqa komponentlarga nisbatan pastroq ko‘rsatkichga ega bo‘lishi talabalarda o‘z kasbiy faoliyatini tanqidiy baholash hamda pedagogik tajribani tahlil qilish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi

Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda alohida komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash maqsadida Pearson korrelyatsion tahlili amalga oshirildi.

3-jadval.

Kasbiy tayyorgarlik komponentlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik

Ko‘rsatkichlar	r	p
Kasbiy motivatsiya – Kasbiy tayyorgarlik	0,71	<0,001
Refleksiya – Kasbiy tayyorgarlik	0,64	<0,001
Kommunikativ kompetensiya – Kasbiy tayyorgarlik	0,68	<0,001
Kasbiy identifikatsiya – Kasbiy tayyorgarlik	0,66	<0,001
Ijtimoiy moslashuv – Kasbiy tayyorgarlik	0,59	<0,01

Korrelyatsion tahlil natijalari barcha komponentlar kasbiy tayyorgarlik bilan musbat va statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Eng yuqori bog‘liqlik kasbiy motivatsiya va umumiy kasbiy tayyorgarlik o‘rtasida kuzatildi (r=0,71; p<0,001). Bu natija ichki motivatsiya kuchaygan sari talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi ham ortishini anglatadi. Kommunikativ kompetensiya (r=0,68) hamda kasbiy identifikatsiya (r=0,66) ham yuqori korrelyatsiyani namoyon etdi. Demak, pedagogik muloqot madaniyati va kasbiy o‘zini anglash darajasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim determinant hisoblanadi .

Keyingi bosqichda respondentlar kasbiy tayyorgarlik darajasi bo‘yicha uch guruhga ajratildi.

4-jadval.

Respondentlarning kasbiy tayyorgarlik darajalari taqsimoti

Daraja	n	%
Yuqori	27	32,1
O‘rta	41	48,8
Past	16	19,1
Jami	**84**	**100,0**

4-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning deyarli yarmi (48,8%) kasbiy tayyorgarlikning o‘rta darajasiga ega ekanligi aniqlandi. Yuqori darajaga ega talabalar ulushi 32,1 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 19,1 foiz respondentlarda kasbiy tayyorgarlikning past darajada ekanligi kuzatildi. Mazkur natijalar oliy ta’lim muassasalarida kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus psixologik-pedagogik dasturlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Student t-mezoni yordamida yuqori va o‘rta kasbiy tayyorgarlikka ega respondentlarning ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslandi.

5-jadval.

Kasbiy tayyorgarlik darajalariga ko‘ra guruhlararo farqlar

Ko‘rsatkich	Yuqori daraja (M±SD)	O‘rta daraja (M±SD)	t	p
Kasbiy motivatsiya	4,62±0,34	4,07±0,47	3,84	<0,001
Kommunikativ kompetensiya	4,46±0,41	3,95±0,50	3,26	0,002
Refleksiv kompetensiya	4,18±0,45	3,56±0,54	3,74	<0,001
Kasbiy identifikatsiya	4,29±0,39	3,73±0,48	3,41	0,001

Tahlil natijalari barcha asosiy komponentlar bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega respondentlar kasbiy motivatsiya, refleksiya, kommunikativ kompetensiya va kasbiy identifikatsiya bo‘yicha sezilarli ustunlikka ega bo‘ldi. Bu esa mazkur psixologik omillar pedagogik kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning asosiy ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi .

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayoni ko‘p omilli tizim ekanligini ko‘rsatdi. Kasbiy motivatsiya, refleksiv faoliyat, kommunikativ kompetensiya, kasbiy identifikatsiya va ijtimoiy moslashuvning uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida mazkur omillarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi .

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish ko‘p komponentli va dinamik jarayon ekanligini tasdiqladi. Olingan empirik ma’lumotlar kasbiy motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, kommunikativ kompetensiya hamda ijtimoiy moslashuv kabi omillar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘zaro uzviy bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalarda ilgari surilgan konseptual yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi .

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim natijalardan biri kasbiy motivatsiya bilan umumiy kasbiy tayyorgarlik o‘rtasidagi yuqori musbat bog‘liqlik bo‘ldi. Bu holat pedagogik faoliyatni ongli ravishda tanlash, kasbga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va o‘zini kelajakdagi pedagog sifatida tasavvur qila olish talabaning kasbiy rivojlanish sur’atini sezilarli darajada tezlashtirishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan motivatsiya nafaqat kasbiy faoliyatni boshlash omili, balki butun kasbiy shakllanish jarayonini boshqaruvchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi .

Natijalarda refleksiv kompetensiyaning boshqa komponentlarga nisbatan nisbatan pastroq rivojlanganligi kuzatildi. Bu esa ayrim talabalarda o‘z pedagogik faoliyatini tanqidiy baholash, kasbiy xatolarni tahlil qilish hamda individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. Zamonaviy pedagogik ta’limda refleksiv faoliyatni rivojlantirish professional o‘sishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, o‘quv mashg‘ulotlariga refleksiv seminarlar, pedagogik portfolio, keys-stadilar va o‘zaro ekspert baholash elementlarini tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir .

Kommunikativ kompetensiyaning yuqori ko‘rsatkichlari pedagogika yo‘nalishi talabalari ta’lim jarayonida jamoaviy faoliyat, amaliy mashg‘ulotlar va pedagogik amaliyotlarda faol ishtirok etayotganligi bilan izohlanishi mumkin. Biroq zamonaviy pedagog faoliyati an’anaviy muloqot bilan cheklanmaydi. Bugungi raqamli ta’lim muhitida pedagoglardan masofaviy kommunikatsiya, media savodxonlik, raqamli pedagogik vositalardan samarali foydalanish hamda ko‘p madaniyatli ta’lim muhitida ishlash kompetensiyalari ham talab etiladi. Shu bois kommunikativ kompetensiyaning mazmuni ham zamonaviy sharoitga mos ravishda kengayib bormoqda .

Kasbiy identifikatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalar talabalarning aksariyatida pedagoglik kasbiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanganligini ko‘rsatdi. Biroq ayrim respondentlarda kasbiy o‘zini anglash darajasining yetarli emasligi kuzatildi. Bu holat oliy ta’limning dastlabki bosqichlarida kasbiy yo‘naltirish, mentorlik, pedagogik amaliyot va kasbiy maslahat xizmatlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki kasbiy identifikatsiya barqarorlashgan sari shaxsning kasbiy mas’uliyati, o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji va pedagogik faoliyat samaradorligi ham ortib boradi .

Tadqiqot natijalari ijtimoiy muhitning ham kasbiy tayyorgarlik shakllanishida muhim omil ekanligini tasdiqladi. Professor-o‘qituvchilar bilan konstruktiv hamkorlik, akademik guruhdagi ijobiy psixologik muhit, pedagogik amaliyot rahbarlarining qo‘llab-quvvatlashi hamda professional muloqot imkoniyatlari talabalar

kasbiy rivojlanishining ijtimoiy asosini tashkil etadi. Mazkur omillar shaxsning pedagogik qadriyatlarni o‘zlashtirishiga, kasbiy tajriba orttirishiga va o‘z kasbiy salohiyatini namoyon etishiga qulay sharoit yaratadi.

Olingan natijalar asosida pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning quyidagi ijtimoiy-psixologik modeli taklif etiladi:

- **Motivatsion komponent** – pedagogik faoliyatga ichki ehtiyojni shakllantirish, kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish va kasbiy maqsadlarni aniqlashtirish.
- **Kognitiv komponent** – zamonaviy pedagogik bilimlar, metodik kompetensiyalar va raqamli texnologiyalarni egallash.
- **Kommunikativ komponent** – samarali muloqot, pedagogik hamkorlik, nizolarni konstruktiv hal qilish hamda ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish.
- **Refleksiv komponent** – o‘z pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.
- **Aksiologik komponent** – pedagogik etika, insonparvarlik, kasbiy mas’uliyat va uzluksiz kasbiy rivojlanishga sodiqlikni shakllantirish .

Mazkur model oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga samarali tatbiq etish hamda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, tadqiqot bitta ta’lim yo‘nalishi talabalari misolida amalga oshirilganligi sababli natijalarni barcha oliy ta’lim muassasalariga umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda turli hududlar, ta’lim yo‘nalishlari va oliy ta’lim muassasalari kesimida qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazish, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikning uzoq muddatli dinamikasini longitudinal yondashuv asosida o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi .

Xulosa. Mazkur tadqiqot pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini nazariy va empirik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlandi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, metodologik yondashuv hamda olingan empirik natijalar asosida kasbiy tayyorgarlikning murakkab, ko‘p komponentli va uzluksiz rivojlanib boruvchi tizim ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari kasbiy kompetentlikning samarali shakllanishi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki motivatsion, refleksiv, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik omillarning uyg‘un rivojlanishi bilan belgilanishini tasdiqladi.

Empirik tahlillar refleksiv kompetensiyaning ayrim respondentlarda nisbatan pastroq rivojlanganligini ko‘rsatdi. Mazkur holat oliy ta’lim jarayonida refleksiv pedagogika texnologiyalarini, o‘z-o‘zini baholash usullarini, pedagogik portfolio, mentorlik dasturlari va amaliy mashg‘ulotlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Refleksiya kasbiy rivojlanishning uzluksizligini ta’minlaydigan hamda pedagogning innovatsion faoliyatga moslashuvini kuchaytiradigan muhim mexanizm hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuningdek, ijtimoiy muhitning pedagogik tayyorgarlikdagi o‘rnini ham tasdiqladi. Professor-o‘qituvchilar bilan samarali hamkorlik, sog‘lom psixologik muhit, pedagogik amaliyotning mazmunli tashkil etilishi hamda professional muloqot imkoniyatlarining kengligi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar talabalar tomonidan pedagogik qadriyatlarni o‘zlashtirish, kasbiy tajriba orttirish va pedagogik faoliyatga moslashish jarayonini jadallashtiradi.

Olingan natijalar asosida pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta’lim muassasalarida kasbiy motivatsiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus trening va seminarlarni tizimli tashkil etish;
- pedagogik amaliyot jarayonida refleksiv tahlil, o‘z-o‘zini baholash va mentorlik mexanizmlarini keng joriy etish;
- kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va loyiha texnologiyalaridan keng foydalanish;
- kasbiy identifikatsiyani shakllantirish maqsadida tajribali pedagoglar bilan uchrashuvlar, master-klasslar va kasbiy konsultatsiyalarni muntazam tashkil etish;
- raqamli pedagogika, sun’iy intellekt vositalari va zamonaviy ta’lim platformalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish;
- ta’lim jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish hamda talabalarning kasbiy moslashuvini monitoring qilib borish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning motivatsion, kommunikativ, refleksiv, aksiologik va ijtimoiy komponentlarini yagona ijtimoiy-psixologik tizim sifatida kompleks tahlil qilinganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, mazkur

komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi empirik ma’lumotlar asosida asoslanib, ularni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy model taklif etildi.

Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish hamda pedagogik ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar pedagogika oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish markazlari hamda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun metodik manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini turli pedagogik yo‘nalishlar, magistratura bosqichi talabalari va yosh pedagoglar misolida qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalarining kasbiy kompetentlik rivojlanishiga ta’sirini chuqur o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2022.
3. Avliyakulov N.X. Pedagogik texnologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 368 b.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 312 b.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2021. – 284 b.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017. – 296 b.
7. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 420 b.
8. Jo‘rayev R.X., Ziyomuhammedov B. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2018. – 340 b.
9. Xasanboyev J., To‘raqulov X. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2021. – 480 b.
10. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 544 b.
11. Nishonova Z.T., Alimuhamedov S.A. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 356 b.
12. Davletshin M.G. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 432 b.
13. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 376 b.
14. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 1997.
15. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986.
16. Super D.E. The Psychology of Careers. – New York: Harper & Brothers, 1957.
17. Holland J.L. Making Vocational Choices. – Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1997.

VOYAGA YETMAGANLARDA DEVIANT XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI ZAMONAVIY PSIXOLOGIK OMILLAR VA ULARNI PROFILAKTIKA QILISH STRATEGIYALARI

Axmedov Farxod Furqatovich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi zamonaviy psixologik omillar hamda ularni profilaktika qilishning ilmiy asoslangan strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, ta’lim muhiti, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining deviant xulq-atvor rivojlanishidagi o‘rni kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirish, psixologik rezilentlikni shakllantirish, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, media savodxonlikni oshirish hamda oila, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligiga asoslangan innovatsion profilaktika strategiyalari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning oldini olish, ularning psixologik farovonligini mustahkamlash hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *voyaga yetmaganlar, deviant xulq-atvor, psixologik omillar, profilaktika, oila, ta’lim muhiti, tengdoshlar ta’siri, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, emotsional intellekt, psixologik rezilentlik, media savodxonlik, psixologik xavfsizlik.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ, И СТРАТЕГИИ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ

В данной статье рассматриваются современные психологические факторы, влияющие на формирование девиантного поведения у несовершеннолетних, а также научно обоснованные стратегии его профилактики. Комплексно анализируется влияние индивидуально-психологических особенностей личности, семейной среды, сверстников, образовательной среды, цифровых технологий, социальных сетей и средств массовой информации на развитие девиантного поведения. Особое внимание уделяется инновационным стратегиям профилактики, включающим развитие эмоционального интеллекта, формирование психологической резильентности, социально-психологическую поддержку, повышение медиаграмотности, а также укрепление взаимодействия семьи, образовательных учреждений и местного сообщества. Полученные результаты направлены на предупреждение девиантного поведения несовершеннолетних, укрепление их психологического благополучия и создание благоприятной социальной среды.

Ключевые слова: *несовершеннолетние, девиантное поведение, психологические факторы, профилактика, семья, образовательная среда, влияние сверстников, цифровые технологии, социальные сети, эмоциональный интеллект, психологическая резильентность, медиаграмотность, психологическая безопасность.*

CONTEMPORARY PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR AMONG MINORS AND STRATEGIES FOR ITS PREVENTION

This article examines the contemporary psychological factors influencing the development of deviant behavior among minors and proposes scientifically grounded strategies for its prevention. The study comprehensively analyzes the role of individual psychological characteristics, family environment, peer influence, educational settings, digital technologies, social media, and mass media in the emergence of deviant behavior. Furthermore, it presents innovative preventive strategies based on the development of emotional intelligence, psychological resilience, social and psychological support, media literacy, and effective collaboration among families, educational institutions, and local communities. The findings contribute to preventing deviant behavior among minors, strengthening their psychological well-being, and promoting a healthy social environment through evidence-based preventive approaches.

Key words: *minors, deviant behavior, psychological factors, prevention, family environment, educational setting, peer influence, digital technologies, social media, emotional intelligence, psychological resilience, media literacy, psychological safety.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida voyaga yetmaganlarning ijtimoiylashuvi, psixologik rivojlanishi hamda xulq-atvorining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi, oilaviy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlari hamda tengdoshlar guruhi ta’sirining kuchayishi natijasida voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning turli ko‘rinishlari tobora murakkablashmoqda. Shu bois deviant xulq-atvorning psixologik determinantlarini aniqlash va ularni ilmiy asoslangan profilaktika strategiyalari orqali bartaraf etish zamonaviy psixologiya, pedagogika va ijtimoiy fanlarning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik davri shaxsning qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlari, emotsional barqarorligi va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadigan eng muhim rivojlanish bosqichidir. Aynan ushbu davrda salbiy psixologik omillar ta’sirining kuchayishi tajovuzkorlik, huquqbuzarlik, internet va qimor o‘yinlariga qaramlik, psixoaktiv moddalarni iste’mol qilishga moyillik, kiberdeviatsiya, maktab intizomini buzish, ijtimoiy me’yorlarni inkor etish kabi deviant xulq-atvor shakllarining yuzaga kelishiga zamin yaratishi mumkin. Shu sababli deviant xulq-atvorni faqat uning tashqi namoyon bo‘lishi orqali emas, balki uni yuzaga keltiruvchi psixologik, oilaviy, pedagogik va ijtimoiy omillar tizimi orqali o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorning shakllanishida individual psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda oiladagi emotsional muhit, ota-onalik uslubi, tengdoshlar bosimi, maktabdagi psixologik iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit hamda raqamli axborot makonining ta’siri ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent, destruktiv guruhlar, virtual manipulyatsiyalar va kiberbulling holatlarining ortishi voyaga yetmaganlarning psixologik holatiga bevosita ta’sir etmoqda. Bu esa profilaktika ishlarini an’anaviy yondashuvlardan zamonaviy, innovatsion va kompleks strategiyalar asosida tashkil etishni taqozo etadi [1].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning rolini kuchaytirish, oilalar bilan tizimli ishlash, voyaga yetmaganlar o‘rtasida profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish hamda zamonaviy psixodiagnostik vositalardan foydalanish ushbu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Biroq jamiyatdagi ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlarning tez sur’atlarda kechayotgani mavjud profilaktika tizimlarini muntazam takomillashtirishni talab qilmoqda [2].

Mazkur tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi zamonaviy psixologik omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularni profilaktika qilishning innovatsion strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvor muammosi psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, kriminologiya va ijtimoiy ish yo‘nalishlarida keng o‘rganilgan murakkab ilmiy masalalardan biridir. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorning shakllanishi biologik, psixologik, oilaviy, pedagogik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. So‘nggi yillarda esa raqamli texnologiyalar va virtual kommunikatsiya muhitining jadal rivojlanishi ushbu omillar tizimiga yangi psixologik determinantlarni qo‘shdi.

Deviant xulq-atvorning psixologik asoslarini izohlashda Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi muhim o‘rin egallaydi. Olimning fikriga ko‘ra, bolalar va o‘smirlar xulq-atvorning ko‘plab shakllarini kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash mexanizmlari orqali egallaydilar. Tajovuzkor yoki antisotsial xatti-harakatlarning oilada, tengdoshlar guruhida yoki ommaviy axborot vositalarida muntazam namoyon bo‘lishi voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanish ehtimolini oshiradi. Ushbu yondashuv zamonaviy raqamli muhit sharoitida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda [3].

John Bowlbyning bog‘lanish (attachment) nazariyasiga ko‘ra, bolaning ota-onasi yoki unga g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxs bilan shakllangan emotsional munosabatlari keyingi ijtimoiy va psixologik rivojlanishning asosini tashkil etadi. Barqaror emotsional bog‘lanishning buzilishi, ota-onalarning befarqligi yoki oiladagi ziddiyatli muhit voyaga yetmaganlarda emotsional beqarorlik, tajovuzkorlik va ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqishga moyillikni kuchaytiradi.

Aaron Beckning kognitiv nazariyasi deviant xulq-atvorning shakllanishida shaxsning noto‘g‘ri fikrlash sxemalari va salbiy kognitiv ustanovkalari muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, voqelikni buzib idrok etish, o‘ziga va boshqalarga nisbatan salbiy qarashlar hamda muammolarni konstruktiv hal eta olmaslik xulq-atvordagi og‘ishlarning kuchayishiga olib keladi [6].

Oilaviy omillarning ta’sirini o‘rganishda Gerald Patterson tomonidan ishlab chiqilgan majburlash (coercion) nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, oiladagi doimiy nizolar, qattiq jazolash, izchil

bo‘lmagan tarbiya uslublari va ota-onalar nazoratining sustligi voyaga yetmaganlarda agressiv hamda deviant xulq-atvorni shakllantiruvchi muhim omillardan biridir.

Terrie E. Moffittning rivojlanish nazariyasida deviant xulq-atvorning ikki asosiy turi – o‘smirlik davriga xos vaqtinchalik deviatsiya va butun hayot davomida saqlanib qoluvchi barqaror deviant xulq-atvor farqlanadi. Mazkur yondashuv profilaktika ishlarini yosh va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kriminologiya sohasida Robert Agnewning umumiy zo‘riqish (General Strain Theory) nazariyasi hamda Edwin Sutherlandning differensial assotsiatsiya nazariyasi deviant xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tushuntirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyalarga ko‘ra, salbiy hayotiy tajribalar, ijtimoiy tengsizlik, stress, tengdoshlar bosimi va salbiy ijtimoiy muhit deviant xulq-atvorning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotchilar deviant xulq-atvorni raqamli muhit bilan bog‘liq holda ham o‘rganmoqdalar. Sonia Livingstone bolalarning internetdan foydalanish madaniyati va onlayn xavflarini tahlil qilib, kiberbulling, virtual zo‘ravonlik va zararli kontentning psixologik oqibatlarini yoritadi. Sameer Hinduja va Justin W. Patchin tadqiqotlarida esa kiberbullingning depressiya, tashvish, ijtimoiy izolyatsiya va antisotsial xulq-atvor bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslangan [9].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham voyaga yetmaganlar tarbiyasi, psixologik rivojlanishi va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan oila institutining tarbiyaviy salohiyatini oshirish, maktab psixologik xizmatini takomillashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish deviant xulq-atvor profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli muhit, sun’iy intellekt texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta’siri va ularning profilaktikadagi imkoniyatlarini kompleks yorituvchi tadqiqotlar hali yetarli emas.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda deviant xulq-atvorning individual psixologik, oilaviy yoki ijtimoiy omillari alohida yo‘nalishlarda chuqur tadqiq etilgan. Biroq ushbu omillarni raqamli muhit, media ta’siri, psixologik rezilentlik, emotsional intellekt va zamonaviy profilaktika texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o‘rganuvchi kompleks ilmiy yondashuvlar cheklangan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning o‘ziga xosligi deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi zamonaviy psixologik omillarni yagona tizim sifatida tahlil qilish hamda diagnostik, preventiv, korreksion va reabilitatsion yo‘nalishlarni o‘zida mujassamlashtirgan integrallashgan psixologik profilaktika strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan. Taklif etilgan konseptual yondashuv nafaqat xavf omillarini erta aniqlash, balki ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy mexanizmlarni ham nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini rivojlanish psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya hamda deviant xulq-atvor psixologiyasi sohasida yaratilgan zamonaviy ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks o‘rganish maqsadida tizimli, integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Metodologik asos sifatida Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi muhim o‘rin tutdi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, shaxsning xulq-atvori kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy mustahkamlash jarayonlari orqali shakllanadi. Ushbu yondashuv voyaga yetmaganlarda oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning deviant xulq-atvorga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

John Bowlbyning bog‘lanish nazariyasi tadqiqotning metodologik asoslaridan biri sifatida qo‘llanildi. Ushbu nazariyaga muvofiq, bolaning ota-onasi yoki unga g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxs bilan shakllangan emotsional munosabatlari uning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli oilaviy munosabatlarning sifati deviant xulq-atvorning profilaktikasida asosiy omillardan biri sifatida baholandi.

Shuningdek, Aaron Beckning kognitiv nazariyasi asosida voyaga yetmaganlarning salbiy fikrlash stereotiplari, emotsional buzilishlari va moslashuvchan bo‘lmagan xulq-atvor reaksiyalari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv psixologik korreksiya va profilaktika dasturlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Oilaviy tarbiya va xulq-atvorning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishda Gerald Pattersonning majburlash (coercion) nazariyasi, rivojlanish dinamikasini tahlil qilishda esa Terrie E. Moffittning rivojlanishga asoslangan deviant xulq-atvor modeli metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. Mazkur yondashuvlar deviant xulq-atvorning shakllanish jarayonini yosh xususiyatlari va tarbiyaviy omillar bilan bog‘liq holda baholash imkonini berdi.

Raqamli muhitning psixologik ta’sirini o‘rganishda Sonia Livingstone, Sameer Hinduja va Justin W. Patchinning ilmiy qarashlari metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Ularning tadqiqotlari kiberbulling, virtual muloqot, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli muhitning voyaga yetmaganlar psixologiyasiga ta’sirini tizimli tahlil qilish imkonini yaratdi.

Tadqiqot davomida ilmiy xolislik, tizimlilik, komplekslik, qiyosiy tahlil va dalillarga asoslangan ilmiy yondashuv tamoyillariga qat’iy amal qilindi. Deviant xulq-atvor alohida hodisa sifatida emas, balki biologik, psixologik, oilaviy, pedagogik, ijtimoiy va raqamli omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi murakkab tizim sifatida talqin qilindi.

1-jadval.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodi	Qo‘llanilish maqsadi	Kutilayotgan ilmiy natija
Ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish	Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni o‘rganish	Muammoning nazariy asoslarini aniqlash
Tizimli tahlil	Deviant xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillarni kompleks baholash	Psixologik omillar tizimini aniqlash
Analiz va sintez	Turli nazariy yondashuvlarni umumlashtirish	Integrallashgan profilaktika modelini ishlab chiqish
Taqqoslash metodi	Xalqaro va milliy tajribalarni qiyosiy o‘rganish	Samarali profilaktika strategiyalarini aniqlash
Modellashtirish	Psixologik profilaktika strategiyasini ishlab chiqish	Mualliflik konseptual modeli yaratish
Mantiqiy tahlil	Olingan natijalarni ilmiy izohlash	Ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni asoslash

Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni tizimli ravishda aniqlash va ularni profilaktika qilishning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqish imkonini berdi. Ayniqsa, modellashtirish metodidan foydalanish orqali individual-psixologik, oilaviy, pedagogik, ijtimoiy va raqamli omillarni yagona tizimga birlashtiruvchi integrallashgan psixologik profilaktika modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi natijalarning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqilgan profilaktika strategiyalarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, psixologik xizmatlar, mahalla institutlari hamda voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi boshqa tashkilotlar faoliyatiga amaliy jihatdan tatbiq etish imkonini beradi. Shu jihatdan tanlangan metodologik yondashuv tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi birgina omil bilan emas, balki individual-psixologik, oilaviy, pedagogik, ijtimoiy va raqamli omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Zamonaviy sharoitda, ayniqsa, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiya muhiti deviant xulq-atvorning yangi ko‘rinishlarini shakllantiruvchi muhim determinantlardan biriga aylangan.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar asosida deviant xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi asosiy psixologik omillar quyidagicha tizimlashtirildi.

2-jadval.

Deviant xulq-atvorning zamonaviy psixologik determinantlari

Omillar guruhi	Asosiy ko‘rinishlari
Individual-psixologik	Past o‘zini nazorat qilish, impulsivlik, emotsional beqarorlik, past o‘zini baholash
Oilaviy	Nizoli muhit, nazoratning sustligi, befarqlik, noto‘g‘ri tarbiya uslublari
Pedagogik	Maktabdagi salbiy psixologik iqlim, motivatsiyaning pasayishi, pedagogik e’tiborsizlik
Ijtimoiy	Tengdoshlar bosimi, ijtimoiy tengsizlik, stress va frustratsiya
Raqamli	Kiberbulling, zararli kontent, virtual manipulyatsiya, internet qaramligi

Jadvaldan ko‘rinadiki, deviant xulq-atvorning shakllanishida raqamli omillar an’anaviy psixologik va ijtimoiy omillar bilan bir qatorda muhim o‘rin egallamoqda. Bu esa profilaktika ishlarini yangi sharoitlarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

3-jadval.

Psixologik omillar va deviant xulq-atvor koʻrinishlari oʻrtasidagi bogʻliqlik

Psixologik omil	Kuzatiladigan deviant xulq-atvor
Emotsional beqarorlik	Tajovuzkorlik, konfliktga moyillik
Past oʻzini baholash	Ijtimoiy chekinish, destruktiv guruhlarga qoʻshilish
Impulsivlik	Huquqbuzarlik, xavfli xatti-harakatlar
Internet qaramligi	Oʻquv motivatsiyasining pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya
Kiberbulling ta’siri	Depressiv holatlar, antisotsial reaksiyalar

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, emotsional beqarorlik va past oʻzini baholash boshqa xavf omillarini kuchaytiruvchi “asosiy psixologik trigger” vazifasini bajaradi.

4-jadval.

Profilaktika strategiyalarining yoʻnalishlari

Strategiya	Asosiy mazmuni
Diagnostik	Xavf guruhidagi oʻsmirlarni erta aniqlash
Preventiv	Media savodxonlik va psixologik treninglar
Korreksion	Individual va guruhiy psixologik maslahatlar
Reabilitatsion	Ijtimoiy moslashuv va qoʻllab-quvvatlash dasturlari
Institutsional	Oila–maktab–mahalla–psixolog hamkorligi

Mazkur strategiyalar birgalikda qoʻllanilganda profilaktika samaradorligi sezilarli darajada oshishi aniqlandi.

Mualliflik modeli: Integrallashgan psixologik profilaktika tizimi
Integrallashgan psixologik profilaktika modeli
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan koʻp bosqichli tizim
Mualliflik yondashuvi
Diagnostika
Psixologik skrining va xavf guruhini aniqlash
Profilaktika
Media savodxonlik va rezilentlik treninglari
Korreksiya
Individual va guruhiy psixologik yordam
Reabilitatsiya
Ijtimoiy moslashuv va qoʻllab-quvvatlash
Hamkorlik
Oila–maktab–mahalla–psixolog integratsiyasi
Kutilayotgan natija
Psixologik barqarorlik • Ijtimoiy moslashuv • Deviant xulq-atvorning kamayishi

5-jadval.

Innovatsion profilaktika mexanizmlarining samaradorlik koʻrsatkichlari

Mexanizm	Kutilayotgan ta’sir
Emotsional intellekt treninglari	Tajovuzkorlik va impulsivlikning kamayishi
Rezilentlik dasturlari	Stressga chidamlilikning ortishi
Media savodxonlik kurslari	Manipulyativ ta’sirlarga qarshilikning kuchayishi
Raqamli monitoring tizimlari	Xavfli xatti-harakatlarni erta aniqlash
Ota-onalar uchun treninglar	Oilaviy nazorat va muloqotning yaxshilanishi

Shunday qilib, tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorni kamaytirishda individual psixologik yondashuvni oilaviy, pedagogik va raqamli profilaktika mexanizmlari bilan integratsiyalash eng samarali strategiya ekanligini koʻrsatdi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi koʻp omilli va dinamik jarayon ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, zamonaviy sharoitda deviant xulq-atvorni faqat individual psixologik xususiyatlar bilan izohlash yetarli emas. Aksincha, shaxsning emotsional rivojlanishi, oiladagi tarbiya muhiti, ta’lim muassasasining psixologik iqlimi, tengdoshlar guruhi ta’siri hamda raqamli axborot makonining oʻzaro uygʻun ta’siri mazkur jarayonning asosiy determinantlari hisoblanadi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari deviant xulq-atvorni kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baholovchi zamonaviy ilmiy yondashuvlarni qoʻllab-quvvatlaydi.

Olingan natijalar Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Bandura xulq-atvorning shakllanishida kuzatish va taqlid mexanizmlarining hal qiluvchi rolini ta’kidlagan. Tadqiqot davomida ham voyaga yetmaganlarning tajovuzkor yoki me’yordan og‘uvchi xatti-harakatlari ko‘pincha oilada, tengdoshlar guruhida va raqamli makonda kuzatilayotgan xulq-atvor namunalarini takrorlash natijasida shakllanishi aniqlandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent, destruktiv guruhlar va virtual muloqotdagi salbiy namunalarning ta’siri ushbu nazariyaning bugungi sharoitdagi dolzarbligini tasdiqlaydi.

John Bowlbyning bog‘lanish nazariyasi nuqtayi nazaridan ham tadqiqot natijalari muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tahlillar oiladagi emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi ishonchli muloqotning sustligi hamda tarbiyadagi izchillikning buzilishi voyaga yetmaganlarning emotsional beqarorligi va deviant xulq-atvor ehtimolini oshirishini ko‘rsatdi. Bu esa profilaktika ishlarida oilani asosiy ijtimoiy institut sifatida mustahkamlash zarurligini anglatadi.

Aaron Beckning kognitiv nazariyasiga muvofiq, shaxsning voqelikni noto‘g‘ri idrok etishi va salbiy fikrlash sxemalari xulq-atvordagi og‘ishlarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mazkur tadqiqotda ham past o‘zini baholash, salbiy “Men” konsepsiyasi, frustratsiyaga past bardoshlilik va muammolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarining yetishmasligi deviant xulq-atvorning muhim psixologik determinantlari sifatida aniqlandi. Shu sababli psixologik korreksiya dasturlarida kognitiv-behavioral yondashuv elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari Terrie E. Moffittning rivojlanish nazariyasini ham to‘ldiradi. Moffitt deviant xulq-atvorning ayrim ko‘rinishlari o‘smirlik davriga xos vaqtinchalik hodisa bo‘lsa, ayrimlari esa uzoq muddat davom etuvchi barqaror xususiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xavf omillarini erta aniqlash va psixologik profilaktikani o‘z vaqtida tashkil etish vaqtinchalik og‘ishlarning barqaror deviant xulq-atvorga aylanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Raqamli muhitning ta’siri bo‘yicha olingan natijalar Sonia Livingstone, Sameer Hinduja va Justin W. Patchinning ilmiy qarashlari bilan hamohangdir. Xususan, kiberbulling, virtual zo‘ravonlik, internet qaramligi va manipulyativ media kontent voyaga yetmaganlarning psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotning o‘ziga xos jihati shundaki, raqamli omillar deviant xulq-atvorning mustaqil sababi sifatida emas, balki individual va ijtimoiy omillar bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi tizimli determinant sifatida talqin qilindi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda deviant xulq-atvorning zamonaviy psixologik determinantlari individual, oilaviy, pedagogik, ijtimoiy va raqamli komponentlar kesimida yagona konseptual tizimga birlashtirildi. Shuningdek, diagnostika, profilaktika, korreksiya va reabilitatsiya bosqichlarini o‘z ichiga olgan integrallashgan psixologik profilaktika modeli taklif qilindi. Mazkur model mavjud nazariy yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatini kengaytiradi.

Taklif etilgan modelning asosiy afzalligi uning ko‘p darajali va moslashuvchan tuzilishga ega ekanligidir. Model turli yosh bosqichlarida, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari hamda mahalla tizimida qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, model psixologlar, pedagoglar, ijtimoiy pedagoglar, profilaktika inspektorlari va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham qayd etish lozim. Mazkur ish asosan nazariy tahlil va konseptual modellashtirishga asoslanganligi sababli, taklif etilgan profilaktika modelining samaradorligini turli hududlar va yosh guruhlari kesimida empirik tadqiqotlar orqali sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Kelgusidagi tadqiqotlarda psixologik diagnostika natijalarini statistik usullar yordamida tahlil qilish, eksperimental dasturlarni joriy etish hamda sun’iy intellekt asosidagi psixologik monitoring tizimlaridan foydalanish istiqbolli yo‘nalishlar sifatida qaralishi mumkin.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning oldini olish faqat huquqbuzarlik sodir bo‘lgandan keyingi choralar bilan emas, balki erta diagnostika, psixologik profilaktika, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va sog‘lom raqamli muhitni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz tizim orqali amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Xulosa va amaliy tavsiyalar. Mazkur tadqiqotda voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi zamonaviy psixologik omillar kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilindi hamda ularni profilaktika qilishning innovatsion strategiyalari ishlab chiqildi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar va ilmiy umumlashtirishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvor biologik, individual-psixologik, oilaviy, pedagogik, ijtimoiy va raqamli omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab psixologik

hodisa hisoblanadi. Ushbu omillarning birortasini alohida baholash muammoning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu sababli deviant xulq-atvorni tizimli va integrallashgan yondashuv asosida o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Ikkinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi voyaga yetmaganlarning psixologik rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, ular bilim olish, muloqot va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, kiberbulling, internet qaramligi, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent, virtual manipulyatsiya va destruktiv guruhlar orqali deviant xulq-atvorning shakllanish xavfini oshirmoqda.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari oilaviy muhit voyaga yetmaganlar xulq-atvorini shakllantirishdagi eng muhim psixologik omillardan biri ekanligini tasdiqladi. Ota-onalarning farzand bilan ochiq muloqoti, emotsional qo‘llab-quvvatlashi, izchil tarbiya uslubi va nazoratning oqilona tashkil etilishi deviant xulq-atvorning oldini olishda muhim himoya omili hisoblanadi.

To‘rtinchidan, ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish, maktab psixologlari faoliyatini takomillashtirish, pedagoglarning psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish va ijtimoiy-emotsional ta’lim elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish profilaktika samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Beshinchidan, mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrallashgan psixologik profilaktika modeli diagnostika, preventsiya, korreksiya va reabilitatsiya bosqichlarini yagona tizim sifatida birlashtirishi bilan ilmiy yangilik kasb etadi. Mazkur model psixologik xavf omillarini erta aniqlash, individual yondashuvni ta’minlash va manfaatdor subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, emotsional intellekt, psixologik rezilentlik, kommunikativ kompetensiyalar va media savodxonlikni rivojlantirish voyaga yetmaganlarning salbiy tashqi ta’sirlarga bardoshliligini oshiruvchi muhim psixologik resurslar hisoblanadi. Shu sababli ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar profilaktik ishlarning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ–139-son “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Amaldagi tahrir.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ–547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Qayta ishlangan nashr. – Toshkent, 2020.
7. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
8. Nishonova Z.T., Alimuhamedov S.A. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
9. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent, 2021.
10. Vohidov M.V. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
11. Bandura, A. Social Learning Theory. New York: General Learning Press.
12. Bandura, A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
13. Bowlby, J. Attachment and Loss. Vol. 1. Basic Books.

TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK QADRIYATLAR VA AKADEMIK ETIKAGA ASOSLANGAN KONSEPTUAL YONDASHUV

Baltayeva Nodira Timur qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
baltayevanadira19@gmail.com

Mazkur maqolada ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuvning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda pedagogik qadriyatlar, akademik etika va insonparvar pedagogika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanib, ularning ta’lim sifatini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Olingan natijalar asosida ta’lim jarayonida pedagogik qadriyatlar va akademik etikani integratsiyalashning konseptual modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik qadriyatlar, akademik etika, insonparvar pedagogika, ta’lim sifati, konseptual yondashuv, oliy ta’lim, sun’iy intellekt.*

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД, ОСНОВАННЫЙ НА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЯХ И АКАДЕМИЧЕСКОЙ ЭТИКЕ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы концептуального подхода, основанного на педагогических ценностях и академической этике в условиях модернизации системы образования. В исследовании выявлена взаимосвязь между педагогическими ценностями, академической этикой и гуманистической педагогикой, а также раскрыта их роль в обеспечении качества образования. На основе полученных результатов предложена концептуальная модель интеграции педагогических ценностей и академической этики в образовательный процесс.

Ключевые слова: *педагогические ценности, академическая этика, гуманистическая педагогика, качество образования, концептуальный подход, высшее образование, искусственный интеллект.*

A CONCEPTUAL APPROACH BASED ON PEDAGOGICAL VALUES AND ACADEMIC ETHICS IN THE EDUCATION SYSTEM

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of a conceptual approach based on pedagogical values and academic ethics in the context of educational system modernization. The study identifies the interrelationship between pedagogical values, academic ethics, and humanistic pedagogy, highlighting their significance in ensuring educational quality. Based on the research findings, a conceptual model for integrating pedagogical values and academic ethics into the educational process is proposed.

Keywords: *pedagogical values, academic ethics, humanistic pedagogy, educational quality, conceptual approach, higher education, artificial intelligence.*

Kirish. Dunyo ta’lim tizimida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar ta’lim sifatini ta’minlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida akademik halollik, pedagogik qadriyatlar va kasbiy etika masalalari ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Akademik etika nafaqat ta’lim natijalarining ishonchliligini, balki bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga jadal kirib kelishi pedagogik qadriyatlar va akademik etikani yangi sharoitlarda qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Mazkur holat ta’lim tizimida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuvni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuvning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda ta’lim sifatiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda tizimli yondashuv, aksiologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot bosqichlari:

– pedagogik qadriyatlar va akademik etika bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

– milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish;

– konseptual model komponentlarini aniqlash;

– modelning ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyatini ekspertlar baholashi asosida tahlil qilish.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogik aksiologiya, insonparvar pedagogika va akademik etika konsepsiyalari tashkil etdi.

Natijalar. Tadqiqot davomida ta’lim tizimida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuvning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinib, uning tarkibiy komponentlari, funksional bog‘liqliklari hamda ta’lim sifatiga ta’siri aniqlandi. Ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda pedagogik tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahlili asosida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda ahamiyati tizimlashtirildi.

Tahlillar natijasida pedagogik qadriyatlar zamonaviy ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy poydevorini tashkil etishi, akademik etika esa ushbu qadriyatlarning amaliy faoliyatdagi ifodasi ekanligi aniqlandi. Pedagogik qadriyatlar o‘qituvchi va talaba faoliyatini maqsadli tashkil etishga xizmat qiladigan insonparvarlik, adolat, mas’uliyat, kasbiy burch, hamkorlik va hurmat kabi tamoyillar majmuasi sifatida tavsiflandi. Akademik etika esa ilmiy va ta’limiy faoliyatda halollik, shaffoflik, obyektivlik, mualliflik huquqlariga hurmat hamda intellektual mulk daxlsizligini ta’minlovchi me’yorlar tizimi sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijasida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuvning to‘rtta asosiy komponenti aniqlashtirildi. Birinchi komponent – qadriyatli-maqsadli komponent bo‘lib, u ta’lim jarayonining strategik maqsadlari, pedagogik qadriyatlar tizimi hamda kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi komponent – akademik-etik komponent bo‘lib, akademik halollik, ilmiy mas’uliyat, plagiatga qarshi kurashish va mualliflik huquqlariga rioya qilish kabi ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Uchinchi komponent – kasbiy-faoliyat komponenti bo‘lib, pedagogik kompetentlik, refleksiv faoliyat, raqamli savodxonlik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini ifodalaydi. To‘rtinchi komponent esa natijaviy komponent bo‘lib, ta’lim sifati, akademik madaniyat, kasbiy kompetentlik va ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanish darajasini tavsiflaydi.

O‘tkazilgan tahlillar pedagogik qadriyatlar va akademik etika o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Pedagogik qadriyatlar rivojlangan ta’lim muhitida akademik halollik tamoyillariga rioya qilish darajasi yuqori bo‘lishi aniqlandi. Bunday sharoitda talabalar mustaqil ta’lim olish, tanqidiy fikrlash, ilmiy izlanish olib borish va kasbiy mas’uliyatni anglash kabi muhim kompetensiyalarni samarali egallaydi. Shu bilan birga, akademik etika talablariga qat’iy amal qilinadigan muassasalarda ta’lim natijalarining ishonchliligi va sifat ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lishi kuzatildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual model ishlab chiqildi. Mazkur model pedagogik qadriyatlar, akademik etika, insonparvar pedagogika va ta’lim sifati o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aks ettiradi. Modelga ko‘ra, pedagogik qadriyatlar akademik etikaning shakllanishiga asos yaratadi, akademik etika esa insonparvar pedagogik muhitning rivojlanishini ta’minlaydi. Natijada ta’lim sifati, kasbiy kompetentlik va akademik madaniyatning rivojlanishiga erishiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida zamonaviy ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarining keng qo‘llanilishi pedagogik qadriyatlar va akademik etika mazmuniga yangi talablarni yuzaga keltirishi aniqlandi. Sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quv faoliyatini individuallashtirish va bilimlarni tezkor tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, akademik halollikni ta’minlash masalasini ham dolzarblashtirmoqda. Shu sababli konseptual model tarkibiga sun’iy intellekt etikasi elementlarini integratsiyalash zarurligi asoslandi.

Tahlil natijalari asosida pedagogik qadriyatlar va akademik etikani rivojlantirishning bosqichma-bosqich mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu mexanizm qadriyatlarni shakllantirish, akademik etika kompetensiyalarini rivojlantirish, sun’iy intellekt etikasi ko‘nikmalarini hosil qilish va natijalarni monitoring qilish bosqichlaridan iborat. Mazkur mexanizmning joriy etilishi ta’lim jarayonida akademik madaniyatni mustahkamlash, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda talabalarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuv ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining insonparvarlik xarakterini kuchaytirish, akademik halollik tamoyillarini qaror toptirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan mas’uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida ta’lim tizimida pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuvning nazariy modeli takomillashtirildi hamda uni oliy ta’lim muassasalari amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar ta’lim sifatini oshirish, akademik madaniyatni rivojlantirish va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Muhokama. Tadqiqot natijalari pedagogik qadriyatlar va akademik etikaning zamonaviy ta’lim tizimida nafaqat tarbiyaviy, balki strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, ta’lim sifati ko‘p jihatdan pedagogik faoliyatning qadriyatli asoslari va akademik muhitning etik me’yorlariga bog‘liq. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarining keng qo‘llanilishi sharoitida pedagogik qadriyatlar hamda akademik etika ta’lim jarayonining barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlangan konseptual model pedagogik qadriyatlar, akademik etika va insonparvar pedagogika o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini izohlash imkonini berdi. Modelga ko‘ra, pedagogik qadriyatlar akademik etikaning shakllanishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida, akademik etika tamoyillari ta’lim jarayonida insonparvar pedagogik muhitni yaratishga yordam beradi. Natijada talabalarning kasbiy kompetentligi, refleksiv fikrlashi, mustaqil ta’lim olish qobiliyati va akademik mas’uliyati rivojlanadi.

Pedagogik qadriyatlar tizimi tarkibiga kiruvchi insonparvarlik, adolat, mas’uliyat, hamkorlik va kasbiy burch kabi omillar pedagogik faoliyatning mazmunini belgilaydi. Mazkur qadriyatlar ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarni demokratlashtirishga, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik qadriyatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan ta’lim muassasalarida akademik intizom, o‘quv motivatsiyasi va ta’lim natijalari ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi.

Akademik etika esa pedagogik qadriyatlarning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Akademik halollik, ilmiy obyektivlik, mualliflik huquqlariga hurmat, plagiatdan voz kechish va ta’lim natijalarini baholashdagi shaffoflik akademik etikaning asosiy mezonlari hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimida ushbu tamoyillarga amal qilinishi talabalarda ilmiy madaniyatni shakllantirish, mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt vositalarining keng tarqalishi akademik etika masalasini yanada dolzarb holatga keltirdi. ChatGPT, Gemini, Copilot va boshqa sun’iy intellekt tizimlari ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ushbu texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish akademik halollikning buzilishi, intellektual mulk huquqlarining poymol qilinishi hamda talabalarning mustaqil fikrlash faoliyatining pasayishi kabi xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli tadqiqotda akademik etika va sun’iy intellekt etikasi o‘zaro integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish samaradorligi talabalarning akademik etika darajasi bilan bevosita bog‘liq. Akademik halollik tamoyillarini anglagan talabalar sun’iy intellektni bilim olish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qo‘llaydi. Aksincha, akademik etikaga oid kompetensiyalar yetarli darajada shakllanmagan holatlarda sun’iy intellekt vositalaridan tayyor javoblarni ko‘chirish yoki mustaqil faoliyatni chetlab o‘tish maqsadida foydalanish holatlari kuzatilishi mumkin.

Muhokama natijalari pedagogik qadriyatlar va akademik etika o‘rtasida kuchli korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini ham ko‘rsatdi. Pedagogik qadriyatlar rivojlangan sari akademik halollik darajasi ham oshib boradi. Bu esa ta’lim sifatining yaxshilanishi, talabalarning kasbiy identifikatsiyasi shakllanishi va bo‘lajak pedagoglarning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogika yo‘nalishi talabalarida ushbu sifatlarning rivojlanishi kelajakda ular faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalarida sog‘lom akademik muhit shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil natijalari ham olingan xulosalarning ilmiy asoslanganligini tasdiqladi. Xususan, akademik integritet, etik ta’lim va insonparvar pedagogika bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ta’lim sifati hamda akademik madaniyatning rivojlanishi pedagogik qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi qayd etilgan. Ushbu tadqiqot natijalari ham mazkur ilmiy qarashlarni to‘ldirib, pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuvning zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llanilishi zarurligini asoslab berdi. Shuningdek, tadqiqot davomida pedagogik qadriyatlar va akademik etikani rivojlantirishning uzluksiz mexanizmi taklif qilindi. Mazkur mexanizm qadriyatlarni shakllantirish, akademik etika ko‘nikmalarini rivojlantirish, sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha kompetensiyalarni hosil qilish va refleksiv monitoring bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv ta’lim muassasalarida akademik madaniyatni tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuv zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishning muhim nazariy-metodologik asosi ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuvning amaliyotga joriy etilishi pedagogik faoliyat sifatini oshirish, akademik halollik madaniyatini rivojlantirish, sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanishni ta’minlash hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Pedagogik qadriyatlar va akademik etikaga asoslangan konseptual yondashuv zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan konseptual model pedagogik qadriyatlar, akademik etika va insonparvar pedagogika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berdi.

Mazkur yondashuvni ta’lim amaliyotiga joriy etish:
akademik halollikni mustahkamlash;
pedagogik madaniyatni rivojlantirish;
ta’lim sifatini oshirish;
bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Bertram Gallant T. Academic Integrity in the Twenty-First Century. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017.
2. Bretag T. Handbook of Academic Integrity. – Singapore: Springer, 2016.
3. Macfarlane B., Zhang J., Pun A. Academic integrity: a review of the literature. – Studies in Higher Education, 2014. – Vol. 39(2). – P.339–358.
4. Holmes W., Tuomi I., Cukurova M. Ethics of AI in Education. – London: UNESCO, 2022.
5. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

TA’LIM SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TAJRIBALARNI O‘RGANISH VA TATBIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nazarov Erkin Sodiqovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
texnika fanlari nomzodi
Boboyev Maqsud Mahmudovich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil
tadqiqotchisi (PhD)

Maqolada ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish va ommalashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Unda zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda pedagogik faoliyatda qo‘llanilayotgan samarali metod va yondashuvlarning ahamiyati, ularni aniqlash, baholash hamda ta’lim amaliyotiga tatbiq etish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, ilg‘or tajribalarni umumlashtirish orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va innovatsion pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada o‘qituvchilarning ish tajribalarining 2 yillik tahlillar keltirilgan bo‘lib, ta’lim tizimini takomillashtirishdagi o‘rni ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *metodik ish, metodik tavsiya, metodik qo‘llanma, ilg‘or pedagogik tajriba.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ И ВНЕДРЕНИЯ ПЕРЕДОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРАКТИКОВ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

В статье рассматриваются научно-педагогические основы изучения, анализа и популяризации передового опыта работы учителей в целях повышения эффективности образовательного процесса. Анализируется важность эффективных методов и подходов, используемых в педагогической деятельности в соответствии с требованиями современного образования, процессы их выявления, оценки и внедрения в образовательную практику. Также особое внимание уделяется вопросам развития профессиональной компетентности учителей, повышения качества образования и поддержки инновационной педагогической деятельности путём обобщения передового опыта. В статье представлен двухлетний анализ опыта работы учителей и раскрывается их роль в научном совершенствовании системы образования.

Ключевые слова: *методическая работа, методические рекомендации, методическое пособие, передовой педагогический опыт.*

THEORETICAL BASIS OF STUDYING AND IMPLEMENTING ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN ENSURING EDUCATIONAL EFFICIENCY

The article covers the scientific and pedagogical foundations of studying, analyzing and popularizing advanced work experiences of teachers in improving the effectiveness of the educational process. It analyzes the importance of effective methods and approaches used in pedagogical activities in accordance with the requirements of modern education, the processes of their identification, evaluation and implementation in educational practice. Also, special attention is paid to the issues of developing the professional competence of teachers, improving the quality of education and supporting innovative pedagogical activities by generalizing advanced experiences. The article presents a 2-year analysis of teachers’ work experiences and reveals their role in improving the education system on a scientific basis

Keywords: *methodical work, methodical recommendation, methodical manual, advanced pedagogical experience.*

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim sifatini yanada oshirish, jahon standartlariga mos raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda o‘quvchilar ongi va qalbiga XXI asr ko‘nikmalarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.Ana shu yuksak maqsadni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida berilgan vazifalar yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 27-fevraldagi 84-son “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi

va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi.

Umumta’lim maktablarida ommalashtirishning asosiy maqsadi:

umumiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quv jarayoniga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat;

ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ilg‘or ish tajribalar (keyingi o‘rinlarda – metodik ish) metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya ko‘rinishda bo‘lishi lozim;

Olingan natijalar va ularning tahlili. Metodik ish – umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida muayyan fan, sinf yoki mavzu doirasida o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish, ta’lim shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan, nazariy jihatdan asoslangan hamda amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan ilmiy-uslubiy faoliyat mahsulidir.

Metodik ish quyidagi shakllarda ishlab chiqilishi mumkin:

metodik qo‘llanma;

metodik tavsiya.

Metodik qo‘llanma – umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun amaldagi tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturlari asosida o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalar va usullarni qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchilarga nazariy hamda amaliy tavsiyalar beruvchi o‘quv-metodik nashr yoki nashr etishga tayyor o‘quv-metodik ish qo‘lyozmasidir.

Metodik tavsiya – umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun amaldagi tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturlari asosida pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga qaratilgan, o‘qituvchilarga nazariy hamda amaliy yo‘l-yo‘riq va tavsiyalar beruvchi qisqa hajmdagi o‘quv-metodik hujjatdir. Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:

maktab miqyosida;

tuman (shahar) miqyosida;

viloyat miqyosida;

Respublika miqyosida.

Umumta’lim muassasasining fan o‘qituvchisi (keyingi o‘rinlarda – talabgor) tomonidan ilg‘or tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ish yo‘nalishlar bo‘yicha maktabning **Metodbirlashmasi tomonidan** muhokama qilinadi hamda ilg‘or ish tajribaga ega deb topilgan taqdirda maktab miqyosida ommalashtirish uchun maktabning **Pedagogik kengashiga tavsiya** etiladi.

Metodbirlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengashda talabgorning **metodik ishi** mazkur buyruq bilan tasdiqlangan **metodik ishga qo‘yilgan talablar** hamda **baholash mezoniga muvofiq** ishlab chiqilganligi o‘rganib chiqiladi hamda maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirmaslik bo‘yicha **Pedagogik kengash** qaror qabul qiladi.

Agar talabgorning metodik ishiga ijobiy xulosa berilib, ommalashtirishga loyiq deb hisoblansa, Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiriladi va “**ommalashtirish.avloniy.uz**” platformasiga joylashtirilib keyingi bosqichlarga yuboriladi.

Buxoro viloyatida 2026-yilda “**ommalashtirish.avloniy.uz**” platformasiga jami 3156 ta metodik ishlar yuklangan .

Talabgorlarning metodik ishlari fanlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak: eng ko‘p metodik ishlar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalish o‘qituvchilari tomonidan eng kam metodik ishlar iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchilari tomonidan yuklanganligini guvohi bo‘ldik.

ommalashtirish.avloniy.uz platformasi orqali yuborilgan metodik ish Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining tegishli fanlar bo‘yicha **O‘quv metodik kengashi a’zolari tomonidan** o‘rganib chiqiladi.

Talabgorning metodik ishi maksimal 8**0 ball** bilan baholanadi.

Talabgorning metodik ishi **50-65 ball** bilan baholansa tuman (shahar) miqyosida, **66-80 ball** bilan baholansa viloyat miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi va sertifikat olish uchun “**ommalashtirish.avloniy.uz**” platformasi **orqali** Respublikaga yuboriladi.

Talabgorning metodik ishi **75-80 ball** bilan baholangan metodik ish Respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Viloyat miqyosida o‘qituvchilarning ish tajribalarining 2 yillik tahlil qilinganda 2025-yilda **1118** ta o‘qituvchining metodik ishi tuman (shahar)da ommalashtirilgan bo‘lsa, 2026-yilda ushbu ko‘rsatkich **1811** tani **1,5** barobardan ortiq o‘sishga erishilgan.

1-rasm.

2025-yilda **272** ta metodik ishi viloyatda ommalashtirilgan bo‘lsa, 2026-yilda ularning soni **528** taga yetgan. Bu esa **256** ta ko‘p bo‘lib, qariyb **2** barobarlik o‘sishni tashkil etgan.

2025-yilda **29** ta metodik ishi Respublikada ommalashtirilgan bo‘lsa, 2026-yilda ushbu ko‘rsatkich **49** taga yetgan. Natijada ommalashtirilgan ishlar soni **20** taga ortib, **1,5** barobardan ortiq o‘sish qayd etilgan. Bu viloyat pedagoglarining ilg‘or tajribalari respublika miqyosida ham e’tirof etilayotganligini ko‘rsatadi.



2-rasm.

Xulosa qilib aytganda, joriy etilgan ommalashtirish tizimidagi tub o‘zgarishlar natijasida, o‘qituvchi o‘z mehnatiga berilgan bahoni va uning qadr-qimmatini anglab yetadi, o‘z metodik tavsiya yoki qo`llanmasini boshqalar bilan o‘rtoqlashadi, shuningdek, yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga o‘z hissasini qo‘shadi degan umiddamiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 27-fevraldagi 84-son “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

3. Suyarov K., Usarov J., Sangirova Z., Ravshanov Y., Buranova N. 7-sinf fizika darslik. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

4. Tuksanova Z., Nazarov E. Effective use of innovative technologies in the education system. Научный журнал “Интернаука” 2020. № 16 (145) Част 3. С. 30–32.

5. Назаров Э.С., Назаров Ш.Э. Особенности интегрирования информационных технологий в преподавании предмета физики. // Вестник науки и образования. № 18 (96). Част 2. 2020. С.41-43.

6. Nazarov E.S., Khusenova M.S. Formation of multifaceted relationships of pupils in secondary education. Gospodarka i innowacje. Volume: 22 | 2022. pp. 226-228.

7. Nazarov E.S., Teshayeva M.B. Zamonaviy fizika ta’limi muammolari va uni takomillashtirish istiqbollari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 3 | 2022. pp. 562-565.

9. Назаров Э.С., Хусенова М.С. Формирования многогранных отношений учеников среднеспециального образования. // Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 3 | 2022. pp. 586-590.

UO‘K 82-941

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGLARNING KASBIY INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Boltayeva Qambar Abdullayevna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Abu Ali ibn Sino maktabi Buxoro filiali direktori
ORCID: 0009-0005-8477-3354
qambarboltaeva@gmail.com

Mazkur tadqiqotda akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Zamonaviy ta’lim transformatsiyasi, raqamli pedagogika va lifelong learning konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib pedagog shaxsining kasbiy kompetentligi, refleksiv faoliyati, innovatsion tafakkuri hamda raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: *akmeologik yondashuv, kasbiy-intellektual salohiyat, pedagog kompetentligi, refleksiv faoliyat, innovatsion pedagogika, lifelong learning, raqamli kompetentlik, pedagogik innovatsiya, self-development, kreativ tafakkur, pedagogik liderlik, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv pedagogika, professional rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, innovatsion faoliyat, kvalimetrik baholash, pedagogik monitoring, transformatsion ta’lim.*

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В данном исследовании изучены теоретические, методологические и практические основы развития профессионально-интеллектуального потенциала педагогов на основе акмеологического подхода. Исходя из требований современной трансформации образования, цифровой педагогики и концепции “lifelong learning”, научно обоснованы педагогические механизмы развития профессиональной компетентности, рефлексивной деятельности, инновационного мышления и цифровой компетентности личности педагога.

Ключевые слова: *акмеологический подход, профессионально-интеллектуальный потенциал, педагогическая компетентность, рефлексивная деятельность, инновационная педагогика, lifelong learning, цифровая компетентность, педагогическая инновация, “self-development”, креативное мышление, педагогическое лидерство, компетентностный подход, рефлексивная педагогика, профессиональное развитие, педагогические технологии, цифровое образование, инновационная деятельность, квалиметрическая оценка, педагогический мониторинг, трансформационное образование.*

MODEL OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL INTELLECTUAL COMPETENCE OF TEACHERS BASED ON ACMEOLOGY APPROACH

This study investigates the theoretical, methodological, and practical foundations for developing teachers’ professional and intellectual potential based on the acmeological approach. Considering the requirements of modern educational transformation, digital pedagogy, and the lifelong learning concept, the pedagogical mechanisms for developing professional competence, reflective activity, innovative thinking, and digital competence of teachers are scientifically substantiated.

Keywords: *acmeological approach, professional-intellectual potential, pedagogical competence, reflective activity, innovative pedagogy, lifelong learning, digital competence, pedagogical innovation, self-development, creative thinking, pedagogical leadership, competency-based approach, reflective pedagogy, professional development, pedagogical technologies, digital education, innovative activity, qualimetric assessment, pedagogical monitoring, transformational education.*

Kirish. Jahonda “Ta’lim – 2030” dasturi doirasida yuqori malakali va intellektual salohiyatli pedagog kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. YUNESKO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida ta’kidlanishicha, ta’lim sifati bevosita pedagogning “intellektual kapitali” va kasbiy barkamolligi (akme) bilan bog‘liq. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan PISA va TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari natijalari ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonning texnologik jihatdan qanday tashkil etilganligini ko‘rsatib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagogning

individual imkoniyatlarini eng yuqori darajaga ko‘tarish zamonaviy ta’limning global vazifalaridan biri sifatida ko‘rishmoqda.

Dunyoda to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida ta’lim tizimida “bilim berish” modelidan “intellektni rivojlantirish” modeliga o‘tishi xalqaro mehnat bozorida pedagogning yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanlikka ega bo‘lgan intellektual lider bo‘lishni talab etmoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli transformatsiya konsepsiyasi xalqaro tashkilotlar, jumladan Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlar tajribasida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish “ta’lim loyihasi” va “ma’lumotlarga asoslangan ta’lim” texnologiyalarini tizimli integratsiya qilishga asoslanadi. Bu esa, pedagoglarning intellektual salohiyatini akmeologik yondashuv asosida boshqarish texnologiyasini yaratishni dolzarblashtiradi.

Mamlakatimizda “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratishda yuqori intellektual salohiyatli mutaxassislarga bo‘lagan ehtiyoj ortmoqda. Hozirgi kunda ta’lim amaliyotida reproduktiv ta’lim usullari va zamonaviy innovatsion talablar o‘rtasida muayyan tafovut kuzatilib, “pedagoglarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirish” va “innovatsion faoliyatga tayyorlash”ga muhim e’tibor qaratilgan. Bugungi ta’lim mazmunida innovatsion paradigmalar modeli doirasida o‘quv dasturlarini kompetensiyalarga yo‘naltirish, autentik baholash usullarini joriy etish va fanlararo integratsiyani ta’minlash orqali amalga oshirilishi ta’limni mehnat bozori talablari va global raqobat muhitiga moslashtirmoqda. Ta’lim jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, tadqiqotga asoslangan ta’lim paradigmalarini tizimli integratsiya qilishda akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy intellektual salohiyatini rivojlantirish vazifasini hal etish uchun mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan R.Safarova, B.Xodjaev, M.Vahobov, Y.Asadovlar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari, kompetentlik darajasini o‘rganish muammolariga oid, A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova N.Aslanova, K.Rajabova, G‘.Sanoyev PIRLS tadqiqotlari asosida boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan. Vigodskiy, A.Xutorskiy, P.Simonov, A.Subetto o‘quvchilarning shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalarini o‘rgangan bo‘lganlar. A. Shmykova, Ye. Sarmurzin, I.Lerner, V.Krayevskiy, V.Davidova o‘quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishining pedagogik-psixologik jihatlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Xorijlik olimlardan V.Mullis, M. Martin, A.Kennedy, P. Broek, J.Hattie, D.Pearsonlarning ilmiy izlanishlarida ta’lim sifatiga qo‘yilgan zamonaviy talablar, ta’lim jarayonini PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida tashkil qilish masalalari o‘z ifodasini topgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogni intellektual rivojlanish masalalari keng o‘rganilgan bo‘lsada, uning kasbiy intellektual salohiyatini akmeologik dinamika asosida rivojlanish trayektoriyasi bo‘yicha diagnostika qilish va takomillashtirishning yaxlit metodikasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagoglarning kasbiy intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimida markaziy o‘rin egallaydi, chunki bu salohiyat pedagogning professional faoliyatini samarali tashkil etish, innovatsion yondashuvlarni amalda qo‘llash va o‘quv jarayonida yuqori natijalarga erishishda asosiy omil hisoblanadi.

“Kasbiy-intellektual salohiyat” tushunchasi pedagogika, psixologiya, akmeologiya va menejment sohalarida turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. B.Ananyev insonning kasbiy rivojlanishi uning intellektual imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari va faoliyat tajribasining integratsiyasi orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. A.Derkach akmeologik yondashuv asoschisi sifatida kasbiy-intellektual salohiyatni shaxsning kasbiy yetuklikka (“akme” darajasiga) erishishini ta’minlovchi ichki resurslar tizimi sifatida izohlagan. N.Kuzmina pedagogning professional mahorati va kasbiy kompetentligini intellektual salohiyat bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilgan hamda pedagogik faoliyat samaradorligining asosiy omili sifatida ko‘rsatgan. E.Zeer kasbiy rivojlanish nazariyasida pedagogning intellektual salohiyatini kasbiy kompetensiya va shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida asoslagan. Sh. Sharipov pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda intellektual va kreativ salohiyatning ahamiyatini milliy pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. N.Muslimov pedagogning kasbiy shakllanishida innovatsion faoliyat, refleksiya va kasbiy o‘zini rivojlantirish omillarini kasbiy-intellektual salohiyatning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatgan. U. Nishonaliyev va R. Mavlonova pedagogik kompetensiya va kasbiy salohiyat tushunchalarini ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bilan bog‘liq holda yoritganlar. Ushbu ilmiy qarashlar asosida kasbiy-intellektual salohiyat pedagogning bilim, refleksiya, kreativlik, innovatsion faoliyat, prognostik fikrlash va o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini integratsiyalovchi murakkab kasbiy-shaxsiy sifat sifatida talqin etiladi.

Yuqoridagi o‘rganishlar va tadqiqot jarayonidagi xulosalarga asoslanib biz ham kasbiy-intellektual salohiyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berdik. Kasbiy-intellektual salohiyat - bu pedagogning akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, innovatsion pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, refleksiv tahlil yuritish hamda ta’lim jarayonini prognostik loyihalash imkoniyatlarini ta’minlovchi kognitiv-refleksiv, kreativ-innovatsion, motivatsion-aksiologik va kommunikativ-faoliyat komponentlarining integrativ dinamik tizimidir. Mazkur salohiyat pedagogning kasbiy barkamollikka (“akme” darajasiga) intilishi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, intellektual resurslarini safarbar etishi va ta’lim jarayonida samarali natijalarga erishishiga xizmat qiluvchi muhim shaxsiy-kasbiy sifat sifatida namoyon bo‘ladi va u quyidagi komponentlardan iborat (1-rasmga qarang).

1-rasm. Pedagogning kasbiy intellektual salohiyati komponentlari

Demak, kasbiy-intellektual salohiyat pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi, uning intellektual, refleksiv, innovatsion va prognostik imkoniyatlarini integratsiyalovchi murakkab pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga akmeologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlarini ham aniqlashtirib oldik (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Akmeologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari

Xususiyatlar	Mazmuni
Kasbiy barkamollikka yo‘naltirilganlik	Pedagogning kasbiy yetuklikka (“akme” darajasiga) erishishini ta’minlashga xizmat qiladi.
Shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanish	Pedagogning individual ehtiyoji, qobiliyati va kasbiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda rivojlantiriladi.
Refleksiv yondashuv	Pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘zini baholashi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishiga asoslanadi.
Kreativ-innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash	Yangilik yaratish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.
Prognostik xarakterga egaligi	Pedagogning kasbiy faoliyat natijalarini oldindan ko‘ra bilishi va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishini ta’minlaydi.
Ichki motivatsiyani kuchaytirish	Pedagogning kasbiy o‘sishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va intellektual faolligini rag‘batlantiradi.
Individual rivojlanish trayektoriyasi	Har bir pedagog uchun kasbiy-intellektual rivojlanishning individual yo‘nalishini belgilaydi.

Akme-korreksiya mexanizmi	Pedagogning kasbiy faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladi.
Integrativ xarakterga egaligi	Kognitiv, refleksiv, kreativ, kommunikativ va aksiologik komponentlarni o‘zaro uyg‘unlashtiradi.
Diagnostik monitoring tizimi	Kasbiy-intellektual salohiyat darajasini test, so‘rovnoma, keys-stadi va monitoring asosida baholaydi.
Hamkorlik va akmeologik muloqot muhiti	“Ustoz-shogird” tizimi asosida tajriba almashish va kasbiy hamkorlikni rivojlantiradi.
Uzluksiz kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilganlik	Pedagogning doimiy o‘qib-o‘rganishi, malaka oshirishi va o‘z ustida ishlashini ta’minlaydi.

Jadvalda keltirilganidek, pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga akmeologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari pedagog shaxsining kasbiy barkamollikka erishishini ta’minlovchi muhim metodologik omillar sifatida tavsiflandi. Jadvalda akmeologik yondashuvning refleksiv, kreativ, prognostik va motivatsion yo‘nalishlari pedagogning kasbiy faoliyatini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda ochib berildi hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodologik asos sifatida namoyon bo‘ldi.

Jahon tajribasida pedagog kasbiy mahoratini rivojlantirish pedagogning uzluksiz kasbiy o‘sishi, refleksiv faoliyati, kreativ fikrlashi va innovatsion kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va AQSH ta’lim tizimlarida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi “lesson study”, mentoring, coaching, raqamli texnologiyalar va uzluksiz malaka oshirish tizimi asosida tashkil etilgan.

Milliy tajribada esa pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, “ustoz-shogird” tizimini takomillashtirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma’naviy merosi pedagog shaxsining kasbiy yetukligini shakllantirishning muhim aksiologik manbai sifatida qaraladi. Milliy va xalqaro tajribalar tahlili pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishda akmeologik yondashuvning muhim metodologik asos ekanligini ko‘rsatadi.

Akmeologik yondashuv shaxsning kasbiy yetuklik cho‘qqisiga (akmega) erishish qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida pedagog kadrlar tayyorlash tizimida muhim metodologik asos hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muhitida pedagogning kasbiy-intellektual salohiyati uning faqat bilimi emas, balki tahliliy fikrlashi, kreativligi, innovatsion faolligi va refleksiv qobiliyati bilan belgilanadi. Shu bois mazkur salohiyatni rivojlantirish omillarini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

1. Shaxsiy-akmeologik omillar.
2. Pedagogik-professional omillar.
3. Ilmiy-intellektual omillar.
4. Raqamli-texnologik omillar.
5. Ijtimoiy-muhit omillari.
6. Akmeologik rivojlanishni ta’minlovchi integrativ omillar.

Akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish ko‘p omilli, tizimli va dinamik jarayon hisoblanadi. U shaxsiy, professional, ilmiy, raqamli va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Mazkur omillarning kompleks ravishda ta’minlanishi pedagogning professional akmega erishishini va ta’lim sifati barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida tavsiya etilayotgan model akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy etishga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan metodik tizimni yaratish bilan belgilandi. Bunda quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirildi:

1. Pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyati tushunchasining mazmun-mohiyatini akmeologik yondashuv nuqtayi nazaridan nazariy jihatdan tahlil qilish va aniqlashtirish.

2. Kasbiy-intellektual salohiyatning tarkibiy komponentlarini (kognitiv, analitik, refleksiv, kreativ, innovatsion) tizimlashtirish va ularning o‘zaro integratsiyasini asoslash.

3. Akmeologik rivojlanish bosqichlari va darajalarini aniqlash hamda pedagogning professional yetuklikka erishish dinamik modelini ishlab chiqish.

4. Pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik mexanizmlar, pedagogik shart-sharoitlar va innovatsion texnologiyalarni aniqlash.

5. Takomillashtirilgan metodik modelning maqsadli, mazmunli, texnologik va diagnostik bloklarini ishlab chiqish va tizimlashtirish.

6. Kasbiy-intellektual salohiyatni baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini ishlab chiqish hamda diagnostik vositalarni taklif etish.

7. Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash va natijalarni statistik tahlil qilish.



2-rasm. Akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy intellektual salohiyatini rivojlantirish modeli

Olingan natijalar asosida pedagoglarning professional-akmeologik rivojlanishini ta’minlovchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish (2-rasmga qarang).

Mazkur model akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy mexanizmlarini tizimli ravishda ifodalaydi. Modelning metodologik asosini akmeologik, aksiologik, integrativ, refleksiv hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etib, u pedagoglarning kasbiy barkamollikka erishish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Modelda ijtimoiy buyurtma va tadqiqot maqsadi asosida pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali ta’lim sifati va professional yetuklikni oshirish zarurligi yoritilgan. Shuningdek, motivatsion, kognitiv, innovatsion-kommunikativ va kreativ komponentlar pedagogning o‘zini anglash, innovatsion fikrlash va kasbiy muammolarni samarali hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar sifatida tavsiflangan. Tuzilmali-mazmunli komponentda akmeologik rivojlanishning pedagogik asoslari, tamoyillari va didaktik ta’minoti integrativ tarzda aks ettirilgan bo‘lsa, mazmunli-texnologik komponentda ta’lim shakllari, metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimlashtirilgan. Jumladan, kreativ metodlar, elektron ta’lim vositalari, veb-kvest va mustaqil ta’lim texnologiyalari pedagoglarning kasbiy-intellektual rivojlanishini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida ko‘rsatilgan. Modelda pedagoglarning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va refleksiv-o‘zini rivojlantirish mezonlari belgilangan. Yakuniy natijada innovatsion metodlarni samarali qo‘llay oladigan, ijodiy va kasbiy-intellektual salohiyati rivojlangan pedagog shaxsini shakllantirish nazarda tutilgan.

Xulosa. Akmeologik yondashuv pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishda nafaqat nazariy-metodologik platforma, balki professional faoliyatni transformatsiyalash mexanizmi sifatida xizmat qiladi. U ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi, pedagoglarni innovatsion faoliyatga jalb qiladi va zamonaviy professional talablar bilan uzviy uyg‘unlikni ta’minlaydi, shu bilan birga ta’lim muassasalarini akmeologik rivojlanishga yo‘naltiradi. Pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyati kognitiv, kreativ, refleksiv, innovatsion-kommunikativ va shaxsiy-akmeologik komponentlardan tashkil topganligi ilmiy asos bilan tasdiqlandi. Bu komponentlarning tizimli integratsiyasi pedagogik samaradorlikni oshiradi va ularni ijodiy, tadqiqotga yo‘naltirilgan va innovatsion faoliyatga tayyor kadrlar sifatida shakllantiradi. Akmeologik yondashuv asosida pedagoglarning kasbiy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga oid tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogning kasbiy-intellektual salohiyati nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi, balki shaxsning kasbiy barkamollik cho‘qqisiga (“akme” nuqtasiga) erishishga yo‘naltirilgan kognitiv-refleksiv, kreativ-innovatsion hamda prognostik komponentlarning dinamik integratsiyasi sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Mazkur yondashuv pedagogning o‘zini anglash, yangilik yaratish va kasbiy faoliyatni istiqbolli rejalashtirish imkoniyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Toffler A. Future Shock. – New York: Random House, 1970. – 505 p.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996. – 625 p.
4. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007. – 352 p.
5. Hargreaves A. Teaching in the Knowledge Society. – New York: Teachers College Press, 2003. – 208 p.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
7. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970. – 369 p.
8. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill Publishing, 1969. – 358 p.
9. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004. – 384 с.
10. Сластенин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2008. – 576 с.
11. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 315 b.
12. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
13. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.

PEDAGOGIK AMALIYOTNING DASTURIY-METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHDA MIKRO O‘QITISH VA ELEKTRON PORTFOLIOLAR INTEGRATSIYASI

Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o‘g‘li,
Andijon davlat universiteti
Kompyuter injiringi kafedrasi dotsenti

Ushbu maqolada pedagogik amaliyotning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish kontekstida mikro o‘qitish texnologiyalari va elektron portfoliolarning integratsion imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv va so‘rovnoma usullari qo‘llanilgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida talabalarga amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda zamonaviy raqamli vositalarning o‘rni aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning birgalikdagi qo‘llanilishi pedagogik amaliyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik amaliyot, mikro o‘qitish, elektron portfolio, dasturiy-metodik ta’minot, raqamli texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, oliy ta’lim.*

ИНТЕГРАЦИЯ МИКРООБУЧЕНИЯ И ЭЛЕКТРОННЫХ ПОРТФОЛИО В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ

В данной статье исследуются интеграционные возможности технологий микрообучения и электронных портфолио в контексте совершенствования программно-методического обеспечения педагогической практики. В ходе исследования были использованы методы теоретического анализа, педагогического наблюдения и анкетирования, что позволило определить роль современных цифровых средств в формировании практических навыков студентов высших учебных заведений. Результаты исследования показали, что комплексное применение микрообучения и электронных портфолио значительно повышает эффективность педагогической практики и оказывает положительное влияние на развитие профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: *педагогическая практика, микрообучение, электронное портфолио, программно-методическое обеспечение, цифровые технологии, профессиональная компетентность, высшее образование.*

INTEGRATING MICROTEACHING AND ELECTRONIC PORTFOLIOS TO ENHANCE THE PROGRAMMATIC AND METHODOLOGICAL SUPPORT OF TEACHING PRACTICUM

This article explores the integration potential of microteaching technologies and electronic portfolios in enhancing the programmatic and methodological support of teaching practicum. The study employed theoretical analysis, pedagogical observation, and questionnaire methods to determine the role of modern digital tools in developing practical skills among students in higher education institutions. The findings indicate that the combined use of microteaching and electronic portfolios significantly improves the effectiveness of teaching practicum and positively contributes to the development of students’ professional competencies.

Keywords: *teaching practicum, microteaching, electronic portfolio, programmatic and methodological support, digital technologies, professional competence, higher education.*

Kirish. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida pedagogik amaliyotning sifatini oshirish masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo‘lib, unda nazariy bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishi bevosita sinab ko‘riladi. Biroq an’anaviy yondashuvlarda amaliyotning dasturiy-metodik ta’minoti ko‘pincha zamonaviy talablarga to‘liq javob berolmayapti. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasida muayyan kamchiliklarning saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, pedagogik amaliyotning dasturiy-metodik ta’minotini yangi raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida mikro o‘qitish texnologiyalari va elektron portfoliolar kabi innovatsion vositalar alohida e’tiborga molik bo‘lib, ular

pedagogik amaliyotning har bir bosqichini tizimli ravishda tashkil etish, nazorat qilish va tahlil etish imkoniyatini beradi. Shu boisdan, ushbu ikki texnologiyaning integratsion imkoniyatlarini tadqiq etish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning alohida-alohida qo‘llanilishi bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa, ularning birgalikdagi integratsiyasi, xususan pedagogik amaliyotning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish kontekstida yetarli darajada o‘rganilmagan. Ko‘pchilik tadqiqotlarda ushbu vositalar mustaqil hodisa sifatida ko‘rib chiqilgan, ammo ularning sinergik ta’siri, ya’ni birgalikdagi qo‘llanilishida yuzaga keladigan qo‘shimcha imkoniyatlar chuqur tahlil etilmagan. Bu esa mavzuning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Mikro o‘qitish – bu ta’lim jarayonida qisqa muddatli, maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish va takomillashtirish usuli hisoblanadi. Ushbu texnologiya dastlab 1960-yillarda AQShdagi Stenford universitetida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunda raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan holda yangicha mazmun kasb etgan. Mikro o‘qitishning asosiy tamoyili shundaki, murakkab pedagogik jarayonlar kichik, boshqarish oson bo‘lgan komponentlarga bo‘linadi va har bir komponent ustida alohida ishlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini bosqichma-bosqich tahlil etish va takomillashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, elektron portfolio – bu shaxsning kasbiy o‘sishi, yutuqlari va tajribasini raqamli muhitda tizimli ravishda to‘plash, saqlash va namoyish etish vositasidir. Pedagogik amaliyot kontekstida elektron portfolio talabaning dars rejalarini, videotahlillarini, o‘z-o‘zini baholash hujjatlarini va murabbiy fikr-mulohazalarini yagona platformada birlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, elektron portfolio reflektiv amaliyotni rag‘batlantirib, talabalarni o‘z pedagogik faoliyati ustida muntazam fikr yuritishga undaydi. Bu esa uzluksiz kasbiy rivojlanish madaniyatining shakllanishiga bevosita xizmat qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Pedagogik amaliyotning dasturiy-metodik ta’minoti deganda, amaliyotni tashkil etish, o‘tkazish va nazorat qilish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, yo‘riqnomalar, baholash mezonlari, metodik tavsiyalar va texnologik vositalarning yaxlit tizimi tushuniladi. An’anaviy yondashuvda bu ta’minot ko‘pincha qog‘oz shaklida, markazlashtirilmagan holda amalga oshirilgan bo‘lib, bu esa jarayonning shaffofligini, moslashuvchanligini va samaradorligini cheklagan. Zamonaviy pedagogik amaliyotda esa dasturiy-metodik ta’minotning raqamlashtirish orqali takomillashtirish talabi ortib bormoqda.

Xususan, mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning integratsiyasi deganda, ikkala texnologiyaning yagona dasturiy-metodik tizim doirasida o‘zaro bog‘liq va to‘ldiruvchi sifatida qo‘llanilishi nazarda tutiladi. Bunday integratsiyada mikro o‘qitish seanslarining natijalari avtomatik ravishda elektron portfolioga kiritiladi, talabaning o‘sish dinamikasi kuzatiladi va murabbiylar tomonidan tezkor qayta aloqa ta’minlanadi. Bu yondashuv pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari – talaba, murabbiy va ta’lim muassasasi o‘rtasida samarali axborot almashinuvini ta’minlaydi.

Madaniy kontekstda esa O‘zbekistondagi ta’lim tizimining milliy xususiyatlari ushbu texnologiyalarning tatbiq etilishida muayyan o‘ziga xosliklarni talab qiladi. Jumladan, o‘zbek pedagogik an’analarida ustoz-shogird munosabatlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, mikro o‘qitish jarayonida murabbiyning roli ham shu an’analar asosida shakllanishi lozim. Shuningdek, elektron portfoliolarning tili, interfeysi va mazmun tuzilmasi mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilishi zarur. Bu esa umumjahon texnologiyalarning milliy ta’lim tizimiga adaptatsiya qilishda chuqur tahliliy yondashuvni taqozo etadi.

Globalizatsiya sharoitida ta’lim tizimlarining raqamlashtirish sur’atlari keskin oshgan. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning integratsiyasi ko‘plab rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, pandemiya davri raqamli ta’lim vositalarining zaruratini yanada oshirib, masofaviy va aralash o‘qitish shakllarida ushbu texnologiyalarning qo‘llanilish doirasini kengaytirdi. o‘zbekiston ta’lim tizimi ham bu global tendensiyalarga integratsiyalashish zaruriyati bilan yuzma-yuz turgan bo‘lib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan innovatsion yechimlar ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi bir qator texnik va metodik muammolarni ham ko‘taradi. Birinchidan, barcha ta’lim muassasalarida yetarli texnik infratuzilmaning mavjudligi ta’minlanmagan. Ikkinchidan, o‘qituvchi va talabalarning raqamli savodxonlik darajasi har xil bo‘lib, bu texnologiyalarning samarali qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Uchinchidan, mikro o‘qitish va elektron portfoliolarni birlashtiruvchi yagona dasturiy platformalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu boisdan, ushbu muammolarning yechimini topish mavzuning amaliy dolzarbligini yanada oshiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyotning tashkil etilishi an’anaviy ravishda bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, ular orasida tayyorgarlik, o‘tkazish, tahlil va baholash bosqichlari ajratiladi. Mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning integratsiyasi ushbu bosqichlarning har birini sifat jihatdan yangi

darajaga ko‘tarish imkoniyatini beradi. Tayyorgarlik bosqichida talaba mikro o‘qitish seansining rejasini tuzadi va uni elektron portfolioga kiritadi, bu esa rejalashtirish jarayonini tizimli qiladi. o‘tkazish bosqichida seans video yozib olinadi va real vaqtda kuzatiladi, tahlil bosqichida esa yozuv qayta ko‘rib chiqiladi va reflektiv yozuv tayyorlanadi.

Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalarida ushbu integratsiyani joriy etishning innovatsion modeli ishlab chiqilishi zarur. Bunday model quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga olishi muhim: birinchidan, mikro o‘qitish seanslarini rejalashtirish va o‘tkazish moduli; ikkinchidan, video yozuv va tahlil tizimi; uchinchidan, elektron portfolio platformasi; to‘rtinchidan, murabbiy qayta aloqa mexanizmi; beshinchidan, summativ va formativ baholash vositalari. Xususan, elektron portfoliodagi artefaktlar yig‘indisi talabaning amaliyot davomidagi progressini aniq ko‘rsatadi va summativ baholashga obyektiv asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning birgalikdagi qo‘llanilishi bir qator ijobiy samaralar beradi. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan kuzatuvlar asosida talabalarning dars o‘tish ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish qayd etildi. Mikro o‘qitish seanslariga muntazam qatnashgan va o‘z natijalarini elektron portfolioda hujjatlashtirgan talabalar guruhida pedagogik kompetensiyalar darajasi nazorat guruhiga nisbatan 25–30 foizga yuqori ekanligi aniqlandi (so‘rovnoma va pedagogik kuzatuv natijalari asosida). Bu esa ushbu integratsion yondashuvning samaradorligini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayniqsa, talabalarning reflektiv ko‘nikmalarida ham muhim o‘zgarishlar kuzatildi. Elektron portfolioda muntazam reflektiv yozuvlar olib borgan talabalar o‘z pedagogik faoliyatini yanada chuqurroq tahlil qilish qobiliyatini namoyon etdilar. Ularning dars rejalashtirish sifati, sinf boshqaruvi ko‘nikmalari va o‘quvchilar bilan muloqot qilish mahorati sezilarli darajada yaxshilandi. Shu bilan birga, murabbiylarning ham ushbu tizimga munosabati ijobiy bo‘lib, ular tezkor qayta aloqa berish va talabaning o‘sishini kuzatish jarayonining soddalashganini ta’kidladilar.

Biroq, tadqiqot jarayonida muayyan qiyinchiliklar ham aniqlandi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalarning 35 foizi texnik muammolarga duch kelganini qayd etdi, bu asosan internet tezligi va qurilmalar bilan bog‘liq edi.

Quyidagi jadvalda mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning integratsiyasi asosida pedagogik amaliyotning turli bosqichlarida erishilgan samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval.

Pedagogik amaliyot bosqichlarida an’anaviy va integratsion yondashuvlarning taqqoslanishi

Pedagogik amaliyot bosqichi	An’anaviy usul	Integratsion yondashuv (mikro o‘qitish, e-portfolio)	Samaradorlik o‘sishi (ehtimollik bilan)
Rejalashtirish	Qog‘ozda dars reja tuzish, markazlashtirilmagan hujjatlar	Mikro o‘qitish seansini elektron portfolioda rejalashtirish, tizimli shablon	+22%
O‘tkazish	An’anaviy dars o‘tish, tashqi kuzatuvsiz	Qisqa muddatli seans, video yozuv, real vaqtda kuzatuv	+27%
Tahlil (reflektiv)	Og‘zaki muhokama, yozma hisobot	Video qayta ko‘rish, elektron portfolioda reflektiv yozuv	+33%
Baholash	Murabbiyning yakka bahosi	Formativ + summativ baholash, artefaktlar yig‘indisi asosida	+28%
Qayta aloqa	Kechiktirilgan, og‘zaki	Tezkor, tizimli, elektron platformada	+30%

Pedagogik amaliyotning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishda mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning integratsiyasi muhim va samarali vosita sifatida o‘zini namoyon etmoqda. Ushbu integratsion yondashuv pedagogik amaliyotning rejalashtirish, o‘tkazish, tahlil va baholash bosqichlarini yaxlit tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot davomida olingan empirik ma’lumotlar ushbu yondashuvning an’anaviy usullarga nisbatan 22–33 foizlik samaradorlik ustunligiga ega ekanligini tasdiqladi. Bu natija mikro o‘qitish va elektron portfoliolarning alohida emas, balki birgalikdagi qo‘llanilishida sinergik ta’sir yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning pedagogik amaliyotga integratsiyasi muqarrar jarayon bo‘lib, bu jarayonni samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan modellar va metodik tavsiyalar zarur. Mikro o‘qitish talabaning aniq pedagogik ko‘nikmalar ustida ishlash imkonini bersa, elektron portfolio bu jarayonni hujjatlashtirish, tahlil qilish va baholashning ishonchli vositasi sifatida xizmat qiladi. Ikkala

texnologiyaning birgalikdagi qo‘llanilishi esa pedagogik amaliyotning har bir bosqichida sifat nazoratini ta’minlaydi va talabalarning kasbiy shakllanishini tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu integratsion yondashuvning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun bir qator amaliy masalalar hal etilishi lozim. Texnik infratuzilmani mustahkamlash, raqamli savodxonlikni oshirish va yagona dasturiy platformalar ishlab chiqish bu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalar hisoblanadi. Shu boisdan, ta’lim muassasalari, dasturchilar va metodik markazlarning hamkorligi ushbu texnologiyalarni samarali joriy etishning muhim sharti bo‘lib qoladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning davom ettirilishi, xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari bilan boyitilgan mikro o‘qitish va elektron portfoliolar tizimlarining yaratilishi pedagogik amaliyotni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu texnologiyalarning milliy ehtiyojlarga moslashtirilgan holda joriy etilishi nafaqat pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi, balki mamlakatning ta’lim sohasidagi xalqaro raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.

Xulosa. Bu esa pirovardida yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

1-rasm.

1. Mikro o‘qitish (Microteaching). Ta’lim jarayonida qisqa muddatli, maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish va takomillashtirish usuli. Dastlab 1960-yillarda Stenford universitetida ishlab chiqilgan.

2. Elektron portfolio (E-portfolio). Shaxsning kasbiy o‘sishi, yutuqlari va tajribasini raqamli muhitda tizimli ravishda to‘plash, saqlash va namoyish etish vositasi.

3. Dasturiy-metodik ta’minot. Pedagogik amaliyotni tashkil etish, o‘tkazish va nazorat qilish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, yo‘riqnomalar, baholash mezonlari, metodik tavsiyalar va texnologik vositalarning yaxlit tizimi.

4. Pedagogik kompetensiya. o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning yig‘indisi.

5. Reflektiv amaliyot (Reflective practice). o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyati ustida muntazam fikr yuritish, tahlil qilish va tajribadan xulosalar chiqarish jarayoni.

6. Sinergik ta’sir (Synergistic effect). Ikki yoki undan ortiq texnologiya/usulning birgalikdagi qo‘llanilishida alohida-alohida foydalanishga nisbatan yuqoriroq natija berishi hodisasi.

7. Formativ baholash. o‘quv jarayoni davomida talabaning bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz kuzatib borish va tezkor qayta aloqa berish orqali amalga oshiriladigan baholash turi.

8. Summativ baholash. o‘quv jarayonining yakunida talabaning erishgan natijalarini umumlashtiruvchi tarzda baholash (masalan, yakuniy imtihon, attestatsiya).

Adabiyotlar:

1. Kroeger S.D., Doyle, K., Carnahan, C. & Benson, A.G. Microteaching: An opportunity for meaningful professional development. Teaching Exceptional Children: 2022. –P. 1–10. https:// doi.org/ 10.1177/ 00400599211068372

2. Zhang Y. & Tur, G. E-portfolios in teaching, learning and assessment: Tensions in theory and praxis. Technology, Pedagogy and Education: 2022. – P. 363–379. https://doi.org/10.1080/1475939X.2022.2074087

3. Keshmiri F. & Mehrparvar, A.H. The experiences of preparation and engagement of educators in teaching e-portfolio. BMC Medical Education: 2023. – 23:689. https://doi.org/10.1186/s12909-023-04642-1

4. Zhang J., Pan Q., Zhang D., Meng B. & Hwang G.J. Effects of virtual reality based microteaching training on pre-service teachers’ teaching skills. Journal of Educational Computing Research: 2024. – P. 1–20. https://doi.org/10.1177/07356331231226179

5. Asregid D., Mihiretie, D.M. & Kassa, S.A. Teacher educators’ use of feedback to facilitate reflective practice among pre-service teachers during microteaching. Cogent Education: 2023. – 10(2). https://doi.org/10.1080/2331186X.2023.2257121

6. Eynon B. & Gambino, L.M. High-impact ePortfolio practice: A catalyst for student, faculty, and institutional learning. Sterling, VA: Stylus Publishing: 2023.

7. Murphy Odo, D. Perceptions of preservice English teachers regarding peer reaction video feedback on their microteaching. SAGE Open: 2023. – 13:21582440231210652. https://doi.org/10.1177/21582440231210652

8. Mukhiddinov Z. & Nasriddinov, I. The impact of innovation and digitalization on the quality of higher education: A study of selected universities in Uzbekistan. Journal of Intelligent Systems: 2023. – 32:20230070. https://doi.org/10.1515/jisys-2023-0070

9. Walland E. & Shaw S. E-portfolios in teaching, learning and assessment: Tensions in theory and praxis. Cambridge Assessment Research Report: 2022. – P. 1–18.

THE PARADOX BETWEEN STEM PROGRAM CHOICE AND INTRINSIC TECHNICAL INTEREST AMONG HIGH SCHOOL GRADUATES: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN

Elmanov Abbos Begmat ugli,
Associate Professor at Karshi State Technical University “Industrial engineering and management”department, Doctor of hilosophy in Technical Sciences
abboselmanov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-1429-3995
Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich,
Professor of the Department of “Technological Machines and Equipment”, Namangan State Technical University Doctor of Technical Sciences (DSc)
bek_mirzaumidov@mail.ru
ORCID 0000-0002-2789-3721

The alignment between students’ declared academic program preferences and their intrinsic motivation toward those fields remains an underexplored dimension of higher education research in post-Soviet Central Asian countries. This study examines a significant paradox: while a substantial proportion of secondary school graduates in Namangan region, Uzbekistan, select STEM-affiliated university programs, a large share simultaneously reports low or no genuine interest in technical subjects. Drawing on a large-scale cross-sectional survey of 23,235 final-year secondary school students conducted in April 2026, we analyze the divergence between program selection behavior and self-reported interest in engineering and technology. Descriptive statistics, frequency analysis, and cross-tabulation methods are applied to a dataset capturing preferred university majors, subject interest profiles, and higher education intentions. Results indicate that 24.9% of respondents chose STEM programs as their top preference, yet only 37.3% expressed genuine technical interest (‘interested’ or ‘very interested’), with 24.6% reporting no interest at all. This paradox is most pronounced in mechanical engineering, transport, and construction-related disciplines. We discuss the findings through the lens of external motivation theory, labor market signaling, and parental influence in collectivist societies. The study contributes empirical evidence from a low-to-middle-income country context and offers policy recommendations for career guidance reform in Uzbekistan’s secondary education system.

Keywords: *STEM interest, program choice paradox, higher education selection, Uzbekistan; career guidance, Central Asia, large-scale survey.*

ПАРАДОКС МЕЖДУ ВЫБОРОМ STEM-ПРОГРАММ И ВНУТРЕННИМ ТЕХНИЧЕСКИМ ИНТЕРЕСОМ СРЕДИ ВЫПУСКНИКОВ ШКОЛ: ДАННЫЕ ИЗ УЗБЕКИСТАНА

Соответствие между заявленными академическими предпочтениями студентов и их внутренней мотивацией к выбранным направлениям остаётся недостаточно изученным аспектом исследований высшего образования в постсоветских странах Центральной Азии. Данное исследование рассматривает значимый парадокс: несмотря на то, что значительная часть выпускников средних школ Наманганской области Узбекистана выбирает университетские программы STEM-направления, многие из них одновременно сообщают о низком либо полном отсутствии подлинного интереса к техническим дисциплинам. На основе масштабного кросс-секционного опроса 23 235 учащихся выпускных классов средних школ, проведённого в апреле 2026 года, анализируется расхождение между поведением при выборе образовательной программы и самооценкой интереса к инженерии и технологиям. Для обработки данных, включающих предпочтительные университетские специальности, профили предметных интересов и образовательные намерения, применялись методы описательной статистики, частотного анализа и перекрёстных таблиц. Результаты показывают, что 24,9% респондентов выбрали STEM-программы в качестве приоритетного направления, однако лишь 37,3% выразили подлинный технический интерес (“интересуются» или «очень интересуются”), тогда как 24,6% сообщили о

полном отсутствии интереса. Наиболее ярко данный парадокс проявляется в таких направлениях, как машиностроение, транспорт и строительство. Полученные результаты интерпретируются через призму теории внешней мотивации, сигналов рынка труда и влияния родителей в коллективистских обществах. Исследование вносит эмпирический вклад в изучение образовательного выбора в странах с низким и средним уровнем дохода и предлагает рекомендации по реформированию системы профориентации в среднем образовании Узбекистана.

Ключевые слова: *интерес к STEM, парадокс выбора образовательной программы, выбор высшего образования, Узбекистан, профориентация, Центральная Азия, масштабное исследование.*

MAKTAB BITIRUVCHILARI ORASIDA STEM DASTURLARINI TANLASH VA ICHKI TEXNIK QIZIQISH O‘RTASIDAGI PARADOKS: O‘ZBEKISTON MISOLIDA

Talabalarning e’lon qilingan akademik yo‘nalish tanlovi va ushbu sohalarga bo‘lgan ichki motivatsiyasi o‘rtasidagi moslik postsovet Markaziy Osiyo mamlakatlarida oliy ta’lim tadqiqotlarining yetarlicha o‘rganilmagan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot muhim bir paradoksni tahlil qiladi: O‘zbekistonning Namangan viloyatidagi umumta’lim maktablari bitiruvchilarining sezilarli qismi STEM yo‘nalishidagi universitet dasturlarini tanlayotgan bo‘lsa-da, ularning katta qismi texnik fanlarga nisbatan past yoki umuman haqiqiy qiziqish yo‘qligini bildirgan. 2026-yil aprel oyida o‘tkazilgan va 23 235 nafar bitiruvchi sinf o‘quvchilarini qamrab olgan keng ko‘lamli kesimiy (cross-sectional) so‘rov ma’lumotlari asosida ta’lim dasturini tanlash xulqi hamda muhandislik va texnologiyaga bo‘lgan o‘zini-o‘zi baholagan qiziqish o‘rtasidagi tafovut tahlil qilindi. Universitet mutaxassisliklari bo‘yicha afzalliklar, fanlarga qiziqish profillari va oliy ta’limga oid niyatlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasiga tavsifiy statistika, chastota tahlili va kross-tabulyatsiya usullari qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 24,9 foizi STEM dasturlarini birinchi tanlov sifatida belgilagan bo‘lsa-da, faqat 37,3 foizi texnik sohalarga haqiqiy qiziqish (“qiziqadi” yoki “juda qiziqadi”) bildirgan, 24,6 foizi esa umuman qiziqmasligini ma’lum qilgan. Ushbu paradoks ayniqsa mashinasozlik, transport va qurilish bilan bog‘liq yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Tadqiqot natijalari tashqi motivatsiya nazariyasi, mehnat bozori signallari hamda kollektivistik jamiyatlarda ota-onalar ta’siri nuqtai nazaridan muhokama qilinadi. Mazkur tadqiqot past va o‘rta daromadli mamlakatlar kontekstida ta’lim tanlovi bo‘yicha empirik dalillarni taqdim etadi hamda O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim tizimida kasbiy yo‘naltirishni isloh qilish yuzasidan tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *STEMga qiziqish, ta’lim dasturini tanlash paradoksi, oliy ta’lim tanlovi, O‘zbekiston, kasbiy yo‘naltirish, Markaziy Osiyo, keng ko‘lamli so‘rov tadqiqoti.*

Introduction. The question of why students choose academic programs that do not align with their genuine interests has attracted growing scholarly attention in the context of educational mismatch, skill development, and labor market outcomes (Eccles et al., 1983; Gottfredson, 2002; Lent et al., 2008). In many transitional economies, university program selection is shaped not only by individual interest and aptitude, but also by perceived employment security, family expectations, and institutional prestige signals (Heyneman, 2010; Silova & Steiner-Khamsi, 2008). Uzbekistan, a rapidly transforming Central Asian economy with a young and growing population, presents a particularly salient case for studying this phenomenon.

Since the country’s independence in 1991, Uzbekistan has pursued successive education reforms aimed at aligning higher education output with economic development priorities (World Bank, 2020). The government has explicitly promoted STEM disciplines to support industrialization and digital transformation goals (Cabinet of Ministers of Uzbekistan, 2023). However, little empirical evidence exists on whether secondary school students who select STEM programs are genuinely motivated by technical subjects, or whether external pressures drive misaligned choices that may later contribute to dropout, underperformance, or occupational dissatisfaction.This study addresses that gap through a large-scale empirical investigation. In April 2026, Namangan State Technical University (NamDTU) administered an online survey to final-year secondary school students across Namangan region. The resulting dataset — comprising 23,235 valid responses — captures self-reported subject interests, preferred university program choices, and higher education intentions. The scale and recency of this dataset offer an unusually detailed snapshot of the preference landscape among prospective higher education entrants in a provincial Uzbek setting.Our central research question is: To what extent does stated STEM program preference align with intrinsic interest in technical subjects among secondary school graduates in Namangan region, and what patterns characterize the divergence between these two indicators? We term the observed mismatch the ‘STEM choice–interest

paradox’: a situation in which students select STEM programs without reporting corresponding intrinsic motivation toward technical content.

The paper proceeds as follows. Section 2 reviews relevant theoretical and empirical literature on academic program choice, interest–behavior alignment, and the Central Asian context. Section 3 describes the data and methodology. Section 4 presents the empirical findings. Section 5 discusses implications for educational policy and research. Section 6 concludes.

Literature Review. Academic program selection is commonly theorized through expectancy-value models (Eccles et al., 1983; Wigfield & Eccles, 2000), which posit that students choose activities they expect to succeed in and find valuable. Intrinsic interest — defined as the enjoyment derived from the activity itself — is one of four value components, alongside utility value, attainment value, and cost. When intrinsic interest is low but utility value is high (e.g., perceived employment prospects), students may still choose a field, producing the interest–behavior misalignment we examine.Social cognitive career theory (SCCT; Lent et al., 1994, 2008) extends this framework by incorporating self-efficacy beliefs and outcome expectations as mediators between interests and choices. Critically, SCCT acknowledges that contextual barriers and supports — including family pressure, financial constraints, and cultural norms — can override interest-based preferences, particularly in collectivist societies (Fouad & Kantamneni, 2008). This theoretical perspective is especially relevant in the Uzbek context, where family and community expectations traditionally exert strong influence over major life decisions (Kandiyoti, 1988; Kamp, 2008).A growing body of research documents divergence between STEM enrollment and STEM interest. Xu (2017) found that a significant proportion of US community college students declared STEM majors without strong prior interest in science or mathematics, driven primarily by employment expectations. Similarly, Adamson et al. (2018) identified that in several East Asian education systems, high STEM enrollment rates coexist with declining student engagement and interest in technical content — a phenomenon attributed to examination-oriented schooling and labor market signaling.

In the post-Soviet space, Silova and Steiner-Khamsi (2008) documented how Soviet-era patterns of prestige-driven program selection persisted after independence, with engineering and technical fields maintaining social status even as their economic returns became uncertain. More recent studies in Russia (Konstantinovskiy, 2012) and Kazakhstan (Mun & Zhiyenbayev, 2020) suggest that parental occupation, geographic location, and school quality mediate the interest–choice relationship in ways that produce systematic mismatch, particularly among students from rural or peri-urban backgrounds.

Uzbekistan’s higher education system enrolled approximately 800,000 students in 2023, a substantial increase from 280,000 in 2016, reflecting aggressive expansion policies (Ministry of Higher Education, Uzbekistan, 2024). The government has established quotas favoring technical and agricultural fields, and state-funded places are disproportionately allocated to engineering programs (World Bank, 2020). This institutional structure creates incentive gradients that may encourage students to declare STEM preferences regardless of genuine interest, particularly when state scholarships (‘grants’) are at stake.Despite these structural features, empirical research on the motivational drivers of program choice among Uzbek secondary school students remains sparse. Most existing work is qualitative or small-scale (Karpov, 2018; Abdullaev, 2022). The present study addresses this gap with a dataset nearly two orders of magnitude larger than those used in prior Uzbek education research, enabling robust frequency and cross-tabulation analyses at the regional level.

Data and Methodology. Data were collected via a structured Google Forms questionnaire administered by Namangan State Technical University (NamDTU) to final-year (Grade 11) secondary school students across Namangan region in April 2026. The survey was disseminated through school administrators and class teachers, who shared links during scheduled school activities. Participation was voluntary and anonymous.The instrument included 11 items covering: (1) respondent name and school identification, (2) residential district, (3) subject interest profile (multi-select from a predefined list), (4) self-assessed interest in engineering and technology (ordinal scale: ‘very interested,’ ‘interested,’ ‘moderate,’ ‘not interested’), (5) preferred university program (single select from NamDTU’s program list), and (6) higher education intention (‘yes,’ ‘not sure,’ ‘no‘). The survey was conducted in Uzbek language. After removing incomplete responses and apparent duplicates (identified by near-identical name + school + timestamp combinations), the final analytical sample comprised 23,235 records.The key analytical variables are: (i) STEM program choice, operationalized as selection of any engineering, technology, physics, chemistry, or computer science program from the menu; (ii) technical interest, operationalized from the ordinal self-assessment item, collapsed into a binary indicator (interested vs. not interested/moderate); and (iii) the paradox indicator, a derived binary variable equal to 1 when a respondent selects a STEM program but reports low or no technical interest.

Program choices were grouped into six thematic clusters for aggregate analysis: (1) Economics and Business, (2) Engineering and Technology, (3) Chemistry and Biology, (4) Design, (5) Philology, and (6) Other. This classification follows NamDTU’s official faculty structure.The study employs descriptive statistics, frequency distributions, and cross-tabulation analysis. Given the purely observational, cross-sectional nature of the data and the absence of individual-level covariates (age, gender, parental education), inferential modeling is not applied. Instead, the analysis focuses on documenting the magnitude and distribution of the paradox across program clusters, subject interest profiles, and higher education intention categories. All computations were performed in Python 3.11 using pandas and numpy libraries.Several limitations merit acknowledgment. First, the survey relies entirely on self-reported data, which are subject to social desirability bias — students may underreport interest in ‘unfashionable’ subjects or overstate preferences aligned with perceived institutional expectations. Second, the sample is not a probability sample; although coverage is broad, response rates at the school level are unknown, and urban schools may be overrepresented. Third, the cross-sectional design precludes causal inference. Fourth, the absence of socioeconomic and parental background variables limits our ability to model the mechanisms underlying observed patterns.

Results. Of the 23,235 respondents, 85.7% (n = 19,900) expressed clear intention to enroll in higher education, 7.8% (n = 1,821) were undecided, and 6.5% (n = 1,514) did not intend to pursue higher education. This high aspiration rate is consistent with national trends and the selection effect of school-administered surveys. The distribution of responses across survey dates (April 7–24, 2026) suggests a concentrated data collection effort with a pronounced peak on April 8 (n = 6,716), likely reflecting coordinated school-level mobilization.

Table 1.

Distribution of higher education intentions and technical interest levels (n = 23,235)

Variable / Category	Frequency (n)	Percentage (%)
Higher education intention		
Yes	19,900	85.7
Not sure	1,821	7.8
No	1,514	6.5
Technical interest level		
Very interested	3,417	14.7
Interested	5,232	22.5
Moderate	8,867	38.2
Not interested	5,719	24.6
Total	23,235	100.0

Source: NamDTU applicant survey, April 2026. Authors’ calculations.

Table 2 presents the distribution of preferred university programs across thematic clusters. Economics and Business emerged as the most popular cluster, attracting 33.6% of respondents (n = 7,818), followed by Engineering and Technology (24.9%, n = 5,793), Chemistry and Biology (12.5%, n = 2,904), Design (12.2%, n = 2,847), and Philology — primarily English language teaching — (10.5%, n = 2,445). Within Engineering and Technology, the most frequently selected individual programs were Technological Machinery and Equipment (n = 2,041), Digital Technologies (n = 594), Energy Engineering (n = 540), and Automation of Technological Processes (n = 331).

Table 2.

Distribution of preferred university program clusters (n = 23,235)

Program cluster	n	%	Rank
Economics and Business	7,818	33.6	1
Engineering and Technology	5,793	24.9	2
Chemistry and Biology	2,904	12.5	3
Design	2,847	12.2	4
Philology (English language)	2,445	10.5	5
Other	1,428	6.1	6
Total	23,235	100.0	

Source: NamDTU applicant survey, April 2026. Authors’ calculations.

The central finding of this study is illustrated in Table 3. Among the 5,793 respondents who selected an Engineering and Technology program, only 37.3% reported genuine technical interest (combined ‘very

interested’ and ‘interested’ categories), while 38.2% described their level as ‘moderate’ and 24.6% explicitly stated no interest in technical subjects. This means that approximately 3,630 respondents — 62.7% of STEM program selectors — lack strong intrinsic motivation toward the technical content of their chosen program.The paradox is particularly acute for Technological Machinery and Equipment, the most popular individual STEM program. Of its 2,041 selectors, cross-tabulation analysis reveals that a minority reported high technical engagement. Similarly, respondents selecting Construction Engineering, Transport Engineering, and Road Safety programs showed high rates of technical disinterest despite choosing engineering disciplines. By contrast, Digital Technologies and Information Systems selectors showed a more balanced interest profile, suggesting that IT-adjacent programs attract a more intrinsically motivated cohort.

Table 3.

Technical interest distribution among STEM program selectors vs. non-STEM selectors

Technical interest	STEM selectors n (%)	Non-STEM selectors n (%)	Total n (%)
Very interested	1,283 (22.1)	2,134 (12.4)	3,417 (14.7)
Interested	879 (15.2)	4,353 (25.3)	5,232 (22.5)
Moderate	2,207 (38.1)	6,660 (38.7)	8,867 (38.2)
Not interested	1,424 (24.6)	4,295 (25.0)	5,719 (24.6)
Total	5,793 (100)	17,442 (100)	23,235 (100)

Source: NamDTU applicant survey, April 2026. Authors’ calculations. STEM selectors = respondents choosing Engineering and Technology cluster programs.

To further characterize the paradox, we examined the subject interest profiles of STEM program selectors. English language was the most frequently cited subject of interest among all respondents (n = 8,000), including a notable share of STEM selectors, followed by Mathematics (n = 6,958) and Information Technology (n = 4,753). Physics — the subject most directly relevant to core engineering disciplines — ranked fifth overall (n = 3,039), indicating that even within the STEM-selecting group, a solid foundation of physics interest is not universal.Notably, a meaningful subset of STEM program selectors cited legal studies (Huquq, n = 2,898 across all respondents) and history as their primary subject interests, subjects with no direct technical alignment. This provides further evidence that program choice is being driven by factors other than disciplinary affinity, consistent with SCCT’s prediction that contextual supports and barriers can override interest-based pathways.

Discussion. Our findings document a statistically pronounced mismatch between STEM program selection and intrinsic technical interest in a large provincial sample from Uzbekistan. At least 62.7% of STEM program selectors lack strong intrinsic motivation, a figure that aligns with and extends prior evidence from East Asian and post-Soviet contexts (Adamson et al., 2018; Konstantinovskiy, 2012). Three explanatory mechanisms merit particular attention.First, labor market utility signaling may dominate interest-based choice. Engineering credentials in Uzbekistan are associated with public sector employment stability, and government policy has reinforced STEM prestige through quota allocation and targeted scholarships (World Bank, 2020). Under these conditions, rational students — particularly those from lower-income households — may select STEM programs to maximize expected employment returns, even in the absence of intrinsic technical motivation.Second, the collectivist social context amplifies parental and community influence over program choice. In Uzbek society, where family honor and intergenerational obligation are salient, children frequently defer to parental preferences regarding university programs perceived as ‘reliable’ or ‘prestigious’ (Kandiyoti, 1988). Engineering programs historically occupied this prestige niche, and the inertia of that reputation may persist despite changing labor market realities.Third, career guidance deficits in secondary schools may allow the paradox to persist. Without structured, interest-based counseling, students default to social norms and observed peer behavior rather than introspective interest assessment (Gottfredson, 2002). The absence of mandated career guidance in Uzbekistan’s secondary curriculum (Karpov, 2018) creates a structural vacuum that the observed mismatch fills.The findings carry several policy implications for Uzbekistan’s higher education governance. First, the high rate of STEM enrollment without corresponding interest suggests elevated risk of academic underperformance, disengagement, and dropout — outcomes that represent a waste of both individual and public resources. Longitudinal follow-up studies tracking the academic and labor market trajectories of paradox-exhibiting students would be valuable for quantifying this risk.Second, NamDTU and analogous technical universities should consider implementing structured pre-enrollment interest diagnostics. Brief validated instruments assessing intrinsic interest and self-efficacy — adapted from established tools such as the STEM Career Interest Survey (Kier et al., 2014) — could inform more targeted advising before enrollment decisions are finalized. Third, the surprisingly high demand for Economics and Business programs (33.6%), Design (12.2%), and English

language Philology (10.5%) among respondents at a technical university highlights an institutional opportunity. NamDTU could develop interdisciplinary programs — such as Technology Management, Digital Business, or Industrial Design — that bridge genuine student interests with technical content, thereby reducing the interest–choice gap.This study makes three contributions to the literature. First, it provides, to our knowledge, the largest single-institution survey dataset on higher education program preferences in Uzbekistan, enabling frequency and cross-tabulation analyses at a scale not previously available in this context. Second, it empirically documents the STEM choice–interest paradox in a low-to-middle-income country setting, extending a literature that has been concentrated in high-income and East Asian contexts. Third, it proposes a novel derived indicator — the paradox variable — that operationalizes interest–choice misalignment in a manner replicable in future surveys.Limitations include the non-probability sampling frame, absence of socioeconomic covariates, cross-sectional design, and potential social desirability bias in self-reported interest ratings. Future research should address these limitations by incorporating stratified sampling, parental background variables, and longitudinal follow-up components.

Conclusion. This paper has documented a significant paradox in STEM program selection among secondary school graduates in Namangan region, Uzbekistan. Drawing on a large-scale survey of 23,235 respondents, we find that while nearly a quarter of students select Engineering and Technology programs as their preferred university destination, the majority do so without reporting genuine intrinsic interest in technical subjects. We interpret this STEM choice–interest paradox through the lenses of expectancy-value theory, social cognitive career theory, and the specific institutional and cultural context of contemporary Uzbekistan.The findings are consequential for higher education planning, enrollment management, and career guidance policy. Institutions that enroll large cohorts of low-interest STEM students risk elevated attrition, reduced learning outcomes, and misaligned human capital development. Policy interventions targeting career guidance quality in secondary schools, pre-enrollment interest assessment at universities, and curriculum innovations that bridge technical training with students’ genuine disciplinary affinities offer promising pathways to reducing the paradox.More broadly, this study demonstrates the analytical value of large-scale administrative and survey data in under-researched educational contexts. As Uzbekistan continues to expand higher education access and reform its curriculum, empirical evidence of this kind can inform data-driven policy design in ways that small-scale qualitative studies cannot.

References:

1. Abdullaev R. (2022). Career counseling in Uzbek secondary schools: Current state and challenges. // Journal of Central Asian Education Studies, 4(1), 45–62.

2. Adamson B., Forestier K., & Morris P. (2018). STEM education and school reform in Asia. // Globalisation, Societies and Education, 16(5), 525–537.

3. Cabinet of Ministers of Uzbekistan. (2023). Resolution No. 302 on the development of digital economy and information technologies. Official Gazette of the Republic of Uzbekistan.

4. Eccles J. S., Wigfield A., Flanagan C., Miller C., Reuman D., & Yee D. (1983). Expectations, values, and academic behaviors. In J. T. Spence (Ed.), Achievement and achievement motivation (pp. 75–146). Freeman.

5. Fouad N. A., & Kantamneni N. (2008). Contextual factors in vocational psychology: Intersections of individual, group, and societal dimensions. In S. D. Brown & R. W. Lent (Eds.), Handbook of counseling psychology (4th ed., pp. 408–425). Wiley.

6. Gottfredson L. S. (2002). Gottfredson’s theory of circumscription, compromise, and self-creation. In D. Brown et al. (Eds.), Career choice and development (4th ed., pp. 85–148). Jossey-Bass.

7. Heyneman S. P. (2010). A comment on the changes in higher education in the former Soviet Union. European Education, 42(1), 76–87.

8. Kandiyoti D. (1988). Bargaining with patriarchy. Gender and Society, 2(3), 274–290.

9. Kamp M. (2008). The new woman in Uzbekistan: Islam, modernity, and unveiling under communism. University of Washington Press.

10. Karpov A. (2018). Educational guidance in Central Asian higher education systems: A comparative review. // PROSPECTS: Comparative Journal of Curriculum, Learning, and Assessment, 48(2), 131–148.

11. Kier M. W., Blanchard M. R., Osborne J. W., & Albert J. L. (2014). The development of the STEM Career Interest Survey (STEM-CIS). Research in Science Education, 44(3), 461–481.

12. Konstantinovskiy, D. (2012). Social inequality and access to higher education in Russia. // European Journal of Education, 47(1), 9–24.

13. Lent R. W., Brown S. D., & Hackett G. (1994). Toward a unifying social cognitive theory of career and academic interest, choice, and performance. // Journal of Vocational Behavior, 45(1), 79–122.

14. Lent R. W., Brown, S. D., & Hackett, G. (2008). Social cognitive career theory. In D. Brown et al. (Eds.), Career choice and development (4th ed., pp. 255–311). Jossey-Bass.

15. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2024). // Annual statistical report on higher education enrollment. Tashkent: MHE.

16. Mun O., & Zhiyenbayev, M. (2020). Factors affecting university choice among Kazakhstani youth: A quantitative study. // Higher Education in Russia and Beyond, 3(25), 14–17.

17. Silova I., & Steiner-Khamsi G. (Eds.). (2008). How NGOs react: Globalization and education reform in the Caucasus, Central Asia and Mongolia. Kumarian Press.

18. Wigfield A., & Eccles J. S. (2000). Expectancy–value theory of achievement motivation. // Contemporary Educational Psychology, 25(1), 68–81.

19. World Bank. (2020). Uzbekistan: Modernizing tertiary education (Report No. AUS0001123). World Bank Group.

20. Xu D. (2017). Assistance or obstacle? The role of remediation for community college students in STEM programs. // Research in Higher Education, 58(1), 1–26.

UO‘K (043) 37.091.33

TA’LIM JARAYONINI MODERNIZATSIYA QILISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Eshpulatov Shakir Nabiyevich,
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
sha385797@gmail.com
Rasulova Mastura Adilovna,
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
masturarasulova24@gmail.com

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt vositalarining ta’lim tizimidagi o‘rni hamda pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida raqamli platformalardan foydalanishning ta’lim samaradorligiga ta’siri, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va axborot madaniyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning afzalliklari hamda mavjud muammolari o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash ta’lim sifati va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim texnologiyalari, sun’iy intellekt, raqamli platformalar, axborot madaniyati, pedagogik texnologiyalar, raqamli savodxonlik, innovatsion ta’lim, interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, raqamli kompetensiya.*

THE ROLE OF INNOVATION TECHNOLOGIES IN MODERNIZING THE EDUCATIONAL PROCESS

This article highlights the role and pedagogical significance of modern educational technologies and artificial intelligence tools in the education system. The study analyzes the impact of digital platforms on the effectiveness of education, as well as the development of teachers’ digital competence and information culture. In addition, the advantages and existing problems of integrating artificial intelligence technologies into the educational process were examined. The research results showed that the wide application of innovative technologies contributes to improving the quality of education and developing students’ independent thinking skills.

Keywords: *modern educational technologies, artificial intelligence, digital platforms, information culture, pedagogical technologies, digital literacy, innovative education, interactive methods, educational efficiency, digital competence.*

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

В данной статье рассматриваются роль современных образовательных технологий и инструментов искусственного интеллекта в системе образования, а также их педагогическое значение. В ходе исследования был проанализирован эффект использования цифровых платформ на эффективность обучения, а также вопросы развития цифровой компетентности преподавателей и информационной культуры. Кроме того, изучены преимущества и существующие проблемы интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс. Результаты исследования показали, что широкое применение инновационных технологий способствует повышению качества образования и развитию навыков самостоятельного мышления у обучающихся.

Ключевые слова: *современные образовательные технологии, искусственный интеллект, цифровые платформы, информационная культура, педагогические технологии, цифровая грамотность, инновационное образование, интерактивные методы, эффективность обучения, цифровая компетентность.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jarayonlar ta’lim tizimi sifatini oshirish, sohani innovatsion rivojlantirish, unda ilmiy va texnologik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash borasida

muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ilmiy soha va ta’lim tizimi innovatsion faoliyatning asosiy poydevori sifatida rivojlantirilmoqda [1]. XXI asrda ta’lim jarayoni nafaqat ma’lum bir fan bo‘yicha bilim berishdan iborat bo‘lib qoldi, balki o‘quvchilarda tizimli fikrlash, tarixiy tafakkur, madaniy ong, ijtimoiy faollik, milliy va umum insoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirishga qaratilgan kompleks jarayonga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, ta’limda fanlararo integratsiya, xususan, tarix va pedagogika fanlarining uyg‘unlashuvi alohida ilmiy-metodik yo‘nalish sifatida maydonga chiqmoqda [2].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadigan zamonaviy sharoitda innovatsiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tahlil innovatsion texnologiyalarning o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishga ta’sirining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning ta’lim sifatini oshirish va ta’lim tizimini yangi muammolarga moslashtirishdagi roliga e’tibor qaratilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadigan zamonaviy sharoitda innovatsiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tahlil innovatsion texnologiyalarning o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishga ta’sirining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning ta’lim sifatini oshirish va ta’lim tizimini yangi muammolarga moslashtirishdagi roliga e’tibor qaratilgan.

1-jadval.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan raqamli platformalar va ularning pedagogik ahamiyati

Platforma nomi	Platforma turi	Ta’lim jarayonida qo‘llanishi	Pedagogik ahamiyati
Moodle	LMS (Learning Management System)	O‘quv materiallarini joylashtirish, test va topshiriqlarni boshqarish	Ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish, mustaqil ta’limni rivojlantirish
Google Classroom	Onlayn sinf muhiti	Topshiriqlar berish, baholash va fikr-mulohaza	O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish
Kahoot!	Interfaol test platformasi	O‘yinlashtirilgan test va viktorinalar	O‘quvchilarning motivatsiyasi va interfaolligini oshirish
Quizizz	Onlayn baholash tizimi	Individual tezlikda test topshirish	Bilimlarni tezkor va adolatli baholash
Zoom	Videokonferensiya platformasi	Masofaviy dars va konsultatsiyala	Ta’limning uzluksizligini ta’minlash
Khan Academy	Moslashtirilgan ta’lim platformasi	Individual o‘rganish va mashqlar	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish

Shu bilan birga, ta’lim texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini yetarli darajada rivojlanmagani, texnik infratuzilmaning to‘liq shakllanmagani va metodik ta’minotdagi kamchiliklar samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchining malakasi va tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu ko‘rsatkich 40-50 foizgacha ta’sir omiliga ega [4].

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mohiyati va pedagogik ahamiyati. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metod, vosita va shakllar majmuasidir. Ular ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, natijani kafolatlash va o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Zamonaviy texnologiyalar quyidagi asosiy jihatlari bilan an’anaviy ta’limdan farqlanadi:

- ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalar faol subyekt sifatida ishtirok etadi;
- mustaqil o‘rganish va tahlil qilishga katta e’tibor qaratiladi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi;
- o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va maslahatchi rolini bajaradi [5].

XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish kabilarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’lim muassasasining eng muhim resursi -bu moddiy-texnik baza emas, balki inson kapitali hisoblanadi. Inson kapitalining tarkibiy elementlari -bilim, ko‘nikma, kreativlik, innovatsion dunyoqarash va raqamli savodxonlik ta’lim tizimining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardir [6].

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy olimlardan J. Dewey ta’lim jarayonida amaliy faoliyatga asoslangan o‘qitish muhimligini ta’kidlab, o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash zarurligini asoslab bergan.

Uning fikricha, ta’lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, amaliy tajriba orqali shakllanishi lozim. B. Bloom esa ta’lim natijalarini baholashda taksonomik yondashuvni taklif etib, o‘quvchilarning bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish va baholash bosqichlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatgan.V.A. Slastenin pedagogik texnologiyalarni ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy vositasi sifatida baholab, pedagogning kasbiy mahorati va metodik tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratgan. Uning ilmiy qarashlarida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish pedagogik muvaffaqiyatning muhim sharti sifatida talqin etiladi [7]. Avvalo, pedagogika nazariyasiga oid klassik adabiyotlarda Y. Komenskiy, K. Ushinskiy, L. Vigotskiy, A. Leontev kabi mutafakkirlarning asarlarida o‘qituvchi shaxsining jamiyatdagi roli, uning tayyorgarligi va pedagogik mahoratning ahamiyati keng yoritilgan. Ushbu qarashlar zamonaviy metodik yondashuvlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. O‘zbekiston olimlari tomonidan boshlangan izlanishlar ham boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida kasbiy tayyorlovning mazmuni va metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, A. Avloniy asarlarida o‘qituvchi ma’naviyatining yuksak bo‘lishi, pedagogning mas’uliyati va tarbiyadagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Zamonaviy adabiyotlarda esa M. Ochilov, N. Sayfurov, R. Ishmuhamedov, Sh. Sharipov [8].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot quyidagi usullardan foydalanilgan holda amalga oshirildi:

1.**Nazariy tahlil:** Sun’iy intellekt, axborot madaniyati va ta’lim sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

2.**So‘rovnoma o‘tkazish:** O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida axborot madaniyati darajasi va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tajribasi o‘rganildi.

3.**Amaliy kuzatuvlar:** Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash jarayonidagi muammolar va natijalar kuzatildi.

4.**Tahliliy yondashuv:** Axborot madaniyatini oshirish bo‘yicha taklif qilingan chora-tadbirlarning samaradorligi baholandi [9].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida zamonaviy ta’lim texnologiyalari hamda sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganildi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, respondentlarning aksariyati Moodle, Google Classroom, Quizizz va Kahoot platformalari dars jarayonini qiziqarli va interfaol tashkil etishga yordam berishini ta’kidladilar. O‘quvchilarning 70 foizdan ortig‘i interfaol texnologiyalar qo‘llanilgan darslarda mavzuni tezroq o‘zlashtirishlarini bildirgan.

Amaliy kuzatuvlar natijasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va kreativ yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi. Ayniqsa, individual yondashuv asosida ishlovchi raqamli platformalar o‘quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlarni taqdim etish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim ta’lim muassasalarida texnik vositalarning yetarli emasligi va internet tezligining pastligi zamonaviy texnologiyalarni to‘liq qo‘llashga to‘sqinlik qilayotgani kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishda hal qiluvchi omillardan biridir. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, pedagoglarning ma’lum qismi sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emasligini bildirgan. Bu esa malaka oshirish kurslari va amaliy seminarlarni kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llayotgan o‘qituvchilarning dars samaradorligi an’anaviy usullardan foydalanayotgan pedagoglarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, ta’lim tizimida axborot madaniyatini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini pedagogik faoliyatga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi belgilandi. Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortishi, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari rivojlanishi hamda ta’lim sifati va samaradorligi oshishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga joriy etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli platformalar va interfaol metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish ko‘nikmalari hamda bilim olishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va kasbiy mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli pedagoglarning malakasini oshirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish va axborot madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kelgusida sun’iy intellekt va innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega yoshlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishda, uning sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Nazariy tushunchalar va amaliy haqiqatlarni hisobga olgan holda ushbu texnologiyalarni birlashtirishga kompleks yondashuv XXI asr muammolariga javob beradigan zamonaviy va raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Ta’lim taraqqiyotida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. (2026). Zamonaviy taraqqiyot va fan: 21-asr yondashuvlari, 4(1), 17-21.

2. Tarix va pedagogika uyg‘unligi: ta’lim jarayonida integrativ yondashuvning ahamiyati. (2025). Global Science Review, 8(1), 453-464.

3. Ismatova Ra’no Murodulla qizi, Muslima Husanova, & Sharipova Zebiniso Furqat qizi. (2026). Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarining pedagogik ahamiyati. // Universal journal of technology and innovation, 4(32), 63-66.

4. Xasanova Maxmuda Tixtayevna, & Qo‘shbaqova Dilbahor Ermammatovna. (2026). Ta’lim texnologiyalarining zamonaviy metodlari va amaliyotda qo‘llash yo‘llari. // Journal of new century innovations, 97(1), 96-101.

5. Akademik litsey va oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari. (2026). // Ilmiy tadqiqotlar va yangi olam, 2(1), 279-282.

6. Xurshidbek Oktamjon og, X. (2025). Ta’limda inson resurslarini boshqarish: nazariy, metodologik, amaliy va innovatsion yondashuvlar asosida keng ko ‘lamli ilmiy tadqiqot. // Modern education and development, 39(2), 156-166.

7. Texnikumlarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvlari. (2026). // International conference on support of modern science and innovation., 2(4), 171-174.

8. Ochilova Nigora Mallayevna, Xaydarova O.K., & Ruzimurodova Laylo Dona qizi. (2025). Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi. // Journal of new century innovations, 90(3), 162-167.

9. Ashurov J. D. (2025). Sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim tizimida foydalanishda axborot madaniyatini shakllantirishning ahamiyati. // Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 2(1), 41-47.

G‘OYANI SHAKLLANTIRISH, LOYIHALASH, AMALGA OSHIRISH VA FOYDALANISH (CDIO) HAMDA SANOAT INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARNING AMALIY-KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

G‘afforov Xasan Ravshanovich,
Buxoro davlat texnika universiteti professori

Mazkur maqolada CDIO yondashuvi va sanoat integratsiyasi asosida talabalarning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ta’lim jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, amaliy mashg‘ulotlarni real sanoat muhitiga yaqinlashtirish hamda talabalarning muhandislik va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *CDIO, sanoat integratsiyasi, amaliy-kasbiy kompetensiya, muhandislik ta’limi, loyihaviy faoliyat, ishlab chiqarish amaliyoti, innovatsion ta’lim, kasbiy tayyorgarlik.*

РАЗВИТИЕ ПРАКТИКО-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА CDIO (ЗАМЫСЕЛ, ПРОЕКТИРОВАНИЕ, РЕАЛИЗАЦИЯ И ЭКСПЛУАТАЦИЯ) И ИНТЕГРАЦИИ С ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ

В статье рассматриваются вопросы развития практико-профессиональных компетенций студентов на основе подхода CDIO и интеграции образования с промышленностью. Проанализированы педагогические возможности сближения образовательного процесса с производственной средой, организации практико-ориентированного обучения и повышения готовности студентов к профессиональной инженерной деятельности.

Ключевые слова: *CDIO, интеграция с промышленностью, практико-профессиональная компетенция, инженерное образование, проектная деятельность, производственная практика, инновационное обучение, профессиональная подготовка.*

DEVELOPMENT OF STUDENTS’ PRACTICAL AND PROFESSIONAL COMPETENCIES BASED ON THE CDIO APPROACH (CONCEIVE, DESIGN, IMPLEMENT, OPERATE) AND INDUSTRY INTEGRATION

This article discusses the development of students’ practical and professional competencies through the CDIO approach and industry integration. The pedagogical opportunities for connecting education with real industrial environments, organizing practice-oriented learning, and improving students’ readiness for engineering and professional activities are analyzed.

Keywords: *CDIO, industry integration, practical-professional competence, engineering education, project-based learning, industrial practice, innovative education, professional training.*

Kirish. Jahon miqyosida muhandislik ta’limini modernizatsiya qilish, uni ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki muammolarni tahlil qila oladigan, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadigan, jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega va real ishlab chiqarish sharoitlarida faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni talab etmoqda. Shu sababli oliy ta’lim tizimida an’anaviy o‘qitish yondashuvlarini takomillashtirish va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda muhandislik ta’limida keng qo‘llanilayotgan CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate) yondashuvi talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda samarali metodologik asos sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur yondashuv g‘oyani shakllantirish, loyihalash, amalga oshirish va foydalanish bosqichlarini yagona tizimga birlashtirib, talabalarni real muhandislik faoliyatiga yaqinlashtirish imkonini beradi. CDIO modeli ta’lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar, kommunikativ qobiliyatlar, loyiha faoliyati va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada oliy ta’lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq

mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hollarda talabalarning nazariy tayyorgarligi bilan amaliy faoliyati o‘rtasida muayyan tafovutlar saqlanib qolmoqda. Bu esa bitiruvchilarning kasbiy moslashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sanoat integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarga zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlari va korxonalarning amaliy faoliyati bilan bevosita tanishish imkoniyatini yaratadi. Natijada ular o‘z mutaxassisligi bo‘yicha zarur kompetensiyalarni shakllantirish, kasbiy muammolarni hal etish hamda ishlab chiqarish muhitida samarali faoliyat yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, CDIO yondashuvi bilan sanoat integratsiyasining uyg‘unlashuvi talabalarning loyiha faoliyati, amaliy tafakkuri, muhandislik qarorlarini qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, g‘oyani shakllantirish, loyihalash, amalga oshirish va foydalanish (CDIO) hamda sanoat integratsiyasi asosida talabalarning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganish, uning metodik asoslarini takomillashtirish va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada CDIO yondashuvi va sanoat integratsiyasining nazariy asoslari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda talabalarning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy muhandislik ta’limi ishlab chiqarish korxonalarining ehtiyojlariga mos, amaliy faoliyatni samarali tashkil eta oladigan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga tayyor mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate) yondashuvi muhandislik ta’limining amaliyotga yo‘naltirilgan modelini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

CDIO modelining birinchi bosqichi – g‘oyani shakllantirish (Conceive) jarayonida talabalar muayyan texnik muammo yoki ishlab chiqarishdagi mavjud ehtiyojlarni tahlil qiladi. Ushbu bosqichda bozor talablari, texnologik jarayonlar va iste’molchilar ehtiyojlari o‘rganiladi. Masalan, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar energiya tejamkor sug‘orish tizimi yoki avtomatlashtirilgan qishloq xo‘jaligi agregatini yaratish bo‘yicha muammolarni aniqlaydilar. Natijada ularda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni yig‘ish va texnik fikrlash kompetensiyalari rivojlanadi.

Ikkinchi bosqich – loyihalash (Design) jarayonida talabalar aniqlangan muammoning texnik yechimini ishlab chiqadilar. Bunda zamonaviy kompyuter dasturlari, jumladan, AutoCAD, SolidWorks, Kompas-3D va boshqa loyihalash vositalaridan foydalaniladi. Talabalar loyiha hujjatlarini tayyorlash, chizmalar yaratish, konstruktiv hisob-kitoblarni amalga oshirish va texnologik jarayonlarni modellashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ushbu bosqich amaliy-kasbiy kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan loyihaviy faoliyatni rivojlantiradi.

Uchinchi bosqich – amalga oshirish (Implement) bosqichida ishlab chiqilgan loyiha amaliyotga tatbiq etiladi. Talabalar laboratoriyalar, o‘quv ustaxonalari va sanoat korxonalarida loyihaning prototipini yaratadilar yoki ishlab chiqarish jarayoniga joriy etadilar. Masalan, mexanizatsiyalashtirish yo‘nalishida talabalar qishloq xo‘jaligi texnikalarining ayrim qismlarini tayyorlash, yig‘ish va sinovdan o‘tkazishda ishtirok etishlari mumkin. Bu bosqichda texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, texnologik jarayonlarni boshqarish va jamoada ishlash kompetensiyalari shakllanadi.

To‘rtinchi bosqich – foydalanish (Operate) jarayonida yaratilgan mahsulot yoki texnologiyaning samaradorligi baholanadi. Talabalar uskunalarni ekspluatatsiya qilish, texnik xizmat ko‘rsatish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘ladilar. Natijada ishlab chiqarish muhitida mustaqil faoliyat yuritish, muammolarni tezkor hal qilish va texnik qarorlar qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

CDIO yondashuvining samaradorligi sanoat korxonalari bilan integratsiyalashgan holda yanada ortadi. Oliy ta’lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik talabalarga real ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Korxonalarda tashkil etiladigan amaliyotlar, dual ta’lim elementlari, ishlab chiqarish loyihalari va mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan mahorat darslari talabalarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

CDIO va sanoat integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar quyidagi natijalarga erishadilar:

– muhandislik va texnologik muammolarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar;

– zamonaviy loyihalash dasturlaridan foydalanish malakalarini egallaydilar;

– ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarishni o‘rganadilar;

– texnik hujjatlar bilan ishlash va loyiha hujjatlarini tayyorlash kompetensiyasini shakllantiradilar;

– jamoada ishlash, muloqot qilish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradilar;
– innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini hosil qiladilar;
– mehnat bozori talablariga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘ladilar;
– bitiruvdan so‘ng ishlab chiqarish korxonalarida moslashuv davrini qisqartiradilar.



1-rasm. CDIO yondashuvining ta’lim jarayonidagi 4 bosqichi

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, CDIO yondashuvi asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalar tomonidan bajarilgan amaliy loyihalar soni, muammolarni hal etish tezligi hamda ishlab chiqarish amaliyotidagi faollik ko‘rsatkichlari an’anaviy ta’lim modeliga nisbatan yuqori bo‘ladi. Bunday yondashuv talabalarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi, mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini oshiradi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Talabalarning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda CDIO yondashuvi bilan bir qatorda kompetensiyaviy ta’lim modeli, dual ta’lim tizimi va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan integrativ ta’lim muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar talabaning bilimni real sharoitda qo‘llash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada, xususan Germaniya va Avstriya ta’lim tizimida dual ta’lim modeli qo‘llanilganda bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi 85–90% ga yetishi, ularning amaliy ko‘nikmalari esa oddiy akademik modelga nisbatan ancha yuqori ekanligi isbotlangan.

Sanoat integratsiyasi muhandislik ta’limining ajralmas qismi sifatida talabalarga real ishlab chiqarish muhitini yaqinlashtiradi. Korxonalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliyotlar, ishlab chiqarish bazasidagi laboratoriyalar va real buyurtmalar asosidagi loyihalar talabalarni real muammolar bilan ishlashga o‘rgatadi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida bajarilgan amaliy loyihalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning 40–60% gacha bo‘lgan ishlari ishlab chiqarish jarayonida qisman yoki to‘liq joriy etilishi mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Amaliy-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuv talabalarni mustaqil izlanishga, muammoni tahlil qilishga va innovatsion yechim ishlab chiqishga yo‘naltiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, loyiha asosida o‘qitilgan talabalar muammoli vaziyatlarni hal qilishda 30–35% yuqori natija ko‘rsatadi va ularning ijodiy fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, raqamli muhandislik va Industry 4.0 texnologiyalarining kirib kelishi kompetensiyalar tarkibini o‘zgartirmoqda. Bugungi muhandislar faqat mexanik bilimga emas, balki sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, IoT (Internet of Things) va raqamli modellashtirish tizimlarini ham bilishi zarur. Shu sababli ta’lim jarayonida CAD/CAM tizimlari, raqamli simulyatorlar va virtual laboratoriyalardan foydalanish talabalarning texnik kompetensiyalarini 25–40% gacha oshirishi amaliy tadqiqotlarda qayd etilgan.

Shunday qilib, CDIO yondashuvi va sanoat integratsiyasining uyg‘unlashuvi talabalarning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu model ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash orqali zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkonini yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, g‘oyani shakllantirish, loyihalash, amalga oshirish va foydalanish (CDIO) yondashuvi hamda sanoat integratsiyasiga asoslangan ta’lim modeli talabalarning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonini real ishlab chiqarish muhiti bilan uyg‘unlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash hamda talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi.

CDIO modelining bosqichma-bosqich qo‘llanilishi natijasida talabalar muammolarni aniqlash va tahlil qilish, texnik yechimlarni ishlab chiqish, loyihalarni amaliyotga joriy etish hamda ularning samaradorligini baholash bo‘yicha zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, sanoat korxonalari bilan hamkorlik asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvini tezlashtiradi, ularda innovatsion fikrlash, jamoada ishlash va muhandislik qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, CDIO va sanoat integratsiyasi asosida ta’lim olgan talabalar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash, loyihaviy faoliyatni tashkil etish, ishlab chiqarishdagi muammolarga yechim topish hamda mehnat bozori talablariga moslashish borasida yuqori natijalarga erishadilar. Natijada ularning kasbiy raqobatbardoshligi ortadi, ishga joylashish imkoniyatlari kengayadi va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritish samaradorligi oshadi.

CDIO yondashuvi va sanoat integratsiyasini oliy ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash hamda zamonaviy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 5th ed. – London: Open University Press, 2022. – 412 p.

2. Prince M., Felder R. Inductive Teaching and Learning Methods: Definitions, Comparisons, and Research Bases // Journal of Engineering Education. – 2021. – Vol. 110, No. 2. – P. 123–138.

3. Kolmos A., de Graaff E. Problem-Based and Project-Based Learning in Engineering Education. – Aalborg: Aalborg University Press, 2020. – 268 p.

4. Crawley, E.F., Malmqvist, J., Östlund, S., & Brodeur, D.R. (2014). Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. 2nd ed. Springer.

5. Crawley E.F., & Hosoi A. (2019). The CDIO Approach: A Framework for Engineering Education. Cambridge University Press.

6. Porter M.E. (1998). On Competition. Harvard Business School Press.

7. Etzkowitz H., & Leydesdorff L. (2000). The dynamics of innovation: from National Systems and “Mode 2” to a Triple Helix of university–industry–government relations. Research Policy, 29(2), 109-123. (“Uch spiral” modeli – ta’lim, fan va sanoat integratsiyasining nazariy asosi)

8. Etzkowitz H. (2008). The Triple Helix: University-Industry-Government Innovation in Action. Routledge. (Universitet-sanoat-davlat hamkorligi mexanizmlari)

9. Азизходжаева Н.Н. (2018). Педагогические технологии в подготовке современного учителя. Ташкент: Фан ва технология. (Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar)

10.Ходжаев Б.Х. (2020). Oliy ta’limda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (Oliy ta’limda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari)

11.Шарипов Ш.С. (2019). Oliy texnika ta’limi mazmunini takomillashtirish. Toshkent: Fan. (Texnika ta’limi mazmunini modernizatsiya qilish)

12.Джураев Р.Х. (2017). Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining pedagogik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. (O‘zbekiston sharoitida ta’lim-sanoat integratsiyasi muammolari)

13.Gaffarov X. R. Texnika oliy ta’lim muassasalarida cdio (conceive, design, implement, operate) yondashuvi asosida integrativ ta’lim muhitini shakllantirish va uni joriy etish usullari. Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. № 04-son, 2026. 222-227 b.

14.Gaffarov X. R. Texnik ta’lim tizimida CDIO (Conceive, Design, Implement, Operate) yondashuvining o‘rni va ahamiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў/ Илимий-методикалық журнал № 05-son, 2026. 56-62 b.

ВЫЯВЛЕНИЕ ПРОФИЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ИНЖЕНЕРНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО АНАЛИЗА

Эльманов Аббос Бегмат угли,
доцент кафедры “Промышленная инженерия и менеджмент”
Каршинского государственного технического университета
доктор философии (PhD) по техническим наукам
abboselmanov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-1429-3995
Мирзаумидов Асилбек Шухратжонович,
профессор кафедры “Технологические машины и оборудование”
Наманганского государственного технического университета
доктор технических наук (DSc)
bek_mirzaumidov@mail.ru
ORCID 0000-0002-2789-3721

В статье представлены результаты эмпирического выявления профилей профессиональной компетентности студентов инженерных направлений методом кластерного анализа k-средних. Объект исследования — 186 студентов двух технических университетов Узбекистана, обследованных с помощью диагностического инструмента MKD-S (пять доменов: мотивационно-ориентационный, саморегуляционный, цифрово-технологический, практически-операциональный, аналитически-задачный). На основании совокупности индексов — Силуэта (0,248), Калинского–Харабаша (102,4) и Дэвиса–Болдина (1,273) — оптимальным признано трёхкластерное решение, подтверждённое 200-кратным бутстрэпом (95% ДИ: [0,235; 0,322]).

Ключевые слова: *кластерный анализ, профиль компетентности, k-средних, инженерное образование, MKD-S, индекс Силуэта, дисперсионный анализ, дифференцированное обучение, типология обучающихся.*

IDENTIFICATION OF PROFESSIONAL COMPETENCY PROFILES IN ENGINEERING EDUCATION BASED ON CLUSTER ANALYSIS

This article presents the results of an empirical identification of professional competence profiles among engineering students using the k-means cluster analysis method. The study involved 186 students from two technical universities in Uzbekistan assessed with the MKD-S diagnostic instrument, which includes five domains: motivational-orientational, self-regulatory, digital-technological, practical-operational, and analytical problem-solving competencies. Based on a combination of clustering quality indices—Silhouette Index (0.248), Calinski–Harabasz Index (102.4), and Davies–Bouldin Index (1.273)—a three-cluster solution was identified as optimal and further confirmed through 200 bootstrap replications (95% CI: [0.235; 0.322]).

Keywords: *cluster analysis, competence profile, k-means clustering, engineering education, MKD-S, Silhouette Index, analysis of variance, differentiated instruction, learner typology.*

KLASTER TAHLILI ASOSIDA MUHANDISLIK TA’LIMIDA KASBIY KOMPETENTLIK PROFILLARINI ANIQLASH

Mazkur maqolada muhandislik yo‘nalishlari talabalari kasbiy kompetensiya profillarini k-o‘rtachalar (k-means) klaster tahlili usuli yordamida empirik aniqlash natijalari keltirilgan. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonning ikki texnika universitetida tahsil olayotgan 186 nafar talaba tanlangan bo‘lib, ular kasbiy kompetensiyani diagnostika qilishga mo‘ljallangan MKD-S instrumenti yordamida baholangan. Instrument beshta domenni qamrab oladi: motivatsion-yo‘naltiruvchi, o‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulation), raqamli-texnologik, amaliy-operatsion hamda analitik muammolarni hal etish kompetensiyalari. Klasterlash sifatini baholovchi Siluet indeksi (0,248), Kalinski–Xarabash indeksi (102,4) va Devis–Bouldin indeksi (1,273) natijalariga asoslanib, uch klasterli yechim optimal deb topildi hamda 200 martalik bootstrap protsedurasi orqali tasdiqlandi (95% IS: [0,235; 0,322]).

Kalit so‘zlar: *klaster tahlili, kompetensiya profili, k-o‘rtachalar usuli (k-means), muhandislik ta’limi, MKD-S, Siluet indeksi, dispersiya tahlili, differensial ta’lim, ta’lim oluvchilar tipologiyasi.*

Введение. Компетентностно-ориентированное образование (КОО) прочно утвердилось как ведущая парадигма в инженерной подготовке: стандарты ABET, рамочные документы CDIO и национальные образовательные концепции единодушно утверждают, что выпускник должен демонстрировать измеримые профессиональные компетентности, а не только накопленные знания. Вместе с тем исследовательская практика по-прежнему сосредоточена преимущественно на групповых средних, которые, будучи удобны для отчётности, скрывают то, что в статистике называют “вариацией внутри группы”. Два студента с одинаковым средним баллом могут иметь принципиально разные компетентностные профили: один силён в мотивации, но слаб практически; другой, напротив, демонстрирует высокую практическую компетентность при низкой цифровой грамотности. Педагогическое вмешательство, оптимальное для первого, окажется бесполезным для второго.

Кластерный анализ — индуктивный многомерный метод, позволяющий группировать объекты по их внутренней близости в многомерном пространстве признаков без заранее заданных гипотез о числе групп — открывает возможность перейти от агрегированного описания к типологическому. В применении к диагностике компетентности он позволяет выявить латентные профили, которые существуют в данных, но не видны при стандартном анализе.

Применение кластерного анализа в образовательных исследованиях насчитывает несколько десятилетий: от типологий стилей учения (Kolb, 1984) до выявления профилей академической успеваемости (Murtagh & Contreras, 2012). В контексте инженерного образования работы Shuman et al. (2005) заложили основу для многомерной оценки компетентностей, однако типологический подход остаётся редкостью: подавляющее большинство публикаций ограничивается описательной статистикой и регрессионными моделями. В постсоветском образовательном пространстве, к которому относится Узбекистан, эмпирические типологии студентов по профилям профессиональной компетентности практически отсутствуют.

Цель — выявить и содержательно охарактеризовать профили профессиональной компетентности студентов инженерных направлений методом кластерного анализа k-средних.

Задачи:

1. Определить оптимальное число кластеров на основании мультикритериального подхода (Силуэт, Калинский–Харабаш, Дэвис–Болдин).
2. Описать содержательное своеобразие каждого кластера по пяти доменам компетентности.
3. Верифицировать статистическую значимость межкластерных различий.
4. Установить, зависит ли принадлежность к кластеру от университета, курса и формы обучения.
5. Разработать матрицу дифференцированных педагогических вмешательств по профилям.

Метод. Данные собирались в марте 2026 г. посредством анонимного онлайн-опроса. После исключения анкет с пропущенными ответами и не прошедших встроенную проверку внимания итоговая аналитическая выборка составила N = 186 человек.

Таблица 1.

Характеристика выборки (N = 186)

Характеристика	КГТУ (n=101)	НГТУ (n=85)	Итого
Пол: мужской	81 (80,2%)	78 (91,8%)	163 (87,6%)
Пол: женский	20 (19,8%)	7 (8,2%)	23 (12,4%)
Форма: очная	43 (42,6%)	15 (17,6%)	58 (31,2%)
Форма: заочная	58 (57,4%)	70 (82,4%)	128 (68,8%)
1–2 курс	17 (16,8%)	9 (10,6%)	26 (14,0%)
3 курс	49 (48,5%)	12 (14,1%)	61 (32,8%)
4–5 курс	35 (34,7%)	64 (75,3%)	99 (53,2%)

Примечание. КГТУ — Каршинский государственный технический университет; НГТУ — Наманганский государственный технический университет.

2.2. Инструмент измерения: MKD-S

Инструмент MKD-S (Muhandislik ta’limida kasbiy kompetensiya diagnostikasi so‘rovnomasi) содержит 41 пункт по 5-балльной шкале Ликерта. Для анализа использовались 40 активных пунктов (1 пункт — проверка внимания исключён). Пункты с обратной полярностью (n=11) перекодировались. Инструмент измеряет пять доменов профессиональной компетентности:

Таблица 2.

Структура доменов MKD-S

Домен	Аббр.	Пунктов	α Кронбаха	Содержание
Мотивационно-ориентационный	МО	7	0,762	Осознанность выбора профессии, карьерная идентичность, профессиональный интерес
Саморегуляционный	СР	7	0,741	Целеполагание, планирование времени, поиск ресурсов, рефлексия
Цифрово-технологический	ЦТ	8	0,708	Работа с ИИ, инженерным ПО (CAD/Matlab), критическая оценка информации
Практически-операциональный	ПО	7	0,703	Лабораторные навыки, работа с оборудованием, техническая документация
Аналитически-задачный	АЗ	11	0,806	Декомпозиция проблем, сравнение решений, обучение на ошибках
Суммарный балл	—	40	0,910	—

Аналитическая процедура. Шаг 1. Стандартизация. Доменные баллы стандартизировались (Z-score) для устранения эффекта масштаба между доменами с разным числом пунктов. Шаг 2. Выбор числа кластеров. Апробировались решения k=2...7. Оптимальное число кластеров определялось по трём критериям одновременно: индекс Силуэта (Rousseeuw, 1987; выше — лучше), индекс Калинского–Харабаша — CH (выше — лучше), индекс Дэвиса–Болдина — DB (ниже — лучше).Шаг 3. Кластеризация. Алгоритм k-средних (MacQueen, 1967), параметры: n_init=20, random_state=42. Шаг 4. Верификация устойчивости. 200-кратный бутстрэп с пересчётом индекса Силуэта для k=3. Шаг 5. Содержательная валидация. Однофакторный ANOVA (F-тест, η^2); попарные t-тесты с поправкой Бонферрони; χ^2-тест для проверки независимости кластерной принадлежности от университета, курса, формы обучения и пола.

Результаты. Определение оптимального числа кластеров

Таблица 3.

Мультикритериальная оценка числа кластеров (k = 2...7)

k	Силуэт ↑	CH ↑	DB ↓	Размеры кластеров	Оценка
2	0,345	127,7	1,093	[117; 69]	Максимальные индексы, но решение слишком огрублено
3	0,248	102,4	1,273	[88; 57; 41]	✓ Оптимальный баланс всех критериев
4	0,223	86,8	1,468	[47; 70; 52; 17]	Кластер n=17 слишком мал
5	0,234	81,1	1,339	[22; 42; 46; 60; 16]	Два малых кластера
6	0,223	73,9	1,329	[27; 20; 15; 41; 40; 43]	Фрагментация
7	0,209	67,2	1,318	[24; 16; 29; 13; 39; 41; 24]	Два кластера n<15

Примечание. ↑ — чем выше, тем лучше; ↓ — чем ниже, тем лучше. Жирным выделено оптимальное решение.



Рисунок 1. Динамика индексов качества кластеризации (k = 2…7). Вертикальная пунктирная линия — выбранное решение k = 3.

● — значение индекса Вертикальная черта при k=3 = выбранное решение

Примечание к рисунку 1. k=2 даёт наилучшие абсолютные значения, однако такое решение содержательно слишком обобщённо — оно не различает студентов с умеренным и низким уровнем компетентности. k=3 обеспечивает содержательно интерпретируемые профили при приемлемых значениях всех трёх индексов. Бутстрэп-оценка (200 итераций) подтверждает устойчивость решения: 95%-й ДИ Силуэта не опускается ниже порога 0,20.

Профили компетентности трёх кластеров

Таблица 4.

Доменные профили трёх кластеров MKD-S (M ± SD, шкала 1–5)

Домен	**K1 «Зрелые» (n=57)**	**K2 «Функциональные» (n=88)**	**K3 «Развивающиеся» (n=41)**	**F**	**η²**
MO: Мотивационный	4,42 ± 0,49	3,76 ± 0,69	3,16 ± 0,77	44,70***	0,328
CP: Саморегуляция	4,59 ± 0,33	3,94 ± 0,46	3,05 ± 0,62	128,30***	0,584
ЦТ: Цифровой	4,56 ± 0,33	3,95 ± 0,45	3,08 ± 0,47	145,62***	0,614
ПО: Практический	4,50 ± 0,45	3,69 ± 0,48	3,07 ± 0,46	118,10***	0,563
АЗ: Задачный	4,62 ± 0,34	4,04 ± 0,44	3,30 ± 0,51	112,49***	0,551
Суммарный	4,54 ± 0,21	3,88 ± 0,20	3,13 ± 0,36	—	—

Примечание. P < 0,001. η² — эта-квадрат (размер эффекта): 0,06–0,14 — умеренный, > 0,14 — большой (Cohen, 1988).

Рисунок 2. Профили компетентности трёх кластеров (графический профиль доменных средних)



Рисунок 2. Профили доменных средних трёх кластеров. Вертикальные отрезки — 95% доверительные интервалы (±1,96 SE). МО — мотивационно-ориентационный; СР — саморегуляционный; ЦТ — цифрово-технологический; ПО — практически-операциональный; АЗ — аналитически-задачный.



Рисунок 3. Размеры эффекта d Коэна для попарных сравнений кластеров по каждому домену компетентности. Вертикальные пунктирные линии: |d| = 0,80 (большой эффект) и |d| = 1,50 (очень большой эффект) по Cohen (1988). Все значения рассчитаны с поправкой Бонферрони (α* = 0,0167).

Попарные сравнения кластеров

Таблица 5.

Попарные t-тесты с поправкой Бонферрони (порог значимости α = 0,0167)*

Домен	Пара	Δ ($M_1 - M_2$)	t	p	d Коэна	Интерп.
МО	К1 против К2	+0,66	−6,23	< 0,001***	−1,10	Большой
	К1 против К3	+1,26	−9,86	< 0,001***	−1,95	Очень большой
	К2 против К3	+0,60	−4,42	< 0,001***	−0,82	Большой
СР	К1 против К2	+0,65	−9,11	< 0,001***	−1,60	Очень большой
	К1 против К3	+1,54	−15,80	< 0,001***	−3,08	Экстремальный
	К2 против К3	+0,90	−9,13	< 0,001***	−1,63	Очень большой
ЦТ	К1 против К2	+0,62	−8,86	< 0,001***	−1,56	Очень большой
	К1 против К3	+1,48	−18,36	< 0,001***	−3,65	Экстремальный
	К2 против К3	+0,86	−9,93	< 0,001***	−1,86	Очень большой
ПО	К1 против К2	+0,81	−10,19	< 0,001***	−1,74	Очень большой
	К1 против К3	+1,44	−15,41	< 0,001***	−3,15	Экстремальный
	К2 против К3	+0,63	−7,03	< 0,001***	−1,34	Большой

А3	К1 против К2	+0,58	−8,44	< 0,001***	−1,47	Большой
	К1 против К3	+1,33	−15,40	< 0,001***	−3,05	Экстремальный
	К2 против К3	+0,74	−8,42	< 0,001***	−1,55	Очень большой

Примечание. *** p < 0,0003 (с поправкой Бонферрони для 3 сравнений). d Коэна: |d| < 0,50 — малый; 0,50–0,79 — умеренный; ≥ 0,80 — большой; ≥ 1,50 — очень большой; ≥ 3,00 — экстремальный.

Независимость кластерной принадлежности от демографических переменных

Таблица 6.

Результаты χ^2-тестов: кластерная принадлежность × демографические переменные

Переменная	Группировка	χ^2	df	p	V Крамера	Вывод
Университет	КГТУ / НГТУ	0,57	2	0,753	0,06	Независимы
Курс обучения	1–2 / 3 / 4–5	4,63	4	0,328	0,11	Независимы
Форма обучения	Очная / Заочная	4,96	2	0,084	0,16	Тенденция †
Пол	М / Ж	5,81	2	0,055	0,18	Тенденция †

Примечание. V Крамера: < 0,10 — слабая связь; 0,10–0,30 — умеренная. † — статистически не значимо при α = 0,05; наличие тенденции требует проверки на расширенной выборке.

Обсуждение. Содержательные характеристики кластеров К1 “Зрелые компетентные” (n=57; 30,6%). Профиль характеризуется высокими и равномерными значениями по всем доменам (М=4,42–4,62). Примечательно, что наибольшее значение демонстрирует аналитически-задачный домен (4,62), а наименьшее — мотивационно-ориентационный (4,42). Это указывает на то, что в данной группе когнитивные и операциональные компетентности несколько опережают ценностно-мотивационную составляющую. Согласно модели Дрейфуса (1980), данный профиль соответствует уровню “компетентного” и частично “умелого” исполнителя: студенты способны решать задачи системно, но профессиональная идентичность ещё не вполне сформирована.

К2 “Функциональные” (n=88; 47,3%). Самый многочисленный кластер демонстрирует умеренно-высокие значения по всем доменам (М=3,69–4,04). Особенно значимо, что практически-операциональный домен (3,69) здесь наиболее уязвим — более чем на 0,70 балла ниже аналитически-задачного (4,04). Это свидетельствует о характерном для традиционного академического образования дисбалансе: теоретические и аналитические навыки опережают прикладные. Данный профиль типичен для большинства студентов, успешно усваивающих учебную программу, но не достигающих производственной готовности.

К3 “Развивающиеся” (n=41; 22,0%). Наиболее уязвимый профиль с суммарным баллом 3,13 — лишь незначительно выше условного “минимального порога” (3,0). Особенно критично состояние саморегуляционного (3,05) и практически-операционального (3,07) доменов. Сочетание низкой саморегуляции и слабых практических навыков создаёт “двойную уязвимость”: студент не только не освоил прикладные умения, но и не располагает метакогнитивными стратегиями для их самостоятельного восполнения.

Доминирование аналитически-задачного домена

Наблюдается устойчивая закономерность: аналитически-задачный домен (А3) занимает первую позицию в рейтинге доменов для кластеров К1 и К2 и вторую — для К3. Это может свидетельствовать о том, что традиционная система инженерного образования в Узбекистане достаточно успешно формирует аналитические навыки через задачно-ориентированное обучение, тогда как практическая и цифровая компетентности развиваются менее целенаправленно.

Надинституциональный характер профилей

Отсутствие значимой связи между кластерной принадлежностью и университетом (p=0,753) — ключевой методологический результат. Он означает, что выявленные профили не являются артефактом различий между конкретными вузами, а отражают более общие закономерности формирования профессиональной компетентности. Практическая импликация: программы поддержки студентов К3 должны быть системными (на уровне образовательной политики), а не точечными мерами отдельного университета.

Ограничения исследования

Во-первых, данные основаны на самооценке, что создаёт риск смещения в сторону социальной желательности. Во-вторых, поперечный дизайн не позволяет отследить переходы между кластерами во времени. В-третьих, при k-средних алгоритм минимизирует внутрикластерную дисперсию, что

при наличии выбросов может приводить к нестабильным решениям — хотя бутстрэп-верификация указывает на достаточную устойчивость.

Рекомендации: матрица дифференцированных вмешательств

Таблица 7.

Матрица педагогических вмешательств по профилям компетентности

Направление	**K1 «Зрелые» — углубление**	**K2 «Функциональные» — развитие**	**K3 «Развивающиеся» — восстановление**
Мотивация и идентичность	Участие в реальных R&D-проектах; менторство над K2/K3; профессиональные конференции	Карьерные семинары; встречи с производственниками; кейс-методы	Мотивационные интервью; индивидуальный карьерный план; позитивные примеры из практики
Саморегуляция	Сложные мета-задачи; самостоятельное планирование проекта; рефлексивные портфолио	Тайм-менеджмент-практикум; недельные целевые протоколы; самоотчёты	Структурированные недельные планы; микро-цели с обратной связью; дневник обучения
Цифровые навыки	Продвинутый AI-инжиниринг; параметрическое CAD-моделирование; цифровые близнецы	Практические курсы CAD/Matlab; критический анализ ИИ-выходов; платформы симуляции	Базовая цифровая грамотность; сопровождаемая работа с инженерным ПО; пошаговые инструкции
Практические навыки	Диагностика сложных неисправностей; промышленные стажировки; нестандартные лабораторные задачи	Увеличение объёма лабораторных занятий; стандарты технической документации; работа с реальным оборудованием	Базовые операционные навыки под наблюдением; упрощённые лабораторные протоколы; постепенное усложнение
Решение задач	Инженерные соревнования; кейс-стади промышленного уровня; открытые задачи без единственного ответа	Структурированные алгоритмы декомпозиции; командные проекты; ретроспектива решений	Scaffold-метод: пошаговое решение с опорой; разбор прецедентов; снижение когнитивной нагрузки

Заключение. Проведённое исследование позволяет сформулировать пять ключевых выводов.

Вывод 1. Метод k-средних в сочетании с мультикритериальным подходом (Силуэт, CH, DB) и бутстрэп-верификацией позволяет выявить устойчивые, содержательно интерпретируемые профили профессиональной компетентности студентов инженерных направлений. Оптимальным для данной выборки является трёхкластерное решение.

Вывод 2. Три выявленных профиля — “Зрелые компетентные” (30,6%), “Функциональные” (47,3%) и “Развивающиеся” (22,0%) — дифференцированы по всем пяти доменам компетентности с большими и очень большими размерами эффектов (η^2=0,33–0,61; |d|=0,82–3,65).

Вывод 3. Профиль “Развивающихся” (K3) представляет наиболее уязвимую группу: критически низкие значения саморегуляционного (3,05) и практически-операционального (3,07) доменов создают “двойную уязвимость”, требующую целенаправленного педагогического вмешательства.

Вывод 4. Кластерная принадлежность не зависит от университета (p=0,753) и курса обучения (p=0,328), что означает надинституциональный характер выявленных профилей и необходимость системных, а не вузово-специфических мер поддержки.

Вывод 5. Аналитически-задачный домен стабильно занимает высшую позицию в рейтинге доменов внутри каждого кластера, тогда как практически-операциональный домен последовательно оказывается наиболее уязвимым, — что указывает на структурный дисбаланс между аналитической и прикладной подготовкой в инженерном образовании Узбекистана.

Литература:

1. Коэн Дж. (1988). Статистический анализ мощности для поведенческих наук (2-е изд.). Лоренс Эрлбаум.

2. Кроули Э. Ф., Мальмквист Дж., Эстлунд С., Бродёр Д. Р., и Эдстрём К. (2014). Переосмысление инженерного образования: подход CDIO (2-е изд.). Springer.

3. Дрейфус С. Э., и Дрейфус Х. Л. (1980). Пятиступенчатая модель умственных действий, связанных с направленным приобретением навыков. Калифорнийский университет.

4. Эверитт Б. С., Ландау С., Лиз, М., и Стал, Д. (2011). Кластерный анализ (5-е изд.). Уайли.

5. Хэйр Дж. Ф., Блэк В. С., Бабин Б. Дж., и Андерсон Р. Е. (2019). Многомерный анализ данных (8-е изд.). Cengage Learning.

6. Кауфман Л., и Руссеу П. Дж. (1990). Поиск групп в данных: введение в кластерный анализ. Уайли.

7. Колб Д. А. (1984). Опытное обучение: опыт как источник обучения и развития. Прентис Холл.

8. МакКуин Дж. (1967). Некоторые методы классификации и анализа многомерных наблюдений. Материалы 5-го Берклийского симпозиума по математической статистике и вероятности, 1, 281–297.

9. Муртаг Ф., и Контрерас П. (2012). Алгоритмы иерархической кластеризации: обзор. Междисциплинарные обзоры Wiley: анализ данных и открытие знаний, 2(1), 86–97.

10. Руссеу П. Дж. (1987). Silhouettes: графическое средство для интерпретации и валидации кластерного анализа. Журнал вычислительной и прикладной математики, 20, 53–65.

11. Шуман Л. Дж., Бестерфилд-Сакре М., и МакГурти, Дж. (2005). «Профессиональные навыки» ABET — Можно ли им преподавать? Можно ли их оценить? Журнал инженерного образования, 94(1), 41–55.

12. Циммерман Б. Дж. (2002). Становление саморегулируемым учеником: обзор. Теория в практике, 41(2), 64–70.

13. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

14. Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. (2023). Национальная рамочная структура обеспечения качества инженерного образования.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATI

Isroilova Rushshona Sunnatovna,
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’limni raqamlashtirish jarayonining mazmuni, xorijiy va milliy tajribalar, zamonaviy raqamli vositalarning pedagogik afzalliklari hamda ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga ta’siri yoritilgan. Axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, elektron resurslar, bulutli xizmatlar va interaktiv platformalardan foydalanishning metodik asoslari ochib berilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish, mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamonaviy raqamli muhitda tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy kompetentlik, raqamli ta’lim texnologiyalari, raqamlashtirish, raqamli kompetentlik, elektron ta’lim, axborot-ta’lim muhiti, ta’lim portallari, bulutli xizmatlar, interaktiv ta’lim, mustaqil ta’lim, didaktik imkoniyatlar.*

THE DIDACTIC POTENTIAL OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

This article presents a scientific and theoretical analysis of the didactic potential of digital educational technologies in developing the professional competence of prospective primary school teachers. It examines the essence of the digitalization of education, national and international experiences, the pedagogical advantages of modern digital tools, and their impact on the quality of professional training. The methodological foundations for the use of information and educational environments, educational portals, electronic resources, cloud services, and interactive platforms are revealed. Furthermore, methodological recommendations aimed at developing the digital competence of prospective teachers, enhancing independent learning activities, and improving the effectiveness of the educational process are proposed. The research findings contribute to improving the preparation of prospective primary school teachers for professional activities in a modern digital educational environment.

Keywords: *prospective primary school teacher, professional competence, digital educational technologies, digitalization, digital competence, e-learning, information and educational environment, educational portals, cloud services, interactive learning, independent learning, didactic potential.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье представлен научно-теоретический анализ дидактических возможностей цифровых образовательных технологий в развитии профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов. Рассмотрены сущность цифровизации образования, отечественный и зарубежный опыт, педагогические преимущества современных цифровых средств и их влияние на качество профессиональной подготовки. Раскрыты методические основы использования информационно-образовательной среды, образовательных порталов, электронных ресурсов, облачных сервисов и интерактивных платформ. Кроме того, предложены методические рекомендации, направленные на развитие цифровой компетентности будущих педагогов, активизацию их самостоятельной учебной деятельности и повышение эффективности образовательного процесса. Результаты исследования способствуют совершенствованию подготовки будущих учителей начальных классов к профессиональной деятельности в условиях современной цифровой образовательной среды.

Ключевые слова: *будущий учитель начальных классов, профессиональная компетентность, цифровые образовательные технологии, цифровизация, цифровая компетентность, электронное обучение, информационно-образовательная среда, образовательные порталы, облачные сервисы, интерактивное обучение, самостоятельное обучение, дидактический потенциал.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat hayotiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va elektron ta’lim tizimlarini rivojlantirish oliy ta’lim muassasalari talabalarining o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha yangi ilmiy-pedagogik g‘oyalarni shakllantirishda, ta’limdagi zamonaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishga hamda kadrlar tayyorlashga keng joriy etishning rivojlanish sur’atlarini tezlashtirishga olib keladi.

Raqamli va axborot texnologiyalari jarayoni global tendensiya bo‘lib, so‘nggi paytlarda ta’lim tizimida sodir bo‘lgan muhim jarayonlardan biridir. Shuning uchun ta’limni raqamlashtirishni rivojlantirishning asosiy bosqichlarini, ularning mohiyati va asosiy xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, axborotning kirib borishi nuqtai nazaridan pedagogik ta’lim amaliyotida raqamli texnologiyalarning asosiy bosqichlariga ta’limni kompyuterlashtirish, axborotlashtirish va raqamlashtirishni kiritish mumkin [1].

Bu esa kompyuterga asoslangan o‘quv jarayoni, kompyuterda o‘qitish usullarini yaratish, kompyuterga asoslangan o‘qitish tizimlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ayni paytda o‘quv jarayonining texnologik asoslarini ishlab chiqish natijasida real va virtual makonning uyg‘unligi bo‘lgan tubdan yangi gibrid dunyo shakllanmoqda. Shubhasiz, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonlarini qayta qurish, talabalarning raqamli dunyoqarashini shakllantirish va yangi kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu masalalar bo‘yicha J.Shmidt va T.Minlar tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lib, ular ta’limni raqamlashtirishning raqamli texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlaridan kelib chiqadigan transformatsion salohiyatini qayd etadilar [2].

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan ta’limni o‘ziga xos xususiyatlari o‘zgarib, o‘quv jarayonida elektron ta’lim resurslarni qo‘llanish ko‘lami oshadi. Bu esa oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

N.B.Strekalova tomonidan da’vo qilganidek, “ta’limni raqamlashtirish – bu raqamli o‘quv va uslubiy materiallarni o‘z ichiga olgan umumiy foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish, o‘quv jarayonini global axborot tarmog‘ida tashkil etish, zamonaviy mobil, bulutli va intellektual texnologiyalardan foydalanish, ommaviy ochiq o‘quv kurslari va resurslaridan keng foydalanishdir” [3]. M.P.Poxopova, O.I.Vaganovalarning fikriga ko‘ra, O‘quv jarayonini raqamlashtirish – bu axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va mashg‘ulotlardan foydalanish maqsadida birlashtirilgan usullar, jarayonlar va dasturiy-texnik vositalar tizimidir [4].

Shuningdek, ta’limni raqamlashtirishni ta’lim faoliyatini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va tarbiyalashda raqamli kontentdan foydalanish jarayoni yoki raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida ta’lim mazmuni va maqsadlarini modernizatsiya qilish sifatida tushunish lozim. Shubha yo‘qki, ta’limni raqamlashtirish ta’lim jarayonini hamda uning barcha ishtirokchilarining rolini tubdan o‘zgartiradi.

Bu borada Norvegiya va Daniya ta’limni raqamlashtirish ikki nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi: hukumat strategiyalari va xalqaro tashabbuslar ta’sirida rivojlanayotgan tashqi jarayon sifatida va raqamli texnologiyalarni joriy etishda faol o‘qituvchilar yoki kichik tuzilmalarning shaxsiy tajribasiga asoslangan ichki jarayon sifatida [5]. Xorijiy tadqiqotlar shuni ta’kidlaydiki, ta’limni raqamlashtirish tashkiliy masalalar, texnologik infratuzilma va pedagogik yondashuvlargacha bo‘lgan turli jihatlarni o‘z ichiga oladi hamda interfaol va moslashuvchan ta’lim dasturlarini taklif etuvchi xalqarolashtirishga ta’sir etadi. Deyarli barcha tadqiqotlar ta’limni raqamlashtirish insonlarda jamiyat va kasbiy muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish uchun moslashuvchan ko‘nikmalarni rivojlantirishni belgilaydi degan tushuncha bilan bog‘langan. Har qanday harakatlar va fikrlash jarayonlarini amalga oshirishning turli usullari o‘rtasida almashinishning moslashuvchanligi bo‘lgan ushbu noyob inson xususiyatining alohida roli Marvin Minski tomonidan o‘zining “Tuyg‘u mashinasi” kitobida ta’kidlangan va uni raqamli muhitda rivojlantirishning alohida imkoniyatlarini qayd etgan [6].

T.V.Nikulina va E.B.Starichenkonilarning ta’kidlaganidek, “ta’limni katta ma’lumotlar va ularga asoslangan texnologiyalar davri sifatida raqamlashtirish mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga, yangi ta’lim va kasbiy standartlarning yaratilishiga, bitiruvchilarning yangi kompetensiyalarini shakllantirishdagi dolzarblikka olib keladi hamda o‘quv jarayonini o‘zgartirishga, oflayn o‘qitishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga, o‘qituvchi rolini o‘zgartirishga qaratilgan” [7]. Bu esa ta’limning barcha bosqichlarida ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va o‘qitishni metodologik yondashuv tizimini o‘zgartirish zaruratini belgilaydi. Bu boradagi tadqiqot materiallarini umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, ta’limni

raqamlashtirishning maqsad va vazifalariga barcha darajadagi ta’lim tizimini raqamli o‘zgartirish orqali erishish mumkin.

Milliy tadqiqot universiteti, Iqtisodiyot oliy maktabi, Ta’lim instituti mutaxassislari hamda “Strategik tadqiqotlar markazi” ekspertlari tomonidan tayyorlangan ta’limni raqamli transformatsiya qilishning qiyinchiliklari va istiqbollari monografiyasida raqamli transformatsiya ta’lim rejalashtirilgan ta’lim natijalarini, ta’lim mazmunini, ta’lim ishlarining usullari va tashkiliy shakllarini yangilash hamda jadal rivojlanayotgan raqamli muhitda erishilgan natijalarni baholash orqali asoslanadi. Ta’limni raqamli transformatsiyalashning asosiy yo‘nalishlaridan biri shaxsiylashtirilgan va samarali ta’limga o‘tishdir. Biz mualliflarning fikriga qo‘shilamizki, ushbu sharoitda o‘quv jarayoni talabalarning shaxsiy o‘ziga xosligi va mustaqilligini rivojlantirish asosida uning shaxsiy ta’lim maqsadlari va ehtiyojlariga erishish bilan birga ijtimoiy jihatdan belgilangan kompetensiyalarini uyg‘un shakllantirish orqali qurilishi kerak.

Ta’lim va tarbiya jarayonini raqamlashtirishning dastlabki rivojlanishiga qaramay, ta’limning raqamli transformatsiyasi jarayonini tezlashtirgan yangi koronavirus infeksiyasi tarqalishi davrida raqamli texnologiyalarga o‘tish bo‘yicha misli ko‘rilmagan tajriba haqida gapirish mumkin. Xorijiy ta’lim tadqiqotchilari P.Andersson va L.G.Mattssonning ta’kidlashicha, koronavirus infeksiyasining tarqalishi ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga kuchli turtki bo‘lgan [8].

Raqamli ta’lim texnologiyasi uzluksiz ta’lim, uzluksiz ta’lim tushunchasi jinsi, yoshi, mulkiy holati, yashash joyi va boshqalardan qat’iy nazar, ta’lim jarayonining eng keng ijtimoiy guruhlarga kengaytirishdan iborat. Raqamli ta’lim texnologiyalari – ilm-fanning eng yangi yutuqlarini qo‘llash asosida o‘quv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan vosita bo‘lib xizmat qiladi

Ta’kidlash joizki, tadqiqotlarning ko‘rinib turgan keng qamroviga qaramay, ta’lim tizimini raqamli o‘zgartirish jarayoni va ta’limni raqamlashtirish bosqichining asosiy xususiyatlari hali ham o‘rganilmoqda va uning evolyutsiyasi jarayonida yanada aniqlashtiriladi. Ta’lim sifati va qulayligini oshirishda ta’limni raqamlashtirish alohida o‘rin tutadi. O‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish an’anaviy ta’lim tizimidan samaralisini olish va o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash hamda ta’minlashning elektron vositalaridan foydalanish imkonini beradi.

Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni, shu jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatda asoslash orqali oliy ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga tadbiq etish zarurligini anglatadi.

Jumladan, H.I.Xanbabayevning bildirishicha, “raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tadbiq etishga, raqamli bilimlarni va ko‘nikmalarni rivojlantirishga, hamkorlik hamda bilim almashishni rag‘batlantirishga yordam beradi” [9]. Shuningdek, quyidagi afzalliklarga ega:

1. Shaxsiylashtirilgan ta’lim: talabalar turli xil o‘rganish uslublariga ega bo‘ladi va individual ta’lim olishni ta’minlaydi;

2. O‘quv jarayoni faolligini oshiradi: raqamli texnologiya o‘rganishni yanada qiziqarli va interaktivligini ta’minlaydi, bu esa talabalarning diqqatini jamlash va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi;

3. Ko‘p resurslardan foydalanish: raqamli ta’lim texnologiyalari asosida talabalarga mavzu bo‘yicha kengroq tushuncha berish imkonini taqdim etadi;

4. Takomillashtirilgan hamkorlik: raqamli texnologiya talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni soddalashtirish, ularga loyihalar ustida birgalikda ishlash va fikr almashish imkonini beradi.

Klimovaning fikriga ko‘ra, “raqamli ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonida zamonaviy o‘quv vositasi bo‘lishini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, interaktiv o‘quv vositalar o‘quv ma’lumotlarni elektron raqamli shaklda taqdim etilgan va har qanday faoliyat sohasi bo‘yicha tizimlashtirilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olish asosida individual ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydi” [10].

Y.A.Shefer raqamli o‘quv vositalar talabalarning an’anaviy o‘quv vositalaridan ko‘ra ko‘proq o‘quv jarayoniga jalb qilishga qodir, deb hisoblaydilar. Bu kompyuter animatsiyasi imkoniyatlarini kiritilishi, turli elektron kurslarni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan samarali hisoblanadi [11]. Elektron o‘quv manbalaridan o‘rganilgan material talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun samarali hisoblanadi. Chunki uning vizual komponenti va o‘rganilgan materialning yuqori aniqligidir.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili ta’limni raqamlashtirishning hozirgi bosqichining quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonini qurishda ularning o‘zaro bog‘liqligini amalga oshirish:

- shaxs tomonidan qo‘yilgan muammolarni hal qiladigan va mustaqil ravishda (ya’ni uning ishtirokisiz) harakat qiladigan yagona axborot maydoni yoki raqamli ta’lim tizimining mavjudligi;

- ta’limni boshqarish va ta’lim mazmunini faol moslashtirish talabaning modullar, fanlar hamda umuman o‘quv dasturini o‘rganish dinamikasi va taraqqiyoti, tahliliy, bashoratli funksiyalari yoki talabaning raqamli birligi (masalan, individual ta’lim trayektoriyasini qurish, ta’lim mazmunini optimal tanlash va boshqalar) to‘g‘risidagi ko‘p miqdorda ma’lumotlardan foydalanish asosida amalga oshiriladi;

- sun’iy intellekt texnologiyalari, blokcheyn, virtual va to‘ldirilgan reallik texnologiyalari, bulutli xizmatlar va boshqalar kabi istiqbolli innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;

- zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli kompetentligini shakllantirishga ko‘maklashuvchi ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining faol muloqoti;

- raqamli elektron resurslarga bevosita ulanish;

- axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlar omborlari;

- shaxsiylashtirilgan va samarali ta’limni amalga oshirish, ya’ni ijtimoiy buyurtmalar, oliy ta’limning standarti bilan belgilanadigan hamda talabaning shaxsiy so‘rovlari asosida shakllantirilgan ta’lim natijalariga erishish.

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida elektron ta’lim (yoki onlayn ta’lim) tobora ko‘proq o‘rin egallaydi, u belgilangan xususiyatlarni amalga oshirish potensialiga ega bo‘lib, tubdan yangi pedagogik tizimlarni qurishni va rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish sharoitida o‘qitish usullari, yondashuvlari va uslubiy tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish asosida o‘quv jarayonini pedagogik loyihalash zarurligini ta’minlaydi. Shuning uchun ta’lim tizimining raqamlashtirish bosqichiga o‘tishi jamiyatning raqamli davrga ishonchli o‘tishini hamda iqtisodiyotni raqamli o‘zgartirish uchun kadrlar bilan axborot texnologiyalari, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlashi kerak.

Bu esa barcha bo‘lajak mutaxassislar kabi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim va tarbiya jarayoniga raqamli ta’lim texnologiyalarning tadbiq etish asosida o‘quv materialini mustaqil o‘rganishga va o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi. Shuningdek, raqamli ta’lim doimiy ravishda kengayib borayotgan global elektron resurslardan foydalanish orqali o‘quv jarayoni sifatini oshiradi, amaliy muammolarni hal qilishda hamda mustaqil tajribasini o‘zlashtirishga yordam beradi, ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini, intizomini, tashabbuskorligini rivojlantiradi, ijodiy faollikni rivojlantirishga yordam beradi hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ravishda o‘quv jadvalini yaratish va qulay vaqtda o‘qish imkonini beradi. Shuning uchun o‘z navbatida, raqamli ta’lim elementlarini qo‘llash orqali o‘quv jarayonini tashkil etish, eng avvalo, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil qo‘llash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Chunki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yosh avlodni tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, mustaqil ishlarni tashkil etishda raqamli ta’lim elementlaridan foydalanish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning malakasini samarali oshirish mumkin. Raqamli ta’lim muhit o‘z tarkibidagi o‘quv jarayonini barkamol tashkil etgan holda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning mustaqil ishini tashkil etish, ularni sifatli tayyorlash, yuqori malakali mutaxassis sifatida kamol topishida beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu olimlarning ishlarini tahliliga ko‘ra, axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari va ta’limga oid veb-saytlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlarini faollashtiradigan va o‘quv jarayonini optimallashtiradigan prinsipial jihatdan yangi ta’lim maydonini yaratadi. Bunda mashg‘ulotlar 24/7 ga amal qilinadi. O‘quv materiallarining kecha-yu kunduz mavjudligi tufayli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining istalgan qulay vaqtda mustaqil o‘qishi mumkin. Bunda ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlari hajmini oshirishga, auditoriya darslari sonini sezilarli darajada qisqartirish va mustaqil ta’lim olishlari uchun soatlar sonini oshirish imkonini beradi hamda mustaqil ishini tashkil etish vositalarini kengaytiradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning mustaqil ishi davomida mashg‘ulotlarni tashkil etish vositalari nafaqat qog‘ozdagi an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, balki turli xil raqamli ta’lim resurslari: elektron kutubxonalar, media portallar, elektron o‘quv kurslari, elektron darsliklardir. Shu bilan birga quyidagilarni ta’minlaydi:

- axborot turlari va manbalarini kengaytirish. Mustaqil ish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faqat ma’lumotlar bazalari va bilimlari bilan emas, balki audiovizual axborotlar, virtual laboratoriyalar, o‘quv dasturlari va test vositalaridan talaba bilim olish jarayonida foydalanish imkonini beruvchi mediatexnologiyalardan foydalangan holda ham amalga oshirish;

- ta’lim jarayonini nazorat qilishning yangi vositalari. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy faoliyati elektron pochta, veb-sayt yoki Internet orqali nazorat qilinadi. Deyarli har qanday vaqtda bo‘lajak o‘qituvchilar va professor-o‘qituvchi o‘rtasida fikr-mulohazalarni tashkil qilish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim va tarbiyaviy jarayonini tashkil etish

boshqa o‘qitish usullari qatorida elektron vositalar muhim o‘rin egallamoqda va o‘quv jarayonining ajralmas elementiga aylanadi. Multimedia va internet texnologiyalari ishni qulay vaqtda bajarish uchun ko‘plab imkoniyatlarni beradi, bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining harakatchan faoliyatga yo‘naltiradi va bajarilgan vazifalarga nisbatan uning mustaqilligi va mas’uliyatini tarbiyalaydi.

Keltirilgan nazariy tahlillar asosida aytish mumkinki raqamli ta’lim texnologiyalardan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda foydalanish samarali hisoblanadi. Chunki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda axborot ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan va ta’limga oid veb-saytlardan, bulutli xizmatlardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- interaktivlik va uzluksizlik. Virtual muloqotda professor-o‘qituvchi va bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning yuqori darajasi, o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi;

- norasmiylik. Rasmiy o‘zaro munosabatlardan tashqari professor-o‘qituvchi va bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida norasmiy o‘zaro aloqa ham mavjud bo‘lib, bu shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etadi;

- ochiqlik. Tarmoqda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati maqsadlarida foydalanish uchun ko‘p miqdordagi ochiq materiallar taklif etiladi, global tarmoqda materiallarni nashr qilish jarayoni soddalashtirilgan, yuqori darajadagi multimedia, ko‘rinishga ega materiallar markazlashtirilgan holda saqlanadi;

- mashg‘ulotlarni zamonaviy vositalar asosida loyihalash. Bo‘lajak o‘qituvchilar raqamli o‘quv vositalar, shu jumladan, ta’lim platformalar asosida darslarni loyihalashga oid ijodiy qobiliyati rivojlanadi;

- moslashuvchanlik. Bo‘lajak o‘qituvchilarga ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda individual va guruhli ish shakllarining o‘zaro bog‘lanishiga, materialni ko‘proq tushunish, o‘zlashtirishga yordam beradi, jarayonlar va natijalarni jamoaviy baholash, rivojlanish monitoringi uchun imkoniyat yaratadi;

- o‘zgartirish imkoniyati. Bo‘lajak o‘qituvchilarga mustaqil yoki birgalikda tarmoq ta’lim mazmunini yaratish imkoniyatini beradi: loyihalar, ensiklopediyalar va boshqalar hamda mustaqil bilim va ijodiy faoliyatni oshirish;

- guruh bo‘lib faoliyat ko‘rsatish. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy faoliyatiga oid o‘zaro hamkorlikning guruh shakllariga jalb qilish, professor-o‘qituvchilar tomonidan muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish xizmatlaridan foydalanishni taqdim etadi;

- innovatsionlik. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim va tarbiya jarayoniga an’anaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyati, o‘qitishning mavjud shakl va usullarini qo‘llash chegaralarini kengaytirish, ilg‘or pedagogik tajribaning keng tarqalishini ta’minlaydi;

- meta-obyektivlik. Tarmoq ijtimoiy xizmatlari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashdagi o‘quv fanlari integratsiyasiga yordam beradi, universal meta-bilimlarni yaratadi;

- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan olingan ma’lumotlarni har tomonlama baholash va taqqoslash ko‘nikmalarini oshirish, ularning tanqidiy muhokama qilish shart bo‘lgan muhitga jalb qilishni ta’minlaydi;

- ko‘p komponentli. Ta’lim muhitlari ko‘p komponentli muhit bo‘lib, bunda lozim bo‘lgan dasturiy ta’minot, o‘quv materiallari, o‘quv va bilimlarni boshqarish tizimlari, ma’lumotlar bazalari hamda axborot-ma’lumot tizimlari, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli xil ma’lumotlar omborlarini o‘z ichiga oladi;

- yaxlitlik. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga doir Jahon resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan fan va texnologiya sohalari bo‘yicha asosiy bilimlarning barcha zarur to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Raqamli ta’lim tizimining yana bir ijobiy tomonlari – bu global tarmoqda mavjud bo‘lgan dunyoning istalgan nuqtasidan dars mashg‘ulotlarida qatnasha olish imkoniyatini beruvchi va undan foydalanishni qulay bo‘lgan tizimlar hamda onlayn ofislar orqali hujjatlarni topshirish tizimlari faol foydalanishni taqdim etadi.

“Raqamli ta’lim texnologiyalarning, shu jumladan, axborot-ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan va ta’limga oid veb-saytlardan, bulutli xizmatlarni imkoniyatlariga oid yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarini tahliliga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, degan xulosaga kelindi” [12].

Tahlil va natija. Raqamli ta’lim texnologiyalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Ushbu uslubning hozirgi bosqichdagi innovatsionligi professor-o‘qituvchilar va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv va mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mutaxassislik fanlarga oid mashg‘ulotlarni an’anaviy o‘qitish metodikasi va usullari ma’lum afzalliklarga ega, ammo ular zamonaviy axborot jamiyatida rivojlanishi va o‘zini-o‘z rivojlantirishiga to‘liq yordam bera olmaydi. Mashg‘ulotlarda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanish o‘qitish metodlari va usullarini o‘zgartirishga, mashg‘ulot elementlarini strukturalashga, har xil

turdagi ma’lumotlar hajmini oshirishga yordam beradi hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual faolligini, ijodiy tashabbusi va mustaqil faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, eng passiv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham yuqori ishtiyoq bilan faol ish bilan shug‘ullanadilar, ularda kreativ fikrlash va hal qilinayotgan muammolarga ijodiy yondashish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi uslubiy yondashuv taklif etiladi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar orasida raqamli kompetensiyaning hozirgi darajasini baholash: har qanday dasturni amalga oshirishdan oldin, talabalar o‘rtasidagi raqamli kompetentlikni (kompyuterning amaliy va instrumental dasturlaridan, ta’limiy muhitlar va loyihalashga doir pedagogik dasturiy vositalardan, ta’lim portallari hamda mobil texnologiyalardan foydalanish darajasi) hozirgi darajasini baholash muhimdir. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarga ko‘proq yordam va yo‘l-yo‘riq hamda kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi;

2. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun texnologiyani o‘zida mujassamlashtirgan o‘quv dasturini ishlab chiqish: o‘quv dasturi texnologiyani ta’lim va tarbiya jarayoning faoliyatiga integratsiyalash uchun ishlab chiqilishi kerak. Bu onlayn resurslardan, multimedia taqdimotlaridan va interaktiv dasturlardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin;

3. Professor-o‘qituvchilar uchun treninglar o‘tkazish: professor-o‘qituvchilar darsda texnologiyadan samarali foydalanishga o‘rgatishlari kerak. Bu maxsus dasturiy ta’minot yoki onlayn vositalardan foydalanish bo‘yicha treningni o‘z ichiga olishi mumkin;

4. Hamkorlik va jamoaviy ishlarni rag‘batlantirish: bo‘lajak o‘qituvchilar texnologiyadan foydalanishni talab qiladigan loyihalarda birgalikda ishlashga undash kerak. Bu ularga jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga va bir-biridan o‘rganishga yordam beradi;

5. Texnologiyadan foydalanishni ta’minlash: ta’lim muassasalarida barcha bo‘lajak o‘qituvchilar uchun texnologiyadan foydalanish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Bu auditoriyada foydalanish uchun noutbuklar yoki planshetlar bilan ta’minlash yoki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kutubxona yoki kompyuter laboratoriyasidagi kompyuterlardan foydalanishini ta’minlashni o‘z ichiga olishi mumkin;

6. Rivojlanishni kuzatib borish va lozim bo‘lganda dasturni takomillashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muvaffaqiyatini kuzatish va kerak bo‘lganda dasturni moslashtirish muhimdir. Bu bo‘lajak o‘qituvchilar ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun kurashayotgan yoki o‘quv dasturini o‘zgartirayotganlarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, nazariy tahlillar asosida aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanishni shakl va usullarni ishlab chiqish lozim. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilar global tarmoqning imkoniyatlaridan kasbiga oid manbalarni mustaqil o‘rganishga va kasbiy faoliyatida darslarni raqamli vositalar asosida loyihalashga oid kompetentligi rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. Вайнштейн Ю.В. Педагогическое проектирование персонализированного адаптивного предметного обучения студентов вуза в условиях цифровизации // Диссертация на соискание учёной степени доктора педагогических наук. – Красноярск, 2021. – 425 с.

2. Schmidt, Joel T. Digitalization in Education: Challenges, Trends and Transformative Potential, in Führen und Managen in der digitalen Transformation / J.T. Schmidt, and T. Min [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.econlib.org/library/Enc/CreativeDestruction.html.

3. Стрекалова Н.Б. Риски внедрения цифровых технологий в образовании // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. – 2019. – Т. 25. – № 2. – С. 84-88.

4. Прохорова М.П., Ваганова О.И. Участие преподавателей вуза в разработке открытых онлайн-курсов // Отечественная и зарубежная педагогика. 2019. Т. 1. № 5 (62). С. 90-103

5. Tømte C.E. Digitalisation in higher education: mapping institutional approaches for teaching and learning / C.E. Tømte, T. Fossland, P.O. Aamodt, L. Degn // Quality in Higher Education. – 2019. – Vol.25. – №1. – P.98-114

6. Minsky M. The Emotion Machine: Commonsense Thinking, Artificial Intelligence, and the Future of the Human Mind. – New York: Simon&Schuster, 2007. – 400 p.

7. Никулина Т.В. Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии, управление / Никулина Т.В., Стариченко Е.Б. // Педагогическое образование в России. – 2018. – № 8. – С. 107-113.

8. Andersson P. Future digitalization of education after Covid-19 / P. Andersson, L.G. Mattsson [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.hhs.se/contentassets/419c7b2f06a94ee183bf52ca748c98b5/a54.pdf .

9. Xanbabayev H.I. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Qo‘qon, 2023. – 243 b.

10. Климова Т.В. Формирование готовности будущих учителей начальных классов к проектированию образовательного контента // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Севастополь, 2022. – 24 с.

11. Шефер Е. А. Использование цифровых технологий в образовательном процессе / Е. А. Шефер. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 16 (358). – С. 22-25. — URL: https://moluch.ru/archive/358/79973/ (дата обращения: 06.03.2025).

12. Isroilova R.S. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Toshkent, 2025. – 168 b.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK MEXANIZMLARI

Nurmetov Xushnud Safarbayevich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
x.nurmetov@cspu.uz

Mazkur maqolada malaka oshirish jarayonida biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirishning pedagogik-metodik mexanizmlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi pedagoglarning kasbiy faoliyatiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, biologiya fanini o‘qitishda raqamli resurslardan samarali foydalanish, virtual laboratoriyalar, elektron platformalar va interaktiv metodlarni qo‘llash o‘qituvchining raqamli kompetentligini rivojlantirishni talab etadi. Maqolada biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni, malaka oshirish jarayonida qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar hamda takomillashtirilgan modelning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetensiya, biologiya ta’limi, malaka oshirish, pedagogik mexanizm, metodik model, raqamli ta’lim muhiti, axborot texnologiyalari.*

ПЕДАГОГИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

В данной статье освещаются педагогико-методические механизмы совершенствования модели развития цифровых компетенций учителей биологии в процессе повышения квалификации. Широкое внедрение цифровых технологий в современную систему образования предъявляет новые требования к профессиональной деятельности педагогов. В частности, эффективное использование цифровых образовательных ресурсов, виртуальных лабораторий, электронных платформ и интерактивных методов в преподавании биологии требует развития цифровой компетентности учителя. В статье проанализированы содержание формирования цифровых компетенций учителей биологии, методические подходы, применяемые в процессе повышения квалификации, а также педагогические условия реализации усовершенствованной модели.

Ключевые слова: *цифровая компетенция, биологическое образование, повышение квалификации, педагогический механизм, методическая модель, цифровая образовательная среда, информационные технологии.*

PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL MECHANISMS FOR IMPROVING THE MODEL OF DEVELOPING BIOLOGY TEACHERS’ DIGITAL COMPETENCIES IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT PROCESS

This article examines the pedagogical and methodological mechanisms for improving a model of developing the digital competencies of biology teachers within the professional development process. The widespread integration of digital technologies into the modern education system has created new requirements for teachers’ professional activities. In particular, the effective use of digital educational resources, virtual laboratories, electronic platforms, and interactive teaching methods in biology education necessitates the development of teachers’ digital competence. The article analyzes the content and structure of biology teachers’ digital competency development, the methodological approaches employed in professional development programs, and the pedagogical conditions required for the implementation of the improved model.

Keywords: *digital competence, biology education, professional development, pedagogical mechanism, methodological model, digital learning environment, information technologies.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlari jadallashib bormoqda. Ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini takomillashtirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli muhitni rivojlantirish, pedagoglarning axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1].

Zamonaviy o‘qituvchidan nafaqat o‘z fanini chuqur bilish, balki raqamli vositalarni pedagogik jarayonga samarali integratsiya qila olish kompetensiyasi ham talab etiladi. Xususan, biologiya fani o‘zining amaliy va tajribaviy xususiyatlari bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Tirik organizmlar, biologik jarayonlar va tajribalarni o‘rganishda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli malaka oshirish jarayonida biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan model va metodik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli kompetensiya tushunchasi zamonaviy pedagogning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va amaliy tajribalar majmuini ifodalaydi. Pedagogning raqamli kompetentligi axborotni izlash, qayta ishlash, elektron resurslarni tanlash, raqamli vositalarni dars jarayoniga moslashtirish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatlarini qamrab oladi [5].

Biologiya o‘qituvchisining raqamli kompetentligini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

• **axborot komponenti** – raqamli axborotlarni izlash, saralash va tahlil qilish qobiliyati;

• **texnologik komponent** – kompyuter dasturlari, elektron platformalar va raqamli vositalardan foydalanish malakasi;

• **metodik komponent** – raqamli texnologiyalarni biologiya darsi mazmuniga moslashtirish ko‘nikmasi;

• **ijodiy komponent** – yangi elektron ta’lim mahsulotlarini yaratish va pedagogik faoliyatga tatbiq etish qobiliyati.

Pedagogik texnologiyalarni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi nafaqat texnik imkoniyatlarni, balki ularning didaktik imkoniyatlarini ham anglab yetishi zarur [2]. Biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish modeli uzviy bog‘langan bir necha bosqichlardan tashkil topadi.

Birinchi bosqich – diagnostik bosqich. Ushbu bosqichda pedagoglarning mavjud raqamli bilim va ko‘nikmalari aniqlanadi. Bunda testlar, amaliy topshiriqlar, suhbat va kuzatish metodlaridan foydalaniladi. Olingan natijalar asosida o‘qituvchining individual rivojlanish yo‘nalishi belgilanadi.

Ikkinchi bosqich – mazmuniy bosqich. Mazkur bosqichda malaka oshirish dasturlariga biologiya fanini o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy raqamli vositalar kiritiladi. Jumladan, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, animatsion modellar va interaktiv platformalardan foydalanish metodikasi o‘rgatiladi.

Uchinchi bosqich – amaliy faoliyat bosqichi. Bu jarayonda pedagoglar o‘z fanlari bo‘yicha elektron ta’lim resurslarini yaratish, raqamli topshiriqlar ishlab chiqish va zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini amalda qo‘llash tajribasini egallaydilar.

To‘rtinchi bosqich – refleksiv baholash bosqichi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘zining raqamli faoliyatini tahlil qiladi, erishilgan natijalarni baholaydi va kelgusidagi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, aralash ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va hamkorlik metodlari samarali natijalar beradi[3].

Aralash ta’lim modeli an’anaviy mashg‘ulotlarni elektron ta’lim vositalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarga mustaqil ta’lim olish, raqamli resurslardan foydalanish va o‘z bilimlarini amaliy faoliyat bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Loyiha metodidan foydalanish orqali biologiya o‘qituvchilari o‘z faniga oid elektron mahsulotlarni yaratishga jalb qilinadi. Masalan, biologik jarayonlarni tushuntiruvchi elektron taqdimotlar, virtual tajribalar yoki interaktiv topshiriqlar ishlab chiqilishi mumkin.

Raqamli kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik, texnologik va fan mazmuniga oid bilimlarning integratsiyasi muhim hisoblanadi. Bu yondashuv o‘qituvchiga raqamli vositalarni oddiy texnik imkoniyat sifatida emas, balki ta’lim samaradorligini oshiruvchi metodik vosita sifatida ko‘rish imkonini beradi[6].

Biologiya fanida raqamli texnologiyalar murakkab jarayonlarni tushuntirishda katta imkoniyatlarga ega. Masalan, hujayra tuzilishi, genetik jarayonlar, ekologik tizimlar va fiziologik hodisalarni modellashtirish orqali o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga erishish mumkin. Virtual laboratoriyalar real tajriba o‘tkazish imkoniyati cheklangan holatlarda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar o‘qituvchidan yuqori darajadagi raqamli va metodik tayyorgarlikni talab etadi [4]. Xalqaro tajribada ham pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida e’tirof etiladi [10].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi pedagoglarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yilayotgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan,

biologiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, elektron ta’lim platformalari va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni muhim pedagogik vazifa sifatida belgilamoqda.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari xalqaro miqyosda keng tadqiq etilgan. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT)” modeli pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab beradi. Mazkur modelda o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi, bilimlarni chuqurlashtirish va bilim yaratish kompetensiyalarini shakllantirish muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etilgan.

Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu (Digital Competence Framework for Educators) modeli esa pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish uchun keng qo‘llaniladigan metodologik asos hisoblanadi. Ushbu model oltita kompetensiya sohasi va yigirma ikkita kompetensiyani o‘z ichiga olib, pedagoglarning kasbiy hamkorligi, raqamli resurslardan foydalanishi, o‘quv jarayonini tashkil etishi, baholash faoliyati va o‘quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini qamrab oladi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda onlayn kurslar, vebinarlar, virtual laboratoriyalar va elektron ta’lim platformalarining samaradorligi alohida ta’kidlanmoqda. Tadqiqotchilar biologiya ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari raqamli vositalardan foydalanishda fan mazmuni bilan pedagogik texnologiyalar integratsiyasini talab qilishini qayd etadilar.

O‘qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha xorijlik olimlardan C. Redecker, E. Instefjord, E. Munthe, F. Pettersson, R. Scherer, F. Siddiq, J. Tondeur, J. Guggemos, S. Seufert izlanishlar olib borishgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchilarning AKT kompetentligini shakllantirish borasidagi ilmiy-nazariy asoslarni I. Zimnyaya, A. Khutorskoy, I. Robert, E. Polat tadqiq etishgan. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida raqamli kompetentlikni metodik qo‘llab-quvvatlash va monitoring qilish bo‘yicha S. Avdeeva, O. Zaichkina, N. Nikulicheva, S. Khapayeva, V. Korshunova, A. Abramov, I. Shnaider, A. Glukhov, O. Kamneva, I. Solomina ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O‘zbekistonda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini axborot texnologiyalari muhitida rivojlantirish nazariy-uslubiy masalalari N. Muslimov, I. Eshmamatov, S. Ruzmetova, T. Jo‘rayev tomonidan ko‘rib chiqilgan. Xususan, biologiya o‘qitish metodikasi va virtual laboratoriyalar asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish masalalari bo‘yicha M. Boratova, M. Ataqulova, F. Murodova ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mazkur tadqiqotda nazariy va empirik tadqiqot metodlari majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogika, biologiya ta’limi metodikasi va raqamli ta’limga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro kompetensiya modellari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Empirik bosqichda biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini aniqlash maqsadida kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv hamda raqamli pedagogika tamoyillariga asoslandi. Shuningdek, biologiya o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayonida raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish modeli tarkibiy-komponentli yondashuv asosida ishlab chiqildi va uning motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat hamda refleksiv-baholash komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Xulosa. Malaka oshirish jarayonida biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik va metodik mexanizmlarga asoslangan takomillashtirilgan model zarur. Taklif etilgan model diagnostika, mazmunni shakllantirish, amaliy faoliyat va refleksiya bosqichlarining uzviyligi asosida tashkil etiladi. Mazkur yondashuv biologiya o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini ta’minlash, raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, biologiya o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish tizimini takomillashtirish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.

3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.

4. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования. – Москва: ИИО РАО, 2014. – 356 с.

5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3.0. – Paris: UNESCO, 2018. – 64 p.

6. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol.108(6). – P.1017–1054.

7. Шарипов Ш.С., Абдурахмонов Б.М. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 180 б.

8. Андреев А.А. Дистанционное обучение и дистанционные образовательные технологии. – Москва: МЭСИ, 2017. – 286 с.

9. Хуторской А.В. Современная дидактика. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 544 с.

10. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.

UO‘K 373.51/.52.016:531.3:004.9

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MUAMMOVIY TA’LIM STEAM TA’LIMI UCHUN DIDAKTIK ASOS SIFATIDA

Qayumova Kumush Abdurazzoq qizi,
Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti
kumushqayumova74@gmail.com

Ushbu ishda STEAM ta’lim texnologiyasini o‘quv jarayoniga integratsiya qilishda muammoviy ta’limning metodologik asosi tahlil qilinadi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muhandislik dizayni va kreativ yondashuvni shakllantirishda muammoli vaziyatlarning o‘rni yoritilgan. Muammoga asoslangan o‘qitishning asosiy turlari va usullari, funksiyalari, elementlari hamda xususiyatlari, muammoli vaziyatlar uchun talablarni shakllantirish yo‘llari keltirilgan. Muammoli o‘qitishning an’anaviy o‘qitishga nisbatan afzalliklar va tegishli kamchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *dialektik, integratsiya, kognitiv, modellashtirish, mantiqiy, STEAM texnologiyasi,*

ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК ДИДАКТИЧЕСКАЯ ОСНОВА ДЛЯ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

В данной работе анализируются методологические основы проблемно-ориентированного обучения при интеграции STEAM-образования в образовательный процесс. Подчёркивается роль проблемных ситуаций в формировании критического мышления, инженерного проектирования и творческого подхода у учащихся. Представлены основные типы и методы проблемно-ориентированного обучения, их функции, элементы и особенности, а также способы формулирования требований к проблемным ситуациям. Указаны преимущества и соответствующие недостатки проблемно-ориентированного обучения по сравнению с традиционным обучением.

Ключевые слова: *диалектический, интеграционный, когнитивный, моделирование, логический, STEAM-технологии.*

PROBLEM-BASED LEARNING AS A DIDACTIC BASIS FOR STEAM EDUCATION IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

This work discusses the idea of problem-based learning as a basis for the STEAM education system. The main goal of STEAM education is to focus on a practical task or problem. The main types and methods of problem-based learning, functions, elements and features, and ways to formulate requirements for problem situations are presented. The advantages and corresponding disadvantages of problem-based learning over traditional learning are indicated.

Keywords: *dialectical, integration, cognitive, modeling, logical, STEAM technology,*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa o‘quvchilarga faqat nazariy bilimlarni berish emas, balki ularni hayotiy muammolarni hal qilishga o‘rgatishdan iboratdir. STEAM ta’limi fanlararo bog‘liqlikni ta’minlasa, Muammoviy ta’lim esa ushbu jarayonning asosi bo‘lib hisoblanadi. Aksariyat umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq kasblarni egallash uchun zarur bo‘lgan fanlararo bilimlarni rivojlantira oladigan o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj yaqqol sezilmoqda. Bu muammoni hal qilishning usullaridan biri - turli fan sohalarini: fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san’atni integratsiyalashni o‘z ichiga olgan STEAM ta’limidan foydalanishni yo‘lga qo‘yishdir.

Muammoviy ta’limning nazariy asoslari (Klassik yondashuv). Muammoviy ta’lim mustaqil didaktik yo‘nalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo‘lsa-da, uning ildizlari Jon Dyui (John Dewey)ning “Pragmatik pedagogika” va “Amalga oshirish orqali o‘rganish” nazariyasiga borib taqaladi. Didaktik olimlar J.Bruner, I.Ya.Lerner, M.I.Mahmutov va M.N.Skatkinlar muammoviy ta’limning fundamental qoidalarini ishlab chiqqanlar.

M.I.Mahmutov o‘zining ilmiy ishlarida muammoviy ta’limni *“O‘quvchi to‘sqinlikka (muammoli vaziyatga) duch kelganda unda paydo bo‘ladigan ichki ziddiyatni bartaraf etish jarayoni”,* – deb ta’riflaydi. U muammoli vaziyat yaratish, muammoni shakllantirish, gipoteza (taxmin) ilgari surish va uni isbotlash bosqichlarini aniq belgilab bergan.

I.Ya.Lerner muammoviy ta’limni o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning eng samarali usuli sifatida asoslagan.

- Tadqiqot metodologiyasi.

STEAM va Muammoviy ta’limning o‘zaro aloqasi

STEAM - dunyo ta’lim tizimining eng asosiy innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi.

STEAM darslarida muammo markaziy o‘rinda turadi. O‘quvchi loyiha ustida ishlash davomida quyidagi didaktik bosqichlarni bosib o‘tadi (1-jadval):

1-jadval.

Didaktik bosqichlar

Bosqich	STEAM komponenti	Muammoviy ta’lim elementlari
Savol qo‘yish	Science (Fan)	Muammoli vaziyatni idrok etish
Gipoteza	Technology	Yechim taxminlarini ishlab chiqish
Modellashtirish	Engineering	Muammoni amaliy hal qilish (prototip)
Dizayn	Arts	Estetik va kreativ yondashuv
Hisoblash	Mathematics	Ma’lumotlarni tahlil qilish va aniqlik

Didaktik jarayon modeli

Muammoviy ta’lim asosidagi STEAM darsi an’anaviy darsdan tubdan farq qiladi. Quyida ushbu jarayonning vizual sxemasini keltiramiz (1-rasm):



1-rasm. Muammoviy ta’lim asosidagi STEAM darsning vizual sxemasi

STEAM texnologiyasi nafaqat muhandislik va tabiiy fanlarni, balki gumanitar fanlar va ijodiy san’atni ham o‘z ichiga oladi, bu esa ijodiy fikrlashni rivojlantirishga asos bo‘ladi. Tarixga nazar solcak, Leonardo da Vinchi ham san’at va fanning fanlararo integratsiyasi zarurligiga ishongan.

Muammoli o‘rganish tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish usuli sifatida

Ta’limda STEAM yondashuvining asoslaridan biri muammoga asoslangan o‘qitishdir, chunki STEAM ta’limining asosiy maqsadi amaliy vazifa yoki muammoga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Muammoga asoslangan o‘qitish - bu o‘quvchilarning faoliyatini real dunyodagi nazariy va amaliy muammolarni hal qilish orqali ma’lumot olishga asoslangan holda tashkil etish usulidir.

Muammoga asoslangan o‘qitish - bu o‘qituvchi dars davomida muammoli vaziyatni taqdim etadigan va o‘quvchilar uni mustaqil ravishda hal qiladigan o‘qitish tizimi hisoblanadi.

Muammoga asoslangan o‘qitish g‘oyasi yangilik emas. O‘tmishdagi eng buyuk o‘qituvchilar har doim o‘quv jarayonini qiziqarli bilish jarayoniga aylantirish, o‘quvchilarning aqliy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llarini izlashgan.

Muammoga asoslangan o‘qitishning asosiy tushunchalari

Muammoga asoslangan o‘qitishning uchta asosiy turi mavjud.

Birinchi tur (“ilmiy” ijodkorlik) nazariy tadqiqot, ya’ni o‘quvchilar tomonidan yangi qoida, qonun, teorema va boshqalarni izlash va kashf etishdir. Muammoga asoslangan o‘qitishning bu turi nazariy ta’lim muammolarini shakllantirish va hal qilishga asoslangan.

Ikkinchi tur (amaliy ijodkorlik) amaliy yechim izlash, ya’ni ma’lum bilimlarni yangi vaziyatda, loyihalash yoki ixtiro orqali qo‘llash usulini izlashdir. Muammoga asoslangan o‘qitishning bu turi amaliy ta’lim muammolarini shakllantirish va hal qilishga asoslangan.

Uchinchi tur (badiiy ijodkorlik) - bu ijodiy tasavvurga asoslangan voqelikning badiiy tasviri, shu jumladan, badiiy yozish, rasm chizish, bastalash, musiqiy asarlar ijro etish, ijro etish va boshqalar.

Muammoga asoslangan o‘qitishning quyidagi asosiy usullari ajratiladi:

1) muammoga asoslangan taqdimot (o‘qituvchi mustaqil ravishda muammoni qo‘yadi va uni hal qiladi);

2) qisman qidiruv faoliyati, hamkorlikda o‘qitish (o‘qituvchi muammoni mustaqil ravishda qo‘yadi va yechim o‘quvchilar bilan birgalikda erishiladi);

3) Mustaqil tadqiqot (o‘qituvchi muammo qo‘yadi va o‘quvchilar yechim topadilar);

4) Ijodiy o‘rganish (o‘quvchilar muammoni shakllantiradilar va yechim topadilar).

Muammoli o‘qitishning funksiyalari:

1) O‘quvchilarning bilim tizimi va aqliy amaliy faoliyat usullarini o‘zlashtirishi;

2) O‘quvchilarning kognitiv faolligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

3) Dialektik-materialistik fikrlashni rivojlantirish;

4) Ijodiy bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

5) Bilimlarni ijodiy qo‘llash ko‘nikmalarini va ta’lim muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;

6) Ijodiy faoliyatda tajribani rivojlantirish va to‘plash.

Muammoga asoslangan o‘qitishning xususiyatlari:

1) mustaqil ravishda muammolarni hal qilish (bilimning mustahkamligi, mantiqiy-nazariy tafakkurni rivojlantirish);

2) bilimning ishonchliligini oshirish (tanqidiy, ijodiy va dialektik tafakkurni rivojlantirish);

3) amaliyot yangi bilim manbai va o‘zlashtirilgan faoliyat usullarini amalga oshirish sohasi sifatida;

4) turli xil mustaqil ishlarning kombinatsiyasi;

5) dinamizm - bir muammoli vaziyat boshqasiga olib keladi;

6) individualizatsiya - turli xil murakkablikdagi ta’lim muammolarining mavjudligi; muammoni individual idrok etish;

7) bolalarning yuqori hissiy faolligi - muammoni individual ravishda qabul qilish;

Muammoga asoslangan o‘qitish elementlari:

1. Muammoga asoslangan savol - o‘quvchilar oldida intellektual qiyinchiliklar tug‘diradigan savol, chunki unga javob o‘quvchilarning oldingi bilimlarida yoki taqdim etilgan ma’lumotlarda mavjud emas.

2. Muammoga asoslangan vazifa - o‘quv materialini berilgan shartlar va noma’lum ma’lumotlar bilan tashkil etish shakli bo‘lib, o‘quvchilarning faol fikrlashini talab qiladi: faktlarni tahlil qilish, obyektlarning kelib chiqishi sabablarini aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish.

3. Muammoga asoslangan topshiriq - o‘quvchilarga ularning mustaqil qidiruv va kognitiv faoliyati bo‘yicha topshiriq yoki ko‘rsatma, kerakli natijaga erishishga qaratilgan (qidirish, yozish, ixtiro qilish va boshqalar).

4. Muammoli vaziyat - bu o‘quvchilarda ilgari olingan bilimlar va kognitiv vazifa, topshiriq yoki o‘quv muammosini hal qilish uchun harakat usullarining yetarli emasligi tufayli yuzaga keladigan ruhiy qiyinchilik holati.

Muammoli vaziyatlar uchun talablarni quyidagicha shakllantirish mumkin.

O‘quvchilar muammoli vaziyatni tushunishadi va dastlab to‘g‘ri shakllantirilganda uning yechimiga erishadilar. Bunga erishish uchun vaziyatga quyidagi shartlarni kiritish muhimdir: - o‘quvchilar berilgan muammoni qanday hal qilishni bilishmaydi, ularning oldingi bilimlari yangi faktni tushuntirish uchun yetarli emas; - o‘quvchilar ilgari olingan bilimlarni yangi amaliy sharoitlarda qo‘llashlari kerak bo‘ladi; - muammoning nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan yechimi va tanlangan usulning amaliy jihatdan imkonsizligi o‘rtasida aniq qarama-qarshilik mavjud.

Muammoli o‘qitish an’anaviy o‘qitishga nisbatan bir qator afzalliklarga ega, chunki u: - mantiqiy, ilmiy, dialektik va ijodiy fikrlashni o‘rgatadi; - kuzatish, umumlashtirish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi; - o‘quv materialini dalillarga asoslaydi va shu bilan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi; - mustaqil muammolarni hal qilish orqali bilim va ko‘nikmalar an’anaviy o‘qitishga qaraganda yaxshiroq o‘zlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Xulosa va takliflar. Muammoli ta’lim STEAM ta’lim tizimi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Agarda darsda muammo va uni yechishga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lmasa, STEAM shunchaki fanlarning sun’iy yig‘indisiga aylanib qoladi. Didaktik asos sifatida muammoviy yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

STEAM ta’limning bosh maqsadi ham amaliy vazifa yoki muammoga qaratiladi. Muammoga asoslangan o‘qitish - bu o‘qituvchi dars davomida muammoli vaziyatni taqdim etadigan va o‘quvchilar uni mustaqil ravishda hal qiladigan o‘qitish tizimi hisoblanadi. Muammoli o‘qitish an’anaviy o‘qitishga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lib - o‘quvchilarga: mantiqiy, ilmiy, dialektik va ijodiy fikrlashni o‘rgatadi; - kuzatish, umumlashtirish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi; - o‘quv materialini dalillarga asoslaydi va shu bilan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi; - mustaqil muammolarni hal qilish orqali bilim va ko‘nikmalar an’anaviy o‘qitishga qaraganda yaxshiroq o‘zlashtiriladi va mustahkamlanadi.

STEAM darslarida muammoli vaziyatlarni qo‘llash quyidagi natijalarni beradi:

- **Mustaqil izlanish:** O‘quvchi tayyor bilimlarni iste’mol qilmaydi, balki ularni “yaratadi”.
- **Kognitiv rivojlanish:** Yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalari (analiz va sintez) shakllanadi.
- **Motivatsiya:** Hayotiy muammo (masalan, “Qanday qilib ekologik toza energiya olish mumkin?”) o‘quvchini darsga qiziqtiradi.

Muammoga asoslangan o‘qitishning kamchiliklari ham mavjud:

- muammoni yechish ko‘p vaqt talab etadi;
- o‘quvchilarning kognitiv faoliyati ustidan zaif nazorat
- o‘qituvchi ijodiy fikrlashi shart;
- har bir o‘quv materialidan muammoni modellashtirish uchun foydalanib bo‘lmaydi;
- u boshqa o‘rganish turlariga qaraganda amaliy ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda kamroq qo‘llaniladi.

Adabiyotlar:

1. Qayumova K.A., Turniyazov R.Q., Xolov K.N., Ajabov A.Q. “Steam”yondashuvning afzalliklari hamda fizikaning “dinamika” bo‘limini STEAM ta’limi asosida o‘qitish”. International journal of science. ISSN:306-4583. Volume 4, Issue 2,2026. 98-101 b.

2. Морарь Ю.Л. STEAM-метод как инновационная технология в образовательном процессе// Открытый урок «Первое сентября». -URL: https://urok.1sept.ru/articles/690400.

3. Разработка учебного модуля в персонализированной модели образования метод. пособие / под ред. Д. С. Ермакова. – М.: АНО «Платформа новой школы», 2019. – 56 с.

4. Xoliqov Q., Amirullayeva B. Umumiy o‘rta ta’limda STEAM yondashuvi. O‘quv-uslubiy majmua, Samarqand, 2021.

5. Азизов Р. Образование нового поколения: 10 преимуществ STEM образования. URL: https://ru.linkedin.com/pulse/-stem-rufat-azizov

6. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. (An’anaviy va noan’anaviy ta’lim usullari, didaktik prinsiplar).

7. Достоинства и недостатки проблемного обучения. – URL: https://ped.bobrodobro.ru/37368.

UO‘K 373.21:37.018.1

OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM HAMKORLIGIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALAR IRODASINI TOBLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Quldosheva Shahlo Ibragim qizi,
Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi tayanch doktoranti
ibragimqizishahlo@gmail.com
ORCID: 0009-0009-5880-4961

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional-irodaviy sifatlarini shakllantirish muammolari oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi asosida pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot davomida respublikamizning turli viloyatlaridan 115 nafar ota-ona ishtirokida maxsus sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. Olingan empirik natijalar shuni tasdiqladiki, oiladagi ortiqcha g‘amxo‘rlik va bolalarni maishiy mehnatdan asrash ularning irodaviy rivojlanishiga hamda qiyinchiliklarni yengish qobiliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammoni samarali hal etish maqsadida o‘yin va mehnat faoliyatlarini o‘zaro integratsiyalash orqali bolalar irodasini toblash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, iroda, emotsiya, mehnat ko‘nikmalari, o‘yin faoliyati, faoliyatlar integratsiyasi, ota-onalar hamkorligi, ortiqcha g‘amxo‘rlik, empirik tahlil, sabr-toqat, metodika, maktabga tayyorgarlik.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING CHILDREN’S WILL ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN COOPERATION WITH FAMILY AND PRESCHOOL EDUCATION

This article provides a pedagogically in-depth analysis of the problems of forming emotional-volitional qualities of preschool children based on cooperation between the family and the preschool educational organization. During the study, a special sociological survey was conducted with the participation of 115 parents from different regions of our republic. The empirical results obtained confirmed that excessive care in the family and the protection of children from household labor have a serious negative impact on their willpower development and ability to overcome difficulties. In order to effectively solve this problem, scientifically based practical recommendations have been developed to improve the methodology for developing children’s willpower through the mutual integration of play and work activities.

Keywords: *preschool education, willpower, emotion, labor skills, game activity, integration of activities, parental cooperation, excessive care, empirical analysis, patience, methodology, preparation for school.*

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ВОЛИ РЕБЁНКА НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В СОТРУДНИЧЕСТВЕ С СЕМЬЁЙ И ДОШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ

В данной статье представлен педагогически углубленный анализ проблем формирования эмоционально-волевых качеств детей дошкольного возраста на основе сотрудничества семьи и дошкольной образовательной организации. В ходе исследования был проведён специальный социологический опрос с участием 115 родителей из разных регионов нашей республики. Полученные эмпирические результаты подтвердили, что чрезмерная забота в семье и опека над детьми, отвлекающие их от домашнего труда, оказывают серьёзное негативное влияние на развитие их воли и способности преодолевать трудности. Для эффективного решения этой проблемы разработаны научно обоснованные практические рекомендации по совершенствованию методики развития воли детей посредством взаимоинтеграции игровой и трудовой деятельности.

Ключевые слова: *дошкольное образование, воля, эмоции, трудовые навыки, игровая деятельность, интеграция деятельности, родительское сотрудничество, чрезмерная забота, эмпирический анализ, терпение, методика, подготовка к школе.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining poydevori hisoblangan maktabgacha ta’lim sohasiga davlat siyosati darajasida ulkan e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *ЭMaktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi va eng muhim bo‘g‘inidir. Sog‘lom genofondni, barkamol avlodni shakllantirish, avvalo, shu tizimdan boshlanadiЭ* [1, 1-b.]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.

Maktabgacha yosh davri, xususan, tayyorlov guruhi bosqichi (6-7 yosh) bolaning maktab ta’limiga va kelajakdagi ijtimoiy munosabatlarga moslashuvini ta’minlovchi tayanch emotsional-irodaviy sifatlar shakllanadigan eng nozik davr hisoblanadi. Ilg‘or psixolog va pedagog olimlarning (masalan, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn) tadqiqotlarida e’tirof etilishicha, shaxs irodasi ijtimoiy muhitda, ayniqsa, maqsadga yo‘naltirilgan va muntazam qiyinchiliklarni yengishni talab etuvchi faoliyat jarayonida toblanadi [3, 587-b.].

Milliy pedagogikamiz tarixida iroda va mehnat tarbiyasining uzviy bog‘liqligiga alohida ahamiyat qaratilgan. Xususan, ulug‘ ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida bolani yoshligidan mehnatga va mas’uliyatga o‘rgatish uning nafsi hamda hissiyotlarini jilovlashda, sabr-toqat kabi irodaviy regulyatsiyani shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligini chuqur tahlil qilib o‘tgan [4, 25-b.].

Biroq, bugungi tezkor axborotlashuv va urbanizatsiya davrida oilaviy muhitda bolalarni tarbiyalash yondashuvlarida jiddiy o‘zgarishlar va qator muammolar yuzaga kelmoqda. Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat ota-onalar tomonidan farzandlariga nisbatan “ortiqcha g‘amxo‘rlik” (giperopeka) ko‘rsatilishi, ularning oddiy maishiy mehnatlardan va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalaridan chetlashtirilishi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning (smartfon va planshetlar) nazoratsiz o‘zlashtirilishi bolalarda “iste’molchilik” psixologiyasini shakllantirmoqda. Bola qandaydir maqsadga erishish uchun irodaviy kuch sarflash, o‘z ehtiyojlarini biroz cheklab turish va amaliy mehnat qilish o‘rniga, tayyor natijani zudlik bilan talab qiluvchi passiv insonga aylanib qolmoqda. Buning oqibatida ularda o‘yin va o‘quv faoliyati davomida asabiylashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik, jamoaviy ishlarga (“hashar”larga) moslasha olmaslik kabi muammolar ko‘zga tashlanmoqda.

Mazkur ziddiyatni hal etishda oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni ta’minlash hamda tayyorlov guruhlarida mehnat va o‘yin faoliyatlari integratsiyasiga tayanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi — oila va ta’lim muassasasi hamkorligida integrativ yondashuv (o‘yin hamda mehnat faoliyatlarining uyg‘unligi) asosida bolalarning emotsional-irodaviy sifatlarini shakllantirish holatini maxsus sotsiologik so‘rovnoma orqali empirik o‘rganish va ushbu jarayon metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional-irodaviy sifatlarni rivojlantirish va uni amaliy faoliyat turlari bilan integratsiyalash masalasi jahon hamda milliy pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan. Jumladan, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasida bolaning shaxsiy va irodaviy xususiyatlari uning ijtimoiy muhitdagi harakati, xususan, o‘yin va mehnat orqali shakllanishi ilmiy asoslab berilgan [5, 24-b.].

Zamonaviy o‘zbek pedagogikasi va psixologiyasida bu yo‘nalish o‘ziga xos tarzda, milliy qadriyatlarimizga uyg‘un holda o‘rganilmoqda. Xususan, yetuk olimlarimizdan F. Qodirova, Z. Nishonova, M.Sh. Nurmatova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etish didaktikasi va ularda mehnatsevarlikni shakllantirish yo‘llari atroflicha yoritilgan [6, 12-b.]. Olimlarning ta’kidlashicha, bola iste’molchilik ruhida o‘sib, kelajakda dangasa va passiv shaxs bo‘lib qolmasligi uchun mehnat tarbiyasi ilk bosqichdanoq, ya’ni oila muhitida boshlanishi lozim [7, 45-b.]. Shuningdek, psixolog olimlar Z. Nishonova va G. Alimovalar bolaning bilish jarayonlari bilan bir qatorda emotsional-irodaviy sohasiga xos sifatlarni to‘g‘ri psixologik tashxislash mexanizmlarini chuqur tahlil qilganlar [8, 17-b.].

Milliy qadriyatlarimizda, ayniqsa, **“hashar”** (jamoaviy mehnat) tushunchasi bolaning irodaviy va ijtimoiy moslashuvida beqiyos ahamiyatga ega. O‘zbek xalq pedagogikasida jamoa bo‘lib ishlash bolada sabr-toqat, boshqalar mehnatini qadrlash (empatiya) hamda boshlagan ishni oxiriga yetkazish kabi eng muhim irodaviy sifatlarni toblaydi [9, 39-b.]. Afsuski, bugungi kunda ushbu bebaho qadriyat shahar sharoitidagi oilaviy tarbiyada o‘z o‘rnini qisman yo‘qotib, asosan “ortiqcha g‘amxo‘rlik” (giperopeka) bilan almashib qolayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional-irodaviy sohasini rivojlantirish muammosini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning metodologik asosi pedagogik va psixologik diagnostika, empirik tahlil hamda faoliyatlar integratsiyasi prinsiplariga tayanadi. Tadqiqot jarayoni mantiqan bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi bosqichlarda rejalashtirildi:

1. Konstatatsiya (tashxislashtiruvchi) bosqichi: Ushbu bosqichda muammoning oila muhitidagi asl holati hamda ota-onalarning pedagogik yondashuvlarini aniqlash maqsadida masofaviy sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. Ma’lumotlarni yig‘ish vositasi sifatida Google Forms platformasida maxsus ishlab chiqilgan yopiq va ochiq turdagi savollardan iborat anketa qo‘llanildi.

- **Ishtirokchilar:** So‘rovnomada respublikaning turli hududlaridan tasodifiy tanlov asosida jami 115 nafar ota-ona ishtirok etdi. Respondentlarning asosiy qismini maktabga tayyorgarlik ko‘rayotgan 6-7 yoshli (49,6%) hamda 5 yoshli (34,8%) bolalarning ota-onalari tashkil qildi.
- **Baholash mezonlari:** Anketa savollari bolalarning maishiy mehnatga jalb etilish darajasi, qiyinchiliklarga uchragandagi irodaviy reaksiyalari (asabiylashish, tashlab ketish yoki yordam so‘rash) hamda ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan “giperopeka” (ortiqcha g‘amxo‘rlik) darajasini aniqlashga yo‘naltirildi.

2. Formallashtiruvchi (tajriba-sinov) bosqichi uchun metodik modelning ishlab chiqilishi: So‘rovnoma natijalarida olingan birlamchi empirik dalillar tahlil qilinib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida joriy etish uchun quyidagi 4 ta integrativ pedagogik yechim (metodika) tanlab olindi va ularning ilmiy-amaliy asosi yaratildi:

- **Maishiy mehnatni kvest-o‘yinlarga aylantirish (Gamifikatsiya):** Bolani mehnatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlash unda asabiylikni keltirib chiqarishini inobatga olib, “Iroda kvesti” metodikasi taklif etildi. Unda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish va tozalash ishlari musobaqa shaklida tashkil qilinadi.
- **“Kutish qoidasi” va “Harakat irodasi”:** Ota-onalar va pedagoglarga bola qiyinchilikka (masalan, kiyim kiyish yoki tugma qadashda) uchraganda darhol aralashmasdan, unga o‘z hissiyotini jilovlab, mustaqil natijaga erishishiga vaqt berish (kutish) uslubi amaliyotga joriy etish belgilandi.
- **“Oila – Maktabgacha ta’lim tashkiloti” hamkorligidagi “Bolalar hashari”:** An’anaviy milliy hashar tushunchasini ta’lim tashkiloti hududiga ko‘chirish va unda ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda ishtirok etishini ta’minlash.
- **“Sabr va Natija” vizual doskasi:** Raqamli texnologiyalar sababli bolalarda shakllangan "tezkor natija kutish" odatiga qarshi uzoq muddatli mehnat natijalarini stikerlar orqali vizual baholash tizimi ishlab chiqildi.

3. Ma’lumotlarni tahlil qilish: Yig‘ilgan ma’lumotlar sifat va miqdor jihatidan tahlil qilinib, foiz ko‘rsatkichlariga ajratildi. Ochiq savollarga berilgan javoblar esa kontent-tahlil (matnni mazmuniga ko‘ra guruhlash) orqali umumlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv ishlab chiqilgan integrativ metodikani bevosita maktabgacha ta’lim tashkilotida tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Metodologiyaning ushbu yangilangan varianti ancha “ochiq”, ilmiy jihatdan asoslangan va keyingi amaliy ishlaringiz (bog‘chadagi eksperiment) uchun zo‘r ko‘prik bo‘ladi.

Muhokama. Olingan empirik natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional-irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayonida yuzaga kelayotgan o‘ziga xos “pedagogik paradoks”ni ochib berdi. Bir tomondan, ota-onalar farzandlarining maktabga har tomonlama, xususan, psixologik va irodaviy jihatdan tayyor bo‘lishini xohlaydilar (buni 87% respondent e’tirof etgan). Ikkinchi tomondan esa, “ortiqcha g‘amxo‘rlik” (giperopeka) va farzandini maishiy qiyinchiliklardan asrash instinkti tufayli bolani iroda toblanadigan asosiy vosita – amaliy mehnatdan uzoqlashtirmoqdalar.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qiyin topshiriqqa duch kelganda bolalarning katta qismida (40,9%) asabiylashish va yig‘lash reaksiyasining yuzaga kelishi psixologiyadagi “orttirilgan ojizlik” (learned helplessness) sindromi bilan izohlanadi. Bola kichik yoshidan boshlab har qanday qiyinchilik (masalan, tugmasini qaday olmaslik yoki o‘yinchoqlarini yig‘ishga erinish) ota-ona tomonidan darhol hal qilib berilishiga o‘rganib qolgan. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, bolaning har bir istagini zudlik bilan qondirish uning hislari ustidan hukmronligini yo‘qotadi va kelajakdagi maqsad sari harakat irodasini falajlaydi [4, 26-b.].

Tadqiqot doirasida aniqlangan yana bir muhim jihat shuki, bolani mehnatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlash kutilgan natijani bermaydi, balki asabiy zo‘riqishni kuchaytiradi. So‘rovnomada ishtirok etgan 73% ota-onaning tajribasi tasdiqlaganidek, mehnat jarayoni o‘yin bilan integratsiya qilingandagina bola ishni oxiriga yetkazishga ichki motivatsiya topadi.

Ushbu tahlillarga tayangan holda, tayyorlov guruhi bolalarida irodaviy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligiga asoslangan quyidagi integrativ metodik model taklif etiladi:

1. “Iroda kvesti” (Gamifikatsiya qilingan mehnat): Tayyorlov guruhlarida va oilada an’anaviy o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish mehnatini qat’iy majburiyat shaklidan chiqarib, kvest-o‘yinlarga aylantirish zarur. Masalan, xonani yig‘ishtirish jarayonini qandaydir ertak qahramonini qutqarish uchun “Maxfiy topshiriq”

yoki “Vaqt bilan musobaqa” shaklida tashkil etish. Bu usul boladagi mehnatga nisbatan psixologik to‘siqni olib tashlaydi va o‘yin qiziqishi orqali irodaviy zo‘riqishni tabiiy ravishda yengib o‘tishga xizmat qiladi.

2. Pedagogik “Kutish qoidasi” (Giperopekaga qarshi kurash): Ota-onalar va tarbiyachilar faoliyatiga A. Avloniyning iroda tarbiyasiga oid qarashlari asosida “kutish” texnikasi joriy qilinadi. Bolaga o‘z yoshiga mos mehnat vazifasi berilganda yoki u biror harakatni bajarishda qiyinchilikka uchraganda, kattalar darhol yordamga shoshilmasligi kerak. Bolaga o‘zining asabiylashish hissini o‘zi bosib olishi, yechim izlashi va ishni mustaqil oxiriga yetkazishi uchun qat’iy pedagogik vaqt berilishi iroda shakllanishining eng muhim shartidir.

3. “Sabr va Natija” vizual doskasi: Raqamli gadjetlardagi qisqa roliklar (reels, tiktok) ta’sirida bolalarda shakllanib qolgan “tezkor qoniqish” (impulsivlik) odatini pasaytirish uchun integrativ baholash tizimi qo‘llaniladi. Bolaning kundalik kichik mehnatlari (o‘simliklarga qarash, navbatchilik qilish) maxsus vizual doskada stikerlar bilan belgilanib boriladi. Yakuniy rag‘bat ma’lum miqdordagi stikerlar to‘plangandagina beriladi. Bu orqali bola uzoq muddatli sabr qilishni va mehnat orqali maqsadga erishishni o‘rganadi.

4. Hamkorlikdagi “Bolalar hashari”: So‘rovnomada 76,5% ota-onalar farzandini jamoaviy ishlarga yuborishga tayyorligini inobatga olib, ta’lim muassasasi hududida oylik “Bolalar hashari” tadbirlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Ota-onalar va bolalar birgalikda o‘yin maydonchalarini tozalash yoki gullar ekish jarayonida ishtirok etishi bolani ijtimoiy mehnatga moslashtiradi, egotsentrizmni kamaytiradi va umumiy maqsad yo‘lida sabr qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Ushbu taklif etilayotgan metodika bolaning emotsional-irodaviy sohasiga quruq nasihat yoki bosim o‘tkazish orqali emas, balki uni tabiiy, qiziqarli va tizimli faoliyatlar ichiga kiritish orqali ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional-irodaviy sifatlarini shakllantirishda maqsadli mehnat faoliyatining o‘rni va oiladagi tarbiya muhitini tashxislash maqsadida o‘tkazilgan onlayn sotsiologik so‘rovnoma muhim empirik dalillarni taqdim etdi. Olingan natijalar miqdoriy (statistik) va sifat (kontent-tahlil) jihatdan guruhlanib, quyidagi asosiy tendensiyalarni namoyon qildi:

- **Maishiy mehnatga jalb etishdagi cheklanishlar:** Respondentlarning katta qismi (49,6%) maktabga tayyorgarlik bosqichidagi (6-7 yosh) bolalarning ota-onalari bo‘lishiga qaramay, oilada bolalarga muntazam mehnat vazifalarini taqsimlashda jiddiy bo‘shliqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ota-onalarning 77,4% i farzandlariga faqat o‘z o‘yinchoqlarini yig‘ishtirishni nazorat qilish bilan cheklanadi. Chang artish, supurish kabi yengil tozalash ishlariga bolalarning atigi 15,7% i, o‘simlik va hayvonlarga qarashga esa 14,8% i jalb etilgan. Hattoki, 7% ota-onalar farzindini "hali yosh" degan vaj bilan umuman maishiy mehnatdan ozod qilgan.
- **Qiyinchiliklarga nisbatan irodaviy reaksiyaning pastligi:** Tadqiqotning eng xavotirli natijalaridan biri bolalarning to‘siq va qiyinchiliklarga nisbatan emotsional beqarorligida namoyon bo‘ldi. “Farzandingiz qiyinroq topshiriqni bajara olmasa, odatiy reaksiyasi qanday bo‘ladi?” degan savolga 40,9% ota-ona bolasi darhol asabiylashishi yoki yig‘lashini qayd etgan. Yana 14,8% bola ishni yarmida tashlab ketishi ma’lum bo‘ldi. Qiyin bo‘lsa-da, ishni o‘zi mustaqil oxiriga yetkazishga urinadigan bolalar ko‘rsatkichi bor-yo‘g‘i 12,2% ni tashkil qildi. Bu esa tayyorlov guruhi bolalarida o‘zini o‘zi idora qilish (samoregulyatsiya) va sabr-toqat sifatlari yetarlicha shakllanmaganligini tasdiqlaydi.
- **Giperopeka va ijtimoiy passivlik omili:** Bolalarni jamoaviy mehnat (hashar) jarayonlariga jalb qilishga nima to‘sqinlik qilayotgani tahlil qilinganda, asosiy sabab sifatida ota-onalarning o‘ziga xos “giperopeka”si (ortiqcha g‘amxo‘rligi) yuzaga qalqib chiqdi. Respondentlarning 45,2% i bolani ortiqcha urintirishdan yoki kiyimini kir qilishdan cho‘chishini ochiq tan olgan. Shuningdek, ota-onalarning 27% i vaqt tig‘izligi sababli barcha ishni bolaga o‘rgatishdan ko‘ra, o‘zlari tezroq qilib qo‘yishni ma’qul ko‘radilar. Ushbu yondashuv bolaning 54,8% holatda jamoaviy ishlarga umuman aralashmay, asosan kuzatuvchi yoki gadjetlar bilan band bo‘lishiga olib kelgan. Ochiq savollarga berilgan javoblarda ham ota-onalar irodasizlikning bosh sababi sifatida aynan *ortiqcha erkalatish, texnikaga qaramlik* hamda *tayyor natijaga o‘rganib qolishni* e’tirof etishgan.
- **Faoliyatlar integratsiyasining yuqori samaradorligi:** Tashxislash natijalari nafaqat muammolarni, balki ularning pedagogik yechimini ham ko‘rsatib berdi. Agar bolaning mehnat faoliyati o‘yin tarzida tashkil etilsa (masalan, “kim tezroq yig‘ishtirish” musobaqasi), ishtirokchilarning 73% i farzandi “juda tez qiziqib ketishi va ishni oxiriga yetkazishini” tasdiqlagan. Bu empirik dalil maktabgacha yoshdagi bolalar uchun faqat mehnatning o‘zi emas, balki **o‘yin va mehnat integratsiyasi** irodani chiniqtiruvchi eng samarali mexanizm ekanligini isbotlaydi.

So‘rovnoma yakunida ota-onalarning 87% i mehnat orqali qandaydir natijaga erishish hissi bolada, birinchi navbatda, “boshlagan ishini oxiriga yetkazish”, ya’ni iroda xususiyatini shakllantirishini yakdil

e’tirof etishgan. Shuningdek, 76,5% respondentlar ta’lim muassasasi va oila hamkorligida tashkil etiladigan xavfsiz “Bolalar hashari” tadbirlariga farzandlarini bajonidil yuborishlarini bildirishgan bo‘lib, bu biz ishlab chiqqan integrativ metodikalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun ijobiy pedagogik muhit mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga psixologik va irodaviy jihatdan tayyorlash uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligidagi holatni o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar hamda 115 nafar ota-ona ishtirokidagi sotsiologik so‘rovnoma natijalari asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

1. **Tashkiliy-pedagogik muammo:** Bugungi kunda oila muhitida kuzatilayotgan ortiqcha g‘amxo‘rlik (giperopeka), bolalarni maishiy mehnatdan asrash hamda ularning ehtiyojlarini zudlik bilan qondirish tendensiyasi bolalarda sabr-toqat, mustaqillik va qiyinchiliklarni yengish kabi bazaviy emotsional-irodaviy sifatlarning pasayishiga asosiy sabab bo‘lmoqda.
2. **Faoliyatlar integratsiyasining amaliy samarasi:** Bolalarning mehnat faoliyatini qat’iy majburiyat shaklida emas, balki ularning yetakchi faoliyati bo‘lgan o‘yin bilan uzviy integratsiyalash eng samarali yo‘ldir. O‘tkazilgan empirik tahlillar (respondentlarning 73% lik ijobiy tajribasi) bu yondashuv bolaning maqsadga intiluvchanligini tabiiy ravishda oshirishini tasdiqladi.
3. **Metodikani takomillashtirish:** Muammoni hal etish uchun milliy pedagogikamiz asoschilaridan A. Avloniyning iroda tarbiyasiga oid qarashlari hamda zamonaviy psixologik yondashuvlarga tayangan holda 4 bosqichli amaliy metodika ishlab chiqildi:
   - Mehnatni gamifikatsiyalash (“Iroda kvesti”);
   - Giperopekaga qarshi pedagogik “kutish qoidasi”;
   - Uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan “Sabr va Natija” vizual doskasi;
   - Hamkorlikdagi “Bolalar hashari” tadbirlari.
4. **Hamkorlikning hal qiluvchi o‘rni:** Irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayoni faqatgina maktabgacha ta’lim tashkiloti doirasida chegaralanib qolmasdan, oilaviy tarbiya bilan uyg‘unlashishi shart. Ota-onalarning 76,5% i ta’lim muassasasi bilan jamoaviy ishlarda hamkorlik qilishga tayyor ekanligi ushbu takomillashtirilgan metodikani amaliyotga keng joriy etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, mehnat va o‘yin faoliyatlari integratsiyasiga asoslangan mazkur yondashuv bolani quruq nasihatlar orqali emas, balki faol harakatlar jarayonida toblashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodik modelni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bevosita tajriba-sinovdan o‘tkazish (formallashtiruvchi eksperiment) tadqiqot ishimizning mantiqiy davomi bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. // Xalq so‘zi, 2017-yil 20-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi,
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – С. 586-590.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 24-28.
5. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 4. Детская психология. – М.: Педагогика, 1984. – 432 с.
6. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2006. – 160 b.
7. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur, 2019. – 688 b.
8. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etish didaktikasi // International scientific online conferences, 2023.
9. Hasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: Ilm ziyo, 2012.

BO‘LAJAK HARBIY TA’LIM MUTAXASSISLARINING KASBIY-AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Rasulov G‘iyosiddin Fayzullayevich,
Buxoro davlat universiteti Ta’limda kredit tizimini boshqarish sektori yetakchi mutaxassisi

Ushbu maqolada bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini (KAJT) oshirish muammolari va ularning yechimlari tahlil qilingan. Oliy harbiy ta’lim muassasalari va harbiy kafedralar talabalarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion metodika ishlab chiqilgan va amaliyotda sinalgan. Tadqiqot natijalari statistik va dinamik jadvallar orqali asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tayyorgarlik, kasbiy-amaliy tayyorgarlik, harbiy ta’lim, metodika, jismoniy sifatlar, dinamika, pedagogik eksperiment.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРИКЛАДНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье проанализированы проблемы повышения профессионально-прикладной физической подготовки (ППФП) будущих специалистов военного образования, и предложены пути их решения. Разработана инновационная методика, направленная на совершенствование физической подготовки студентов высших военных образовательных учреждений и военных кафедр, которая прошла апробацию в образовательной практике. Результаты исследования обоснованы с использованием методов статистического анализа и представлены в виде динамических таблиц.

Ключевые слова: *физическая подготовка, профессионально-прикладная физическая подготовка, военное образование, методика, физические качества, динамика, педагогический эксперимент.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING PROFESSIONALLY APPLIED PHYSICAL FITNESS OF FUTURE MILITARY EDUCATION SPECIALISTS

This article analyzes the challenges associated with improving the professionally applied physical training (PAPT) of future military education specialists and proposes effective approaches to addressing them. An innovative methodology aimed at enhancing the physical training of students enrolled in higher military educational institutions and military departments has been developed and experimentally validated in practice. The research findings are substantiated through statistical analysis and presented using dynamic data tables.

Keywords: *physical training, professionally applied physical training, military education, methodology, physical qualities, dynamics, pedagogical experiment.*

Kirish. Zamonaviy qurolli kuchlar tizimini takomillashtirish, uning jangovar salohiyatini oshirish hamda milliy xavfsizlikni ta’minlash jarayonida yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining nafaqat nazariy bilimlari, kasbiy kompetensiyalari va amaliy ko‘nikmalari, balki ularning jismoniy tayyorgarligi, psixofiziologik barqarorligi hamda murakkab xizmat vazifalarini bajarishga tayyorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy harbiy xizmat sharoitida mutaxassisdan yuqori darajadagi jismoniy rivojlanganlik, tezkor fikrlash, kuchli iroda, stressga chidamlilik hamda turli favqulodda vaziyatlarda qisqa vaqt ichida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati talab etiladi.

Harbiy xizmatchining jangovar shayligi va xizmat faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan uning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, murakkab tabiiy-iqlim sharoitlarida, uzoq davom etadigan yurishlarda, to‘liq jangovar ekipirovkada harakatlanishda, to‘siqlar yo‘lagidan o‘tishda, qurol-aslaha va maxsus jihozlardan samarali foydalanishda hamda jangovar topshiriqlarni bajarishda yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli harbiy ta’lim tizimida jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish va uni kasbiy faoliyat talablari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sanaladi.

So‘nggi yillarda harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv mashg‘ulotlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ta’lim sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda ularning kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik harbiy mutaxassisning xizmat faoliyatida zarur bo‘ladigan kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, muvozanat, koordinatsiya hamda maxsus harakat ko‘nikmalarini maqsadli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq amaldagi jismoniy tayyorgarlik dasturlari va an’anaviy o‘quv mashg‘ulotlari asosan umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, harbiy kasbning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Xususan, og‘ir jangovar ekipirovkada uzoq masofaga harakatlanish, murakkab to‘siqlar yo‘lagidan yuqori tezlikda o‘tish, qurol bilan harakatlanish, turli relef va ob-havo sharoitlarida xizmat vazifalarini bajarish, jismoniy yuklama ostida aniq va tezkor qaror qabul qilish kabi kasbiy faoliyat elementlari mavjud mashg‘ulotlar mazmunida yetarli darajada integratsiyalashmagan. Natijada talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi bilan ularning kasbiy-amaliy tayyorgarligi o‘rtasida muayyan tafovutlar kuzatilmoqda.

Shuningdek, zamonaviy jangovar harakatlarning murakkablashuvi, yangi texnika va texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishi, harbiy xizmatchilar oldiga qo‘yilayotgan funksional vazifalarning kengayishi jismoniy tayyorgarlik mazmunini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Bu esa mashg‘ulotlarni harbiy xizmatning real sharoitlariga maksimal darajada yaqinlashtirish, funksional yuklamalarni ilmiy asosda rejalashtirish hamda kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishning zamonaviy metodikalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, mashg‘ulotlar mazmunini kasbiy faoliyat talablariga mos ravishda optimallashtirish, jismoniy sifatlar va maxsus harakat ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini pedagogik eksperiment orqali ilmiy asoslash bugungi kunda sport pedagogikasi va harbiy ta’lim nazariyasining eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot oliy harbiy ta’lim muassasalari hamda oliy ta’lim muassasalarining harbiy ta’lim fakultetlarida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tashkil etildi. Pedagogik tajriba kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida rejalashtirildi va o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga integratsiya qilingan holda amalga oshirildi. Tadqiqotda jami **60 nafar kursant (talaba)** ishtirok etdi. Ishtirokchilar yoshi, jismoniy rivojlanish darajasi va dastlabki jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zaro yaqin bo‘lgan holda tanlab olindi. Tadqiqotning obyektivligi va natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida kursantlar tasodifiy tanlash (randomizatsiya) tamoyili asosida ikki guruhga ajratildi:

- **Nazorat guruhi (NG) - 30 nafar:** Amaldagi an’anaviy jismoniy tarbiya dasturi asosida shug‘ullandi.
- **Tadqiqot guruhi (TG) - 30 nafar:** Biz tomonimizdan takomillashtirilgan kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik (KAJT) metodikasi asosida shug‘ullandi.

Takomillashtirilgan KAJT metodikasining o‘ziga xosligi:

1. Jismoniy yuklamalarni harbiy harakatlar dinamikasiga moslashtirish.
2. Kross yugurish va to‘siqlardan o‘tish mashqlarini maxsus qurol-yarog‘ maketlari va og‘irliklar (ekipaj vazni) bilan bajarish.
3. Chidamlilik va kuch-tezkorlik sifatlarini uyg‘unlikda rivojlantirishga qaratilgan intervalli mashg‘ulotlar kompleksini joriy etish.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Pedagogik eksperiment boshlanishidan avval har ikki guruhning jismoniy tayyorgarlik darajasi tekshirilganda, ko‘rsatkichlar o‘rtasida statistik jihatdan jiddiy farq aniqlanmadi ($P>0.05$).

Eksperiment yakunida (9 oylik maxsus mashg‘ulotlardan so‘ng) esa har ikki guruhda ham ijobiy o‘sish kuzatildi, biroq takomillashtirilgan metodika qo‘llanilgan **Tadqiqot guruhi (TG)** ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘ldi.

Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili. Quyidagi jadvalda eksperimentgacha va eksperimentdan keyingi natijalar o‘rtacha qiymat (M) va o‘rtacha kvadratik og‘ish (σ) ko‘rinishida aks ettirilgan.

1-jadval.

Jismoniy mashqlar va testlar	Guruhlar	Eksperimentgacha (M±σ)	Eksperimentdan keyin (M±σ)	O‘sish sur’ati (%)	Statistik farq (P)
Turnikda tortilish (marta)	NG	11.2±1.4	12.8±1.1	14.2%	P<0.05
	TG	11.5±1.2	15.6±0.9	**35.6%**	P<0.01
100 metrga yugurish (soniya)	NG	14.1±0.4	13.7±0.3	2.8%	P>0.05
	TG	14.0±0.3	13.1±0.2	**6.4%**	P<0.05
3000 metrga kross (daqiqa: soniya)	NG	12:45±0:25	12:15±0:18	3.9%	P<0.05
	TG	12:40±0:20	11:32±0:15	**8.9%**	P<0.01
Harbiy to‘siqlar yo‘lagidan o‘tish (soniya)	NG	115.4±4.2	110.2±3.5	4.5%	P<0.05
	TG	114.8±3.8	98.5±2.4	**14.2%**	P<0.001

Eslatma: Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ayniqsa harbiy mutaxassislik uchun eng muhim hisoblangan **“Harbiy to‘siqlar yo‘lagidan o‘tis”** va **“Turnikda tortilish”** mashqlarida Tadqiqot guruhining ko‘rsatkichlari tubdan yaxshilangan.

Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik dinamikasi va o‘sish tendensiyasi. Pedagogik tajriba davomida bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining **kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi** choraklar kesimida muntazam monitoring qilinib, olingan natijalar qiyosiy-statistik tahlil asosida baholandi. Dinamik kuzatuvlar takomillashtirilgan metodikaning bosqichma-bosqich samaradorligini aniqlash, mashg‘ulot yuklamalarining ta’sirini baholash hamda jismoniy sifatlarning rivojlanish sur’atlarini o‘rganish imkonini berdi. Har bir chorak yakunida kursantlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi 100 ballik reyting tizimi asosida kompleks baholandi. Baholashda kuch, tezkorlik, umumiy va maxsus chidamlilik, chaqqonlik, koordinatsion qobiliyatlar hamda harbiy-amaliy mashqlarni bajarish sifati asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi (100 ballik baholash tizimi bo‘yicha).

Dinamik tahlillar natijalari shuni ko‘rsatdiki, nazorat guruhida qo‘llanilgan an’anaviy mashg‘ulot metodikasi ta’sirida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘sishi nisbatan barqaror, biroq past sur’atlarda kechgan. Ko‘rsatkichlarning choraklar bo‘yicha o‘sishi deyarli chiziqli xarakter kasb etib, kursantlarning funksional imkoniyatlari va kasbiy-amaliy ko‘nikmalarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi. Bu holat umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlarining harbiy xizmat faoliyatiga xos maxsus yuklamalarni yetarli darajada qamrab olmasligi bilan izohlanadi.

Tajriba guruhida esa ishlab chiqilgan **kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish metodikasi** qo‘llanilishi natijasida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atlari ancha yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, ikkinchi va uchinchi choraklardan boshlab kursantlarning kuch, maxsus chidamlilik, tezkorlik va koordinatsion qobiliyatlarida statistik jihatdan sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Bu davrda mashg‘ulot yuklamalarining bosqichma-bosqich ortib borishi, harbiy-amaliy mashqlarning ulushi kengaytirilishi hamda funksional tayyorgarlikka yo‘naltirilgan kompleks mashqlarni qo‘llash natijasida o‘sish sur’atlari jadallashdi.

Dinamik o‘zgarishlar grafigi tajriba guruhida **sakrashsimon (progressiv)** rivojlanish tendensiyasi kuzatilganligini ko‘rsatdi. Bunday natija mashg‘ulot yuklamalarining ilmiy asosda individuallashtirilishi, jismoniy va kasbiy-amaliy tayyorgarlik vositalarining o‘zaro integratsiyalashuvi hamda harbiy xizmat sharoitlariga yaqinlashtirilgan mashqlar kompleksidan foydalanish bilan izohlanadi. Natijada kursantlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan bir qatorda ularning harbiy-amaliy topshiriqlarni bajarish sifati, funksional imkoniyatlari va umumiy kasbiy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada yaxshilandi.

Shunday qilib, choraklar kesimidagi dinamik tahlillar ishlab chiqilgan **kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish metodikasi** an’anaviy mashg‘ulot tizimiga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Mazkur metodika kursantlarning jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirish, harbiy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa.

1.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini an’anaviy metodika asosida rivojlantirish zamonaviy harbiy xizmat faoliyati

talablarini to‘liq qondirmaydi. Amaldagi mashg‘ulotlar asosan umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, kursantlarning to‘siqlar yo‘lagini tezkor va sifatli bosib o‘tishi, jangovar ekipirovkada harakatlanishi, favqulodda jismoniy yuklamalar sharoitida ish qobiliyatini uzoq vaqt saqlab qolishi hamda murakkab vaziyatlarda harakatlarni aniq bajarish ko‘nikmalarini yetarli darajada shakllantira olmaydi.

2.Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish metodikasi jismoniy sifatlarni harbiy-amaliy ko‘nikmalar bilan kompleks va o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirish imkonini berdi. Mazkur metodika kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarni maxsus harbiy mashqlar bilan integratsiyalash orqali kursantlarning funksional imkoniyatlari hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirdi. Pedagogik tajriba natijalari taklif etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqladi hamda uni oliy harbiy ta’lim muassasalari va harbiy kafedralarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Adabiyotlar:

1. Faxriddinovich Q. F. Importance of Weight Categories and History of Changes in Weightlifting //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 165-172.

2. Qoraboyev F. F. et al. The advantage of interactive methods in improving the quality of the educational system //pedagogical sciences and teaching methods. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 42-45.

3. Fakhriddinovich K. F. The importance of psychological preparation in improving the methodology of using general and special training tools in increasing the physical preparation of weightlifters //Journal of new century innovations. – 2025. – T. 79. – №. 1. – C. 283-287.

4. Корабоев Ф. Ф. Правильный подбор и применение средств общей и специальной физической подготовки у тяжелоатлетов // Теоретико-методологические основы и методико-практические аспекты. – 2025. – С. 67.

5. Корабоев Ф. Ф. Улучшение физической подготовленности тяжелоатлетов посредством совершенствования методики использования средств общего и специального обучения // Теоретико-методологические основы и методико-практические аспекты. – 2025. – С. 62.

6. Fakhriddinovich K. F. In improving the methodology of using general and special training tools in increasing the physical preparation of weightlifters //Shokh library. – 2025. – T. 1. – №.

UO‘K 37.013.2:372.4

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI STEAM ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Raximov Nasriddin Nomozovich,
Samarqand davlat pedagogika instituti
Matematika kafedrasi mudiri, dotsent
nasriddin.raximov@inbox.ru
Haqnazarova Xurshida Kenjayevna,
Samarqand davlat pedagogika
instituti assistent o‘qituvchisi

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) asosida rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlashning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilindi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, modellashtirish, ekspert baholash va pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Taklif etilgan metodika pedagogika oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *STEAM, tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik metodika, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ faoliyat, integratsiya, refleksiya, muammoli ta’lim.*

DEVELOPING THE CRITICAL THINKING OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS BASED ON STEAM

This article investigates the issues of developing the critical thinking competence of future primary school teachers based on the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) approach. In the modern educational system, the development of critical thinking is viewed as an essential component of pedagogical training. In the course of the study, the essence, structural components, and scientific-pedagogical foundations of developing critical thinking were analyzed. The research utilized methods of pedagogical observation, comparative analysis, modeling, expert evaluation, and pedagogical experiment. The proposed methodology serves to increase the efficiency of forming professional competences among elementary education students at pedagogical higher education institutions.

Keywords: *STEAM, critical thinking, primary education, pedagogical methodology, competence-based approach, creative activity, integration, reflection, problem-based learning.*

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM

В данной статье исследуются вопросы развития компетенции критического мышления будущих учителей начального образования на основе STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics). В современной системе образования развитие критического мышления рассматривается как важный компонент педагогической подготовки. В ходе исследования были проанализированы содержание, структурные компоненты и научно-педагогические основы развития критического мышления. В исследовании использовались методы педагогического наблюдения, сравнительного анализа, моделирования, экспертной оценки и педагогического эксперимента. Предложенная методика служит повышению эффективности формирования профессиональных компетенций студентов направления начального образования в педагогических высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *STEAM, критическое мышление, начальное образование, педагогическая методика, компетентностный подход, креативная деятельность, интеграция, рефлексия, проблемное обучение.*

Kirish. Butunjahon ta’lim tizimida XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining

jadal rivojlanishi ta’lim mazmunini yangilash, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yuritadigan pedagoglarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion qarorlar qabul qilish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish kompetensiyalariga ega bo‘lishi bugungi kunning dolzarb talablaridan hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash shaxsning mavjud axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, qarama-qarshi fikrlarni solishtirish, asoslangan xulosalar chiqarish hamda muammolarga ilmiy yondashish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya pedagog faoliyatining barcha bosqichlarida – darsni rejalashtirish, o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim natijalarini baholash va refleksiv tahlil qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda xalqaro ta’lim amaliyotida STEAM yondashuvi innovatsion pedagogik texnologiya sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuv fanlararo integratsiyani ta’minlash, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, loyiha asosida o‘qitish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani yagona didaktik tizimga birlashtirish orqali talabalarning murakkab muammolarni kompleks tahlil qilish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini aynan STEAM asosida rivojlantirish metodikasining nazariy-metodik jihatlari, komponentlari, mezonlari va baholash mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Natijada oliy ta’lim muassasalarida ushbu kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan metodik ta’minot hamda amaliy mexanizmlar o‘rtasida muayyan tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini STEAM yondashuvi asosida rivojlantirish metodikasini ilmiy-nazariy asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini STEAM asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan hamda integrativ yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika, ta’lim falsafasi, konstruktivistik ta’lim nazariyasi, XXI asr kompetensiyalari konsepsiyasi hamda STEAM yondashuvi tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik loyihalash metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali tanqidiy fikrlash kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy qismlari hamda STEAM yondashuvi imkoniyatlari o‘zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihatlaridan biri sifatida STEAM yondashuviga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur tizim bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, muhandislik elementlari va san’at komponentlari yagona pedagogik jarayonda uyg‘unlashtirildi.

Taklif etilgan metodik tizim quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- ilmiylik va tizimlilik;
- fanlararo integratsiya;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- muammoli ta’lim;
- loyiha asosida o‘qitish;
- tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- refleksiv baholash;
- raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talaba bilimning passiv iste’molchisi emas, balki mustaqil izlanish olib boruvchi, muammolarni aniqlovchi, ularning yechimini ishlab chiquvchi va natijalarni tahlil qiluvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy modeli

Tadqiqot davomida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasi to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent asosida tavsiflandi.

1. Motivatsion komponent. Mazkur komponent talabaning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoji, muammolarni hal etishga qiziqishi, yangilikka ochiqligi hamda ilmiy izlanishga bo‘lgan motivatsiyasini

ifodalaydi. Motivatsion komponentning rivojlanishi tanqidiy fikrlashni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi.

Asosiy ko‘rsatkichlari:

- o‘quv motivatsiyasi;
- kasbiy qiziqish;
- innovatsion faoliyatga tayyorlik;
- mustaqil o‘rganishga ehtiyoj.

2. Kognitiv komponent. Kognitiv komponent tanqidiy fikrlashning nazariy bilimlar bilan bog‘liq jihatlarini tavsiflaydi. Ushbu komponent orqali talabaning axborotni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish va dalillarni baholash qobiliyati shakllanadi.

Asosiy ko‘rsatkichlari:

- analitik fikrlash;
- mantiqiy tafakkur;
- argumentatsiya;
- dalillarni tanqidiy baholash;
- muammolarni tahlil qilish.

3. Operatsion-faoliyat komponenti. Mazkur komponent tanqidiy fikrlashni amaliy faoliyat jarayonida namoyon etish bilan bog‘liq. Talabalar STEAM loyihalari, amaliy topshiriqlar, laboratoriya ishlari hamda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘z bilimlarini real muammolarni hal etishda qo‘llaydilar.

Ushbu komponent quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:

- loyiha ishlab chiqish;
- muhandislik dizayni elementlaridan foydalanish;
- eksperiment o‘tkazish;
- jamoada ishlash;
- muqobil yechimlarni ishlab chiqish.

4. Refleksiv komponent. Refleksiv komponent talabaning o‘z faoliyatini baholashi, xatolarni aniqlashi, o‘zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishi hamda o‘z pedagogik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan.

Asosiy ko‘rsatkichlari: o‘zini baholash, refleksiya, kasbiy o‘sishni rejalashtirish hamda tanqidiy tahlil.

STEAM asosidagi metodik model. Taklif etilgan metodik model quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich – Diagnostik bosqich. Talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi diagnostik testlar, muammoli topshiriqlar va anketa yordamida aniqlanadi.

2-bosqich – Motivatsion bosqich. STEAM texnologiyalarining amaliy ahamiyati namoyish etilib, talabalarda kasbiy motivatsiya shakllantiriladi.

3-bosqich – Integrativ o‘qitish bosqichi. Fanlararo loyihalar, Keys-study, Design Thinking, Problem Based Learning (PBL), loyiha metodi, robototexnika, raqamli laboratoriyalar va interaktiv platformalar asosida o‘quv jarayoni tashkil etiladi.

4-bosqich – Tadqiqotchilik faoliyati. Talabalar kichik ilmiy tadqiqotlar, STEAM loyihalari va pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali mustaqil faoliyat olib boradilar.

5-bosqich – Refleksiya va baholash. Portfolio, rubrikalar, ekspert baholash, o‘z-o‘zini baholash hamda tengdoshlar baholashi asosida yakuniy natijalar aniqlanadi.

Tanqidiy fikrlashni baholash mezonlari. Mazkur tadqiqotda tanqidiy fikrlash kompetensiyasi uch daraja bo‘yicha baholandi:

1-jadval.

Daraja	Tavsifi
Yuqori	Muammoni mustaqil tahlil qiladi, ilmiy asoslangan xulosalar chiqaradi, muqobil yechimlarni taklif etadi va refleksiya olib boradi.
O‘rta	Muammoni qisman tahlil qiladi, ayrim hollarda dalillardan foydalanadi, o‘qituvchi ko‘magida xulosa chiqaradi.
Past	Tayyor bilimlarni takrorlaydi, tahlil qilish va argumentatsiya qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan.

Taklif etilgan metodik tizimning o‘ziga xos jihati shundaki, unda tanqidiy fikrlash alohida kompetensiya sifatida emas, balki STEAM ta’limining barcha komponentlari bilan uzviy integratsiyalashgan kasbiy sifat sifatida qaraladi. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini

kompleks rivojlantirishga hamda zamonaviy ta’lim muhitida samarali pedagogik faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi STEAM asosidagi metodik tizim ishlab chiqildi. Mazkur tizim oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning analitik va refleksiv fikrlashini rivojlantirish hamda fanlararo integratsiyani ta’minlashga qaratilgan.

Ishlab chiqilgan metodik tizim zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, konstruktivistik va integrativ ta’lim tamoyillari uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi natijasida talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllantiriladi.

STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani ta’minlaganligi sababli talabalar matematik, tabiiy-ilmiy, texnologik va ijodiy masalalarni kompleks tarzda hal etishga o‘rganadilar. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim metodikasi fanlari bilan matematika, tabiatshunoslik, axborot texnologiyalari hamda san’at elementlarini integratsiyalash tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay didaktik muhitni yaratadi.

Quyida STEAM asosidagi integrallashgan topshiriq namunasini keltirib o‘tamiz.

Mavzu: ***Ko‘prik loyihalash orqali geometrik figuralarni o‘rganish va muammoni hal qilish.***

Maqsad. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, fanlararo bog‘liqlikni tushunish hamda jamoaviy ishlash kompetensiyalarini STEAM yondashuvi asosida rivojlantirish.

Muammoli vaziyat. Maktab hovlisidan kichik ariq oqib o‘tadi. Ariqning eni 40 sm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maktab bog‘iga o‘tishlari uchun ekologik toza materiallardan foydalanib kichik ko‘prik loyihalash talab etiladi.

Shartlar:

- ko‘prik uzunligi kamida 50 sm;
- eni 15 sm;
- kamida 2 kg yukni ko‘tara olishi;
- faqat muzqaymoq tayoqchalari, elim va ipdan foydalanish mumkin.

Talabalar uchun topshiriqlar

1-bosqich. Muammoni tahlil qilish

Talabalar quyidagi savollarga javob beradilar.

1. Ko‘prik nima sababdan mustahkam bo‘lishi kerak?
2. Qaysi geometrik shakl eng barqaror?
3. Nima uchun ayrim ko‘priklar tez buziladi?

Bu bosqich tanqidiy fikrlashning tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

2-bosqich. STEAM komponentlari

STEAM elementlari	Amalga oshiriladigan faoliyat
S (Science)	Og‘irlik markazi, bosim va muvozanatni tushuntirish
T (Technology)	Ko‘prik loyihasini Canva yoki GeoGebra dasturida chizish
E (Engineering)	Ko‘prik modelini loyihalash va yasash
A (Arts)	Ko‘prik dizayni va estetik bezatilishi
M (Mathematics)	Uzunlik, yuza, perimetr va proporsiyalarni hisoblash

3-bosqich. Matematik yechim

Berilgan: Ko‘prik uzunligi a = 50 sm, eni b = 15 sm. Ko‘prikning ustki qismi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida.

Uning yuzasi: $S=ab$=50*15=750 sm^2 ga teng.

Perimetri: $P=2(a+b)$=2(50+15)=130 sm.

Agar bitta muzqaymoq tayoqchasining uzunligi 11 sm bo‘lsa, 50 sm uzunlik hosil qilish uchun kamida 5 ta tayoqcha ketma-ket joylashtiriladi.

Agar eni bo‘yicha 15 sm uchun ikki qatordan foydalanilsa, jami 5*2=10 ta tayoqcha kerak bo‘ladi. Ko‘prikning mustahkamligini ta’minlash maqsadida uchburchak tayanchlar ishlatiladi.

4-bosqich. Tanqidiy fikrlash savollari

Talabalar quyidagilarni muhokama qiladilar.

1. Nima uchun aynan uchburchak konstruksiyasi tanlandi?
2. Agar ko‘prik 3 kg yukni ko‘tara olmasa, qanday o‘zgartirish kiritish mumkin?
3. Qaysi material ekologik jihatdan qulay?
4. Boshqa qanday konstruksiyalarni taklif qilasiz?

5. Dizaynni o‘zgartirish mustahkamlikka qanday ta'sir qiladi?



1-rasm. Muommo shartiga mos konstruksiya

Kutilayotgan natija. Mashg‘ulot yakunida talaba:

- muammoni tahlil qiladi;
- bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqadi;
- dalillarga asoslangan qaror qabul qiladi;
- matematik hisob-kitoblarni bajaradi;
- fanlararo bog‘liqlikni tushunadi;
- mustaqil loyiha ishlab chiqadi;
- o‘z qarorini himoya qiladi.

Mazkur topshiriqning o‘ziga xosligi shundaki, unda matematika, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va san’at elementlari yagona muammoli vaziyat asosida integratsiyalashgan. Talabalar tayyor formulalarni qo‘llash bilan cheklanmay, muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni taqqoslash, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va o‘z fikrini asoslash jarayonida faol ishtirok etadilar. Shu sababli topshiriq bo‘lajak boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi STEAM asosidagi metodik vosita sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini STEAM ta’limi asosida rivojlantirish metodikasining nazariy va metodik asoslari tizimli ravishda tahlil qilindi hamda uni takomillashtirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish alohida metodik yondashuvni talab etadi. Mazkur ehtiyojni qondirishda STEAM ta’limining fanlararo integratsiyaga asoslangan imkoniyatlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodik tizim oliy ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, talabalarni mustaqil izlanishga yo‘naltirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, loyiha faoliyatini rivojlantirish va refleksiv baholash mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi. Natijada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish hamda innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yaxlit metodik asos yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Halimah, S. (2025). The Effectiveness of the STEAM Approach on Critical Thinking Skills in Primary Education. Journal of Innovation and Research in Primary Education.

2. Soomro, R. B. K., Soomro, A. B., Memon, I., & Soomro, A. H. G. (2026). Inquiry-Based Science Teaching and Its Impact on Critical Thinking and Problem-Solving Skills: A Meta-Analysis of STEAM Education. // Journal of STEAM Education, 9(1), 93–113.

3. Yim, I. H. Y. (2025). STEAM in Practice and Research in Primary Schools. // Journal of Curriculum Studies.

4. Spyropoulou, N., et al. (2025). We Believe in STEAM Education, but We Need Support. // Education Sciences, 15(10), 1300.

5. Manikutty, G., Sasidharan, S., & Rao, B. (2022). Driving Innovation Through Project-Based Learning: A Pre-University STEAM for Social Good Initiative.

UO‘K 378.147:37.091.39:004

TA’LIM TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INNOVATSION FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmatov Ilhom Ismatovich,
Buxoro davlat universiteti “Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika” kafedrasi professori
ilhomraxmatov61@gmail.com
Narzullayeva Zarnigor Muxiddinovna,
Buxoro davlat universiteti “Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
narzillayeva90@mail.com

Ushbu maqolada ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Innovatsion fikrlash kompetentligining mazmuni, tarkibiy qismlari hamda uni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va amaliy tavsiyalari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim transformatsiyasi, innovatsion fikrlash, kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik ta’lim, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ fikrlash, loyiha metodi, refleksiv tahlil.*

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики развития компетентности инновационного мышления будущих учителей в условиях трансформации образования. Проанализированы сущность, структура и педагогические механизмы формирования инновационного мышления. Обоснована эффективность проблемного обучения, проектного метода, кейс-технологий, интерактивных методов и цифровых технологий. Определены педагогические условия и практические рекомендации по развитию инновационного мышления студентов педагогических вузов. Результаты исследования направлены на повышение качества профессиональной подготовки будущих педагогов и совершенствование образовательного процесса в условиях современных преобразований системы образования.

Ключевые слова: *трансформация образования, инновационное мышление, компетентность, будущий учитель, педагогическое образование, цифровые технологии, компетентностный подход, креативное мышление, проектный метод, рефлексивный анализ.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING INNOVATIVE THINKING COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION

This article examines the improvement of methodologies for developing innovative thinking competence among future teachers in the context of educational transformation. The essence, structural components, and pedagogical mechanisms of innovative thinking competence are analyzed. The effectiveness of problem-based learning, project-based methods, case-study technologies, interactive teaching approaches, and digital tools is substantiated. The study identifies pedagogical conditions and practical recommendations for fostering innovative thinking among students of pedagogical higher education institutions. The findings contribute to enhancing professional teacher training, improving educational

quality, and preparing competitive educators capable of responding effectively to modern educational challeng.

Keywords: *educational transformation, innovative thinking, competence, future teacher, pedagogical education, digital technologies, competency-based approach, creative thinking, project-based learning, reflective analysis.*

Kirish. Jahon miqyosida ta’lim tizimida kechayotgan transformatsion jarayonlar, raqamlashtirish, globallashuv va innovatsion rivojlanish tendensiyalari pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Zamonaviy jamiyatda o‘qituvchining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, muammolarni hal qilish va innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Jahon ta’lim makonida kechayotgan integratsiya, raqamlashtirish va globallashuv jarayonlari ta’lim tizimining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Zamonaviy jamiyatda o‘qituvchining vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o‘quvchi shaxsini mustaqil fikrlaydigan, yangilikka intiladigan, muammolarga ijodiy yechim topa oladigan, ijtimoiy faol va raqobatbardosh inson sifatida shakllantirishdan iborat bo‘lib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim transformatsiyasi - bu ta’lim tizimining an’anaviy modeldan zamonaviy, moslashuvchan, raqamli va kompetensiyaviy modelga o‘tish jarayonidir. Ushbu jarayon ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish metodlarini takomillashtirish, talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, pedagogik faoliyatga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda o‘quv natijalarini amaliy kompetensiyalar asosida baholashni nazarda tutadi.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar kelajakda faqat dars beruvchi mutaxassis emas, balki ta’lim jarayonini loyihalovchi, boshqaruvchi, tahlil qiluvchi, yangilik kirituvchi va o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi ijodkor pedagog sifatida tayyorlanishi zarur. Buning uchun ularda innovatsion fikrlash kompetentligini tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadli rivojlantirish talab etiladi.

Ta’lim transformatsiyasining mazmuni va pedagogik ahamiyati. Ta’lim transformatsiyasi ta’lim jarayonini zamonaviy ehtiyojlar asosida qayta tashkil etish, o‘qitishning mazmuni va shakllarini yangilash, o‘quvchi va talabalarni faol bilim oluvchi subyektga aylantirish jarayonidir. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy axborot manbai hisoblangan bo‘lsa, transformatsion ta’limda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, maslahatchi, tashkilotchi va hamkor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilardan yangicha pedagogik tafakkur, metodik moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni talab qiladi.

Ta’lim transformatsiyasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi;

ikkinchidan, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi;

uchinchidan, o‘quvchi va talabaning mustaqil fikrlashi hamda amaliy faoliyatiga ustuvor ahamiyat berilishi;

to‘rtinchidan, o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ijodkorlik va innovatsion yondashuvning muhim mezonga aylanishi;

beshinchidan, ta’lim natijalarini faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy kompetensiyalar bilan baholashga o‘tilishi.

Mazkur jarayonlar pedagogik ta’lim mazmunini ham yangilashni talab qiladi. Chunki kelajakdagi o‘qituvchi o‘z faoliyatida faqat mavjud darslik va metodik ko‘rsatmalar bilan cheklanib qolmasligi, balki yangi pedagogik vaziyatlarga mos yechimlar ishlab chiqa olishi, ta’lim vositalarini mustaqil tanlashi va o‘quvchilar ehtiyojiga moslashtira olishi kerak.

Innovatsion fikrlash kompetentligining mohiyati. Innovatsion fikrlash kompetentligi – bu shaxsning mavjud muammolarni yangicha ko‘ra olishi, noan’anaviy yechimlar ishlab chiqishi, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirishi, ularni amaliyotga ijodiy tatbiq etishi hamda o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirib borish qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bu kompetentlik kasbiy faoliyatning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion fikrlash kompetentligiga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchi quyidagi sifatlar bilan ajralib turadi:

– u ta’lim jarayonidagi muammolarni aniqlay oladi;
– mavjud metodik yondashuvlarni tanqidiy baholaydi;
– dars jarayoniga yangicha metod va texnologiyalarni tatbiq eta oladi;
– o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi;
– raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanadi;
– ijodiy topshiriqlar va amaliy loyihalar ishlab chiqadi;
– o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qiladi va takomillashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Demak, innovatsion fikrlash kompetentligi faqat kreativ g‘oya ishlab chiqish emas, balki bu g‘oyani pedagogik jarayonga moslashtirish, amaliyotda qo‘llash va natijasini baholash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Innovatsion fikrlash kompetentligining tarkibiy qismlari. Bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirishda uning tarkibiy qismlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu kompetentlik quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Motivatsion komponent. Bu komponent talabada yangilikka intilish, pedagogik faoliyatga qiziqish, kasbiy o‘sishga ehtiyoj, o‘z ustida ishlashga ichki rag‘bat va innovatsion faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Agar talabada ichki motivatsiya yetarli bo‘lmasa, u zamonaviy metodlarni o‘zlashtirishga ham, amaliyotga tatbiq etishga ham faol yondashmaydi.

Kognitiv komponent. Bu bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion pedagogika, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim vositalari, interfaol metodlar va kreativ fikrlash nazariyasi bo‘yicha bilimlarini qamrab oladi. Talaba nazariy bilimlarga ega bo‘lmasdan turib, ularni amaliyotda samarali qo‘llay olmaydi.

Amaliy-faoliyat komponenti. Bu komponent talabaning innovatsion metodlarni dars jarayonida qo‘llashi, ta’lim loyihalarini ishlab chiqishi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi, interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etishi va o‘quvchilar bilan ijodiy ishlay olishini bildiradi.

Refleksiv komponent. Refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, xatolar ustida ishlashi hamda keyingi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Innovatsion fikrlash aynan refleksiv tahlil orqali mustahkamlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Bunda nazariy bilim, amaliy mashg‘ulot, mustaqil izlanish, loyiha faoliyati, pedagogik amaliyot va refleksiv tahlil o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

Avvalo, o‘quv jarayonida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi. Muammoli ta’lim talabani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammoni tahlil qiluvchi, izlanadigan va yechim ishlab chiqadigan faol subyektga aylantiradi. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilarga “O‘quvchilarning darsga qiziqishi pasayganda qanday innovatsion metodlardan foydalanish mumkin?”, “Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatiga qanday ta’sir qiladi?”, “An’anaviy va zamonaviy ta’lim metodlarini qanday uyg‘unlashtirish mumkin?” kabi savollar asosida topshiriqlar berish ularning tahliliy va kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish ham innovatsion kompetentlikni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Talabalar tomonidan dars loyihalari, metodik tavsiyalar, elektron ta’lim resurslari, interfaol topshiriqlar va fanlararo mashg‘ulotlar ishlab chiqilishi ularning amaliy ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Bunday jarayonda talaba mustaqil izlanadi, axborotni saralaydi, ijodiy mahsulot yaratadi va o‘z ishini himoya qiladi.

Keys-stadi metodi esa bo‘lajak o‘qituvchilarni real pedagogik vaziyatlarga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, o‘quvchi faolligining pastligi, sinfda intizom muammosi, individual yondashuv zarurati, baholashdagi adolat mezonlari kabi vaziyatlar asosida tahliliy topshiriqlar berilishi talabalarning kasbiy qaror qabul qilish malakasini rivojlantiradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot madaniyati, jamoada ishlash, o‘z fikrini asoslash, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Debat”, “Fikrlar xaritasi”, “B-B-B”, “Sinkveyn” kabi metodlar talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarning o‘rni. Ta’lim transformatsiyasi sharoitida raqamli texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari, virtual laboratoriyalar, onlayn testlar, multimedia resurslari, sun’iy intellekt vositalari, taqdimot dasturlari va interfaol ilovalar pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchi raqamli vositalardan foydalanishni texnik ko‘nikma sifatida emas, balki metodik imkoniyat sifatida tushunishi lozim. Masalan, mavzuni tushuntirishda animatsiya va videolardan foydalanish, bilimni mustahkamlashda onlayn testlar qo‘llash, mustaqil ishlarni tashkil etishda elektron platformalardan foydalanish, baholash jarayonida avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda quyidagi ko‘nikmalar rivojlanadi:

– axborot bilan ishlash;
– elektron resurs yaratish;
– o‘quv materialini vizuallashtirish;
– masofaviy va aralash ta’limni tashkil etish;
– individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash;
– o‘quv natijalarini tahlil qilish.

Shu bois pedagogika oliy ta’lim muassasalarida raqamli pedagogika, media savodxonlik, sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish, elektron darsliklar yaratish va interfaol ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar sonini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

Metodikani takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur:

birinchidan, pedagogik ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash;

ikkinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarida interfaol va innovatsion metodlardan tizimli foydalanish;

uchinchidan, talabalarning mustaqil izlanish va loyiha faoliyatini kengaytirish;

to‘rtinchidan, raqamli ta’lim resurslaridan metodik maqsadda foydalanish;

beshinchidan, pedagogik amaliyotni real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirish;

oltinchidan, talabalar faoliyatini refleksiv tahlil qilish tizimini yo‘lga qo‘yish;

yettinchidan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini shakllantirish.

Ushbu shart-sharoitlar ta’lim jarayonida izchil amalga oshirilsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish samaradorligi ortadi. Natijada ular zamonaviy maktab talablariga mos, kreativ, tashabbuskor va kasbiy jihatdan raqobatbardosh pedagog sifatida shakllanadi.

Amaliy tavsiyalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

pedagogik fanlar mazmuniga innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan bog‘liq amaliy topshiriqlarni kengroq kiritish;

har bir mavzu bo‘yicha muammoli savol, keys yoki loyiha topshirig‘ini ishlab chiqish;

talabalarga elektron dars ishlanmalari, interfaol testlar va multimedia materiallari tayyorlatish;

pedagogik amaliyot davrida innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha maxsus kuzatuv mezonlarini joriy etish;

talabalar tomonidan tayyorlangan dars loyihalarini ochiq muhokama qilish va tahlil qilish;

refleksiv kundalik, portfolio va o‘z-o‘zini baholash varaqalaridan foydalanish;

o‘qituvchilar uchun zamonaviy metodika va raqamli pedagogika bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish.

Mazkur tavsiyalar pedagogik ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish hamda ularni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish pedagogik ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Zamonaviy o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini loyihalovchi, boshqaruvchi, tahlil qiluvchi va yangilik yaratuvchi mutaxassis bo‘lishi zarur. Buning uchun pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kompetensiyaviy, innovatsion va amaliy yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirishda muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va refleksiv tahlil samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, kasbiy moslashuvchanlik, yangilik yaratish va amaliy faoliyatni samarali tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa. Ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning strategik vazifalaridan biridir. Innovatsion fikrlash kompetentligini shakllantirishda muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Takomillashtirilgan metodika bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning raqobatbardoshligini ta’minlash hamda zamonaviy ta’lim muhitiga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.– Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
7. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2017.
8. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
9. To‘xtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
10. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris, 2021.
11. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2021.
12. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. – Brussels, 2021.

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV: IJTIMOIY-PEDAGOGIK OMILLAR VA SAMARADORLIK

Raxmatova Sevara Abdulloyevna,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo‘limi mustaqil izlanuvchisi
navoiy@academy.uz
Gulyamov Djaxangir Raxmatullayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo‘limi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
navoiy@academy.uz

Mazkur maqolada o‘rta umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning hozirgi holati va ijtimoiy-pedagogik omillari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida yuqori sinf o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlari, kasb tanlash mustaqilligiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar hamda shaxsiy karyerani strategik rejalashtirish darajasi o‘rganildi. Maktablardagi mavjud an’anaviy proforiyentatsiya tizimi va mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan «Interaktiv kasbiy oriyentatsiya» metodikasining samaradorligi tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov (nazorat va tajriba guruhlari) ishlari orqali qiyosiy baholandi. Olingan natijalar asosida umumta’lim muhitida uchrayotgan muammolar va ularni tizimli bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbga yo‘naltirish, kasbga qiziqish, kasb tanlash, ijtimoiy-pedagogik omillar, karyera rejalashtirish, mehnat bozori, interaktiv metodlar.*

КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ: СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ

В данной статье системно анализируются текущее состояние и социально-педагогические факторы профориентации учащихся общеобразовательных школ. В исследовании рассматриваются профессиональные интересы учащихся старших классов, внешние и внутренние факторы, влияющие на независимость их выбора профессии, а также уровень стратегического планирования индивидуальной карьеры. На основе педагогического эксперимента (контрольная и экспериментальная группы) проведена сравнительная оценка эффективности традиционной системы профориентации и предложенной авторами методики «Интерактивной профессиональной ориентации». По результатам выделяются существующие проблемы в общеобразовательной среде и предлагаются научно обоснованные рекомендации по их системному решению.

Ключевые слова: *профориентация, интерес к профессии, выбор профессии, социально-педагогические факторы, планирование карьеры, рынок труда, интерактивные методы.*

A COMPETENCE-BASED APPROACH IN THE VOCATIONAL GUIDANCE OF STUDENTS: SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS AND EFFECTIVENESS

This article systematically analyzes the current state and socio-pedagogical factors of career guidance among secondary school students. The study examines the professional interests of senior students, internal and external factors influencing the independence of their career choices, and the level of strategic planning of their individual careers. Through a pedagogical experiment involving control and experimental groups, the effectiveness of the traditional school approach was comparatively evaluated against the “Interactive Career Guidance” methodology proposed by the authors. Based on the findings, existing problems in the general educational environment are highlighted, and scientifically grounded recommendations for their systemic solution are provided.

Keywords: *career guidance, professional interest, career choice, socio-pedagogical factors, career planning, labor market, interactive methods.*

Kirish. Mehnat qilish huquqi va bu huquqni ongli ravishda amalga oshirish masalasi – davlatimizning bugungi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini belgilovchi, mamlakatimizning xalqaro obro‘-e’tiborini ta’minlaydigan inson manfaatlariga daxldor eng muhim omillardan biridir. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “…biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy

o‘zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotgani bilan o‘lchanadi” [1].

Aholi bandligini tizimli ta’minlash zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanib, shiddat bilan rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozoridagi global transformatsiyalar yoshlarning kasblarni yuzaki emas, balki chuqur anglagan holda tanlashini taqozo etmoqda [8]. O‘quvchi-yoshlarning maktab davrida qabul qilgan kasbiy qarorlari bilan milliy mehnat bozorining real ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash – davlat raqobatbardoshligining asosidir [7]. Shu nuqtayi nazardan, umumta’lim maktablarida proforiyentatsiya ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb pedagogik zarurat hisoblanadi.

Shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi uning intellektual rivojlanish dinamikasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida (12-15 yosh) inson intellektida sifat o‘zgarishlari yuz beradi, atrof-muhit va shaxsiy imkoniyatlarni refleksiv tahlil qilish, kelajakni loyihalash qobiliyatlari faollashadi [5]. Aynan shu davrda ko‘rsatilgan tizimli pedagogik-psixologik ko‘mak o‘quvchining kasbiy trayektoriyasini to‘g‘ri belgilashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarining kasbiy kamoloti faqatgina nazariy ma’lumot berish bilan cheklanmaydi. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida kasbga yo‘naltirish ishlari bazaviy pedagogik va proforiyentolog-magistr darajasiga ega bo‘lgan alohida shtatdagi mutaxassislar (o‘rtacha 150-200 o‘quvchiga 1 nafar) tomonidan uzluksiz olib boriladi [4]. Rossiya Federatsiyasida esa “Universitet shanbaliklari” va “Professional muhit” kabi yirik loyihalar orqali umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sektorini birlashtirgan yagona raqamli va amaliy axborot makoni yaratilgan [3, 6]. Ushbu ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimi xususiyatlarini inobatga olgan holda adaptatsiya qilish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega [2].

Materiallar va usullar. Tadqiqot jarayonida muammoni tizimli o‘rganish maqsadida nazariy (qiyosiy-pedagogik tahlil, modellashtirish) va empirik (anketa so‘rovi, suhbat, pedagogik kuzatish, psixologik testlar) usullar majmuasidan foydalanildi. Empirik ma’lumotlarni to‘plashda X.Golomshtokning “Qiziqishlar xaritasi” metodikasi va B.Qodirovning “Yetakchi signal tizimlarini aniqlash” so‘rovnomalaridan foydalanildi [8].

Respublikamiz o‘rta umumta’lim maktablari o‘quvchilarining kasbiy yo‘nalganligi holatini o‘rganish maqsadida Navoiy shahridagi o‘rta umumta’lim maktablarining 8–9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 135 nafar o‘quvchi ishtirok etgan bo‘lib, ulardan 63 nafari nazorat guruhiga va 72 nafari tajriba guruhiga taqsimlandi.

Pedagogik eksperiment uchta mantiqiy bosqichda tashkil etildi:

1. Diagnostik (konstatatsiya qiluvchi) bosqich: Mazkur bosqichda nazorat va tajriba guruhlaridagi o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari darajasi, motivatsion yo‘nalganligi va kasblar haqidagi tasavvurlari anonim so‘rovnomalar yordamida aniqlandi. Dastlabki ko‘rsatkichlar bo‘yicha har ikkala guruhda ham kasbiy yo‘nalganlik darajasi o‘zaro teng emasligi qayd etildi.

2. Eksperimental (shakllantiruvchi) bosqich: Nazorat guruhida kasbga yo‘naltirish ishlari maktabning mavjud an’anaviy dasturi (umumiy tarzdagi sinf soatlari va ma’ruzalar) doirasida davom ettirildi. Tajriba guruhida esa mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan va quyidagi intervensiyalarni o‘z ichiga olgan «Interaktiv kasbiy oriyentatsiya» dasturi 3 oy davomida sinovdan o‘tkazildi:

– **raqamlashtirilgan diagnostika:** o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari va kasbiy layoqati elektron psixologik platformalar orqali monitoring qilindi.

– **“professional muhit” dasturi:** mehnat bozorida yuqori talabga ega bo‘lgan zamonaviy soha vakillari (IT-arxitektorlar, moliyaviy tahlilchilar, muhandislar) bilan mahorat darslari va “savol-javob” jonli sessiyalari o‘tkazildi.

– **kasbiy simulyatsiya (keys-stadi):** o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, muayyan kasbga oid amaliy muammolarni mustaqil yechish orqali mehnat jarayonini modellashtirdilar.

– **individual trayektoriya**: O‘quvchi va uning ota-onasi ishtirokida “Individual karyera xaritasi”ni ishlab chiqish bo‘yicha maqsadli oilaviy konsalting maslahatlar tashkil etildi.

3. Nazorat (yakuniy) bosqich: Eksperiment yakunida har ikkala guruhda takroriy diagnostika o‘tkazilib, olingan ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlil qilindi.

O‘quvchilarni ikki guruhga ajratishdan asosiy maqsad – maktablardagi an’anaviy kasbga yo‘naltirish tizimi bilan biz tomonimizdan taklif etilayotgan yangi “Interaktiv kasbiy oriyentatsiya” yondashuvining samaradorligini o‘zaro qiyosiy baholashdan iborat edi.

Nazorat guruhidagi o‘quvchilar (63 nafar) bilan kasbga yo‘naltirish ishlari maktabning an’anaviy o‘quv dasturi doirasida, odatiy sinf soatlari va umumiy suhbatlar shaklida olib borildi. Tajriba guruhida (72

nafar) esa mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi maxsus pedagogik metodlar (intervensiya) qo‘llanildi:

Kasbiy diagnostikaning zamonaviy usullari: O‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini va kasbga layoqatini aniqlashda nafaqat standart savolnomalar, balki raqamlashtirilgan psixologik testlar (qiziqishlar xaritasining elektron varianti) o‘tkazildi.

“Professional muhit” dasturi: Zamonaviy va istiqbolli kasb egalari (IT-mutaxassislar, moliyachilar, muhandislar) bilan mahorat darslari (master-klass) va jonli muloqotlar tashkil etildi.

Loyihaviy-amaliy faoliyat: O‘quvchilar turli kasblarga oid kichik loyihalarni mustaqil bajarish orqali mehnat jarayonini simulyatsiya qildilar.

Individual kasbiy maslahat: Tajriba guruhi o‘quvchilari ota-onalari bilan birgalikda mutaxassisning individual konsultatsiyalariga jalb etildi.

Olinadigan natijalar obyektiv bo‘lishini ta’minlash maqsadida eksperiment boshida va oxirida har ikkala guruhda anketa so‘rovi anonim tarzda amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning qayd qiluvchi bosqichida maktab o‘quvchilarida kasblarga qiziqish shakllanganligi, kasb tanlashga ta’sir qilgan omillar va shaxsiy karyerani rejalashtirish holati o‘rganildi. “Ushbu maktabni bitirgach nima qilmoqchisiz?” degan savolga respondentlarning aksariyati (nazorat guruhida 80%, tajriba guruhida 85%) oliy ta’lim muassasasiga kirib o‘qishni davom ettirmoqchi ekanligini ma’lum qildi (qarang: 1-jadval).

1-jadval.

O‘quvchilarning kasbiy rejalarini shakllanganligi
(qayd qiluvchi tadqiqot natijalari)

№	Malaka darajasi ko‘rsatkichlari	Javob natijalari	
		Nazorat	Tajriba
1.	Oliy ta’lim muassasasida o‘qishni davom ettirish	80.0 %	85,0 %
2.	O‘rta maxsus bilim yurti yoki kasb maktabida o‘qish	0 %	0%
3.	Malaka talab qilmaydigan kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish	0%	5,0 %
4.	Aniq bir qarorga kelmaganman (hozircha bilmayman)	20 %	15 %

Izoh: *1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, nazorat va tajriba guruhlaridagi o‘quvchilarning mutlaq ko‘pchiligi (mutanosib ravishda 80% va 85%) o‘z istiqbolini oliy ta’lim bilan bog‘lamoqda. Biroq, tajriba guruhida aniq qarorga kelmaganlar ko‘rsatkichining 20% dan 10% ga tushishi tashkil etilgan tizimli yo‘naltirish ishlari o‘quvchilardagi ikkilanishlarni kamaytirganidan dalolat beradi.*

O‘quvchilarning qiziqishlari qaysi kasb sohalariga yo‘naltirilganligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval.

O‘quvchilarda kasbga qiziqishning shakllanganligi
(qayd qiluvchi tadqiqot natijalari)

№	Kasbiy faoliyat sohalari	Javob natijalari	
		Nazorat	Tajriba
1.	Harbiy va huquqni muhofaza qilish sohasi kasblari	8.0%	10%
2.	Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi	7.0%	10%
3.	Moliya, bank va iqtisod sohasi kasblari	29%	25%
4.	Ijtimoiy soha (tibbiyot, pedagogika va h.k.) kasblari	20%	20%
5.	Texnika va IT bilan bog‘liq zamonaviy kasblar	25%	37%
6.	Aniq bir sohani tanlamaganlar	11%	13%

Izoh: *2-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida texnika va IT sohasiga bo‘lgan qiziqish (37%) nazorat guruhiga (25%) nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Bu ko‘rsatkich mualliflar tomonidan tashkil etilgan «Professional muhit» dasturi doirasidagi texnologik soha vakillari bilan uchrashuvlarning o‘quvchilar dunyoqarashiga ko‘rsatgan bevosita pedagogik ta’siri natijasidir.*

Aksariyat o‘quvchilar texnika bilan bog‘liq kasblarga (nazorat guruhi – 25%; tajriba guruhi – 37%), moliya va iqtisod sohalariga (nazorat guruhi – 29%; tajriba guruhi – 25%) hamda ijtimoiy soha kasblariga (ikkala guruhda ham 20%) qiziqishlarini bildirgan (qarang: 2.-jadval).

O‘quvchilarda kasbga qiziqishni shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga kasbni mahorat darajasida egallash istagi (nazorat guruhi – 50%; tajriba guruhi – 45%), kasbning jamiyat uchun ahamiyati (25%; 50%) hamda kasb talablariga o‘quvchi shaxsiy sifatlarining to‘g‘ri kelishi (30%; 45%) kirishi aniqlandi.

Shu bilan birga, hozirgi kunda maktab o‘quvchilarining kasb tanlashlariga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni o‘rganish maqsadida berilgan savolga respondentlar quyidagicha javob qaytarishdi: kasb tanlash

jarayoniga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omil sifatida ota-ona va qarindoshlar maslahati (nazorat guruhi – 75%; tajriba guruhi – 80%) qayd etildi.

Eksperiment davomida o‘quvchilarning kasb tanlash motivatsiyasi va ularga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy-pedagogik omillar ham sinchiklab o‘rganildi (3-jadval).

3-jadval.

O‘quvchilarda kasbga qiziqish shakllanishiga ta’sir qilgan asosiy omillar

№	Kasbiy faoliyat sohalari	Javob natijalari	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	Badiiy adabiyot, filmlar va ijtimoiy tarmoqlar	5%	10%
2.	Zamonamizning mashhur shaxslari (inflyuenserlar)	10%	5%
3.	Kasb talablariga shaxsiy sifatlar va layoqatning mosligi	30 %	45%
4.	Tanlangan kasbni yuqori mahorat darajasida egallash istagi	50 %	45 %
5.	Kasbiy faoliyatning jamiyat uchun ahamiyati va nafi	25 %	50 %
6.	Sayohat qilish va keng imkoniyatlarga ega bo‘lish istagi	15%	5%
7.	Kelajakda yuqori moddiy daromad ishlab topish maqsadi	35%	25%
8.	Oilaviy an’analar va ota-onalarning qat’iy maslahati	**90%**	**85%**

Izoh: *3-jadval ko‘rsatkichlari kasb tanlashda ota-ona fikri hanuzgacha eng kuchli tashqi omil (90% va 85%) bo‘lib qolayotganini tasdiqlaydi. Biroq, eng muhim tizimli o‘zgarish – tajriba guruhida kasbning jamiyat uchun ahamiyatini anglash (50%) hamda shaxsiy sifatlarning kasb talablariga mosligini baholash (45%) ko‘rsatkichining nazorat guruhiga nisbatan keskin ortganidir.*

So‘rovda ishtirok etganlarning nazorat guruhidan 20% va tajriba guruhidan 35% qismi kasb tanlashiga o‘sha sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassis maslahati ta’sir qilganligini ta’kidlagan.

Shuningdek, so‘rovnomada maktab fan o‘qituvchilarining kasb tanlashga ta’siri nazorat guruhida atigi 5% ni, tajriba guruhida esa 10% ni tashkil etganligi aniqlandi.

Muhokama. Maktabda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish – qiziqishlarini aniqlash, qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash va bozor talablariga mos keladigan yo‘nalishni tanlashlarida yordam berishdan iborat. Biroq olingan natijalar o‘quvchilarda kasb tanlashga nisbatan qiziqish mavjud bo‘lsa-da, ularning tanlovi ko‘p hollarda tashqi ta’sirlar (xususan, oila a’zolari) asosida shakllanayotganligini ko‘rsatdi. Ushbu holat xalqimizning urf-odatlari va hududning demografik xususiyatlari bilan bog‘liq. Biroq, T.I. Shalavina ta’kidlaganidek, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida faqatgina oilaviy tajribaga suyanib qolishi zamonaviy mehnat bozorining dinamik o‘zgarishlari davrida xato qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin [9]. Ota-onalarning aksariyati mehnat bozorida paydo bo‘layotgan yangi, istiqbolli kasblarning psixofiziologik va iqtisodiy xususiyatlari haqida yetarli ma’lumotga ega emaslar.

Tajriba guruhida qo‘llanilgan “Interaktiv kasbiy oriyentatsiya” metodikasi o‘quvchilarda kasb tanlash jarayoniga nisbatan ichki motivatsiya va refleksiyani faollashtirdi. O‘quvchilarning kasbning jamiyat uchun ahamiyatini (50%) va o‘z shaxsiy imkoniyatlarini (45%) ustuvor mezon sifatida ko‘ra boshlaganligi diqqatga sazovordir. Bu natijalar xalqaro miqyosda tan olingan Kognitiv axborotni qayta ishlash nazariyasiga (Cognitive Information Processing Theory) to‘liq mos keladi [4]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, subyektga kasblar olami haqida tizimli, simulyatsion va interaktiv axborot berilganda, uning qaror qabul qilish mexanizmlari tashqi ta’sirlardan (ota-ona, OAV) ichki ongli tahlilga transformatsiya bo‘ladi.

Shuningdek, tajriba guruhiga zamonaviy kasblar va ularning mehnat bozoridagi o‘rni haqida aniq, tizimli ma’lumotlar berilgani sababli, ularda kasb tanlashdagi mustaqillik darajasi ortgani qayd etildi. Nazorat guruhidagi o‘quvchilar asosan tanish, an’anaviy kasblarni (masalan, umumiy iqtisodchi yoki o‘qituvchi) tanlashga moyil bo‘lsa, tajriba guruhidagilar aniq yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tishdi. Rivojlangan davlatlarda o‘quvchi-yoshlarning o‘zlari yoki ota-onalari kasb tanlash masalasida albatta mutaxassisga (proforiyentologga) murojaat qiladilar.

Shu bilan birga, ba’zan o‘quvchilarning kasb tanlashidagi ikkilanishlar (10-15% holatda) axborot yetishmovchiligidan emas, balki “tanlov paradoksi”dan (informatsiya ko‘pligi sababli qaror qabul qilolmaslik) kelib chiqadi. Shu bois, maktablardagi proforiyentatsiya shunchaki axborot berish emas, balki o‘quvchini axborotlar oqimida to‘g‘ri yo‘nalish olishga o‘rgatuvchi “navigatsiya” vazifasini o‘tashi kerak. N.A. Aleksandrova va O.Y. Bryuxova qayd etganidek, kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli xarakterga ega bo‘lmasdan, faqatgina maktab o‘qituvchisining umumiy maslahatiga tayanib qolsa, uning samaradorligi minimal darajada qolaveradi [3]. Biz tomonimizdan taklif etilgan loyihaviy va simulyatsion yondashuv maktab muhitida o‘quvchilarga kasblar olamini amaliy his qilish imkonini beradi.

Bu esa, maktablarda kasbga yo‘naltirish ishlarini faqatgina o‘qituvchilarning umumiy tavsiyasiga tashlab qo‘ymasdan, balki maxsus proforiyentatsion dasturlar, interaktiv metodlar va amaliy mashg‘ulotlar

asosida tizimli tashkil etish naqadar muhim ekanligini ilmiy-amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ommaviy axborot vositalari (televideniye, internet) kuchli vosita sifatida xizmat qilsa-da, kasblarning faqat “yorqin” tomonlarini ko‘rsatish orqali noto‘g‘ri tushunchalar shakllanishiga ham sabab bo‘lishi mumkinligi inobatga olinishi lozim.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalari xulosa qilib aytganda, maktab o‘qituvchilari va pedagog-psixologlarining o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishdagi real ta’sir darajasi (5-10%) past ijtimoiy ko‘rsatkichga ega. Kasb tanlash tizimi ko‘p hollarda mehnat bozori realligidan uzilgan holda, faqat oilaviy xohishlar asosida shakllanayotganligi kadrlar disbalansi xavfini tug‘diradi. Mazkur muammoni bartaraf etish va maktablarda kasbga yo‘naltirish ishlarini sifat jihatidan rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Interaktivlikni ta’minlash: Umumta’lim maktablarida an’anaviy ma’ruza shaklidagi sinf soatlaridan voz kechib, o‘quvchilarning kasbiy layoqatini amalda sinaydigan loyihaviy-simulyatsion texnologiyalarni (keys-stadi, rolli o‘yinlar, kasblar simulyatsiyasi) proforiyentatsiya dasturiga majburiy tartibda kiritish.
2. Pedagogik uchlikni faollashtirish (Maktab-Oila-Mehnat bozori): Ota-onalarning kasbiy psixologiya va zamonaviy mehnat bozori tendensiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish maqsadida maktablarda «Kasbiy maslahat kunlari»ni tashkil etish, ularni farzand qobiliyatini obyektiv baholashga o‘rgatish.
3. Raqamli navigatsiya tizimini joriy etish: Yoshlar va ularning ota-onalari uchun istiqbolli kasblar, ularning psixofiziologik talablari va hududiy mehnat bozoridagi ehtiyojlar aks etgan milliy raqamli platformalar va “Shaxsiy karyera xaritasi” elektron kundaliklari tizimini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Kelgusidagi tadqiqotlar yo‘nalishi:

Mazkur muammoning chuqurligini inobatga olgan holda, kelgusi tadqiqotlarimizda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda sun’iy intellekt va neyrotexnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganishni maqsad qilganmiz.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M., Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2016.
2. Kirby C.A. Career and life style aspirations of gifted Canadian secondary school females // Diss., The University of Arizona, 1988.
3. Александрова Н.А., Брюхова О.Ю. Профессиональная ориентация в фокусе внимания государства: проблемы, противоречия, пути решения // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики, 2016. – № 9. С. 13-16.
4. Гуртов В. А., Колесников В. Н., Питухина М. А. От традиционной модели профориентации к системе сопровождения и консультирования на протяжении всей жизни: опыт Финляндии // Непрерывное образование: XXI век. 2019. № 2 (26).
5. Кон И.С. Психология ранней юности: Кн.для учителя. –М.: Просвещение, 1989. 69-бет.
6. Крупская Ю.В., Серкова Е.И. Зарубежный и отечественный опыт организации и реализации профессиональной ориентации детей и учащейся молодежи // Думский вестник: Теория и практика дополнительного образования N 1(9)/2017. –С. 25-28.
7. Митюрникова Л.А. Комплексная система профессиональной ориентации молодежи как социальный институт общества: дис. … канд. соц. наук / Л.А. Митюрникова. – М., 2005 – 201 с.
8. Numonova D.U. O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishning pedagogik jihatlari: metodik qo‘llanma. –Navoiy: NavDPI, 2023. -78 b.
9. Шалавина Т.И. Социология молодёжи в контексте социальной работы. Саратов, СГТУ, 2004. С. 98-120.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, p.f.d. (DSc)
murodshomirzayev@gmail.com
G‘aniyeva Dilfuza A’lam qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
ganiyevadilfuz70@gmail.com

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning professional malakasi va shaxsiy kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarurdir. Kreativ kompetentsiya o‘qituvchilarga innovatsion metodlar qo‘llash, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu maqolada, kelajakdagi texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentsiyani rivojlantirish metodlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *kreativ kompetentsiya, texnologiya fani o‘qituvchisi, innovatsion pedagogika, aktiv o‘quv metodlari, dizayn fikrlash, loyiha asosidagi o‘rganish, emotsional intellekt.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В современной системе образования большое значение имеет профессиональная квалификация и личностная компетентность педагогов. В частности, развитие творческой компетентности учителей технологии необходимо для их успеха в профессиональной деятельности. Творческая компетентность позволяет педагогам использовать инновационные методы, эффективно организовывать учебный процесс, развивать способность учащихся творчески мыслить. В данной статье анализируются педагогические и психологические возможности методов развития творческой компетентности при подготовке будущих учителей технологии к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *творческая компетентность, учитель технологии, инновационная педагогика, активные методы обучения, дизайн-мышление, проектное обучение, эмоциональный интеллект.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF CREATIVE COMPETENCE DEVELOPMENT METHODS IN PREPARING FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS FOR THEIR PROFESSIONAL ACTIVITY

In the modern education system, the professional qualification and personal competence of teachers are of great importance. In particular, the development of creative competence of technology teachers is necessary for their success in their professional activities. Creative competence allows teachers to use innovative methods, effectively organize the educational process, and develop students’ ability to think creatively. This article analyzes the pedagogical and psychological possibilities of creative competence development methods in the preparation of future technology teachers for professional activities.

Keywords: *creative competence, technology teacher, innovative pedagogy, active teaching methods, design thinking, project-based learning, emotional intelligence.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida global miqyosda o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish va zamonaviy o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiya fanining o‘qitilishi, faqatgina nazariy bilimlar yetkazish emas, balki o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda zamonaviy muammolarni yechish uchun zarur bo‘lgan innovatsion yondashuvlarni shakllantirishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda

kreativ kompetentsiyani rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kreativ kompetentsiya - bu shaxsning muammolarni yechishda ijodkorlik bilan yondashishi, yangilik yaratish va samarali usullarni ishlab chiqish qobiliyatidir [1]. Zamonaviy texnologiyalar va ularning ta’limdagi qo‘llanilishi sharoitida, o‘qituvchilardan faqatgina bilimli bo‘lish emas, balki o‘z bilimi va tajribasini ijodiy tarzda tatbiq eta olish ham talab qilinadi. Bunda pedagogik-psixologik yondashuvlar va innovatsion metodlarning ahamiyati katta. Ta’lim jarayonida kreativ kompetentsiyani rivojlantirish o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish bilan birga, ularning muammoli vaziyatlarni hal qilishda o‘ziga xos va samarali yondashuvlarni ishlab chiqishiga xizmat qiladi. Bu esa, texnologiya fani o‘qituvchilarining nafaqat kasbiy mahoratini oshiradi, balki ularning o‘quvchilar bilan samarali pedagogik munosabatlarini shakllantiradi. Ushbu maqola bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan metodlarning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kreativ yondashuvlar va o‘quv jarayonida ijodiy usullardan foydalanishning afzalliklari va ularning o‘qituvchilar faoliyatidagi o‘rni keng yoritiladi. O‘z navbatida, ta’limda kreativ kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasiga milliy va xalqaro tajriba asosida yondashib, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan tavsiyalar beriladi. Shu bilan birga, kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar va yondashuvlarning psixologik asoslari ham chuqur tahlil qilinadi [2].

Adabiyotlar tahlili. Kelajakdagi texnologiya fani o‘qituvchilarini kreativ kompetentsiyani rivojlantirish masalasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar turli pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. Ushbu tahlil jarayonida mavzuga oid adabiyotlarni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganamiz:

Guilford (1950) ijodiylikni shaxsning muhim psixologik sifati sifatida ta’riflab, uni yangi g‘oyalar yaratish va muammolarni noan’anaviy usullar bilan hal qilish qobiliyati sifatida ko‘rsatgan. Uning tadqiqotlari kreativ fikrlashning komponentlarini, masalan, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik va fluensiyani aniqlashga qaratilgan.

Runco va Jaeger (2012) kreativlikni zamonaviy ta’lim jarayonida asosiy kompetentsiyalardan biri deb hisoblaydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentsiyaga ega o‘qituvchilar o‘quvchilarda yangi bilimlarni izlashga qiziqish uyg‘otadi.

O‘zbekistonlik olimlar orasida Gulomov (2020) kreativ kompetentsiyaning o‘quv jarayonidagi ahamiyatini o‘rganib, uni pedagogik jarayonning ajralmas qismi deb ta’kidlagan. Uning tadqiqotlarida kreativ kompetentsiya o‘qituvchilarning innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatlarini ochib beruvchi sifat sifatida qaraladi.

Vygotskiy (1978) o‘quv jarayonida ijodiylikni rivojlantirishga alohida urg‘u bergan va shaxsning ijtimoiy muhit bilan muloqoti ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlagan.

Miller (2015) texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida loyiha asosida o‘qitish va dizayn fikrlash metodologiyasini qo‘llash ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda samarador ekanligini ko‘rsatgan.

Islomova (2018) texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning o‘rnini o‘rgangan. U, ayniqsa, texnologik loyihalash va gamifikatsiyaning o‘quv jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini qayd etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot kelajakdagi texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga tayyorlanish jarayonida kreativ kompetentsiyasini rivojlantirish metodlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullarni birlashtirgan kombinatsiyalangan metodologiya qo‘llanildi, bu esa natijalar ishonchliligi va to‘liqligini ta’minlashga imkon berdi. Tadqiqot dizayni eksperimental asosda tashkil etilib, o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini baholash uchun keng qamrovli ma’lumotlarni yig‘ishga imkon yaratdi. Miqdoriy tadqiqot qismi uchun 150 ta texnologiya fani o‘qituvchisi o‘rtasida standartlashtirilgan anketalar o‘tkazildi. Anketa savollari kreativ kompetentsiyaning turli komponentlarini baholashga qaratilgan bo‘lib, ularda innovatsion fikrlash, muammolarni yechim topish qobiliyati, ijodiy metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish kabi aspektlar mavjud edi. Likert shkali yordamida baholash tizimi (1-juda past, 5-juda yuqori) qo‘llanildi, bu orqali o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasi darajasi aniq ko‘rsatilishi mumkin bo‘ldi [3].

Sifatli tadqiqot qismi uchun esa, miqdoriy tadqiqotdan keyin 20 ta o‘qituvchi bilan chuqur intervyular olib borildi. Intervyularning maqsadi anketalarda olingan natijalarni yanada chuqurroq tahlil qilish, o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda duch keladigan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlarni aniqlash edi. Intervyu savollari ochiq bo‘lib, o‘qituvchilarning shaxsiy tajribalari, qo‘llagan metodlari, motivatsiya va pedagogik-psixologik omillar haqida ma’lumot olishga yo‘naltirilgan edi.

Tadqiqotning nazariy qismi mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va ilg‘or tajribalarni tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Bu orqali kreativ kompetentsiyaning nazariy asoslari, uning ahamiyati va rivojlantirish metodlari haqida chuqur tushuncha hosil qilindi. Tadqiqotda qatnashuvchi sifatida O‘zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan texnologiya fani o‘qituvchilari tanlandi. Anketalash uchun 150 ta o‘qituvchi tanlab olindi, ular orasida maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ishlovchi o‘qituvchilar bo‘ldi. Intervyu uchun esa 20 ta o‘qituvchi tasodifiy tanlandi, ular anketada yuqori va o‘rta darajadagi kreativ kompetentsiya ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi ta’minlandi [4].

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ta’lim tizimi tez sur’atlar bilan o‘zgarib bormoqda, ayniqsa, texnologiya fanlari sohasida yangiliklar va innovatsiyalar doimiy ravishda joriy etilmoqda. Bu jarayon o‘qituvchilardan nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki ularni o‘quv jarayonida samarali va ijodiy tarzda qo‘llay olish qobiliyatini ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kelajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentsiyaning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ kompetentsiya – bu shaxsning yangi va innovatsion g‘oyalar yaratish, ularni amalga oshirish, muammolarni yechim topishda ijodiy yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatidir. Texnologiya fanlari o‘qituvchilari uchun bu kompetentsiya, o‘z navbatida, darslarni interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etish, o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish va ularni kelajakdagi texnologik talablarga tayyorlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ularning ehtiyojlari va qobiliyatlari ham, shuningdek, o‘qituvchilarning malakasi ham bu o‘zgarishlarga moslashishni talab qiladi. Texnologiya fani o‘qituvchilari o‘zlarining pedagogik va psixologik kompetentsiyalarini doimiy ravishda yangilab borishlari, innovatsion metodlarni o‘zlashtirishlari va ularni amaliyotda qo‘llashlari zarur. Shuningdek, globalizatsiya jarayonlari va 4 sanoat inqilobi ta’lim tizimida yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bu talablar o‘qituvchilardan yanada yuqori darajadagi ijodiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatini, hamda o‘zaro muloqot va hamkorlikda ishlash qobiliyatini talab qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning emotsional intellekti va motivatsiyasi ularning professional o‘sishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [5].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentsiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga yanada faol ishtirok etishlariga, ularda mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, anketalar asosida o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘qituvchilarning 30% i yuqori darajada, 50% i o‘rta darajada va 20% i past darajada kreativ kompetentsiyaga ega ekanligi aniqlangan. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘qituvchilar kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash va metodik yordamga muhtoj. Tadqiqot davomida loyihaviy o‘rganish va dizayn fikrlash metodlari eng yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Loyiha asosidagi o‘rganish metodi 85% samaradorlik bilan, dizayn fikrlash esa 80% samaradorlik bilan o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda eng samarali usullar sifatida tan olindi. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil ishlashini, jamoaviy ish ko‘nikmalarini va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Brainstorming va o‘yin asosidagi o‘qitish metodlari ham o‘zlarining samaradorligini namoyish etdi, ular mos ravishda 75% va 65% samaradorlik ko‘rsatdi. Bu metodlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va darslarni interaktiv tarzda o‘tkazishga yordam beradi.

Pedagogik-psixologik imkoniyatlar esa o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Emotsional intellekt va motivatsiya kreativ kompetentsiyani rivojlantirishda eng kuchli ta’sir ko‘rsatadigan omillar sifatida aniqlangan. Anketalarda emotsional intellektning kreativ kompetentsiya bilan korrelatsiya koeffitsienti 0.72, motivatsiyaning esa 0.68 bo‘lib, ular o‘qituvchilarning o‘z ishiga bo‘lgan munosabati va ichki motivatsiyasining yuqori darajada bo‘lishi kreativ kompetentsiyani rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Individual yondashuv va innovatsion pedagogik yondashuvlar ham yuqori darajada korrelyatsiyaga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning shaxsiy yondashuvlari va innovatsion metodlarni qo‘llashlari kreativ kompetentsiyaning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu natijalar ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni yangi metodlar bilan tanishtirish va motivatsiyasini oshirishning zarurligini ko‘rsatadi [6].

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik-psixologik imkoniyatlarni kuchaytirish o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini yanada rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning emotsional barqarorligini oshirish, stressni boshqarish, ijobiy munosabatlarni shakllantirish va samarali muloqotni o‘rnatish ularning professional faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bunday psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishida va kreativ yondashuvlarni qo‘llashda ularga yordam beradi. O‘qituvchilarning individual yondashuvi, ya’ni har bir o‘quvchining qobiliyatlari va qiziqishlariga

moslashgan o‘quv rejalarini ishlab chiqish, ularning o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish va ularga maksimal darajada yordam berish imkonini yaratadi.

Grafik va jadval ma’lumotlari asosida, loyihaviy o‘rganish va dizayn fikrlash metodlari o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda eng yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu metodlar o‘qituvchilarga innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, muammolarni tizimli tahlil qilish va ijodiy yechimlar topishda yordam beradi. Bundan tashqari, o‘yin asosidagi o‘qitish metodlari ham o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va darslarga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatiladi. Pedagogik-psixologik imkoniyatlarni kuchaytirish orqali o‘qituvchilar o‘zlarining professional o‘sishini ta’minlashlari va kreativ kompetentsiyalarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari kelajakdagi texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlarning samaradorligini chuqur o‘rganishga imkon berdi. Bu jarayonda loyiha asosidagi o‘rganish va dizayn fikrlash metodlari eng yuqori samaradorlik ko‘rsatdi, bu esa ularning o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Loyiha asosidagi o‘rganish metodi 85% samaradorlik bilan, dizayn fikrlash esa 80% samaradorlik bilan o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini oshirishda eng samarali usullar sifatida ajralib turadi. Bu metodlar o‘qituvchilarga nafaqat o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash, balki ularni innovatsion tarzda qo‘llash imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy talablarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Brainstorming va o‘yin asosidagi o‘qitish metodlari ham ijobiy natijalarga erishdi, ularning samaradorligi mos ravishda 75% va 65% bo‘lib, bu metodlarning o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va darslarni interaktiv tarzda o‘tkazishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Bu natijalar, o‘qituvchilarning dars jarayonini qiziqarli va faol o‘tkazishlari orqali o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishlari mumkinligini isbotlaydi. Pedagogik-psixologik imkoniyatlar, ayniqsa, emotsional intellekt va motivatsiya, o‘qituvchilarning kreativ kompetentsiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlangan. Emotsional intellektning kreativ kompetentsiya bilan yuqori korrelatsiya koeffitsienti (0.72) va motivatsiyaning (0.68) bu boradagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchilarning o‘z ishiga bo‘lgan ijobiy munosabati va ichki motivatsiyasi ularning kreativ qobiliyatlarini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, individual yondashuv va innovatsion pedagogik yondashuvlar ham yuqori darajada korrelyatsiyaga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning shaxsiy yondashuvlari va innovatsion metodlarni qo‘llashlari kreativ kompetentsiyaning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu natijalar, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni yangi metodlar bilan tanishtirish va motivatsiyasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Shomirzayev M.X. Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. – “TerDU nashr-matbaa markazi” – 2021, –228 b.

2. Shomirzayev M.X. Texnologiya ta’limi metodikasi. Darslik. – “TerDU nashr-matbaa markazi” – 2021, – 432 b.

3. Shomirzayev M.X., Haydarov R.M., Mukumova F.X.-Texnologiya ta’limi praktikumi. Darslik. – Toshkent, “Lesson Press” – 2022, –388 b.

4. Shomirzayev M.X. Texnologiya. Darslik. – Toshkent, “Lesson Press” – 2022, – 427 b.

5. Shomirzayev M.X. 6-sinf Texnologiya. Darslik. – Toshkent, “Lesson Press” –2022, – 467 b.

6. Shomirzayev M.X. Texnologiya, 7-sinf. Darslik. –Toshkent, “Lesson Press” – 2023, – 226 b.

UO‘K 378.147:004

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI YONDASHUVLAR TAHLILI

Raxmonov Bo‘ron Normamatovich,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti
raxmonovburon85@gmail.com

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot kompetensiyasini fanlararo aloqadorlik asosida rivojlantirishning zamonaviy pedagogik va metodologik yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda axborot-modellashtirish, tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlarning talabalar kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi o‘rni va samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning raqamli ta’lim muhitida axborot bilan ishlash, uni qayta ishlash hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishda fanlararo integratsiyaning didaktik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot ko‘nikmalari, axborot kompetensiyasi, fanlararo aloqadorlik, tizimli yondashuv, axborot texnologiyalari, raqamli ta’lim, pedagogik integratsiya, kasbiy tayyorgarlik.*

ANALYSIS OF APPROACHES TO DEVELOPING INFORMATION COMPETENCE OF HIGHER EDUCATION STUDENTS THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATION

This article analyzes modern pedagogical and methodological approaches to developing the information competence of higher education students based on interdisciplinary connections. The study highlights the role and effectiveness of information-modeling, systemic, activity-based, and competence-based approaches in enhancing students’ professional training. Furthermore, the didactic potential of interdisciplinary integration in forming future specialists’ skills to work with information, process data, and solve problem-based situations within a digital educational environment is substantiated.

Keywords: *information skills, information competence, interdisciplinary connections, systemic approach, information technologies, digital education, pedagogical integration, professional training.*

АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К РАЗВИТИЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ

В данной статье проанализированы современные педагогические и методологические подходы к развитию информационной компетентности студентов высших учебных заведений на основе междисциплинарной интеграции. В исследовании раскрыты роль и эффективность информационного моделирования, системного, деятельностного и компетентностного подходов в повышении уровня профессиональной подготовки студентов. Кроме того, обоснованы дидактические возможности междисциплинарной интеграции в формировании у будущих специалистов навыков работы с информацией, её обработки, а также решения проблемных ситуаций в условиях цифровой образовательной среды.

Ключевые слова: *информационные навыки, информационная компетентность, междисциплинарная интеграция, системный подход, информационные технологии, цифровое образование, педагогическая интеграция, профессиональная подготовка.*

Kirish. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari talabalarini o‘qitish jarayonida ularning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modelini joriy etishda ushbu qoidani hisobga olamiz. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot kompetensiyasi, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda bilim, ko‘nikma, axborot ko‘nikmalarini, ularning ongli motivatsiyasi bilan ijodiy fikrlash uslublarini fanlararo aloqadorlikka asoslangan holda birlashtirdik.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan tadqiqotimizda, fanlararo aloqadorlikda talabalarning axborot kompetensiyasining to‘rt komponentli bosqichini quyidagicha ta’riflaymiz: motivatsion, umumiy foydalanuvchi, umumiy pedagogik, fan-pedagogik komponentlarga bo‘linadi (1-rasm).

1-rasm. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot kompetensiyasini fanlararo aloqadorlikda rivojlantiruvchi komponentlari

Umumiy foydalanuvchi komponentining tartibiga quyidagi: ya’ni yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishda axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash qoidalariga rioya qilish, xavfsizlik choralari va ta’limni raqamlashtirishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishni rivojlantirishga qaratilgan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda axborot kompetensiyasi kasbiy pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida 2018 yilda ishlab chiqilgan YUNESKOning “O‘qituvchilar uchun axborot texnologiyalari bo‘yicha YUNESKO kompetentlik asoslari. VERSION 3” (ICT CFT) standartida asoslab berilgan. Ushbu hujjat talabalarning o‘quv maqsadlariga erishishda yordam berish uchun mutaxassislar o‘zlarining kasbiy amaliyotiga bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalarning keng qamrovini taqdim etilgan[1].

Adabiyotlar sharhi. Pedagoglarning axborot texnologiyalari bo‘yicha kompetensiyasi tuzilmasi ularning kasbiy faoliyatidagi barcha jihatlari (Ehtimollik va stastistika masalalarning rolini tushunish, davlat ta’lim standarti, o‘quv rejasi va baholash, pedagogik amaliyot, raqamli ko‘nikmalardan foydalanish, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, malaka oshirish) oltita modulda aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasasi talabalarning kasbiy standartida mos keladigan fanlararo aloqadorlikka asoslangan axborot kompetensiyasining tarkibiy qismlarni mohiyati va mazmunini to‘liq aks ettishimiz lozim. Bu borada bir qator olimlarning fikrlarini hisobga olib A.G.Abrosimov [2], T.V.Pankova [3], T.Y.Paxomovo [4] va boshqalarning fikrlariga qo‘shilamiz, ular fanlararo aloqadorlik asosida Ehtimollik va statistika hamda Ta’limda axborot texnologiyalari sohasidagi motivlar va qiymat yo‘nalishlarini aks ettiruvchi komponentlar yordamida talabalarning Ehtimollik va statistika hamda Ta’limda axborot

texnologiyalari bilan bog‘liq bilimlarni egallashda axborot kompetensiyasining o‘rni muhimligini o‘z tadqiqotlarida keltirganlar.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot kompetensiyasi fanlararo aloqadorlikka asoslangan holda rivojlantirishning tarkibida qo‘shimcha komponenti ya’ni motivatsion komponentni ajratib ko‘rsatamiz.

S.A.Zaytseva [5], N.V.Kryuchkova [6], R.V.Smirnova [7] va boshqa olimlar ta’kidlaganidek, fanlararo aloqadorlikda talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy qismlari va fanlararo aloqadorlikning o‘zaro ta’siri axborot texnologiyalari bo‘yicha yuqori darajadagi kompetensiyani rivojlantirishning asosiy shartidir. N.V.Kryuchkovaning [6] ta’kidlashicha, shakllanish - bu takomillashtirishdir deb o‘z tadqiqotida keltirgan.

N.V.Kryuchkova kompetensiyani rivojlantirishni “ayrim ko‘nikmalarni takomillashtirish va yangilarini egallash, shaxsiy fazilatlarni oshirish, ishonch va yangi vaziyatlarda mustaqil harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘lishning ko‘p omilli, iyerarxik va uzoq muddatli jarayoni” deb ta’riflaydi va bo‘lajak muhandislarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayon ekanligini ta’kidlaydi [6].

Shunday qilib, tadqiqotimizda fanlararo aloqadorlikda oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish va uning mazmunini tarkibiy qismlari (motivatsion, umumiy foydalanuvchi, umumiy pedagogik, fan-pedagogik komponentlar) majmuasi sifatida ularning birligida rivojlantirish va takomillashtirishni anglatadi.

Metodologiya. Tadqiqot ishimizda taqdim etilgan talabalarda axborot kompetensiyasini fanlararo aloqadorlikda rivojlantirishning reproduktiv samarali va ijodiy faoliyat mezonlari aniqlangan (1-jadval).

1-jadval.

Fanlararo aloqadorlikda talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari

Mezon / Komponent	Reproduktiv faoliyat	Samarali faoliyat	Ijodiy faoliyat
Motivatsion	Axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalanishga shaxsan muhim ehtiyojning yo‘qligi, ishlab chiqarish korxonalarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan ehtiyoj	Axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalanishga shaxsiy muhim ehtiyojning yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi, axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan ehtiyoj	Bo‘lajak muhandisning axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishga va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llashga bo‘lgan ongli ehtiyoji, axborot texnologiyalarining barcha komponentlari bo‘yicha kompetensiyaga erishishga e’tibor qaratish va raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi
Umumiy foydalanuvchi	Muammoli vaziyatlarda foydalanish uchun Ehtimollik va statistika hamda Ta’limda axborot texnologiyalari fanlaridan ilgari olgan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash	Axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha bilim, ko‘nikmalar; raqamli resurslardan, ma’lumotlar bazalaridan, mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan foydalanish; axborot texnologiyalari tizimidagi o‘zaro ta’sir; kiberxavfsizlikni va sog‘liqni saqlash standartlari va qoidalariga rioya qilishni ta’minlash (o‘qituvchining maslahat yordami bilan); kompyuter savodxonligi	Mustaqil ongli bilim va ko‘nikmalar: axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalar bilan ishlash; raqamli resurslardan, ma’lumotlar bazalaridan, kompyuter tarmoqlaridan foydalanish; axborot texnologiyalari tizimida o‘zaro aloqada bo‘lish; kiberxavfsizlikni ta’minlash va sog‘liq va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
Umumiy	Ehtimollik va statistika	Olingan ma’lumotlarni	Ehtimollik va statistika hamda

To‘rtinchi muammo — raqamli tengsizlik. Barcha talabalar bir xil texnik imkoniyatga ega emas. Yechim: muassasa kutubxonasida kompyuter va internet xonasi tashkil etish; talabalar uchun qurilma ijaraga berish dasturini yo‘lga qo‘yish; mobil qurilmalar uchun optimallashtirilgan kurs versiyasini tayyorlash.

Kutilayotgan natijalar va samaradorlik ko‘rsatkichlari: Ushbu maqolada tavsiya etilgan yondashuvlarni izchil qo‘llagan holda quyidagi natijalarni kutish mumkin. Talabalar tomonidan: kasbiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga tayyorlik — o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasining oshishi; amaliy ko‘nikmalarning kuchayishi — loyiha va portfolio orqali real ish natijalarini ko‘rish; raqamli savodxonlikning o‘sishi — zamonaviy kasbiy faoliyat uchun zarur kompetensiya.

O‘qituvchilar tomonidan: raqamli pedagogika ko‘nikmalarining rivojlanishi; talabalar rivojlanishini aniqroq kuzatish va vaqtida yordam berish imkoniyati; o‘quv yuklamasini yanada samarali taqsimlash.

Muassasa tomonidan: ta’lim sifatining oshishi va uning o‘lchaniladigan ko‘rsatkichlarda aks etishi; raqamli ta’lim infratuzilmasining shakllanishi; xalqaro hamkorlik va akkreditatsiya uchun zarur shart-sharoitning yaratilishi.

Samaradorlikni o‘lchash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi: kursni muvaffaqiyatli yakunlovchi talabalar ulushi (yuqori sifat ko‘rsatkichi — 80% va undan yuqori); talabalar qoniqish so‘rovnomasi natijalari (5 ballik shkalada 4.0 va yuqori); portfolio sifati rubrikasi natijasi; kasbiy amaliyotda ko‘nikmalarni qo‘llay olish darajasi (ish beruvchilar baholash natijalari).

Xulosa qilib aytganda, elektron ta’lim muhitida talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish — bu faqat texnologiya o‘rnatish emas, balki pedagogik tizimni qayta o‘ylash jarayonidir. Maqolada taqdim etilgan amaliy tavsiyalar — LMS platformasini to‘g‘ri loyihalashdan tortib loyiha asosidagi o‘qitish, aralash ta’lim modeli, samarali baholash tizimlari va pedagog malakasini oshirishgacha — barcha ta’lim muassasalari uchun tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan yondashuvlardir.

Asosiy xulosalar quyidagicha: birinchidan, elektron ta’lim muhiti texnik vosita emas, pedagogik muhit sifatida ko‘rilishi kerak — har bir element o‘quv natijasiga xizmat qilishi lozim; ikkinchidan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun passiv ma’ruza emas, faol loyiha, muammo yechish va refleksiya usullari qo‘llanilishi kerak; uchinchidan, talabaning mustaqilligi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi alohida maqsad sifatida belgilanishi va maxsus o‘rgatilishi zarur; to‘rtinchidan, o‘qituvchining onlayn mavjudligi va tezkor qayta aloqasi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi; beshinchidan, barcha o‘zgarishlar bosqichma-bosqich, muassasa kontekstiga moslashtirilgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyot sari izchil qadam tashlar ekan, oliy ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyaga yo‘naltirilgan elektron ta’limni rivojlantirish strategik zaruriyatga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada keltirilgan yondashuvlar ana shu yo‘lda amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Adabiyotlar:

1. Karimov A., To‘xtayev B., Oliy ta’limda raqamli ta’limni joriy etishning pedagogik shartlari. Pedagogik ta’lim jurnali, 3(2), 55–63. 2021-y

2. Anderson T., Theory and Practice of Online Learning (2nd ed.). Edmonton: Athabasca University Press. 472 p. 2008-y

3. Muslimov N., va boshq. Kasbiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent: TDPU nashriyoti. 198 b.4. Dabbagh N., & Kitsantas A. 2012y

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. Toshkent. 2022-y.

5. Toshmatov J., Nishonova G., Virtual laboratoriyalar orqali texnik mutaxassislar kompetensiyasini rivojlantirish. Ilmiy-texnik axborot, 4(1), 88–96. 2022-y

6. Urinov S., & Xasanova D. LMS tizimlaridan foydalanib talabalar faolligini oshirish. Uzluksiz ta’lim, 6(2), 74–82. 2023-y

7. Sadikova I. “Bo‘lajak matematika fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda axborot ta’lim muhitining zamonaviy tendensiyalari va strategiyalari” 2026-y

8. Sadikova I. “Innovatsion yondashuv asosida talabalardagi axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish” 2026-y

UO‘K 378.147:37.013.42

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING “ICHKI KOMPASI” TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILMASI

Kurbanova Gulnoz Negmatovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti professori,
pedagogika fanlari doktori, DSc
kurbanova.gulnoz@bsmi.uz
Sharipova Ferangiza Sayodovna,
Buxoro davlat pedagogika
instituti tayanch doktoranti
f.sharipova0407@gmail.com

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi” tushunchasining pedagogik mohiyati, mazmuni va tarkibiy tuzilmasi tahlil qilingan. Shuningdek, “ichki kompas” tushunchasining teacher agency, professional identity, reflective competence kabi yaqin ilmiy kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda farqli jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki kompasini motivatsion-qadriyatli, refleksiv, kasbiy-pozitsion va kollaborativ-faoliyatli komponentlardan tashkil topgan integrativ pedagogik tizim sifatida talqin qilish asoslab berilgan. Mazkur komponentlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishi, mustaqil qaror qabul qilishi va ta’lim jarayonidagi samarali hamkorlik faoliyatini ta’minlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *ichki kompas, bo‘lajak o‘qituvchi, teacher agency, professional identifikatsiya, refleksiya, pedagogik qadriyatlar, kollaborativ ta’lim, kasbiy pozitsiya, pedagogik faoliyat, kompetensiya.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ПОНЯТИЯ «ВНУТРЕННИЙ КОМПАС» БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье раскрываются педагогическая сущность, содержание и структурная модель понятия “внутренний компас” будущих учителей. Рассматриваются взаимосвязи и отличительные особенности данного понятия по отношению к таким научным категориям, как teacher agency, профессиональная идентичность и рефлексивная компетентность. Обосновано понимание внутреннего компаса как интегративной педагогической системы, включающей мотивационно-ценностный, рефлексивный, профессионально-позиционный и коллаборативно-деятельностный компоненты. Раскрыта роль указанных компонентов в профессиональном становлении будущих педагогов, развитии способности к самостоятельному принятию решений и эффективному взаимодействию в образовательном процессе.

Ключевые слова: *внутренний компас, будущий учитель, teacher agency, профессиональная идентичность, рефлексия, педагогические ценности, коллаборативное обучение, профессиональная позиция, педагогическая деятельность, компетентность.*

PEDAGOGICAL ESSENCE AND STRUCTURAL MODEL OF THE CONCEPT OF “INNER COMPASS” OF FUTURE TEACHERS

This article analyzes the pedagogical essence, content and structural model of the concept of the “inner compass” of future teachers. The relationship of this concept with such scientific categories as teacher agency, professional identity and reflective competence, as well as its distinctive features, are discussed. The study substantiates the interpretation of the inner compass as an integrative pedagogical system consisting of motivational-value, reflective, professional-positional and collaborative-activity components. The importance of these components in the professional development of future teachers, independent decision-making and effective collaboration in the educational process is revealed.

Keywords: *inner compass, future teacher, teacher agency, professional identity, reflection, pedagogical values, collaborative learning, professional position, pedagogical activity, competence.*

Kirish. Dunyo miqyosida ta’lim tizimini transformatsiyalash, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashi, refleksiv faoliyati hamda kasbiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Xususan, ta’lim jarayonida talabalarning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, pedagogik qadriyatlarga asoslangan

faoliyatni shakllantirish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda pedagogik faoliyatda mas’uliyatli va mustaqil pozitsiyani qaror toptirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda xalqaro miqyosda teacher agency, professional identity, reflective competence kabi pedagogik kategoriyalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Mazkur tushunchalar bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligi, kasbiy o‘zini anglash darajasi va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Shu bilan birga, pedagogning kasbiy faoliyatini qadriyatlar asosida yo‘naltiruvchi, refleksiv tahlil qilishga undovchi va pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonini boshqaruvchi ichki mexanizmlarni tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kollaborativ ta’lim, refleksiv yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim hamda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik qadriyatlari, tashabbuskorligi, mas’uliyati va mustaqil kasbiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ham oliy pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiyalash, xalqaro standartlar asosida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ta’limning xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishini ta’minlovchi ichki omillarni chuqur o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

XXI asrda pedagog faoliyatiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltiruvchi, hamkorlik muhitini yaratuvchi hamda pedagogik vaziyatlarda mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi”ni shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi” tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlash, uning tarkibiy tuzilmasini asoslash hamda kasbiy shakllanish jarayonidagi o‘rnini belgilash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, pedagogik faoliyatdagi mustaqilligi, refleksiv tafakkuri hamda qadriyatlarga asoslangan kasbiy pozitsiyasini shakllantirish masalalari zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda teacher agency, professional identity, reflective competence, self-regulation kabi tushunchalar pedagog shaxsining kasbiy shakllanishini tavsiflovchi muhim ilmiy kategoriyalar sifatida keng tadqiq etilmoqda.

Teacher agency nazariyasining rivojlanishiga M.Priestley, G.Biesta va S.Robinsonlar katta hissa qo‘shgan bo‘lib, ular pedagogning ta’lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi o‘rni, kasbiy tashabbuskorligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini asoslab berganlar. Professional identity masalalari A.Beijaard, D.Meijer va N.Verlooplar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularda pedagogning kasbiy o‘zligini anglash, kasbiy qadriyatlari va pedagogik pozitsiyasining shakllanish mexanizmlari yoritilgan. Refleksiv yondashuvning nazariy asoslari esa J.Dewey va D.Schonlarning ilmiy qarashlarida o‘z aksini topgan.

Kollaborativ ta’limning nazariy asoslari L.S.Vygotskiy, J.Bruner va E.Wengerlarning ilmiy ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularda bilimlarning ijtimoiy hamkorlik jarayonida shakllanishi, birgalikdagi faoliyatning shaxs rivojlanishiga ta’siri hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda kollaborativ ta’lim bo‘lajak pedagoglarning muloqotga kirishishi, hamkorlikda ishlashi va kasbiy pozitsiyasini shakllantirishning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Respublikamiz olimlari tomonidan ham pedagogik faoliyatni takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish, pedagogik hamkorlik va refleksiv faoliyatni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, M.A.Kosimova hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari va ta’lim samaradorligiga ta’sirini tahlil qilgan. N.A.Raxmonova pedagogik qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash hamda shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishidagi ahamiyatini yoritgan. A.Yo.Muxtarova refleksiv faoliyatning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o‘rnini tadqiq etgan. F.B.Umarova kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalarini o‘rgangan bo‘lsa, D.R.Turayeva pedagogik hamkorlikning ta’lim sifati va o‘quvchilar faolligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab bergan.

Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, teacher agency, professional identity, reflective competence va kollaborativ ta’lim masalalari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da,

bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi” tushunchasi, uning pedagogik mohiyati, tarkibiy tuzilmasi hamda kasbiy shakllanish jarayonidagi o‘rni yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini qadriyatlar asosida yo‘naltiruvchi, refleksiv tahlilni ta’minlovchi va mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi integrativ tizim sifatida “ichki kompas”ning ilmiy talqini alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, aksiologik, refleksiv va kollaborativ yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Muhokama. Ta’lim transformatsiyasi jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yilayotgan talablar sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal biluvchi mutaxassis, balki murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, refleksiv fikrlaydigan, hamkorlikka tayyor va kasbiy qadriyatlarga tayangan holda faoliyat yuritadigan shaxs bo‘lishi zarur. Shu sababli pedagogika fanida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki omillarni aniqlash va ularni rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kasbiy rivojlanishini tavsiflashda teacher agency, professional identity, reflective competence, self-regulation kabi tushunchalardan keng foydalaniladi. Mazkur tushunchalarning har biri pedagog faoliyatining muayyan jihatlarini tavsiflaydi. Xususan, teacher agency pedagogning faol subyekt sifatidagi tashabbuskorligi va ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini ifodalasa, professional identity pedagogning kasbiy o‘zligini anglash jarayonini aks ettiradi. Reflective competence esa pedagogik faoliyatni tahlil qilish, baholash va takomillashtirish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Biroq mazkur kategoriyalar pedagog faoliyatini boshqaruvchi ichki qadriyatlar tizimi va qaror qabul qilish mexanizmlarini to‘liq ochib bera olmaydi.

Mazkur holat bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi” tushunchasini alohida pedagogik kategoriya sifatida ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Tadqiqot doirasida “ichki kompas” pedagogning kasbiy faoliyatini qadriyatlar asosida yo‘naltiruvchi, pedagogik vaziyatlarni refleksiv tahlil qilishga xizmat qiluvchi hamda mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishni ta’minlovchi integrativ tizim sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv “ichki kompas”ni mavjud ilmiy kategoriyalar bilan bog‘liq holda, ammo ulardan kengroq mazmunga ega bo‘lgan pedagogik konstrukt sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari “ichki kompas”ning tarkibiy tuzilmasi to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Bular motivatsion-qadriyatli, refleksiv, kasbiy-pozitsion va kollaborativ-faoliyatli komponentlardir. Mazkur komponentlar alohida-alohida mavjud bo‘lsa-da, ular yagona integrativ tizim sifatida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ongli boshqarish, pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va ta’lim jarayonida samarali hamkorlik qilish imkoniyatlarini belgilaydi.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik kasbga bo‘lgan munosabati, ichki motivatsiyasi, kasbiy qadriyatlari, maqsadlari va pedagogik faoliyatga nisbatan shaxsiy mas’uliyatini ifodalaydi. Ushbu komponent “ichki kompas”ning yo‘naltiruvchi asosini tashkil etadi, chunki har qanday pedagogik faoliyat muayyan qadriyatlar va ichki ehtiyojlar bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbga nisbatan ijobiy munosabat, insonparvarlik, adolat, mas’uliyat, halollik va ta’lim oluvchi shaxsiga hurmat kabi qadriyatlar shakllangan bo‘lsa, uning pedagogik faoliyati ham ongli va barqaror xarakter kasb etadi.

Mazkur komponentning muhim jihati shundaki, u bo‘lajak pedagogning tashqi talablar asosida emas, balki ichki ishonch va kasbiy qadriyatlarga tayangan holda harakat qilishini ta’minlaydi. Masalan, talaba pedagogik vaziyatda faqat o‘quv dasturi yoki baholash mezonlariga tayanib emas, balki o‘quvchining shaxsiy ehtiyoji, tarbiyaviy holati va rivojlanish imkoniyatlarini ham hisobga olgan holda qaror qabul qiladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatida mexanik ijrochilikdan ongli pedagogik pozitsiyaga o‘tishini ta’minlaydi.

Motivatsion-qadriyatli komponentning rivojlanishi talabalarda pedagogik kasbga sadoqat, kasbiy o‘sishga intilish va o‘z ustida ishlash ehtiyojini kuchaytiradi. Agar bo‘lajak o‘qituvchida ichki motivatsiya yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, u ta’lim jarayonida faqat tashqi nazorat, baho yoki talablar asosida faoliyat yuritadi. Aksincha, ichki motivatsiya va qadriyatlar tizimi rivojlangan talaba pedagogik faoliyatni shaxsiy ma’no va kasbiy burch sifatida qabul qiladi. Shu jihatdan motivatsion-qadriyatli komponent “ichki kompas”ning markaziy yo‘nalish beruvchi qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Refleksiv komponent bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash, xatolarini anglash va kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik faoliyat murakkab, ko‘p omilli va doimiy o‘zgaruvchan jarayon bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi har bir vaziyatni chuqur tahlil qila olishi, o‘z qarorlarining sabab va oqibatlarini tushunishi zarur. Refleksiya aynan shu jarayonda pedagogning ichki nazorat va o‘z-o‘zini baholash mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Refleksiv komponent rivojlangan bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining pedagogik harakatlarini tasodifiy emas, balki ongli ravishda baholaydi. U “nima qildim?”, “nega aynan shunday qaror qabul qildim?”, “bu qaror qanday natija berdi?”, “kelgusida nimani o‘zgartirishim kerak?” kabi savollarga javob izlaydi. Bunday yondashuv talabaning pedagogik tajribani oddiy takrorlash emas, balki uni tushunish, qayta ishlash va takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy o‘sishning faol subyektiga aylanadi.

Refleksiv komponentning yana bir muhim vazifasi bo‘lajak pedagogda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir. Pedagogik vaziyatlar ko‘pincha tayyor algoritmlar bilan hal qilinmaydi; ular individual yondashuv, moslashuvchanlik va mas’uliyatli tanlovni talab qiladi. Refleksiya orqali talaba o‘z tajribasini tahlil qiladi, mavjud bilimlarini amaliy vaziyatlar bilan solishtiradi va yangi pedagogik yechimlar ishlab chiqadi. Shu sababli refleksiv komponent “ichki kompas”ning o‘zini-o‘zi boshqarish va o‘zini-o‘zi takomillashtirish mexanizmi sifatida qaraladi.

Kasbiy-pozitsion komponent bo‘lajak o‘qituvchining pedagog sifatidagi o‘z o‘rnini anglash, kasbiy mas’uliyatni qabul qilish, pedagogik vaziyatlarda mustaqil va asosli qaror qabul qilishga tayyorligini ifodalaydi. Ushbu komponent pedagogning “men kimman?”, “qanday o‘qituvchi bo‘lishni xohlayman?”, “pedagogik faoliyatda qanday tamoyillarga tayanaman?” kabi savollarga munosabati orqali namoyon bo‘ladi. Kasbiy pozitsiya shakllangan talaba pedagogik faoliyatga tashqi majburiyat emas, balki shaxsiy va kasbiy mas’uliyat sohasi sifatida qaraydi.

Mazkur komponent teacher agency tushunchasi bilan yaqin bog‘liqdir. Biroq teacher agency ko‘proq pedagogning faol harakat qilish qobiliyatini ifodalasa, kasbiy-pozitsion komponent bu harakatlarning qadriyatli va mas’uliyatli asoslarini ham qamrab oladi. Ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi faqat faol bo‘lishi emas, balki pedagogik faoliyatda qanday maqsad va qadriyatlarga tayangan holda faol bo‘lishini ham anglab yetishi kerak. Shu jihatdan kasbiy-pozitsion komponent “ichki kompas”ning qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan muhim qismi hisoblanadi.

Kasbiy-pozitsion komponent rivojlangan bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik vaziyatlarda passiv kuzatuvchi yoki faqat ko‘rsatmalarni bajaruvchi ijrochi bo‘lib qolmaydi. U ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni anglaydi, ularga nisbatan shaxsiy-kasbiy munosabat bildiradi va maqbul yechimlarni izlaydi. Bu esa uning pedagogik mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas’uliyatini kuchaytiradi. Aynan shu komponent orqali “ichki kompas” bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatida aniq pozitsiya va yo‘nalish beruvchi omilga aylanadi.

Kollaborativ-faoliyatli komponent bo‘lajak o‘qituvchining hamkorlikda ishlash, jamoaviy qarorlar qabul qilish, o‘z fikrini asoslash, boshqalarning nuqtai nazarini qabul qilish va ta’lim jarayonida samarali kommunikativ munosabatlarni yo‘lga qo‘yish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogik faoliyat individual harakatlar majmuasi emas, balki o‘quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va ta’lim muassasasi jamoasi bilan doimiy hamkorlikda amalga oshiriladigan jarayondir. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchining kollaborativ kompetensiyalari uning kasbiy muvaffaqiyatida muhim o‘rin tutadi.

Mazkur komponentning ahamiyati shundaki, hamkorlik jarayonida talaba o‘z qarashlarini boshqalarning fikrlari bilan solishtiradi, o‘z pozitsiyasini asoslashga o‘rganadi va turli pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi. Kollaborativ faoliyat talabada muloqot madaniyati, empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy natija uchun javobgarlik hissini rivojlantiradi. Bu esa “ichki kompas”ning faqat individual ichki tizim emas, balki ijtimoiy-pedagogik muhitda shakllanuvchi dinamik tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Kollaborativ-faoliyatli komponent rivojlangan bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim jarayonida hamkorlikni oddiy tashkiliy shakl sifatida emas, balki pedagogik rivojlanish vositasi sifatida qabul qiladi. U guruhli loyihalar, muammoli vaziyatlar, refleksiv muhokamalar va jamoaviy tahlillar orqali o‘z kasbiy qarashlarini boyitadi. Natijada bo‘lajak pedagog nafaqat o‘z fikriga ega bo‘ladi, balki uni asoslash, qayta ko‘rib chiqish va umumiy pedagogik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Shu bois kollaborativ-faoliyatli komponent “ichki kompas”ning ijtimoiy tajriba bilan boyitilishini ta’minlovchi muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

Yuqoridagi komponentlarning har biri “ichki kompas”ning alohida jihatini ifodalasa-da, ular o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi. Motivatsion-qadriyatli komponent pedagogik faoliyatning ma’naviy va kasbiy yo‘nalishini belgilaydi; refleksiv komponent ushbu faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi; kasbiy-pozitsion komponent pedagogik qarorlarning mustaqil va mas’uliyatli qabul qilinishini ta’minlaydi; kollaborativ-faoliyatli komponent esa bu jarayonlarning ijtimoiy hamkorlik muhitida amalga oshishini ta’minlaydi. Shu tariqa “ichki kompas” bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida integrativ, dinamik va rivojlanuvchi pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar ularning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki pedagogik faoliyatni ongli boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish hamda kasbiy qadriyatlarga asoslangan pozitsiyasini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi”ni rivojlantirish pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida “ichki kompas” tushunchasi bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyatini qadriyatlar asosida yo‘naltiruvchi, refleksiv tahlilni ta’minlovchi, kasbiy pozitsiyasini shakllantiruvchi va samarali hamkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi integrativ pedagogik tizim sifatida talqin qilindi. Mazkur yondashuv “ichki kompas”ni teacher agency, professional identity va reflective competence kabi ilmiy kategoriyalar bilan bog‘liq holda, biroq ulardan mazmunan kengroq pedagogik konstrukt sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Tadqiqot davomida “ichki kompas”ning tarkibiy tuzilmasi motivatsion-qadriyatli, refleksiv, kasbiy-pozitsion hamda kollaborativ-faoliyatli komponentlardan tashkil topishi asoslab berildi. Motivatsion-qadriyatli komponent pedagogik faoliyatning maqsad va yo‘nalishini belgilasa, refleksiv komponent kasbiy faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish imkonini yaratadi. Kasbiy-pozitsion komponent pedagogik qarorlarning mustaqil va mas’uliyatli qabul qilinishini ta’minlasa, kollaborativ-faoliyatli komponent hamkorlik muhitida samarali faoliyat yuritish imkoniyatlarini rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kollaborativ ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi”ni rivojlantirishning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Hamkorlikdagi faoliyat jarayonida talabalar pedagogik qadriyatlarni chuqurroq anglaydi, refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, kasbiy pozitsiyasini shakllantiradi hamda pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish tajribasini egallaydi. Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning “ichki kompasi” pedagogik ta’lim jarayonida shakllanuvchi va rivojlanuvchi murakkab integrativ tizim bo‘lib, ularning kasbiy shakllanishi, pedagogik faoliyatga tayyorligi hamda zamonaviy ta’lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari “ichki kompas”ning pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasini aniqlashtirishga xizmat qiladi hamda uning rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni – Toshkent, 2019.
2. Priestley M., Biesta G., Robinson S. Teacher Agency: An Ecological Approach. – London: Bloomsbury Academic, 2015. – 216 p.
3. Biesta G., Priestley M., Robinson S. The Role of Beliefs in Teacher Agency // Teachers and Teaching. – 2015. – Vol. 21, No. 6. – P. 624–640.
4. Beijaard D., Meijer P.C., Verloop N. Reconsidering Research on Teachers’ Professional Identity // Teaching and Teacher Education. – 2004. – Vol. 20, No. 2. – P. 107–128.
5. Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath and Company, 1933. – 224 p.
6. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
7. Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning and Identity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 318 p.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
9. Kosimova M.A. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati // Pedagogik mahorat. – 2024. – №1. – B. 78–81.
10. Raxmonova N.A. Ta’lim jarayonida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari // Pedagogik mahorat. – 2024. – №1. – B. 112–115.
11. Muxtarova A.Yo. Talabalarda refleksiv faoliyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari // Pedagogik mahorat. – 2024. – №1. – B. 146–149.
12. Umarova F.B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning dolzarb masalalari // Pedagogik mahorat. – 2024. – №1. – B. 168–171.
13. Turayeva D.R. Pedagogik hamkorlikning ta’lim sifati va samaradorligiga ta’siri // Pedagogik mahorat. – 2024. – №1. – B. 183–186.
14. OECD Future of Education and Skills 2030. OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019.
15. UNESCO. Reimagining our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

UO‘K 159.922.1-055.2:159.923.2:316.613

YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA TASHQI KO‘RINISH VA KASBIY ROLLAR MUVOZANATINI HAYOTDAN QONIQISH DARAJASIGA TA’SIRI

Sultonova Mashhura Rustamboyevna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
mashhurasultonova0101@gmail.com
ORCİD: https://orcid.org/009-0001-5117-84-88

Ushbu maqolada yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinish va kasbiy rollar muvozanatining hayotdan qoniqish darajasiga ta’siri ijtimoiy- psixologik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Ma’lumki, yetuklik yosh davri ayollar hayotida muhim o‘zgarishlar bilan birga kechadi. Bu davrda ular bir tomondan kasbiy jarayonlarga: bilim olish, malaka oshirish, kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlashga, shu bilan birga, o‘zining mehnat jamoasida kasbiy imidjiga ega bo‘lishiga harakat qilishadi. Boshqa tomondan esa tashqi qiyofasi va yoshga bog‘liq psixofiziologik o‘zgarishlarga ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlardan kelib chiqib javob berish zaruriyati mavjud. Maqolada yetuklik yoshidagi ayollarning tashqi ko‘rinishdan qoniqish darajasi, o‘z- o‘zidan qoniqishga, kasbiy va ijtimoiy rollarni to‘g‘ri idrok qilishga, subyektiv faravonlikni his qilish esa umumiy hayotdan qoniqish darajasiga bevosita bog‘liq ekani yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *yetuklik yoshi, ayollar psixologiyasi, tashqi ko‘rinish, o‘z-o‘zini anglash, kasbiy rollar, rollar muvozanati, hayotdan qoniqish, subyektiv farovonlik, identifikatsiya, insayt, imidj, ekzistensial vakum, yosh inqirozi.*

ВЛИЯНИЕ БАЛАНСА ВНЕШНЕГО ОБЛИКА И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ РОЛЕЙ НА УРОВЕНЬ УДОВЛЕТВОРЁННОСТИ ЖИЗНЬЮ У ЖЕНЩИН ЗРЕЛОГО ВОЗРАСТА

В данной статье с социально-психологической точки зрения проанализировано влияние баланса между внешним обликом и профессиональными ролями на уровень удовлетворённости жизнью у женщин зрелого возраста. Известно, что период зрелости сопровождается значительными изменениями в жизни женщины. В этот период, с одной стороны, женщины стремятся к профессиональному развитию: получению новых знаний, повышению квалификации, совершенствованию профессиональных навыков и формированию собственного профессионального имиджа в трудовом коллективе. С другой стороны, возникает необходимость адаптироваться к изменениям внешности и возрастным психофизиологическим изменениям с учётом социальных и личностных особенностей.

В статье показано, что удовлетворённость женщин зрелого возраста своим внешним обликом тесно связана с самопринятием, адекватным восприятием профессиональных и социальных ролей, ощущением субъективного благополучия и, как следствие, непосредственно влияет на общий уровень удовлетворённости жизнью.

Ключевые слова: *зрелый возраст, психология женщин, внешний облик, самосознание, профессиональные роли, баланс ролей, удовлетворённость жизнью, субъективное благополучие, идентификация, инсайт, имидж, экзистенциальный вакуум, возрастной кризис.*

THE IMPACT OF THE BALANCE BETWEEN PHYSICAL APPEARANCE AND PROFESSIONAL ROLES ON LIFE SATISFACTION AMONG MIDDLE-AGED WOMEN

This article examines, from a socio-psychological perspective, the impact of the balance between physical appearance and professional roles on life satisfaction among middle-aged women. It is well recognized that the stage of middle adulthood is accompanied by significant changes in women’s lives. During this period, women strive for professional development by acquiring new knowledge, improving their qualifications, strengthening professional skills, and establishing a positive professional image within their workplaces. At the same time, they face the need to adapt to age-related changes in physical appearance and psychophysiological functioning in accordance with their individual and social characteristics.

The study demonstrates that satisfaction with one’s physical appearance among middle-aged women is closely associated with self-acceptance, accurate perception of professional and social roles, and a sense of subjective well-being, all of which directly contribute to overall life satisfaction.

Keywords: *middle adulthood, women’s psychology, physical appearance, self-awareness, professional roles, role balance, life satisfaction, subjective well-being, identification, insight, image, existential vacuum, midlife crisis.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda inson hayotining psixologik jihatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar orasida shaxsning hayotidan qoniqish darajasi eng dolzarb mavzulardan biridir. Xususan, XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tubdan o‘zgarishi, ayollarning kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari bilan birga oilaviy munosabatlarda balansni saqlash zarurati, ish yuklamalari va oilaviy munosabatlar kesishgan nuqtada psixologik holatni to‘g‘ri boshqarish hissiy barqarorlik va oilaviy tinchlikni saqlashga yordam beradi.

Yetuklik yoshi — inson hayotining sermashsul va o‘zgarishlarga boy davrlaridan biridir. Bu davr shaxsiy va kasbiy tajriba to‘plash, o‘z mahoratini oshirish, jamoada birga ishlash zarurati kabi ijtimoiy-psixologik munosabatlar yuzaga keladi. Xorijiy tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, aynan yetuklik yoshdagi ayollarda ekzistensial ma’no izlash ortadi, chunki bu davrda o‘ziga xos identifikatsiya va adaptatsiya jarayonlari kechadi.

Munosabatlarga kirishishda tashqi qiyofaga bog‘liqlikni ham analiz qilish mazkur yoshdagi ayollarga xos xususiyatdir. Chunki aynan o‘zi bilan tengdoshlarning farzandlari soni, oilaviy staji, kariyeradagi yutuqlari bilan bir qatorda tashqi ko‘rinish, kiyinish va o‘ziga xos ayollik obrazlarini tahlil qilish orqali o‘zining hayotiy pozitsiyasin baholaydilar.

Tashqi ko‘rinishida chiroyli yangi obrazlar yaratish, o‘z-o‘zini baholashi va umumiy hayotidan qoniqish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. bunda ayollarda o‘z obraziga, kasbiy imidjni uyg‘unlashtirish madaniyat va ijtimoiy hayotdagi faollik bilan harakterlanadi. Bizning fikrimizcha, aynan yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish, o‘ziga ishonch darajasi va tashqi ko‘rinishdan qoniqish o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik mavjud. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra yetuklik yoshini uch bosqichga bo‘lish mumkin, bu davrda hayotning keyingi bosqichlariga ijobiy o‘tish uchun rivojlanish vazifasi sifatida tushunilgan inqirozni hal qilish zarur. Erta yetuklik yoshida (18-40 yosh) “yaqinlik va izolyatsiya” shkalasi natijasida inqiroz yuzaga keladi. Keyingi psixosotsyal inqiroz o‘rta yetuklik yoshida, 40 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan davrda sodir bo‘ladi. Bu esa ijodkorlik va turg‘unlik o‘rtasidagi qarama- qarshilikni anglatadi. Ushbu psixosotsyal inqirozning ijobiy yechimi g‘amxo‘rlik fazilatiga erishishga olib keladi. Bizningcha, mazkur jarayonning, ya’ni yosh inqirozlarini ijobiy yengib o‘tishda, oila va ish o‘rtasidagi ijobiy psixologik balansni saqlashda jismoniy salomatlik, moliyaviy barqarorlik, ishdan qoniqish, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy munosabatlar kabi elementlarni o‘z ichiga olgan turli xil hayot sohalarini baholash “hayot sifati”ga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Bizning fikrimizcha, hayotdan qoniqishni aniqlashda jismoniy salomatlik, tashqi ko‘rinish, moliyaviy barqarorlik, ishdan qoniqish, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy munosabatlar kabi omillarning yig‘indisi belgilaydi. Mazkur omillar ba’zi ayollar uchun o‘ta muhim sanalsa, ba’zilari tashqaridan sezilarli reaksiya bildirmasliklari mumkin.

E. Dienerning fikriga ko‘ra, hayotdan qoniqish insonning o‘z holatini o‘zi belgilab bergan standartlar bilan taqqoslash natijasidir [4]. Tadqiqotchilar Darbonne va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yoshga qarab hayotdan qoniqish trayektoriyasi “o‘zgarib” boradi, o‘rtacha qiymatlar 47 yosh atrofida eng past nuqtaga yetadi[5], [3]. Blanchflower va Oswald ham yetuklik yoshida hayotdan qoniqishning pasayishini tasdiqlaydilar, eng past ko‘rsatkich odatda 40 va 49 yosh oralig‘ida sodir bo‘ladi [1]. Hayotdan qoniqish va gender o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilgan, ammo natijalar aniq emas va kontekstga bog‘liq.

O‘z-o‘zini hurmat qilish insonning o‘z qadr-qimmatiga yoki uning xususiyatlari va kompetentsiyalarini baholashga bo‘lgan ishonch sifatida ta’riflanadi va o‘zini anglash shaxsning o‘zi haqidagi subyektiv fikrlarga asoslanadi [6].

Yoshning nisbati shaxsning o‘z-o‘zini hurmat qilishga ta’sirini o‘rganuvchi tadqiqotlar iqtisodiy, professional va oilaviy yutuqlarga qarab o‘zgaradi, bu asosan yoshdagi eng yuqori ko‘rsatkichdir[8]. Robins va Trzesniewski ta’kidlashicha, o‘z-o‘zini baholash inson hayoti davomida dinamik tarzda rivojlanib, turli yosh bosqichlarida o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. T. F. Cash va bir qator hammualliflar 2004-yilda olib borgan tadqiqotlarida tana qiyofasini idrok etish va undan qoniqish darajasining vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida o‘zgarib borishi ko‘rsatib berilganlar [2]. Ularning fikriga ko‘ra, tana qiyofasi insonning umumiy ko‘rinishi bilan bog‘liq kognitiv, xulq-atvor va hissiy jihatlarni qamrab oluvchi murakkab tushunchadir. O‘z tanasidan, tashqi ko‘rinishidan qoniqish va unga qaratilgan e’tibor o‘zini o‘zi jalb qilish hissi uchun juda muhimdir.

S. Grogan inson tanasi, tashqi ko‘rinishi haqidagi his-tuyg‘ular, fikrlar va idroklarning kombinatsiyasi sifatida talqin qiladi [7]. Yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinishdan qoniqish o‘ziga ishonch, atrof-muhit ta’siri va obyektiv jozibadorlik kabi bir qator omillar ta’sirida shakllanadi. Bizningcha, yetuklik yoshidagi ayollarga mehnat jamoasidagi hamkasblarining ijobiy bahosi o‘z ustida ishlash va shaxsiy imidjini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Ayollarda o‘zining real holatidan, tashqi ko‘rinishidan qoniqish boshqa muhim shaxslarning fikrlari, qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy taqqoslashlarda mavjud go‘zallik standartlari va ommaviy axborot vositalarida keng tarqalgan tana siluetlari, ideal obrazlar ta’sir qilishi mumkin. Ijtimoiylashuv jarayonida, kasbiy faoliyatni amalga oshirishda o‘zlarining tashqi ko‘rinishini boshqalar bilan yanada ko‘proq taqqoslaydilar. Shuning uchun, yetuklik yoshidagi ayollar odatda o‘zlarining tana qiyofasini mos ravishda o‘smirlar yoki keksa ayollarga qaraganda ijobiyroq holatda va ko‘rinishda deb baholaydilar. Tashqi ko‘rinish bilan bir qatorda kasbiy rollarning muvaffaqiyatli kechishi ham o‘zidan qoniqish hissining barqarorligiga va keyingi faoliyatni yanada muvaffaqiyatliroq amalga oshishiga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinish va kasbiy rollar muvozanatining hayotdan qoniqish darajasiga ta’sirini o‘rganish zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo shaxsning psixologik farovonligi, o‘z-o‘zini anglash jarayoni hamda ijtimoiy rollarga moslashuvi bilan bevosita bog‘liqdir.

Nazariy jihatdan mazkur muammo bir nechta fundamental yondashuvlarga tayanadi. Birinchidan, **subyektiv farovonlik nazariyasi**ga ko‘ra, insonning hayotdan qoniqishi uning kognitiv va emotsional baholashlari bilan belgilanadi (Diener, 2000). Ushbu yondashuvga muvofiq, hayotdan qoniqish shaxsning ichki psixologik holati va tashqi ijtimoiy omillar o‘rtasidagi muvozanat natijasida shakllanadi.

Bundan tashqari, Blanchflower va Oswaldlarning 2008-yildagi **hayot sikli davomida farovonlik dinamikasi** nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, shaxsning farovonlik darajasi yosh davrlariga qarab o‘zgarib boradi va o‘rta yosh (yetuklik)davrida pasayish yoki qayta tiklanish tendensiyasi kuzatiladi. Bu holat yetuklik davridagi ayollarda ijtimoiy va professional rollar bosimi ortishi bilan izohlanadi.

Rosenberg, Robins va Trzesniewskilarning **o‘z-o‘zini baholash nazariyasi**ga ko‘ra, shaxsning o‘ziga beradigan bahosi uning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. O‘z-o‘zini baholash darajasi tashqi ko‘rinishdan qoniqish va kasbiy muvaffaqiyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

S. Groganning 2016-yilda e’on qilingan maqolasiga ko‘ra, **tana qiyofasi konsepsiyasi** shaxsning o‘z tanasini idrok etishi, unga nisbatan emotsional munosabati va baholashini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tashqi ko‘rinishdan qoniqish darajasi ayollarning o‘z-o‘ziga ishonchi va ijtimoiy rollarni qabul qilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, **rol nazariyasi**ga ko‘ra, shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy rollarni (kasbiy, oilaviy, shaxsiy) bajaradi va ushbu rollar o‘rtasidagi muvozanat buzilishi psixologik zo‘riqish va stress holatlariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ayollarda kasbiy va tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq ijtimoiy kutishlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinishdan qoniqish va kasbiy rollar muvozanati hayotdan umumiy qoniqishning muhim psixologik determinantlari sifatida qaraladi. Ushbu omillar o‘zaro integratsiyada shaxsning subyektiv farovonligini belgilaydi hamda uning ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinishdan qoniqish, kasbiy rollar muvozanati va hayotdan qoniqish darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar statistik tahlil asosida o‘rganildi. Olingan natijalar respondentlar orasida ushbu psixologik ko‘rsatkichlar o‘zaro sezilarli darajada bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Deskriptiv tahlil natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning aksariyatida hayotdan qoniqish darajasi o‘rtacha va undan yuqori ko‘rsatkichlarda qayd etildi. Tashqi ko‘rinishdan qoniqish darajasi esa yosh ortishi bilan biroz pasayish tendensiyasini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, bu holat o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan kompensatsiya qilingan.

1-jadval.

Asosiy psixologik ko‘rsatgichlar

O‘zgaruvchilar	O‘rtacha (M)	Standart og‘ish (SD)	Min	Max
Tashqi ko‘rinishdan qoniqish	3.41	0.78	1.2	5.0
Kasbiy rollar muvozanati	3.68	0.71	1.5	5.0
Hayotdan qoniqish (SWLS)	3.74	0.69	1.4	5.0
O‘z-o‘zini baholash (Rosenberg)	3.62	0.73	1.3	5.0

Korrelyatsion tahlil natijalari tashqi ko‘rinishdan qoniqish va hayotdan qoniqish o‘rtasida **ijobiy va statistik ahamiyatli bog‘liqlik** mavjudligini ko‘rsatdi ($p < 0.01$). Ya’ni, o‘z tashqi qiyofasidan ko‘proq qoniqqan ayollarda umumiy hayotdan qoniqish darajasi ham yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, kasbiy rollar muvozanati va hayotdan qoniqish o‘rtasida ham **kuchli ijobiy korrelyatsiya** kuzatildi ($p < 0.01$). Bu

natija shuni anglatadiki, kasbiy faoliyatda o‘zini muvaffaqiyatli va barqaror his qilgan ayollar o‘z hayotidan ko‘proq qoniqish bildirgan. Regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, hayotdan qoniqish darajasini eng kuchli prognoz qiluvchi omil sifatida **kasbiy rollar muvozanati** aniqlangan. Tashqi ko‘rinishdan qoniqish esa ikkinchi muhim prediktor sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu ikki omil birgalikda hayotdan qoniqish dispersiyasining sezilarli qismini tushuntirib berdi.

Bundan tashqari, tahlil natijalari o‘z-o‘zini baholash vositachi (mediator) rolini bajarishini ko‘rsatdi. Ya’ni, tashqi ko‘rinishdan qoniqish va kasbiy rollar muvozanati yuqori bo‘lgan holatlarda o‘z-o‘zini baholash darajasi ortadi, bu esa o‘z navbatida hayotdan qoniqish darajasini oshiradi.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish ko‘p omilli psixologik tuzilma bo‘lib, unda tashqi ko‘rinish, kasbiy o‘zini namoyon qilish va ichki psixologik baholash tizimi muhim o‘rin tutadi.

Xulosa va takliflar. Yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinishdan qoniqish va kasbiy rollar muvozanatining hayotdan qoniqish darajasiga ta’siri ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning hayotdan qoniqish darajasi ko‘p omilli psixologik tuzilma bo‘lib, unda tashqi ko‘rinish, kasbiy faoliyatdagi o‘zini namoyon etish hamda ichki o‘z-o‘zini baholash muhim determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariy ma’lumotlar va o‘tkazilgan metodika tahlili natijalariga ko‘ra, kasbiy rollar muvozanati hayotdan qoniqish darajasini eng kuchli darajada prognoz qiluvchi omil ekanligi aniqlandi. Shuningdek, tashqi ko‘rinishdan qoniqish va o‘z-o‘zini baholash ham hayotdan qoniqish darajasiga sezilarli va ijobiy ta’sir ko‘rsatishi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yetuklik yoshidagi ayollarda psixologik farovonlik nafaqat tashqi omillarga, balki ichki shaxsiy resurslarga ham bog‘liq bo‘lib, o‘z-o‘zini qabul qilish va ijtimoiy rollar muvozanati muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Blanchflower D.G., Oswald A.J. Is well-being U-shaped over the life cycle? // Social Science & Medicine. – 2008. – Vol. 66, No. 8. – P. 1733–1749.DOI: https://doi.org/10.1016/j.socscimed.2008.01.030

2. Cash T.F., Morrow J.A., Hrabosky J.I., Perry A.A. How has body image changed? A cross-sectional investigation of college women and men from 1983 to 2001 // Journal of Consulting and Clinical Psychology. – 2004. – Vol. 72, No. 6. – P. 1081–1089.DOI: https://doi.org/10.1037/0022-006X.72.6.1081

3. Darbonne A., Uchino B.N., Ong A.D. What mediates the association between age and well-being? Testing social support and interpersonal conflict as potential interpersonal pathways // Journal of Happiness Studies. – 2013. – Vol. 14. – P. 951–963.DOI: https://doi.org/10.1007/s10902-012-9363-1

4. Diener E. Subjective well-being: The science of happiness and a proposal for a national index // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 34–43.DOI: https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.34

5. Diener E., Emmons R.A., Larsen R.J., Griffin S. The Satisfaction With Life Scale // Journal of Personality Assessment. – 1985. – Vol. 49, No. 1. – P. 71–75.DOI: https://doi.org/10.1207/s15327752jpa4901_13

6. Dzwonkowska I., Lachowicz-Tabaczek K., Laguna M. Self-esteem and its measurement: M. Rosenberg‘s Self-Esteem Scale. – Warsaw: Polish Psychological Association (PTP), 2008. – 78 p. https://scholar.google.com/scholar?q=Dzwonkowska+Lachowicz-Tabaczek+Laguna+2008+self+esteem+scale

7. Grogan S. Body Image: Understanding Body Dissatisfaction in Men, Women and Children. 3rd ed. – London: Routledge, 2016. – 264 p.https:// www.routledge.com

8. Robins R.W., Trzesniewski K.H. Self-esteem development across the lifespan // Current Directions in Psychological Science. – 2005. – Vol. 14, No. 3. – P. 158–162.DOI: https://doi.org/10.1111/j.0963-7214.2005.00353.x

9. Sultonova M.R. Yetuklik yoshidagi ayollarda tashqi ko‘rinishdan qoniqishning psixologik aspektlari // Pedagogik Akmeologiya. – 2026. – №5(34). – P. 371–375.

10. Sultonova M.R. Yetuklik yoshidagi ayollarning psixologik xususiyatlari // Tamaddun nuri. – 2026. – №5(2). – P. 307–310. https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/issue/view/41 https://jurnal.tamaddunnuri. uz /index.php/tnj/issue/view/42

MUSTAQIL O‘QUV-IZLANISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Suyunova Marjona Xudoyshukur qizi,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Madaniyat va san’at sohasi menejmenti magistranti
marjonasuyunova542@gmail.com

Ushbu maqolada o‘quvchilarning mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tushunchaning mohiyati, tarkibiy qismlari, rivojlanish darajalari va pedagogik shartlari ko‘rib chiqilgan. Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatini o‘xshash tushunchalar — mustaqil ish, mustaqil ta’lim, izlanish faoliyatidan farqlovchi belgilari aniqlangan va ilmiy ta’rif taklif etilgan. O‘zbek pedagogika fanidagi mavjud tadqiqotlar tahlil qilinib, ilmiy bo‘shliq belgilangan. Maqolada mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining to‘rtta tarkibiy qismi va uchta rivojlanish darajasi tizimli tarzda taqdim etilgan. Maqola pedagogika yo‘nalishidagi tadqiqotchilar, maktab o‘qituvchilari va metodistlar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: *mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati, nazariy-metodologik asos, tarkibiy qismlar, rivojlanish darajalari, reproduktiv mustaqillik, izlanuvchan mustaqillik, pedagogik shartlar.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной статье научно проанализированы теоретико-методологические основы самостоятельной учебно-исследовательской деятельности учащихся. Рассмотрены сущность понятия, его структурные компоненты, уровни развития и педагогические условия. Определены признаки, отличающие самостоятельную учебно-исследовательскую деятельность от смежных понятий — самостоятельная работа, самостоятельное обучение, исследовательская деятельность — и предложено научное определение. Проанализированы существующие исследования в узбекской педагогической науке, и определён научный пробел. В статье системно представлены четыре структурных компонента и три уровня развития самостоятельной учебно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: *самостоятельная учебно-исследовательская деятельность, теоретико-методологическая основа, структурные компоненты, уровни развития, репродуктивная самостоятельность, исследовательская самостоятельность, педагогические условия.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT LEARNING AND RESEARCH ACTIVITIES

This article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of students’ independent learning and research activities. The essence of the concept, its structural components, levels of development and pedagogical conditions are examined. Signs distinguishing independent learning-research activity from similar concepts — independent work, self-directed learning, research activity — are identified and a scientific definition is proposed. Existing research in Uzbek pedagogical science is analyzed and the scientific gap is identified. The article systematically presents four structural components and three levels of development of independent learning-research activity.

Keywords: *independent learning-research activity, theoretical-methodological basis, structural components, levels of development, reproductive independence, research independence, pedagogical conditions.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim nazariyasida “mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati” tushunchasi tobora markaziy o‘rin egallamoqda. Bu tushuncha uchta asosiy so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri alohida ma’no kasb etadi: “mustaqil” — tashqi nazorat va yordamsiz; “o‘quv” — ta’lim jarayoniga oid; “izlanish” — kashfiyot, tahlil, sintez. Uch so‘zning birlashuvi murakkab pedagogik hodisani ifodalaydi — o‘quvchining o‘z maqsadi asosida, tashqi tazyiqsiz, bilim izlab topish va uni tushunib yetish jarayonini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosati bu tushunchani ustuvor sifatida belgilagan. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) [1]

o‘quvchining mustaqil faoliyatini rivojlantirishni davlat talabi sifatida mustahkamlagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni (2021) [2] o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini — mustaqil fikrlash, izlanish, kashfiyot — shakllantirishni bosh maqsad sifatida belgilagan. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (2022) [3] zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni talab qilgan. Biroq “mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati” tushunchasining mohiyati O‘zbek pedagogika fanida hali yetarlicha ilmiy asoslanmagan va uning nazariy-metodologik asoslari tizimli tarzda taqdim etilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida yozilgan.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek pedagogika fanida mustaqil ta’lim va mustaqil faoliyat masalalarini bir qator olimlar o‘rganib, muhim xulosalar chiqargan. Muslimov va Mavlonova [4] mustaqillikni rivojlantirishning pedagogik asoslarini tadqiq qilib, mustaqillikning uch darajasini — reproduktiv, qisman izlanuvchan va to‘liq izlanuvchan — aniqlagan. Karimova [5] mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasida mustaqil ish va mustaqil ta’lim tushunchalarini farqlab ko‘rsatgan, lekin “izlanish” komponentini alohida ajratmagan.

Tolipov va Usmonboyeva [6] pedagogik texnologiya kitobida mustaqil ta’limning turli shakllarini tavsiflab, faol ta’lim metodlari orqali mustaqillikni rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatgan. Hasanboyev va boshqalar [7] pedagogika darsligida mustaqil ta’limning mohiyatini ko‘rib chiqib, uni an’anaviy o‘qitishdan farqlovchi belgilarni keltirishgan. Yuzlikayev [8] pedagogik mahorat kitobida o‘quvchi mustaqilligini rag‘batlantirish metodlari masalasini o‘rganib, o‘qituvchi rolining muhimligini ta’kidlagan.

Inomov [9] loyihaviy ta’lim texnologiyasida mustaqil izlanish faoliyatiga qisqacha to‘xtalgan. Saidahmedov [10] yangi pedagogik texnologiyalarda mustaqil ta’limni zamonaviy o‘qitish metodlari orasida ko‘rib chiqgan. Qodirov va Toshmatov [11] o‘quvchi mustaqilligi bo‘yicha tadqiqotlarida mustaqillikning kognitiv va motivatsion tomonlarini tahlil qilgan. Yo‘ldoshev va Usmonov [12] pedagogik texnologiyalar kitobida mustaqil faoliyatni tashkil etishning umumiy masalalarini ko‘rib chiqqan. Shuningdek, ta’lim sifatini kafolatlashda innovatsion yondashuvlarning o‘rni R.Ishmuhammedov va b. [13], zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari esa Q.Nazarov [14] tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bevosita o‘quv-izlanish invariantlari maxsus o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadi: birinchidan, O‘zbek pedagogika fanida “mustaqil ish”, “mustaqil ta’lim” va “mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati” tushunchalari ko‘pincha bir-biridan farqlanmaydi yoki aralashtirib yuboriladi. Ikkinchidan, o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarida [15] mustaqil fikrlash talab etilsa-da, “mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati”ning tarkibiy qismlari tizimli taqdim etilmagan. Uchinchidan, ushbu faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirishning konseptual pedagogik-metodologik modeli mavjud emas. Maqola aynan shu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati: tushunchalar tahlili va ta’rif. Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatini to‘g‘ri tushunish uchun avvalo uni o‘xshash tushunchalardan farqlash zarur. Pedagogika adabiyotida bu tushuncha bilan ko‘pincha aralashtirib yuboriluvchi uchta tushuncha mavjud.

Birinchi tushuncha — mustaqil ish (independent work). Bu o‘quvchining o‘qituvchi bevosita nazoratisiz bajariladigan har qanday topshiriq. Mustaqil ish natijaga qaratilgan bo‘lib, jarayonning sifati ikkinchi darajali. Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatidan asosiy farqi: mustaqil ishda o‘quvchiga topshiriq beriladi va u uni bajaradi; mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatida esa o‘quvchi o‘zi savol topadi, o‘zi izlaydi, o‘zi xulosa chiqaradi. Tolipov va Usmonboyeva ta’kidlaganidek [6], mustaqil ish ko‘nikma mashq qilishga, mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati esa kashfiyot qilishga qaratilgan.

Ikkinchi tushuncha — mustaqil ta’lim (self-directed learning). Bu o‘quvchi o‘z o‘qish maqsadlarini, vaqtini va uslubini o‘zi boshqarishini anglatadi. Mustaqil ta’lim kengroq tushuncha bo‘lib, maqsad va yo‘nalishni o‘quvchi o‘zi belgilaydi. Muslimov va Mavlonova ta’kidlaganidek [4], mustaqil ta’lim ko‘proq kattalar ta’limiga xos — maktab o‘quvchilari uchun to‘liq mustaqil ta’lim hali optimal emas, scaffolding zarur.

Uchinchi tushuncha — izlanish faoliyati (research activity). Bu ilmiy metodlar — kuzatuv, tajriba, tahlil, sintez — yordamida yangi bilim olishga qaratilgan faoliyat. Izlanish faoliyati aniq ilmiy metodologiyani talab qiladi. Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati maktab sharoitida izlanish faoliyatining o‘quvchi yoshiga va bilim darajasiga moslashtirilgan shakli hisoblanadi.

Ushbu tahlillar asosida “mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati”ga quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etiladi: mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati — o‘quvchining muayyan didaktik maqsad asosida, minimal tashqi yordam sharoitida muammoni shaxsiy motivlar asosida aniqlash, manbalarni tanqidiy tahlil qilish va intellektual kashfiyot mahsulini yaratishga qaratilgan subyekt-subyekt xarakteridagi tizimli bilish faoliyatidir.

1-jadval.

Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining o‘xshash tushunchalardan farqi

Belgi	Mustaqil ish	Mustaqil ta’lim	Izlanish faoliyati	Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati
Maqsad	Topshiriqni bajarish	O‘z ta’limini boshqarish	Yangi bilim olish	Mustaqil kashf etish
Savol manbayi	O‘qituvchi beradi	O‘quvchi o‘zi	Tadqiqotchi	O‘quvchi o‘zi
Jarayon nazorati	Minimal	Yuqori mustaqillik	Ilmiy metodologiya	Maqsadli, bosqichli
Yoshga moslashuv	Barcha yosh	Ko‘proq kattalar	Yuqori sinf va oliy	Maktab yoshiga mos
Scaffolding	Zarur emas	Minimal	Yo‘q	Bosqichma-bosqich

Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining tarkibiy qismlari. Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati bir necha o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi. Har bir tarkibiy qism o‘quvchi rivojlanishining muayyan jihatini ifodalab, boshqa qismlar bilan chambarchas bog‘liq. Birorta tarkibiy qismning zaifligi butun faoliyatning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchi tarkibiy qism — motivatsion-maqsadli komponent. Bu tarkibiy qism mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U ikki elementdan iborat: motivatsiya — o‘quvchining o‘rganishga, izlashga va kashf etishga nisbatan ichki qiziqishi; va maqsad — o‘quvchining nima uchun izlayotganini aniq bilishi. Motivatsiya ichki bo‘lganda — ya’ni o‘quvchi baho yoki ustoz maqtovi uchun emas, balki o‘z qiziqishi uchun izlaganda — faoliyat sifati keskin oshadi. Musulminov va Mavlonova ta’kidlaganidek [4], ichki motivatsiya o‘quvchi mustaqilligining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi eng muhim psixologik omildir. Loyiha ta’lim texnologiyasida bu komponent muammoning real hayotiy ahamiyatga ega bo‘lishi orqali faollashtiriladi.

Ikkinchi tarkibiy qism — axborot-kognitiv komponent. Bu tarkibiy qism o‘quvchining bilish faoliyatini — manba izlash, ma’lumot yig‘ish, tahlil qilish, solishtirish va sintez qilishni qamrab oladi. Zamonaviy axborot oqimida bu komponent yangi ko‘nikmalarni talab qiladi: nafaqat ma’lumot topish, balki uni tanqidiy baholash — manbaning ishonchliligi, yangiligi, tegishliligi — qobiliyati. Hasanboyev va boshqalar ta’kidlaganidek [7], axborot savodxonligi — ma’lumotni topish, baholash va undan foydalanish — XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biri. Bu komponent loyiha ta’limida “Izlanish” bosqichida to‘liq namoyon bo‘ladi.

Uchinchi tarkibiy qism — operatsional-faoliyatli komponent. Bu tarkibiy qism o‘quvchining yig‘ilgan bilimlar asosida amaliy natija — mahsulot, yechim, tavsiya — yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Bu komponent bilimni amaliyotga ko‘chirishni talab qiladi: o‘quvchi nafaqat bilib qolishi, balki bilgan narsasini yangi vaziyatda qo‘llay olishi kerak. Tolipov va Usmonboyeva ta’kidlaganidek [6], bilim va ko‘nikma o‘rtasidagi ko‘prik — bu amaliy faoliyat. Loyiha ta’limida bu komponent “Amalga oshirish” va “Taqdimot” bosqichlarida namoyon bo‘ladi.

2-jadval.

Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining tarkibiy qismlari tizimi

Tarkibiy qism	Mohiyati	Asosiy ko‘nikma	LIR modelidagi bosqich
Motivatsion-maqsadli	Ichki qiziqish va aniq maqsad	Maqsad qo‘yish, reja tuzish	Rejalashtirish (1-bosqich)
Axborot-kognitiv	Manba izlash va tanqidiy tahlil	Izlash, baholash, sintez	Izlanish (2-bosqich)
Operatsional-faoliyatli	Bilimni amaliyotga ko‘chirish	Yaratish, qo‘llash, taqdim etish	Amalga oshirish va taqdimot (3–4)
Refleksiv-baholovchi	O‘z faoliyatini anglash va baholash	Tahlil qilish, o‘rganish, tuzatish	Refleksiya (5-bosqich)

To‘rtinchi tarkibiy qism — refleksiv-baholovchi komponent. Bu tarkibiy qism o‘quvchining o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, baholash va xatolardan o‘rganish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu

komponent ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi, holbuki u butun faoliyatning qimmatini belgilovchi muhim qism. Refleksiya orqali o‘quvchi quyidagi savollarga javob beradi: “Men nima qildim va nima uchun?”; “Natija kutganday bo‘ldimi?”; “Keyingi safar nima qilardim?”. Karimova ta’kidlaganidek [5], refleksiyasiz o‘quvchi bir xil xatoni takrorlaydi — chunki u xatosini anglamaydi. Loyiha ta’limida bu komponent “Refleksiya” bosqichida markaziy o‘rin egallaydi.

Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining rivojlanish darajalari. Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati bir kundayoq to‘liq shakllanmaydi — bu bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon. Pedagogika adabiyotida bu faoliyatning rivojlanish darajalari turlicha tasniflangan. Muslimov va Mavlonova [4] uch darajali tasnifni taklif etib, uni empirik kuzatuvlar asosida asoslagan. Mazkur tadqiqotda ham uch darajali tasnif asos sifatida qabul qilinib, loyihaviy ta’lim tajribasi asosida boyitildi.

Birinchi daraja — reproduktiv mustaqillik. Bu mustaqillikning boshlang‘ich va eng past shakli. Ushbu darajadagi o‘quvchi namuna, ko‘rsatma yoki yo‘riqnomaga tayanib ishlaydi. U muammoni tushunadi va ma’lum algoritm bo‘yicha harakat qiladi, lekin yangi yechim izlamaydi. Agar namuna yo‘q bo‘lsa, o‘quvchi qiynaladi. Kuzatuvlarda aniqlandi: loyiha ta’limiga endi boshlaган o‘quvchilarning 68 foizi reproduktiv darajada edi — ular «nima qilishim kerak?» deb tez-tez o‘qituvchiga murojaat qildi. Bu daraja mustaqillikni rivojlantirishning boshlanish nuqtasi bo‘lib, lekin qolib ketish uchun maqsad emas.

Ikkinchi daraja — qisman izlanuvchan mustaqillik. Bu mustaqillikning o‘rta darajasi. O‘quvchi yangi vaziyatda avvalgi bilimlarini qo‘llab, qisman mustaqil yechim topa oladi. U muammoga duch kelganida tezdan javob izlamaydi — dastlab o‘zi o‘ylaydi, bir nechta variant ko‘rib chiqadi, keyin eng mosini tanlaydi. Lekin hali to‘liq mustaqil emas — murakkab vaziyatlarda yordam kerak. Kuzatuvlarda aniqlandi: 4 oylik loyiha ta’limi tajribasidan so‘ng o‘quvchilarning 57 foizi ikkinchi darajaga ko‘tarildi. Bu o‘sish loyiha ta’limining mustaqillikni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Yuzlikayev ta’kidlaganidek [8], ikkinchi daraja — bu o‘quvchi “men qila olaman” deb ishongan bosqich. Bu bosqichda o‘qituvchi rag‘batlantirishi va kuzatuvi alohida muhim.

Uchinchi daraja — to‘liq izlanuvchan mustaqillik. Bu mustaqillikning eng yuqori va maqsadli darajasi. O‘quvchi yangi muammoni o‘zi aniqlaydi, izlash strategiyasini o‘zi belgilaydi, ma’lumotni o‘zi tahlil qiladi, yechimni o‘zi topadi va natijani o‘zi baholaydi. U o‘qituvchi ko‘rsatmasiz ham ishlay oladi. Bu darajada o‘quvchi o‘z o‘quv jarayonini boshqaruvchi — maqsad qo‘yuvchi, rejalashtiruvchi va baholovchi — sifatida faoliyat yuritadi. Kuzatuvlarda aniqlandi: 4 oylik tajribadan so‘ng o‘quvchilarning 18 foizi uchinchi darajaga ko‘tarildi. Bu ko‘rsatkich past ko‘rinishi mumkin, lekin aslida katta yutuq — chunki bu daraja loyiha ta’limining doimiy va tizimli qo‘llanilishi natijasida shakllanadi. Inomov ta’kidlaganidek [9], uchinchi daraja bir necha oy ichida emas, yillar davomida shakllanadi.

3-jadval.

Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining rivojlanish darajalari

Daraja	Nomi	O‘quvchi xulq-atvori	O‘qituvchi yordami
I daraja	Reproduktiv	Namuna bo‘yicha ishlaydi, yangi yechim topa olmaydi	Ko‘p yordam zarur
II daraja	Qisman izlanuvchan	Yangi vaziyatda qisman mustaqil yechim topa oladi	O‘rta darajada
III daraja	To‘liq izlanuvchan	Muammoni o‘zi topadi, izlaydi, hal qiladi, baholaydi	Minimal scaffolding

Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik shartlari. Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatini rivojlantirish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi — buning uchun muayyan pedagogik shartlar zarur. Tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahlili asosida beshta asosiy pedagogik shart aniqlandi.

Birinchi shart — psixologik xavfsizlik muhiti. O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasligi kerak. Agar o‘quvchi xato qilganda tanqid qilinsa yoki kulgu bo‘lsa, u xavf olishdan qo‘chadi — va izlanish hech qachon xatosiz bo‘lmaydi. O‘qituvchi “bu xató” emas, “boshqa imkoniyat bormi?” deyishi kerak. Hasanboyev va boshqalar ta’kidlaganidek [7], o‘quvchi rivojlanishi uchun unga ishonch va xavfsizlik muhiti zarur.

Ikkinchi shart — real hayotiy muammolar. O‘quvchi o‘zi uchun muhim va mazmunli muammo ustida ishlasa, ichki motivatsiya uyg‘onadi. Sun’iy yoki kitobiy muammolar o‘quvchida “bu menga kerak emas” hissini uyg‘otadi. Qodirov va Toshmatov ta’kidlaganidek [11], real muammo o‘quvchini darsdan tashqarida ham o‘ylashga undaydi — bu mustaqillikning belgisi.

Uchinchi shart — bosqichma-bosqich mustaqillikni oshirish (scaffolding). Mustaqillik bir kunda berilmaydi — u asta-sekin, o‘quvchi tayyor bo‘lgan sari beriladi. O‘qituvchi boshida ko‘proq yo‘naltiradi, keyinchalik kamroq aralashadi. Bu “scaffolding” tamoyilining amaliy ko‘rinishi. Tolipov va Usmonboyeva

ta’kidlaganidek [6], bosqichma-bosqich erkinlik berish o‘quvchini haddan tashqari yuklamaydi va uning erishish hissini saqlaydi.

To‘rtinchi shart — vaqt yetarliligi. Haqiqiy izlanish vaqt talab qiladi. O‘quvchi bir dars ichida to‘liq izlanish olib bora olmaydi — bu bir hafta, ba’zan ikki hafta davom etadi. O‘qituvchi bu jarayonga yetarli vaqt ajratishi va sabr qilishi zarur. Karimova ta’kidlaganidek [5], tezlik va sifat ba’zan qarama-qarshi — mustaqil izlanish tezda bo‘lmaydi.

Beshinchi shart — refleksiyani doimiy tashkil etish. Har bir loyiha, har bir mustaqil ish refleksiya bilan yakunlanishi zarur. Faqat “yaxshi” yoki “yomon” deyish yetarli emas — o‘quvchi o‘z jarayonini tahlil qilishi va saboq chiqarishi kerak. Inomov ta’kidlaganidek [9], refleksiya mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining “o‘z-o‘zini tozalovchi” mexanizmi — xatolarni aniqlaydi va kelajakdagi izlanishni yaxshilaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu maqolada mustaqil o‘quv-izlanish faoliyatining nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

Birinchi xulosa: “Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati” tushunchasi mustaqil ish, mustaqil ta’lim va izlanish faoliyatidan aniq farq qiluvchi o‘ziga xos pedagogik hodisa. Taklif etilgan ta’rif ushbu farqlarni hisobga olgan holda ishlab chiqildi: bu o‘quvchining maqsad asosida, minimal tashqi yordamda, muammoni o‘zi aniqlab, manba izlab, tahlil qilib, xulosa chiqaradigan va natijani taqdim etadigan to‘liq bilish faoliyatidir.

Ikkinchi xulosa: Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati to‘rtta tarkibiy qismdan iborat: motivatsion-maqsadli, axborot-kognitiv, operatsional-faoliyatli va refleksiv-baholovchi. Bu qismlar bir-birini to‘ldirib, yaxlit tizim hosil qiladi. Birorta qismning zaifligi butun faoliyat sifatiga ta’sir qiladi.

Uchinchi xulosa: Mustaqil o‘quv-izlanish faoliyati uch darajada rivojlanadi: reproduktiv (I), qisman izlanuvchan (II) va to‘liq izlanuvchan (III). Kuzatuvlarda aniqlangan oylik loyihaviy ta’lim tajribasidan so‘ng o‘quvchilarning 57 foizi II, 18 foizi III darajaga ko‘tarildi. Bu loyiha ta’lim texnologiyasining ushbu faoliyatni rivojlantirishdagi samaradorligini isbotlaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.– Toshkent, 2020. – Lex.uz: https://lex.uz/docs/5013009

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Lex.uz: https://lex.uz/docs/5440039

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Lex.uz: https://lex.uz/docs/5841063

4. Muslimov N.A., Mavlonova R.A. O‘quvchilar mustaqilligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 180 b.

5. Karimova Z.T. O‘quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 144 b.

6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005. – 232 b.

7. Hasanboyev J., Xasanov O., G‘ulomov M. Pedagogika.–Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.–416 b.

8. Yuzlikayev G.R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.–Toshkent: Moliya, 2009.–272 b.

9. Inomov M. Loyiha ta’lim texnologiyasi: nazariya va amaliyot.–Toshkent: Akademiya, 2020.–186 b.

10. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya nashriyoti, 2003. – 171 b.

11. Qodirov B., Toshmatov N. O‘quvchi mustaqilligi va zamonaviy ta’lim. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 158 b.

12. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 192 b.

13. Ishmuhamedov R., Yusupov A., Abduqodirov A. Innovatsion texnologiyalar — ta’lim sifati kafolati. – Toshkent: TDPU, 2009. – 180 b.

14. Nazarov Q. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 210 b.

15. Xalq ta’limi vazirligi. O‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari. – Toshkent: XTV, 2017.

16. Xoliqova M. Loyiha asosidagi ta’limda mustaqil izlanish // Uzluksiz ta’lim.–2022.–№1.–B. 55–62.

INTELLEKTUAL BUZILISHLARGA EGA O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY-MAISHIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Usmonova Xadicha Bahodir qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maxsus ta’lim tizimida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga doir ilmiy adabiyotlar va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. O‘z-o‘ziga xizmat qilish, maishiy mo‘ljal olish, xavfsiz xulq-atvor va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda multimedia texnologiyalari, raqamli trenajyorlar, mobil ilovalar, QR-texnologiyalar va elektron ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, o‘quvchilarni mustaqil hayotga va muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvga tayyorlashda raqamli texnologiyalarning ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *intellektual nuqsonlar, maxsus ta’lim, ijtimoiy-maishiy kompetentlik, AKT, innovatsion texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv, hayotiy kompetensiyalar.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СРЕДСТВ ИКТ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО-БЫТОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ НАРУШЕНИЯМИ

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования инновационных технологий и средств информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в формировании социально-бытовой компетентности учащихся с интеллектуальными нарушениями. Проведён анализ научной литературы и современных подходов к использованию цифровых образовательных ресурсов в системе специального образования. Раскрываются возможности применения мультимедийных технологий, цифровых тренажёров, мобильных приложений, QR-технологий и электронных образовательных платформ для развития навыков самообслуживания, бытовой ориентировки, безопасного поведения и социальной коммуникации. Обосновывается значимость цифровых технологий в подготовке обучающихся к самостоятельной жизни и успешной социальной адаптации.

Ключевые слова: *интеллектуальные нарушения, специальное образование, социально-бытовая компетентность, ИКТ, инновационные технологии, социальная адаптация, жизненные компетенции.*

USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND ICT TOOLS TO DEVELOP SOCIAL AND LIFE SKILLS IN STUDENTS WITH INTELLECTUAL DISABILITIES

The article examines the theoretical and practical aspects of using innovative technologies and information and communication technologies (ICT) to develop the social and daily living competence of students with intellectual disabilities. It analyzes contemporary approaches and scholarly literature on the use of digital educational resources in the system of special education.

The study highlights the potential of multimedia technologies, digital simulators, mobile applications, QR technologies, and electronic learning platforms in developing self-care skills, daily living orientation, safe behavior, and social communication skills. Furthermore, it substantiates the importance of digital technologies in preparing students for independent living and facilitating their successful social adaptation

Keywords: *intellectual disabilities, special education, social and daily living competence, ICT, innovative technologies, social adaptation.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning sifatli ta’lim olishini va ijtimoiy integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan maxsus va inklyuziv ta’lim tizimi izchil modernizatsiya qilinmoqda. Mamlakatning me’yoriy-huquqiy hujjatlarida o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun sharoit yaratish, ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda jamiyatdagi mustaqil faoliyatga tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni ijtimoiy-maishiy hayotga tayyorlashning

mazmuni va texnologiyalarini takomillashtirish zamonaviy maxsus pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, maxsus ta’lim muassasalari faoliyati amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishning an’anaviy shakllari ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirishda har doim ham yetarlicha samaradorlikni ta’minlay olmaydi. Bilimlarni umumlashtirish darajasining pastligi, o‘zlashtirilgan harakat usullarini real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etishdagi qiyinchiliklar, mustaqil amaliy faoliyat imkoniyatlarining cheklanganligi o‘qitishning yangi pedagogik vosita va texnologiyalarini izlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida innovatsion texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari katta salohiyat kasb etmoqda. Multimedia resurslari, interaktiv o‘quv dasturlari, raqamli trenajyorlar, mobil ilovalar va elektron ta’lim platformalaridan foydalanish o‘qitish jarayonini yanada ko‘rgazmali, tushunarli va amaliyotga yo‘naltirilgan qilish imkonini beradi. AKTni qo‘llash hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, harakatlar algoritmini ko‘p marotaba takrorlash, o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish va ularning ijtimoiy ahamiyatga ega ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Ijtimoiy-maishiy kompetentlik – bu insonning kundalik hayotiy vazifalarni hal qilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va amaliy malakalar yig‘indisidir. Intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun bu kompetentlikni shakllantirish alohida ahamiyatga ega, zero aynan u ularning kelajakdagi mustaqillik darajasini, ijtimoiy faolligini va hayot sifatini belgilab beradi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi korreksion-pedagogik ishlarni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy AKT vositalari qulay ta’lim muhitini yaratishga, o‘qitish jarayonini vizual qo‘llab-quvvatlashga hamda real vaziyatlarni modellashtirish orqali hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradi.

Usullar. Maqolaning metodologik asosini intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetentligini shakllantirish muammosiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagogik adabiyotlarni chuqur tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy tahlil etish, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda ilmiy manbalarning mazmunini interpretatsiya qilish metodlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida maxsus pedagogika, korreksion pedagogika, inkluziv ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta’lim sohalaridagi ilmiy qarashlar o‘rganilib, mavjud nazariy yondashuvlar tahlil qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlari, jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, maxsus ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga doir qaror va farmonlar, shuningdek, raqamli ta’lim muhitini yaratishga oid davlat dasturlari mazmuni o‘rganildi. Mazkur hujjatlar asosida maxsus ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va tashkiliy imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida multimedia resurslari, mobil ilovalar, interfaol ta’lim dasturlari, elektron o‘quv qo‘llanmalar, virtual ta’lim platformalari hamda sun’iy intellekt elementlariga ega raqamli vositalardan foydalanishning amaliy jihatlarini tahlil etishga alohida e’tibor qaratildi. Bunda mazkur texnologiyalarning o‘quvchilarning kundalik hayotda mustaqil faoliyat yuritish, muloqot qilish, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini egallash va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishdagi o‘rni yoritildi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ta’lim jarayoniga qiziqishini kuchaytirish, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy-maishiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar asosida intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta’lim mazmunini vizuallashtirish, murakkab harakatlar ketma-ketligini soddalashtirib tushuntirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv muhitini yaratish hamda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning bilish faoliyatida kuzatiladigan xotira, diqqat, tafakkur va idrok bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf etishda AKT vositalari muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Multimedia texnologiyalari mazkur yo‘nalishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Videoroliklar, animatsiyalar, virtual ekskursiyalar, elektron taqdimotlar va audiovizual materiallar yordamida kundalik hayotda zarur bo‘lgan amaliy harakatlarni bosqichma-bosqich namoyish etish mumkin. Masalan, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, kiyinish, ovqat tayyorlash, maishiy texnika vositalaridan foydalanish, transport xizmatlaridan foydalanish yoki jamoat joylarida o‘zini tutish bilan bog‘liq ko‘nikmalar vizual ko‘rsatmalar orqali osonroq o‘zlashtiriladi. Vizual axborotning ustunligi intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning materialni yaxshiroq idrok etishi va eslab qolishiga yordam beradi.

Raqamli trenajyorlar va interaktiv topshiriqlar ham ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ular real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, turli muammoli holatlarni xavfsiz muhitda mashq qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, virtual do‘konlarda xarid qilish, transport yo‘nalishlarini tanlash, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish, pul mablag‘larini to‘g‘ri sarflash yoki favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha mashqlar o‘quvchilarning amaliy tajribasini boyitadi. Bunday texnologiyalar xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganish imkonini yaratishi bilan ham ahamiyatlidir.

Mobil texnologiyalar, xususan, smartfon va planshetlar intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning kundalik hayotdagi mustaqilligini qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Mobil ilovalar yordamida kun tartibini rejalashtirish, muhim vazifalarni eslatib turish, bosqichma-bosqich yo‘riqnomalarni olish, geolokatsiya xizmatlaridan foydalanish va favqulodda holatlarda yordam chaqirish imkoniyatlari yaratiladi. Vizual piktogrammalar, ovozli ko‘rsatmalar va interaktiv eslatmalar o‘quvchilarning kundalik faoliyatini tashkil etishda qo‘shimcha yordam beradi hamda ularning mustaqil hayotga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

So‘nggi yillarda QR-kod texnologiyalaridan foydalanish ham maxsus ta’lim amaliyotida istiqbolli yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. O‘quv xonalari, ustaxonalar, oshxona, kutubxona yoki maishiy xonalarga joylashtirilgan QR-kodlar orqali o‘quvchilar zarur ma’lumotlarni tezkor ravishda olishlari mumkin. Masalan, qo‘l yuvish, oshxona jihozlaridan foydalanish, kiyimlarni tartibga keltirish yoki maishiy texnika bilan ishlash bo‘yicha videoyo‘riqnomalar QR-kodlar orqali taqdim etilishi o‘quvchilarning harakatlarni mustaqil bajarishiga yordam beradi. Ushbu texnologiya pedagogik qo‘llab-quvvatlashni individuallashtirish va o‘quvchilarning mustaqilligini rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

AKT vositalari yordamida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish ham samarali amalga oshiriladi. Elektron o‘yinlar, simulyatorlar va maxsus mobil ilovalar orqali pul birliklarini tanish, xarajatlarni rejalashtirish, xaridlarni amalga oshirish va byudjetni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning iqtisodiy mustaqilligini rivojlantirish hamda kelajakda jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus ishlab chiqilgan animatsion dasturlar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarga yo‘l harakati xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi, elektr jihozlaridan foydalanish qoidalari, notanish insonlar bilan muloqot qilish madaniyati va internet xavfsizligi bo‘yicha zarur bilimlar beriladi. Vizual va amaliy yondashuv ushbu bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda ham AKTning o‘rni beqiyosdir. Videomuloqot platformalari, kommunikativ ilovalar, ijtimoiy vaziyatlarni modellashtiruvchi dasturlar hamda raqamli hikoyalar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, hissiy holatlarni anglash va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri qurish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, kommunikativ qiyinchiliklarga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun muqobil va qo‘shimcha kommunikatsiya vositalarining raqamli shakllari samarali natijalar bermoqda.

Umuman olganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, maishiy mo‘ljal olish, moliyaviy savodxonlik, xavfsiz xulq-atvor va ijtimoiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ularning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘quv faoliyatini faollashtirish, amaliy tajribasini boyitish hamda mustaqil hayotga tayyorgarlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Munozara. Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, maxsus ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega. Zamonaviy raqamli vositalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quv materiallarini vizuallashtirish, ta’lim mazmunini individuallashtirish hamda o‘quv jarayonining motivatsion komponentini kuchaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, multimedia texnologiyalari, interaktiv

dasturlar, elektron ta’lim platformalari va mobil ilovalar orqali o‘quvchilarning kundalik hayotda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich egallashi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarning pedagogik samaradorligi bir qator muhim omillarga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Jumladan, ta’lim muassasalarining zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlanganlik darajasi, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun moslashtirilgan raqamli resurslarning mavjudligi, o‘quv-metodik ta’minot sifati, pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetentligi ushbu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Mazkur shart-sharoitlar yetarli darajada ta’minlanmagan hollarda innovatsion texnologiyalarning ta’limiy va korreksion-rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish qiyinlashadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning samarali vositasi bo‘lsa-da, ular amaliy faoliyat, real hayotiy tajriba va bevosita ijtimoiy muloqotning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy kompetentlikni shakllantirish ko‘p komponentli va murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lashni talab etadi. Shu sababli elektron ta’lim resurslari va innovatsion texnologiyalarni real hayotiy vaziyatlar, rolli o‘yinlar, amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy-maishiy treninglar hamda kundalik turmush tajribasi bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday integrativ yondashuv o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ilmiy manbalar tahlili O‘zbekiston maxsus ta’lim tizimida intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun milliy mentalitet, til va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan raqamli ta’lim resurslarini yaratish zaruratini ko‘rsatmoqda. Xususan, o‘zbek va rus tillarida ishlab chiqilgan interaktiv elektron qo‘llanmalar, animatsion videodarslar, virtual trening dasturlari, maxsus mobil ilovalar hamda sun’iy intellekt elementlariga asoslangan ta’limiy platformalar o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday resurslar o‘quvchilarga kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarni modellashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, muloqot qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijalari pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llovchi, ta’lim mazmunini moslashtiruvchi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu munosabat bilan pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish, raqamli pedagogika bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda innovatsion tajribalarni ommalashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalarni korreksion-pedagogik jarayonga integratsiya qilish o‘quvchilarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirish, mustaqillik darajasini oshirish, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning individual rivojlanish sur’atlarini hisobga olish, differensial yondashuvni amalga oshirish hamda ta’lim natijalarini muntazam monitoring qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, maxsus ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona, maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetentligini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv ularning mustaqil hayotga tayyorgarligini kuchaytirish, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta’minlash hamda muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasiga erishishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda ijtimoiy-maishiy kompetentlikni shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, hayotiy muhim ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sifatini oshirishga hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari, interaktiv dasturlar, mobil ilovalar, raqamli trenajyorlar va elektron ta’lim platformalaridan foydalanish o‘quv materialining tushunarliligini va ko‘rgazmaliligini oshiradi, amaliy faoliyatni faollashtiradi hamda o‘quvchilarning kundalik hayotda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashiga yordam beradi.

Ta’limni raqamlashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi maxsus ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish korreksion-pedagogik faoliyatni takomillashtirishning ustuvor

yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Kelgusida intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan milliy raqamli ta’lim resurslarini yaratish, pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish ushbu yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar va AKT vositalaridan maqsadli va tizimli foydalanish intellektual nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-maishiy kompetentligini rivojlantirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash hamda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Назарова Н.М. Специальная педагогика. – М.: Академия, 2023.
3. Воронкова В.В. Воспитание и обучение детей с интеллектуальными нарушениями. – М.: Владос, 2021.
4. Маллер А.Р. Социально-бытовая ориентировка обучающихся с интеллектуальными нарушениями. – М.: Владос, 2020.
5. Борякова Н.Ю. Специальная педагогика. – М.: Академия, 2022.
6. Пузанов Б.П. Обучение детей с интеллектуальными нарушениями. – М.: Владос, 2022.
7. UNESCO. ICT in Special Needs Education. – Paris, 2022.
8. OECD. Digital Education Outlook. – Paris, 2023.
9. Гонеев А.Д. Основы коррекционной педагогики. – М.: Академия, 2020.
10. Забрамная С.Д. Психолого-педагогическая диагностика детей с интеллектуальными нарушениями. – М.: Просвещение, 2021.

PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Xamrayeva Diyora Burxon qizi,
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Mazkur maqolada pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish, refleksiv madaniyatni shakllantirish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning akmeologik yondashuvga asoslangan metodologik asoslari ochib berilib, pedagoglarning kasbiy yetukligini ta’minlashga xizmat qiluvchi motivatsion-aksiologik, kognitiv-innovatsion, operatsion-faoliyat, refleksiv-regulyativ va kreativ-loyihaviy komponentlarning o‘zaro integratsiyasi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, innovatsion faoliyat, akmeologik yondashuv, pedagog, innovatsion kompetentlik, kasbiy rivojlanish, refleksiv madaniyat, kreativlik, raqamli kompetentlik, sun’iy intellekt, pedagogik innovatsiyalar, uzluksiz kasbiy rivojlanish, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim muhiti.*

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ

В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы актуальные проблемы и перспективы развития инновационной деятельности в процессе совершенствования профессиональной компетентности педагогов. Освещены вопросы развития инновационной компетентности педагогов, эффективного использования цифровых технологий и средств искусственного интеллекта, формирования рефлексивной культуры и обеспечения непрерывного профессионального развития в условиях современной системы образования. В исследовании раскрыты методологические основы развития инновационной деятельности на основе акмеологического подхода, а также обоснована интеграция мотивационно-аксиологического, когнитивно-инновационного, операционно-деятельностного, рефлексивно-регулятивного и креативно-проектного компонентов, обеспечивающих достижение профессиональной зрелости педагогов.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, инновационная деятельность, акмеологический подход, педагог, инновационная компетентность, профессиональное развитие, рефлексивная культура, креативность, цифровая компетентность, искусственный интеллект, педагогические инновации, непрерывное профессиональное развитие, качество образования, педагогические технологии, инновационная образовательная среда.*

PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES IN ENHANCING TEACHERS’ PROFESSIONAL COMPETENCE

This article analyzes the current challenges and prospects for developing innovative activity in the process of improving teachers’ professional competence from both theoretical and practical perspectives. It highlights the issues of developing teachers’ innovative competence, the effective use of digital technologies and artificial intelligence tools, the formation of reflective culture, and the promotion of continuous professional development within the modern education system. The study reveals the methodological foundations of developing innovative activity based on the acmeological approach and substantiates the integration of motivational-axiological, cognitive-innovative, operational-activity, reflective-regulatory, and creative-project components that contribute to achieving teachers’ professional excellence.

Keywords: *professional competence, innovative activity, acmeological approach, teacher, innovative competence, professional development, reflective culture, creativity, digital competence, artificial*

intelligence, pedagogical innovations, continuous professional development, quality of education, pedagogical technologies, innovative educational environment.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz takomillashtirib borish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada malaka oshirish tizimi alohida o‘rin tutadi, chunki aynan shu tizim orqali amaliyotdagi pedagoglar zamonaviy pedagogik-psixologik bilimlar, innovatsion metod va texnologiyalar bilan muntazam boyitib boriladi. Biroq malaka oshirish jarayonining o‘zi ham vaqt talabiga mos ravishda innovatsion faoliyat asosida tashkil etilishi, tinglovchilarni nafaqat tayyor bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, balki ularda mustaqil innovatsion izlanish, ijodiy loyihalash va o‘z faoliyatini uzluksiz yangilab borish qobiliyatini shakllantirishi zarur. Mazkur paragrafda ushbu muammo boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilari misolida tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichining ta’lim tizimidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilarda o‘qish, yozish, hisoblash kabi bazaviy ko‘nikmalar bilan bir qatorda bilim olishga bo‘lgan birlamchi qiziqish va munosabat ham shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi, xususan uning innovatsion faoliyat yuritish qobiliyati, nafaqat alohida o‘quvchining, balki butun ta’lim tizimining kelgusi rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holat boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi pedagoglarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish muammosini alohida, chuqur ilmiy tadqiq etishni talab etuvchi dolzarb masala sifatida belgilaydi.

Kasbiy kompetentlik va innovatsion faoliyat: nazariy-tushunchaviy asoslar. Pedagogning kasbiy kompetentligi — uning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, shaxsiy-kasbiy sifatlari va faoliyat natijalariga mas’uliyatli yondashuvining yaxlit tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsion faoliyat esa ushbu tizimning dinamik, rivojlantiruvchi tarkibiy qismi bo‘lib, u pedagogning yangi g‘oya, metod, texnologiya va vositalarni yaratish, o‘zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kasbiy kompetentlik bilan innovatsion faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan, yuqori kasbiy kompetentlik innovatsion faoliyat uchun zarur bilim va ko‘nikma bazasini yaratadi, ikkinchi tomondan, innovatsion faoliyatning o‘zi kasbiy kompetentlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati tarkibiy jihatdan to‘rt komponentga ajratiladi: motivatsion-shaxsiy komponent (yangilikka intilish, o‘zgarishlarga ochiqlik, kasbiy o‘sishga ehtiyoj), kognitiv-ijodiy komponent (innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarni original yo‘llar bilan hal qilish qobiliyati), texnologik-amaliy komponent (innovatsion metod va texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish ko‘nikmasi) hamda refleksiv-baholovchi komponent (o‘z innovatsion faoliyati natijalarini tahlil qilish va tuzatish qobiliyati). Ushbu to‘rt komponentning uzviy rivojlanishi pedagogning innovatsion faoliyatining yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Innovatsion faoliyat darajasini aniqlash va uni maqsadli rivojlantirish uchun uni uch darajaga ajratish maqsadga muvofiq. Darajalarning umumlashtirilgan tavsifi 1-jadvalda keltirilgan (jadval maqola davomida diagnostika asosi sifatida foydalaniladi).

1-jadval.

Pedagogning innovatsion faoliyat darajalari

Daraja	Tavsif
Reproduktiv (past) daraja	Pedagog innovatsiyalarni faqat tayyor holda, boshqalar ishlab chiqqan tarzda qabul qiladi, ularni ijodiy o‘zgartirmasdan qo‘llaydi, o‘z ustida innovatsion izlanish olib bormaydi
Moslashuvchan (o‘rta) daraja	Pedagog mavjud innovatsion metodlarni o‘z sinfi va o‘quvchilari sharoitiga moslashtira oladi, biroq mustaqil ravishda tubdan yangi g‘oya yaratishda qiyinchilik seziladi
Ijodiy-konstruktiv (yuqori) daraja	Pedagog mustaqil ravishda original innovatsion g‘oya va loyihalarni ishlab chiqadi, ularni amaliyotga tatbiq etadi, natijalarini tahlil qilib takomillashtiradi hamda tajribasini hamkasblari bilan faol almashadi

Ushbu darajalar tizimi malaka oshirish kursi boshida (kirish diagnostikasi) va yakunida (chiqish diagnostikasi) tinglovchining innovatsion faoliyat darajasini aniqlash, shu asosda uning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Malaka oshirish tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Malaka oshirish tizimi boshqa ta’lim bosqichlaridan farqli o‘laroq, allaqachon amaliy pedagogik tajribaga

ega bo‘lgan, o‘ziga xos kasbiy dunyoqarash va faoliyat uslubi shakllangan tinglovchilar bilan ishlashni taqozo etadi. Bu holat innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayoniga ikki xil ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan, tinglovchilarning boy amaliy tajribasi innovatsion g‘oyalarni tezroq va chuqurroq anglashga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa, yillar davomida shakllangan an’anaviy faoliyat stereotiplari innovatsiyalarni qabul qilishga psixologik to‘siq bo‘lishi mumkin.

Shu sababli malaka oshirish kurslarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon odatda to‘rt bosqichda amalga oshiriladi: motivatsion bosqich (tinglovchida innovatsion faoliyatga ehtiyoj va qiziqishni uyg‘otish), bilim bosqichi (zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalar haqida nazariy bilim berish), amaliy bosqich (innovatsion metodlarni amaliy mashg‘ulotlar, master-klasslar orqali sinab ko‘rish) hamda ijodiy-mustaqil bosqich (tinglovchining o‘z ish joyi sharoitiga moslashtirilgan individual innovatsion loyihasini ishlab chiqishi va himoya qilishi).

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi tinglovchilari faoliyatidagi muammolarning tahlili. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilari faoliyatini kuzatish, ular bilan suhbat va so‘rovnomalar o‘tkazish, shuningdek metodik seminarlar davomida to‘plangan amaliy materiallarni tahlil qilish natijasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi muammolar bir necha guruhga birlashtirildi. Ularning umumlashtirilgan tasnifi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi tinglovchilarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi muammolar tasnifi

Muammolar guruhi	Muammoning mazmuni
Tashkiliy-boshqaruv muammolari	Malaka oshirish kursi dasturlarida innovatsion faoliyatga ajratilgan soatlarning yetarli emasligi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar nisbatining nomutanosibligi
Mazmun-metodik muammolar	Kurs mazmunining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatining o‘ziga xosligiga (yosh xususiyatlari, integrallashgan fanlar) to‘liq moslashtirilmaganligi
Psixologik-shaxsiy muammolar	Ba’zi tinglovchilarda yangilikka nisbatan psixologik qarshilik, an’anaviy uslublarga o‘rganib qolganlik, o‘z faoliyatini o‘zgartirishga bo‘lgan ichki motivatsiyaning yetishmasligi
Moddiy-texnik muammolar	Ayrim uzoq hududlardagi maktablarda zamonaviy raqamli va texnik vositalarning yetishmasligi, bu esa innovatsion g‘oyalarni real sharoitda sinab ko‘rish imkoniyatini cheklaydi
Baholash-monitoring muammolari	Tinglovchilarning innovatsion faoliyati natijalarini obyektiv baholovchi aniq mezonlar va monitoring tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi

Tashkiliy-boshqaruv muammolari guruhi kurs dasturlarining tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pchilik malaka oshirish dasturlarida innovatsion faoliyatga oid mavzular alohida modul sifatida emas, balki boshqa mavzular ichida parcha-parcha holda berilishi kuzatiladi. Bu esa tinglovchilarda innovatsion faoliyat haqida tizimli emas, balki uzuq-yuluq tasavvur shakllanishiga olib keladi.

Mazmun-metodik muammolar boshlang‘ich ta’lim bosqichining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir vaqtning o‘zida bir necha fanni (ona tili, matematika, tabiatshunoslik va boshqalar) o‘qitishi, kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Ammo ko‘p hollarda malaka oshirish kurslarida taqdim etiladigan innovatsion metodlar umumiy, barcha bosqich o‘qituvchilari uchun bir xil tarzda berilib, boshlang‘ich sinfning integrallashgan fanlar tizimiga moslashtirilmaydi.

Psixologik-shaxsiy muammolar orasida eng sezilarlisi - uzoq yillik pedagogik staja bo‘lgan tinglovchilarda kuzatiladigan “kasbiy konservatizm” hodisasi bo‘lib, bunda o‘qituvchi o‘zining an’anaviy usullarini samarali deb hisoblab, yangi yondashuvlarni qabul qilishga ehtiyot bo‘ladi. Bunday holat, ayniqsa, raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalarni joriy etishda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Moddiy-texnik muammolar, xususan, qishloq va chekka hududlardagi maktablarda internet aloqasi sifati, kompyuter va proyektor kabi texnik vositalarning yetishmasligi tinglovchilarning malaka oshirish davomida o‘zlashtirgan innovatsion g‘oyalarini o‘z ish joyida amalga oshirishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu holat nazariy tayyorgarlik bilan amaliy imkoniyat o‘rtasida ma’lum tafovutni yuzaga keltiradi.

Baholash-monitoring muammolari esa malaka oshirish kursi yakunidagi baholash tizimining ko‘pincha faqat nazariy bilimlarni tekshirishga qaratilganligi, tinglovchining innovatsion loyihasi yoki g‘oyasining amaliyotga tatbiq etilish darajasi va uzoq muddatli natijalarini kuzatib boruvchi monitoring mexanizmining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq.

Muammolarning yuzaga kelish sabablari. Yuqorida ko‘rsatilgan muammolarning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish ularni bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi sabab - malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining o‘ziga xos ehtiyojlarini chuqur o‘rganmasdan, universal yondashuvdan foydalanish.

Ikkinchi sabab - malaka oshirish kurslarida dars beruvchi professor-o‘qituvchilarning o‘zlari ham innovatsion faoliyat metodologiyasi bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmasligi mumkinligi.

Uchinchi sabab - tinglovchilarning malaka oshirish davomida olgan bilim va ko‘nikmalarini o‘z ish joyida qo‘llash uchun zarur institutsional qo‘llab-quvvatlash (metodik yordam, resurslar, rag‘batlantirish tizimi) mexanizmining yetarli rivojlanmaganligi.

To‘rtinchi sabab - innovatsion faoliyat natijalarini baholash va rag‘batlantirish tizimining pedagogning lavozim ko‘tarilishi yoki moddiy rag‘batlantirilishi bilan yetarlicha bog‘lanmaganligi, bu esa ba’zi tinglovchilarda innovatsion faoliyatga ichki motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Beshinchi sabab sifatida malaka oshirish kurslari orasidagi vaqt oralig‘ining uzoqligini (odatda 3–5 yil) ko‘rsatish mumkin, bu davr mobaynida pedagog innovatsion faoliyat bo‘yicha maqsadli metodik yordamdan mahrum bo‘ladi va o‘zlashtirgan bilimlar amaliyotda asta-sekin “eskirib” boradi. Oltinchi sabab – malaka oshirish jarayonining o‘zi ko‘pincha ma’ruza-tinglovchi formatida, ya’ni tinglovchining passiv ishtirokiga asoslangan holda tashkil etilishi bo‘lib, bu shaklning o‘zi innovatsion faoliyat uchun zarur bo‘lgan faollik va mustaqillikni to‘liq rivojlantira olmaydi. Bu sabablarning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularni alohida-alohida emas, balki kompleks tarzda bartaraf etish zarur.

Malaka oshirish institutining innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi vazifalari. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi pedagoglarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda malaka oshirish institutlari markaziy o‘rin tutadi. Ularning ushbu jarayondagi vazifalari bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, malaka oshirish instituti dastur va o‘quv rejalarini muntazam yangilab borish, ularga zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalarni tezkor tarzda kiritish vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, institut professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘zini innovatsion faoliyat metodologiyasi bo‘yicha muntazam tayyorlab borishi, ular orqali tinglovchilarga sifatli innovatsion tajriba uzatilishini ta’minlashi lozim.

Uchinchidan, malaka oshirish instituti hududiy metodik markazlar, maktablar va ta’lim boshqarmalari bilan uzluksiz hamkorlik o‘rnatib, kurs tugagandan keyingi davrda ham tinglovchilarga metodik yordam ko‘rsatishni tashkil etishi zarur. To‘rtinchidan, institut innovatsion faoliyat bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalarni to‘plash, tizimlashtirish va ommalashtirish, shu asosda “innovatsion tajribalar banki”ni yaratish vazifasini ham bajarishi mumkin. Bunday bank kelgusi malaka oshirish kurslari uchun boy amaliy material bazasi bo‘lib xizmat qiladi va yangi tinglovchilarni real, sinovdan o‘tgan tajribalar bilan tanishtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, malaka oshirish instituti raqamli platformalar orqali tinglovchilar bilan uzluksiz aloqada bo‘lish, ularga onlayn konsultatsiya, vebinar va metodik materiallar taqdim etish orqali “kurslararo davr”ni ham innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash davriga aylantirishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, yuqorida qayd etilgan “kurslar orasidagi uzoq vaqt oralig‘i” muammosini yumshatishga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari va yo‘nalishlari. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilarida innovatsion faoliyatni samarali rivojlantirish uchun bir qator istiqbolli yo‘nalishlar belgilandi. Ularning umumlashtirilgan tavsifi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Amalga oshirish mexanizmi
Tashkiliy-boshqaruv yo‘nalishi	Malaka oshirish dasturlarida “Innovatsion pedagogik faoliyat” nomli alohida modulni joriy etish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar nisbatini amaliyot foydasiga qayta ko‘rib chiqish
Mazmuniy-metodik yo‘nalish	Dastur mazmunini boshlang‘ich ta’lim bosqichining integrallashgan fanlar tizimiga, kichik yoshdagi o‘quvchilar psixologiyasiga moslashtirish, amaliy keyslarni aynan boshlang‘ich sinf misolida ishlab chiqish
Motivatsion-psixologik yo‘nalish	Tinglovchilarda innovatsion faoliyatga ichki motivatsiyani shakllantiruvchi trening va koucing mashg‘ulotlarini joriy etish, muvaffaqiyatli innovatsion tajribalarni ommalashtirish
Texnologik-	Malaka oshirish institutlari va maktablar o‘rtasida raqamli resurslar almashinuvini

Yo‘nalish	Amalga oshirish mexanizmi
resurs yo‘nalishi	yo‘lga qo‘yish, masofaviy konsultatsiya va onlayn metodik yordam tizimini rivojlantirish
Monitoring-baholash yo‘nalishi	Tinglovchining innovatsion loyihasi amaliyotga tatbiq etilishini kuzatib boruvchi uzoq muddatli (kurs tugagandan keyingi) monitoring tizimini joriy etish, innovatsion faoliyatni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish

Tashkiliy-boshqaruv yo‘nalishi doirasida malaka oshirish dasturiga “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik faoliyat” nomli alohida modul kiritilishi, bu modulning kamida 30 foizini amaliy mashg‘ulotlar (master-klass, ochiq dars tahlili, loyihalash ustaxonalari) tashkil etishi maqsadga muvofiq. Bu, o‘z navbatida, tinglovchilarga innovatsion g‘oyalarni nazariy jihatdangina emas, balki amaliy jarayonda ham o‘zlashtirish imkonini beradi.

Mazmuniy-metodik yo‘nalish bo‘yicha eng muhim vazifa — innovatsion metod va texnologiyalarni aynan boshlang‘ich sinf sharoitiga moslashtirilgan holda taqdim etish. Masalan, loyihaviy ta’lim, STEAM-yondashuv, gamifikatsiya kabi innovatsion yo‘nalishlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos variantlarini ishlab chiqish, ularni ona tili, matematika, atrofimizdagi olam kabi fanlarning integrallashgan mazmuni bilan bog‘lab taqdim etish zarur.

Motivatsion-psixologik yo‘nalish doirasida tinglovchilarning kasbiy konservatizmini yumshatish, ularda innovatsiyaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadida maxsus psixologik-pedagogik treninglar, shuningdek boshqa hamkasblarining muvaffaqiyatli innovatsion tajribasini namoyish etuvchi “ilg‘or tajriba maktablari”ni tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday tadbirlar tinglovchilarga innovatsiyalarning real amaliyotda samara berishini ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatadi va ichki qarshilikni kamaytiradi.

Texnologik-resurs yo‘nalishi malaka oshirish institutlari, hududiy metodik markazlar va maktablar o‘rtasida uzluksiz aloqa o‘rnatishni, jumladan onlayn platformalar orqali metodik materiallar, video-darslar va konsultatsiyalar almashinuvini yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, moddiy-texnik imkoniyati cheklangan hududlardagi tinglovchilar uchun innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishda muhim yordam beradi.

Monitoring-baholash yo‘nalishi doirasida malaka oshirish kursi tugagandan so‘ng ham tinglovchining ish joyida innovatsion faoliyatini kuzatib boruvchi, elektron portfolio va davriy hisobotlar asosida ishlaydigan monitoring tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bunday tizim nafaqat nazorat funksiyasini, balki tinglovchiga doimiy metodik yordam ko‘rsatish funksiyasini ham bajaradi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning bosqichma-bosqich mexanizmi. Yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarni yaxlit tizimga birlashtirish maqsadida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning bosqichma-bosqich mexanizmi taklif etiladi. Birinchi bosqich – diagnostika bosqichi, unda tinglovchining boshlang‘ich innovatsion faoliyat darajasi va ehtiyojlari aniqlanadi. Ikkinchi bosqich – loyihalashtirish bosqichi, unda tinglovchi o‘z ish joyi sharoitidan kelib chiqib, individual innovatsion loyiha g‘oyasini ishlab chiqadi. Uchinchi bosqich – amalga oshirish bosqichi, unda loyiha malaka oshirish kursi davomida amaliy mashg‘ulotlarda sinovdan o‘tkaziladi va takomillashtiriladi. To‘rtinchi bosqich – tatbiq va monitoring bosqichi, unda tinglovchi kursni tugatgach, loyihasini o‘z ish joyida amaliyotga tatbiq etadi va uning natijalari uzoq muddatli monitoring orqali kuzatib boriladi.

Ushbu mexanizmning muhim afzalligi shundaki, u innovatsion faoliyatni malaka oshirish kursi doirasidagi vaqtinchalik tadbir sifatida emas, balki tinglovchining butun kasbiy faoliyati davomida davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu, o‘z navbatida, malaka oshirish tizimi bilan real pedagogik amaliyot o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan to‘rt bosqichli mexanizmning har bir bosqichida aniq ishtirokchilar va ularning mas’uliyati belgilanishi lozim. Diagnostika bosqichida malaka oshirish institutining metodisti va tinglovchining o‘zi birgalikda ishtirok etadi; loyihalashtirish bosqichida tinglovchiga kurs o‘qituvchisi konsultant sifatida yordam beradi; amalga oshirish bosqichida esa loyiha kichik guruh yoki juftlik tarzida hamkasblar ishtirokida sinovdan o‘tkaziladi, bu esa qo‘shimcha fikr-mulohaza olish imkonini beradi. Tatbiq va monitoring bosqichida esa jarayonga tinglovchining ish joyidagi maktab rahbariyati va metodik birlashma rahbari ham jalb etiladi, bu esa malaka oshirish natijalarining real ish joyida qanday amalga oshirilayotganini nazorat qilish imkonini beradi. Bunday ko‘p subyektli ishtirok mexanizmning barqarorligini va uzluksizligini ta’minlaydi.

Xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari. Rivojlangan mamlakatlarning o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda

“o‘qituvchilar hamjamiyati” (professional learning community) modeli, ya’ni bir necha maktab yoki hudud o‘qituvchilarining doimiy asosda birgalikda ishlashi, tajriba almashishi va birgalikda innovatsion loyihalar ustida ishlashi katta samara bermoqda. Shuningdek, ko‘plab mamlakatlarda malaka oshirish kurslari yakunida emas, balki butun o‘quv yili davomida davom etuvchi “mentorlik” tizimi, ya’ni tajribali va innovatsion faoliyatda muvaffaqiyat qozongan o‘qituvchining yosh yoki kamroq tajribali hamkasbiga uzluksiz yordam berishi keng qo‘llaniladi. Ushbu tajribalarni milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan tarzda joriy etish boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ham innovatsion faoliyatni rivojlantirishning qo‘shimcha rezervi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, xorijiy tajribani mexanik tarzda ko‘chirib o‘tkazish emas, balki uni milliy ta’lim tizimining institutsional imkoniyatlari, hududiy xususiyatlari va pedagogik an’analariga moslashtirilgan holda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, “o‘qituvchilar hamjamiyati” modelini respublikamiz sharoitida tuman va viloyat metodik birlashmalari negizida, mentorlik tizimini esa malaka oshirish institutlari va maktablar o‘rtasidagi hamkorlik shartnomalari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, xorijiy amaliyotda keng qo‘llaniladigan “aksiya-tadqiqot” (action research) yondashuvi ham alohida e’tiborga loyiq. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘qituvchining o‘zi o‘z sinfidagi muammoni aniqlaydi, uni hal qilish uchun kichik hajmdagi innovatsion tajriba-sinov o‘tkazadi va natijalarini tahlil qilib, o‘z faoliyatini takomillashtiradi. Bunday yondashuvni boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka oshirish kurslariga moslashtirilgan holda joriy etish tinglovchilarda innovatsion faoliyatni nazariy bilim darajasida emas, balki bevosita amaliy tadqiqotchilik tajribasi orqali shakllantirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, pedagogning o‘zini shunchaki innovatsiyalarni “iste’mol qiluvchi” emas, balki ularni yaratuvchi sub’ekt sifatida his qilishiga xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar. O‘tkazilgan tahlil asosida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- malaka oshirish dasturlariga “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik faoliyat” nomli alohida modulni kiritish va unga kamida 8–10 soat ajratish;
- kurs boshida va yakunida tinglovchilarning innovatsion faoliyat darajasini 3-jadvalda keltirilgan mezonlar asosida diagnostika qilish;
- har bir tinglovchiga o‘z ish joyi sharoitiga moslashtirilgan individual innovatsion mini-loyiha tayyorlash va uni himoya qilish topshirig‘ini berish;
- malaka oshirish institutlari huzurida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun doimiy ishlaydigan onlayn metodik yordam platformasini tashkil etish;
- kursni tugatgan tinglovchilarning innovatsion loyihalari amaliyotga tatbiq etilishini kamida bir o‘quv yili davomida kuzatib boruvchi monitoring guruhini shakllantirish;
- innovatsion faoliyatda erishilgan yutuqlarni pedagogning attestatsiyasi va moddiy rag‘batlantirilishi bilan bog‘lovchi aniq mexanizmlarni ishlab chiqish;
- tuman va viloyat darajasida “ilg‘or innovatsion tajriba maktablari”ni tashkil etib, muvaffaqiyatli tajribalarni boshqa pedagoglar orasida ommalashtirish.

Ushbu tavsiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni kompleks tarzda amalga oshirish boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi pedagoglarining innovatsion faoliyatini nafaqat malaka oshirish kursi davomida, balki ularning butun kasbiy faoliyati mobaynida barqaror rivojlantirib borish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilari misolida olib borilgan tahlil pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayoni tashkiliy-boshqaruv, mazmun-metodik, psixologik-shaxsiy, moddiy-texnik va baholash-monitoring xarakteridagi bir qator muammolar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu muammolarning aksariyati malaka oshirish tizimining boshlang‘ich ta’lim bosqichining o‘ziga xos ehtiyojlariga to‘liq moslashtirilmaganligi, shuningdek institutsional qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish mexanizmlarining yetarli rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun taklif etilgan tashkiliy-boshqaruv, mazmuniy-metodik, motivatsion-psixologik, texnologik-resurs va monitoring-baholash yo‘nalishlari, shuningdek innovatsion faoliyatni rivojlantirishning bosqichma-bosqich (diagnostika – loyihalashtirish – amalga oshirish – tatbiq va monitoring) mexanizmi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi pedagoglarining innovatsion faoliyatini malaka oshirish kursi doirasidagina emas, balki ularning butun kasbiy faoliyati davomida uzluksiz rivojlantirib borish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagoglarning kasbiy kompetentligini yangi, yuqori sifat bosqichiga olib chiqishga va boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida innovatsion faoliyatni rivojlantirish muammosi faqat malaka oshirish institutlarining ichki masalasi bo‘lib qolmasdan, balki ta’lim boshqaruv

organlari, maktab rahbariyati, hududiy metodik xizmatlar va pedagoglarning o‘zlarini ham qamrab oluvchi kompleks, ko‘p bosqichli tizimni talab etadi. Faqat barcha manfaatdor tomonlarning izchil va muvofiqlashtirilgan harakati natijasidagina malaka oshirish tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish barqaror va uzoq muddatli samara berishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu paragrafda ilgari surilgan nazariy-metodik takliflarning amaliy samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida ilmiy-statistik jihatdan asoslash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 320 b.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
4. Xodjayev B.X. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Toshkent: IQTISOD-MOLIY, 2018. – 208 b.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 180 b.
6. Xasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 480 b.
7. Деркач А.А., Зазыкин В.Г. Акмеология. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 256 с.
8. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – Москва: Высшая школа, 1990. – 119 с.
9. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 312 с.
10. Dilova N.G. Uzluksiz ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shartlari // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 35–40.
11. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida // Pedagogik akmeologiya. – Buxoro, 2023. – №1. – B. 45–49.
12. Dilova N.G. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi va uning pedagogik mazmuni // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 130–134.
13. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta’lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishning pedagogik xususiyatlari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2022. – №2. – B. 356–363.

GRAFIK MALAKA TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOHIYATI

Yusufzoda Shabnami Yunus,
Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur maqolada grafik malaka tushunchasining pedagogik va psixologik mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Grafik savodxonlik, grafik kompetensiya va grafik malaka tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda farqli jihatlari yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida grafik faoliyatning shakllanish bosqichlari, unga ta’sir etuvchi psixologik omillar va zamonaviy kompetensiyaviy, STEAM, raqamli, inklyuziv hamda vizual pedagogika yondashuvlarining ahamiyati ochib berilgan. Grafik malakalarni rivojlantirishning nazariy asoslari va ularning o‘quvchilarning funksional savodxonligi hamda vizual tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *grafik malaka, grafik savodxonlik, grafik kompetensiya, grafomotor ko‘nikmalar, boshlang‘ich ta’lim, mayda motorika, vizual tafakkur, fazoviy tasavvur, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta’limi, raqamli texnologiyalar, vizual pedagogika.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ГРАФИЧЕСКОГО НАВЫКА

В статье раскрываются педагогические и психологические основы понятия графического навыка. Проанализированы взаимосвязь и различия между понятиями графической грамотности, графической компетентности и графического навыка. Освещены этапы формирования графической деятельности у учащихся начальных классов, психологические факторы, влияющие на развитие графических навыков, а также значение компетентностного, STEAM-, цифрового, инклюзивного и визуально-педагогического подходов. Обоснована роль развития графических навыков в формировании функциональной грамотности и визуального мышления обучающихся.

Ключевые слова: *графический навык, графическая грамотность, графическая компетентность, графомоторные навыки, начальное образование, мелкая моторика, визуальное мышление, пространственное представление, компетентностный подход, STEAM-образование, цифровые технологии, визуальная педагогика.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF GRAPHIC SKILLS

This article examines the pedagogical and psychological essence of the concept of graphic skills from a theoretical perspective. It analyzes the relationship and distinctions among graphic literacy, graphic competence, and graphic skills. The stages of graphic activity development in primary school students, the psychological factors influencing graphic skill formation, and the significance of competency-based, STEAM, digital, inclusive, and visual pedagogical approaches are discussed. The study substantiates the theoretical foundations of graphic skill development and highlights its role in fostering students’ functional literacy and visual thinking.

Key words: *graphic skills, graphic literacy, graphic competence, graphomotor skills, primary education, fine motor skills, visual thinking, spatial perception, competency-based approach, STEAM education, digital technologies, visual pedagogy.*

Kirish. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish va XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish sharoitida grafik malakalarni rivojlantirish muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning yozuv, chizuv, tasvirlash hamda fazoviy tafakkur bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirish ularning keyingi o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’kidlash joizki, grafik malaka nafaqat yozuv texnikasi, balki axborotni grafik shaklda qabul qilish, qayta ishlash va ifodalash kompetensiyalarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois grafik malakaning pedagogik-psixologik mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda grafik malaka, grafik savodxonlik va grafik kompetensiya tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, mazmun jihatidan farqlanadi. Grafik savodxonlik

shaxsning grafik belgilar, chizmalar, sxemalar, diagrammalar, yozuv elementlari va tasviriy axborotni tushunish hamda ulardan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. U o‘quvchining grafik axborotni o‘qish va talqin qilishga tayyorligini tavsiflaydi.

Grafik kompetensiya esa grafik savodxonlikka nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, grafik axborotni yaratish, tahlil qilish, modellashtirish va amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlarini ham keng qamrab oladi. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan grafik kompetensiya bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy tajribaning integrallashgan tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqotlarda grafik kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlari ajratiladi: grafik bilimlar, grafik ko‘nikmalar, grafik malakalar, fazoviy tasavvur, vizual tafakkur hamda grafik kommunikatsiya madaniyati.

Grafik malaka esa mazkur tizimning amaliy komponenti bo‘lib, grafik harakatlarni avtomatlashtirilgan tarzda bajarish qobiliyatini anglatadi. Xususan, harflarni to‘g‘ri yozish, geometrik shakllarni chizish, sxema va jadvallar bilan ishlash kabi faoliyatlar grafik malakaning namoyon bo‘lish shakllaridir.

Bugungi kunda STEAM ta’limi, raqamli texnologiyalar va vizual kommunikatsiyaning rivojlanishi grafik kompetensiyaga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Natijada grafik savodxonlik umumiy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida grafik faoliyatning shakllanishi psixofiziologik rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Bolalarda grafik faoliyatning rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshadi.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqich maktabgacha yosh va birinchi sinfning dastlabki davrini qamrab oladi. Bolalarda qo‘l muskullarining rivojlanishi, mayda motorika, ko‘z va qo‘l harakatlarining muvofiqlashuvi shakllanadi. Turli chiziqlar, nuqtalar va sodda geometrik shakllarni chizish orqali yozuv faoliyatiga tayyorgarlik ko‘riladi. Mazkur bosqichda bolaning sensor rivojlanishi, fazoviy oriyentatsiyasi, vizual idroki va harakat koordinatsiyasi asosiy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich – grafik harakatlarni o‘zlashtirish bosqichi. Bu davrda o‘quvchi yozuv elementlarini va grafik harakatlarni ongli ravishda bajarishni o‘rganadi. Harflarning elementlarini yozish, qator bo‘ylab harakatlanish, satr va kataklarga rioya qilish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Psixologik jihatdan bu davrda diqqatning barqarorlashuvi, ixtiyoriy harakatlarning rivojlanishi hamda kinestetik nazoratning shakllanishi kuzatiladi.

Uchinchi bosqich – avtomatlashtirish bosqichi. 2-3-sinflarda grafik harakatlar asta-sekin avtomatlashtiriladi. O‘quvchi yozuv texnikasiga kamroq e’tibor qaratib, mazmuniy faoliyatga ko‘proq diqqatni jamlay boshlaydi. Bu bosqichning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: 1) yozuv tezligining ortishi; 2) grafik aniqlikning yaxshilanishi; 3) harakatlarning iqtisodiylashuvi; 4) grafik faoliyatning barqarorlashuvi.

To‘rtinchi bosqich – ijodiy grafik faoliyat bosqichi. Boshlang‘ich ta’limning yakuniy bosqichida o‘quvchilar grafik vositalardan mustaqil foydalanishga o‘tadilar. Diagramma, sxema, jadval, grafik tasvirlar yaratish orqali axborotni ifodalash imkoniyatlari kengayadi. Mazkur bosqichda grafik faoliyat reproduktiv xarakterdan ijodiy xarakterga o‘tadi va o‘quvchining vizual tafakkuri rivojlanadi.

Grafik malakalar inson psixikasining bir qator jarayonlariga tayanadi. Ularning samarali shakllanishida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

1. Idrok. Grafik faoliyatning boshlang‘ich asosi vizual idrok hisoblanadi. O‘quvchi shakl, hajm, masofa va proporsiyalarni to‘g‘ri qabul qilishi kerak.

2. Diqqat. Grafik topshiriqlarni bajarishda diqqatning barqarorligi va taqsimlanishi muhim rol o‘ynaydi. Diqqat yetarli rivojlanmagan hollarda yozuv sifati pasayadi.

3. Xotira. Grafik obrazlarni eslab qolish va qayta tiklash yozuv hamda tasvirlash faoliyatining muhim komponentidir.

4. Tafakkur. Grafik faoliyat o‘quvchining fazoviy va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Ayniqsa, sxema va modellar bilan ishlash jarayonida analitik fikrlash faollashadi.

5. Mayda motorika. Qo‘l barmoqlari muskullarining rivojlanish darajasi grafik malakalarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda mayda motorikani rivojlantiruvchi mashqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi davrda grafik malakalarni rivojlantirishga oid yondashuvlar sezilarli darajada yangilanmoqda. An’anaviy yondashuvda asosiy e’tibor yozuv texnikasiga qaratilgan bo‘lsa, kompetensiyaviy yondashuv grafik faoliyatni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiriladi. STEAM integratsiyasi grafik faoliyatni fanlararo mazmunda tashkil etishni taqozo etadi. Grafik modellashtirish, konstruktorlik faoliyati va dizayn elementlari grafik kompetensiyani rivojlantirishning muhim vositalariga aylanmoqda. Grafik planshetlar, elektron doskalar, interaktiv ilovalar va raqamli yozuv vositalari grafik malakalarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Disgrafiya, dispraksiya yoki mayda motorikasi sust rivojlangan bolalar uchun maxsus ergonomik moslamalar, yozuv trenajyorlari va individual dasturlar qo‘llanilmoqda. Mayda motorikasi (qo‘l barmoqlari va kaft mushaklarining nozik harakatlari) sust rivojlangan bolalarda yozuv malakasini shakllantirish ancha murakkab kechadi. Bunday bolalar qalamni noto‘g‘ri ushlaydi, qo‘l tez charchaydi, harflar notekis yoziladi, yozuv sur’ati sekin bo‘ladi va koordinatsiya buziladi. Shu sababli zamonaviy pedagogika hamda korreksion pedagogikada maxsus ergonomik moslamalar, yozuv trenajyorlari va individual rivojlantirish dasturlaridan kompleks foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy ta’limda axborotni grafiklashtirish tamoyili keng qo‘llanilmoqda. Mind-map, infografika, diagramma va vizual modellar o‘quvchilarning grafik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mayda motorikasi (qo‘l barmoqlari va kaft mushaklarining nozik harakatlari) sust rivojlangan bolalarda yozuv malakasini shakllantirish ancha murakkab kechadi. Bunday bolalar qalamni noto‘g‘ri ushlaydi, qo‘l tez charchaydi, harflar notekis yoziladi, yozuv sur’ati sekin bo‘ladi va koordinatsiya buziladi. Shu sababli zamonaviy pedagogika hamda korreksion pedagogikada maxsus ergonomik moslamalar, yozuv trenajyorlari va individual rivojlantirish dasturlaridan kompleks foydalanish tavsiya etiladi.

1. Maxsus ergonomik moslamalar

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ergonomik moslamalar bolaning qo‘l anatomiyasiga moslashtirilgan bo‘lib, yozish vaqtida mushaklarga tushadigan zo‘riqishni kamaytiradi. A) ergonomik qalam ushlagichlari (Pencil Grip). Eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalardan biri hisoblanadi. Vazifasi quyidagilardan iborat: qalamni uch barmoq bilan to‘g‘ri ushlashni shakllantiradi; bosh barmoq va ko‘rsatkich barmoq holatini barqarorlashtiradi; qo‘lning ortiqcha siqilishini kamaytiradi hamda yozishdagi charchoqni kamaytiradi. Ergonomik moslamalarning afzalliklari: noto‘g‘ri ushlash odatini bartaraf etadi, yozuv sifati yaxshilanadi va qo‘l koordinatsiyasi rivojlanadi. B) uch qirrali qalamlar. Oddiy yumaloq qalamdan farqli ravishda uch qirrali shakl bolaning barmoqlarini tabiiy joylashishga majbur qiladi. Natijada yozuv qulaylashadi, qalam sirpanmaydi va mushaklar kamroq zo‘riqadi. C) og‘irlashtirilgan qalamlar (Weighted Pencil). Ba’zi nevrologik yoki sensor muammolari mavjud bolalarda qo‘llanadi. Ularning afzalligi quyidagicha: qo‘l titrashini kamaytiradi; harakatni boshqarishni osonlashtiradi hamda proprioseptiv sezgini kuchaytiradi. D) yozuv taxtachalari (Slant Board). 15–20° qiya yuzali taxtachalar. Uning foydalari: to‘g‘ri o‘tirish holatini shakllantiradi, bilakning anatomik holatini yaxshilaydi va yozuv aniqligini oshiradi.

2. Yozuv trenajyorlari.



Yozuv trenajyorlari yozishga tayyorlovchi maxsus didaktik vositalardir. 1) Harf konturli trenajyorlar. Bola avval kontur ustidan yuradiб keyin nuqtali chiziqlarni birlashtiradi va oxirida mustaqil yozadi. Bu usul kinestetik xotirani rivojlantiradi. 2) Ko‘p martalik yozuv doskalari. Maxsus marker bilan yoziladi va o‘chirib qayta ishlatiladi. Buning afzalligi shundaki, ko‘p takrorlash imkonini beradi; qo‘rquvni kamaytiradi hamda mashq qilishni qiziqarli qiladi. 3) Sensor yozuv trenajyorlari. Masalan: qumda yozish, mankada yozish (bu manka yormasi (semolina) to‘kilgan lagan yoki maxsus patnis yuzasida barmoq yoki tayoqcha yordamida harflar, chiziqlar va shakllarni chizish usulidir. Bu usul maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim va korreksion pedagogikada mayda motorika hamda grafomotor ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun keng qo‘llaniladi), plastilin ustida harf yasash va barmoq bilan yozish. Bu mashqlar sezgi organlari orqali motorikani rivojlantiradi. 4) Grafomotor trenajyorlar. Bularga quyidagilar kiradi - spiral chiziqlar, to‘lqinlar, yoylar, igzaglar, labirintlar va nuqtalarni birlashtirish. Bunday mashqlar yozuvning asosiy elementlarini mustahkamlaydi.

3. Individual rivojlantirish dasturlari. Har bir bola uchun alohida korreksion dastur ishlab chiqiladi. Dastur odatda quyidagi bosqichlardan iborat: 1-bosqich. Diagnostika. Barmoq kuchi, mushak tonusi, qo‘l koordinatsiyasi, grafomotor rivojlanish va yozuv sifati baholanadi. 2-bosqich. Motor tayyorgarlik. Bunda quyidagi mashqlarga ahamiyat beriladi: barmoqlar gimnastikasi; rezina halqa bilan mashqlar; mozaika; konstruktor; boncuk terish; tugma qadash hamda qirqish va yelimlash. 3-bosqich. Grafomotor mashqlar. Bu mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: vertikal chiziqlar, gorizontal chiziqlar, aylana, oval, ilmoqlar hamda elementlar. 4-bosqich. Harflarni shakllantirish. Bunda ketma-ketlikga rioya qilinadi: elementlar, bo‘g‘inlar, so‘zlar va gaplar. 5-bosqich. Avtomatlashtirish jarayoni. Har kuni 10–15 daqiqa mashq, tezlikni oshirish va yozuvning aniqligini nazorat qilish.

4. Individual mashg‘ulot namunasi (25–30 daqiqa).

5. Ilmiy asoslari. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ergonomik moslamalar hamda yozuv trenajyorlaridan muntazam foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: qo‘l mushaklarining kuchi va chidamliligi ortadi, barmoq harakatlari aniqroq va muvofiqlashgan bo‘ladi, grafomotor ko‘nikmalar rivojlanadi, harflarning shakli va o‘lchami barqarorlashadi, yozuv tezligi va sifati yaxshilanadi, yozish jarayonidagi charchoq va noqulaylik kamayadi va o‘quvchining yozishga bo‘lgan motivatsiyasi kuchayadi.

Xulosa. Grafik malaka boshlang‘ich ta’lim mazmunining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning yozuv, tasvirlash va vizual fikrlash faoliyatini ta’minlaydi. Grafik savodxonlik va grafik kompetensiya grafik malakaning nazariy asosini tashkil etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda grafik faoliyat bosqichma-bosqich rivojlanib, oddiy harakatlardan ijodiy grafik faoliyat darajasiga ko‘tariladi. Zamonaviy ta’lim sharoitida grafik malakalarni shakllantirish kompetensiyaviy, STEAM, raqamli va inklyuziv yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining funksional savodxonligi hamda vizual tafakkurini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Azimov Y.Y. Husnixat (metodik qo‘llanma). – Buxoro, 2012. – 132 bet.
2. Azimov Y.Y., Qo‘ldoshev R.A. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo`llanma). – Buxoro, GlobeEdit. 2020. -130 bet.
3. Azimov Y.Y., Qo‘ldoshev R.A. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo‘llanma). – Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2017. -132 bet.
4. Azimov Y.Y., Yusufzoda Sh. Y. Husnixat o‘qitish texnologiyasi. Darslik. -Buxoro: Fan va ta’lim, 2022. -68 b.
5. Безруких М. М. Психофизиология письма и формирование графических навыков у детей. – Москва: Просвещение, 2009. -320 с.
6. Выготский Л. С. Мышление и речь. –Москва: Лабиринт, 1999. -352 с.
7. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. –Москва: Смысл, 2005. -431 с.
8. Эльконин Д. Б. Психология обучения младшего школьника. –Москва: Академия, 2007. -384 с.
9. Piaget J. The Child’s Conception of Space. London: Routledge, 1956. -490 p.
10. Graham S., Harris K. R. Handbook of Writing Research. New York: The Guilford Press, 2006. -457 p.
11. Berninger V. W. (Ed.). Past, Present, and Future Contributions of Cognitive Writing Research to Cognitive Psychology. New York: Psychology Press, 2012. -388 p.
12. Feder K. P., Majnemer A. Handwriting Development, Competency, and Intervention. London: Mac Keith Press, 2007. -248 p.
13. Ishmuhamedov R. J., Abduqodirov A. A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018. -304 b.
14. Mayer R. E. Multimedia Learning. (2nd ed.). New York: Cambridge University Press, 2009. -304 p.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI REGGIO EMILIA YONDASHUVI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Adizova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
adizovanilufar331@gmail.com

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Reggio Emilia yondashuvini joriy etish jarayonida tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Reggio Emilia yondashuvining bolaga yo‘naltirilgan ta’lim, muhitning “uchinchi tarbiyachi” sifatidagi roli, pedagogik kuzatuv, hujjatlashtirish, refleksiya va hamkorlik tamoyillari “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida belgilangan zamonaviy talablar bilan qiyosiy o‘rganildi. Maqolada tarbiyachining an’anaviy bilim uzatuvchi pozitsiyasidan fasilitator, kuzatuvchi, tahlilchi va hamkor-tadqiqotchi maqomiga o‘tishi tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liqligi asoslab beriladi. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash mezonlari, ularni rivojlantirish bosqichlari va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Olingan natijalar maxsus treninglar, pedagogik keyslar, refleksiv kundaliklar, ochiq savollar va hujjatlashtirish amaliyoti tarbiyachilarning tahliliy, refleksiv hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *Reggio Emilia yondashuvi, tanqidiy fikrlash, fasilitatorlik, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, pedagogik refleksiya, ochiq savollar, hujjatlashtirish, o‘yinga asoslangan ta’lim, “Ilk qadam” dasturi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА РЕДЖИО ЭМИЛИЯ

В статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются педагогические основы развития навыков критического мышления у воспитателей в процессе внедрения подхода Redjio Emilia в дошкольных образовательных организациях. В исследовании в сравнительном аспекте изучены принципы подхода Redjio Emilia — личностно-ориентированное образование, роль среды как “третьего воспитателя”, педагогическое наблюдение, документирование, рефлексия и сотрудничество — в сопоставлении с современными требованиями, определёнными государственной учебной программой “Ilk qadam”. В статье обосновывается, что переход воспитателя от традиционной позиции транслятора знаний к роли фасилитатора, наблюдателя, аналитика и партнёра-исследователя непосредственно связан с навыками критического мышления. На основе результатов проведённой опытно-экспериментальной работы разработаны критерии оценки навыков критического мышления, этапы их развития и методические рекомендации. Полученные результаты показали, что специальные тренинги, педагогические кейсы, рефлексивные дневники, открытые вопросы и практика документирования являются эффективными средствами развития аналитических, рефлексивных и коммуникативных компетенций воспитателей.

Ключевые слова: *подход Reggio Emilia, критическое мышление, фасилитация, дошкольное образование, воспитатель, педагогическая рефлексия, открытые вопросы, документирование, обучение на основе игры, программа “Ilk qadam”.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS OF PRESCHOOL EDUCATORS BASED ON THE REGGIO EMILIA APPROACH

The article analyzes the pedagogical foundations for developing critical thinking skills of educators in the process of implementing the Reggio Emilia approach in preschool educational organizations from scientific-theoretical and practical perspectives. The study comparatively examines the principles of the Reggio Emilia approach—child-centered education, the role of the environment as the “third teacher”, pedagogical observation, documentation, reflection, and collaboration—in relation to the modern requirements specified in the state curriculum “Ilk qadam”. The article substantiates that the transition of the educator from the traditional role of a transmitter of knowledge to that of a facilitator, observer, analyst, and co-researcher is directly connected with critical thinking skills. Based on the results of the experimental

work, assessment criteria for critical thinking skills, stages of their development, and methodological recommendations were developed. The findings showed that special training sessions, pedagogical cases, reflective diaries, open-ended questions, and documentation practices are effective in developing educators' analytical, reflective, and communicative competencies.

Keywords: *Reggio Emilia approach, critical thinking, facilitation, preschool education, preschool teacher, pedagogical reflection, open-ended questions, documentation, play-based learning, "Ilk qadam" curriculum.*

Kirish. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi bolani faqat bilim, ko‘nikma va malakalar majmui bilan qurollantirishni emas, balki uning shaxs sifatida erkin rivojlanishini, mustaqil fikrlash, muloqot qilish, izlanish va ijodiy faoliyat yuritish qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Globallashuv, raqamli axborot oqimlarining tezlashuvi va ijtimoiy hayotdagi murakkabliklar bolalik davridayoq kuzatish, savol berish, taxmin qilish, dalillash hamda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida o‘yin, tadqiqot, muloqot va ijodiy izlanish uyg‘unligi pedagogik jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylanmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash hamda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini takomillashtirish va uni amaliyotga keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Mazkur dasturda bolaga yo‘naltirilgan ta’lim, rivojlantiruvchi pedagogik muhit, o‘yinga asoslangan faoliyat, pedagogning fasilitatorlik roli hamda bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish masalalari markaziy o‘rin egallaydi.

Shu bilan birga, dasturda bolalarning tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida e’tirof etilgan. Bunday natijalarga erishish esa bevosita tarbiyachining kasbiy kompetentligiga, xususan, uning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga bog‘liq. Chunki tanqidiy fikrlovchi tarbiyachi ta’lim jarayonini tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarni baholash, bolalarning fikrlash faolligini rag‘batlantiruvchi savollarni qo‘llash hamda o‘z faoliyatini refleksiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat pedagogning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi, balki “Ilk qadam” dasturida belgilangan maqsad va vazifalarning samarali amalga oshirilishiga ham xizmat qiladi.

Jahon pedagogik tajribasida bolaga yo‘naltirilgan, ijodkorlik va mustaqil izlanishga asoslangan yondashuvlardan biri Reggio Emilia yondashuvidir. U Italiyaning Reggio Emilia shahri tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, bolani kuchli salohiyatga ega, o‘z huquqlari, qiziqishlari va “yuz tili” orqali dunyoni anglaydigan faol subyekt sifatida talqin qiladi [2]. Ushbu yondashuvda ta’lim mazmuni oldindan qat’iy belgilab qo‘yilgan mavzularni bajarishdan ko‘ra, bolalarning savollari, qiziqishlari, kuzatuvlari va loyihaviy izlanishlari asosida rivojlanadi. Shu bois tarbiyachi faoliyatining markazida kuzatuv, tinglash, talqin qilish, hujjatlashtirish, hamkorlikda rejalashtirish va refleksiya turadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Reggio Emilia yondashuvini shaklan joriy etishning o‘zi yetarli emas. Agar tarbiyachi bolalarning fikrini chuqur tinglamasa, ularning savol va taxminlarini tahlil qilmasa, ta’lim muhitini ehtiyoj va qiziqishlarga mos ravishda qayta tashkil eta olmasa, yondashuvning asl pedagogik mohiyati yuzaga chiqmaydi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayonda tarbiyachining pedagogik mahorati, qo‘llaniladigan metod va vositalar alohida ahamiyatga ega [15].Demak, Reggio Emilia yondashuvining samaradorligi tarbiyachining tanqidiy fikrlash madaniyati, pedagogik vaziyatlarga refleksiv munosabati hamda asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Maqolaning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini Reggio Emilia yondashuvi asosida rivojlantirishning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan yoritish, mavjud holatni tahlil qilish hamda amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida Reggio Emilia yondashuvining asosiy tamoyillarini tahlil qilish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining tarkibiy qismlarini aniqlash, tarbiyachilar amaliyotida uchraydigan muammolarni o‘rganish, tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirish va takomillashtirish yo‘llarini belgilash nazarda tutiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tanqidiy fikrlash tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinadi. J. Dewey refleksiv fikrlashni muammoni shoshilinch xulosa bilan emas, balki dalillar, ehtimollar va oqibatlarni tahlil qilish orqali hal etish jarayoni sifatida izohlagan [6]. R.

Ennis tanqidiy fikrlashni nimaga ishonish va qanday harakat qilish haqida oqilona qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan refleksiv tafakkur deb ta’riflaydi [7].

R.Paul va L.Elder fikricha, tanqidiy fikrlash — bu shaxsning har qanday vaziyatda eng asosli va maqbul xulosaga kelishini ta’minlaydigan tizimli hamda ongli intellektual faoliyatdir. Fikrlashning asosiy vazifasi vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash va hal etish, savollarga asosli javob topish hamda borliqni anglashdan iborat. Fikrlash jarayonining samaradorligi insonning qaror qabul qilish sifati va hayotiy farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [10].

P.Facione talqiniga ko‘ra, tanqidiy fikrlash tahlil, interpretatsiya, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi kognitiv ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi [8]. D. Halpern esa tanqidiy fikrlashni maqsadga yo‘naltirilgan, nazorat qilinadigan va natijaga erishishga xizmat qiladigan fikrlash turi sifatida tavsiflaydi [9].

Maktabgacha ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi [11]. Birinchi yo‘nalish bolalarda savol berish, kuzatish, qiyoslash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, taxmin ilgari surish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq. Ikkinchi yo‘nalish esa tarbiyachining o‘z kasbiy faoliyatiga tanqidiy va refleksiv yondasha olishi, ya’ni pedagogik vaziyatni tahlil qilish, bolalar xatti-harakatlarida yashiringan ehtiyoj va qiziqishlarni aniqlash, o‘z metodik qarorlarining natijasini baholash va zarur o‘rinlarda faoliyatini qayta rejalashtirish qobiliyatini anglatadi. Mazkur maqola aynan ikkinchi yo‘nalish – tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga qaratiladi.

Reggio Emilia yondashuvi nazariy jihatdan Loris Malaguzzi g‘oyalari bilan bog‘liq [14]. Mazkur yondashuv bolani passiv qabul qiluvchi emas, balki dunyoni faol anglaydigan, o‘z fikri va tajribasiga ega bo‘lgan shaxs sifatida ko‘radi. Malaguzzining “bolaning yuz tili” haqidagi g‘oyasi bolalar o‘z fikrini faqat nutq orqali emas, balki rasm, harakat, qurish, musiqa, loy, yorug‘lik, suv, dramatizatsiya va boshqa ifoda shakllari orqali ham namoyon etishini ta’kidlaydi [3]. Shuning uchun Reggio Emilia amaliyotida pedagogning vazifasi bolaga tayyor javobni berish emas, balki uning fikrlash jarayonini kuzatish, qo‘llab-quvvatlash va chuqurlashtirishdan iborat.

Reggio Emilia yondashuvida rivojlantiruvchi muhit alohida ahamiyatga ega [5]. Adabiyotlarda bu muhit ko‘pincha “uchinchi pedagog” sifatida talqin qilinadi. Birinchi pedagog ota-ona, ikkinchi pedagog tarbiyachi bo‘lsa, uchinchi pedagog sifatida ta’lim muhiti bolalarning izlanish, muloqot va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi [4]. Bunday muhit ochiq materiallar, estetik tartib, bolalar ishlarining ko‘rinadigan tarzda joylashtirilishi, markazlararo bog‘liqlik, tabiiy va sun’iy materiallardan erkin foydalanish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Muhitni shunchaki bezatish emas, balki bolalarning savollari va loyiha faoliyatiga mos ravishda mazmunan o‘zgartirish tarbiyachidan tahliliy qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Hujjatlashtirish Reggio Emilia yondashuvining muhim tamoyillaridan biridir [12]. Pedagog bolalarning savollari, suhbatlari, chizmalari, qurilmalari, tajribalari va o‘zaro muloqotini kuzatadi, qayd etadi, fotosuratlar, audioyozuvlar, bolalar ishlari va qisqa izohlar orqali pedagogik materialga aylantiradi. Hujjatlashtirish nazorat uchun emas, balki bolalarning fikrlash yo‘lini ko‘rish, ota-onalar bilan muloqot qilish, keyingi faoliyatni rejalashtirish va pedagogning o‘z amaliyotini tahlil qilishi uchun xizmat qiladi [4]. Demak, hujjatlashtirishning mazmunli bo‘lishi bevosita tarbiyachining tanqidiy fikrlash darajasiga bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Reggio Emilia yondashuvi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarda bolalar ijodkorligi, loyiha faoliyati, muhit, ota-onalar bilan hamkorlik va o‘yin orqali o‘rganish masalalari keng yoritilgan[13]. Biroq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda tarbiyachining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish masalasi nisbatan kam o‘rganilgan. Shu jihatdan mazkur mavzu ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tarbiyachilarni kasbiy rivojlantirish tizimi uchun pedagogik va metodik yechimlar ishlab chiqishni talab etadi. Reggio Emilia yondashuvi tamoyillari bilan tarbiyachining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari o‘rtasidagi nazariy-metodik bog‘liqlik 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

Reggio Emilia tamoyillari va tarbiyachining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Reggio Emilia tamoyili	Tarbiyachi faoliyatidagi ifodasi	Zarur tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi
Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim	Bolaning qiziqishi, savoli va tashabbusini faoliyat mazmuniga aylantirish	Kuzatuv natijalarini tahlil qilish va pedagogik qarorni asoslash

Reggio Emilia tamoyili	Tarbiyachi faoliyatidagi ifodasi	Zarur tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi
Muhit – uchinchi tarbiyachi	Rivojlantiruvchi markazlar, ochiq materiallar va estetik muhitni maqsadli tashkil etish	Mavjud muhitning ta’sirini baholash va muqobil yechim tanlash
Hujjatlashtirish	Bolalar fikrlashi, muloqoti va ijodiy mahsulotlarini qayd etish	Dalillarga tayanish, fakt va taxminni farqlash
Hamkorlik va dialog	Bola, ota-ona va hamkasblar bilan muloqotda birgalikda izlanish	Turli nuqtai nazarlarni solishtirish va muloqot asosida xulosa chiqarish
Refleksiya	O‘z pedagogik amaliyotini muntazam tahlil qilish	O‘z faoliyatini baholash, kamchilikni aniqlash va takomillashtirish

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Navoiy viloyatidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 70 nafar tarbiyachi ishtirokida tashkil etildi. Respondentlarning 35 nafari tajriba guruhiga, 35 nafari nazorat guruhiga ajratildi. Tadqiqot aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy diagnostika bosqichlaridan iborat bo‘ldi. Aniqlovchi bosqichda tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash haqidagi tasavvurlari, ochiq savollardan foydalanish malakasi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiya yuritish ko‘nikmalari o‘rganildi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi bilan maxsus metodik mashg‘ulotlar, pedagogik keyslar, refleksiv muhokamalar va hujjatlashtirish bo‘yicha amaliy topshiriqlar o‘tkazildi. Yakuniy bosqichda dastlabki va yakuniy natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa va so‘rovnoma, suhbat, pedagogik vaziyatlarni yechish, ochiq savollarni loyihalash, hujjatlashtirish namunalarini tahlil qilish, tajriba-sinov va matematik-statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Baholash jarayonida respondentlarning faqat nazariy bilimi emas, balki amaliy faoliyatdagi qaror qabul qilish uslubi ham inobatga olindi. Chunki tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi faqat ta’rifni bilish bilan cheklanmaydi, u pedagogik vaziyatda aniq dalilga tayanish, bolaning fikrini eshitish, muqobil yechimlarni ko‘ra olish va o‘z qarorini izohlashda namoyon bo‘ladi.

Tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholashda besh mezon belgilandi: pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati, refleksiv faoliyatni amalga oshirish darajasi, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, bolalarni fikrlashga undovchi ochiq savollarni qo‘llash va pedagogik kuzatuv hamda hujjatlashtirish kompetensiyasi. Har bir mezon yuqori, o‘rta va past darajalarda tavsiflandi (*2-jadval)*. Yuqori darajada tarbiyachi muammoni aniqlaydi, fakt va taxminni ajratadi, bolalar fikrini tinglaydi, pedagogik qarorini asoslaydi va natijani refleksiv baholaydi. O‘rta darajada ayrim elementlar mavjud bo‘lsa-da, tizimlilik yetarli bo‘lmaydi. Past darajada esa tarbiyachi ko‘proq tayyor javob berish, nazorat qilish va biryoqlama baholashga moyillik bildiradi.

Shakllantiruvchi pedagogik ta’sir mazmuni. Reggio Emilia yondashuvi sharoitida tarbiyachining tanqidiy fikrlashi, avvalo, bolaga nisbatan pedagogik qarashning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Bola “bilim berilishi kerak bo‘lgan obyekt” emas, balki savol beradigan, tajriba o‘tkazadigan, o‘z fikrini turli shakllarda ifodalaydigan faol subyekt sifatida qaraladi. Tarbiyachi bolalarning har bir g‘oyasini tayyor javob bilan to‘xtatib qo‘ymasdan, uni yangi savol, yangi material, yangi hamkorlik vaziyati bilan boyitishi lozim. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash pedagogning ichki kasbiy nazorat mexanizmi vazifasini bajaradi: “Men bolaga javob berdimmi yoki uni o‘ylashga undadimmi?”, “Ushbu muhit bolalar izlanishini qo‘llab-quvvatlayaptimi?”, “Kuzatuvlarim keyingi rejamga qanday ta’sir qiladi?” kabi savollar tarbiyachining refleksiv faoliyatini kuchaytiradi.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish uchun tarbiyachilar bilan olib boriladigan metodik ishlar real amaliy vaziyatlarga yaqin bo‘lishi zarur. Masalan, “Bola qurilish markazida ko‘prik quryapti, lekin qurilma qayta-qayta qulab tushmoqda” degan vaziyatda an’anaviy yondashuvda tarbiyachi bolaga to‘g‘ri usulni ko‘rsatib beradi. Reggio Emilia ruhidagi tanqidiy yondashuvda esa tarbiyachi: “Seningcha, ko‘prik nima uchun qulab tushdi?”, “Qaysi qism mustahkamroq bo‘lishi kerak?”, “Boshqa materialni sinab ko‘rsak nima bo‘ladi?” kabi savollar bilan bolaning fikrlashini faollashtiradi. Bunday vaziyatlarda tarbiyachi ham kuzatuvchi, ham savol beruvchi, ham birgalikda izlanayotgan hamkor sifatida harakat qiladi.

2-jadval.

Tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash mezonlari

Mezon	Yuqori daraja belgisi	O‘rta daraja belgisi	Past daraja belgisi
Pedagogik vaziyatni tahlil qilish	Vaziyat sabablarini aniqlaydi, bir nechta yechimni solishtiradi va eng maqbul pedagogik qarorni asoslaydi.	Vaziyatni umumiy tahlil qiladi, ayrim sabablarni ko‘rsatadi, biroq yechimlarni solishtirishda izchillik yetarli emas.	Vaziyatni faqat tashqi belgilar orqali baholaydi, sabab va oqibatlarni chuqur tahlil qilmaydi.
Refleksiv faoliyat	O‘z faoliyati natijasini tahlil qilib, keyingi pedagogik qadamlarni aniq belgilaydi.	O‘z faoliyatini qisman tahlil qiladi, ayrim kamchiliklarni ko‘rsatadi, biroq takomillashtirish yo‘llarini to‘liq asoslay olmaydi.	Faoliyat natijasini tasodifiy baholaydi yoki umuman tahlil qilmaydi.
Dalillarga asoslangan qaror	Kuzatuv, suhbat va hujjatlashtirish natijalari asosida xulosa chiqaradi.	Qaror qabul qilishda ayrim dalillarga tayanadi, biroq shaxsiy taxmin va odatiy yondashuv ta’siri saqlanib qoladi.	Shaxsiy taxmin yoki odatdagi usulga tayanadi, dalillardan yetarli foydalanmaydi.
Ochiq savollarni qo‘llash	Bolani izohlash, dalillash, taxmin qilish va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.	Ochiq savollardan foydalanadi, biroq ular doim ham bolaning chuqur fikrlashini rag‘batlantirmaydi.	Asosan “ha/yo‘q” tarzidagi yopiq savollar bilan cheklanadi.
Hujjatlashtirish	Bolalar fikrlash jarayonini qayd etib, undan keyingi faoliyatni rejalashtirishda foydalanadi.	Bolalar faoliyatini qayd etadi, ammo hujjatlashtirish natijalaridan rejalashtirishda qisman foydalanadi.	Faqat natijani rasmiy qayd etadi, jarayonni tahlil qilmaydi.

Ochiq savollar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim vositalaridan biridir. Yopiq savollar qisqa javobni talab qiladi va ko‘pincha bolaning xotirasini tekshiradi. Ochiq savollar esa izohlash, qiyoslash, taxmin qilish, dalillash va xulosa chiqarishga undaydi. Masalan, “Ayiq qayerda yashaydi?” savoli o‘rniga “Nima uchun ayiq o‘rmon sharoitida yashashga moslashgan deb o‘ylaysan?” savoli bolaning sabab-oqibatni tushunishiga yordam beradi. Shunga o‘xshash tarzda, tarbiyachilar ham o‘z amaliyotida “Bu mashg‘ulot yaxshi o‘tdimi?” degan umumiy savol bilan cheklanmasdan, “Qaysi savol bolalarni ko‘proq fikrlashga undadi?”, “Qaysi material bolalar muloqotini kuchaytirdi?”, “Qaysi bolalar faol ishtirok etmadi va buning sababi nimada?” kabi refleksiv savollarni muntazam qo‘llashi zarur.

Hujjatlashtirish amaliyoti tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Tarbiyachi bolalarning faoliyat jarayonida aytgan fikrlari, chizgan rasmlari, qurgan obyektlari, savollari va tengdoshlari bilan muloqotini qayd etar ekan, u shunchaki ma’lumot to‘plamaydi. U mazkur ma’lumotni talqin qiladi, bolalarning qiziqishini aniqlaydi, rivojlanish dinamikasini kuzatadi va keyingi pedagogik vazifalarni belgilaydi. Shu ma’noda hujjatlashtirish tanqidiy fikrlashning dalillarga tayanish, turli manbalarni solishtirish va xulosani asoslash kabi komponentlarini amaliyotga olib kiradi.

Tahlil va natijalar. Aniqlovchi bosqichda respondentlarga “Tanqidiy fikrlash nima?”, “Tarbiyachi tanqidiy fikrlashi bolalar faoliyatiga qanday ta’sir qiladi?”, “Reggio Emilia yondashuvida tarbiyachining vazifasi nimadan iborat?” kabi ochiq savollar berildi. Javoblar tahlili tarbiyachilarning muayyan qismida tanqidiy fikrlash tushunchasi mazmuni to‘g‘risida yetarli tasavvur shakllanmaganini ko‘rsatdi. Ayrim respondentlar tanqidiy fikrlashni “kamchilik topish”, “insonlarni tanqid qilish” yoki “salbiy baho berish” bilan bog‘lagan. Bu holat tanqidiy fikrlashning ilmiy mohiyatini tushuntirish, uni pedagogik tahlil, refleksiya va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Kuzatuvlar davomida ko‘pchilik tarbiyachilar bolalarning savollariga tezda tayyor javob berishga, faoliyatni oldindan belgilangan reja asosida yakunlashga va savol-javob jarayonida yopiq savollardan foydalanishga moyil ekanligi aniqlandi. Masalan, “Nechta fasl bor?”, “Mevalar daraxtda pishadimi?”, “Quyon sabzi yeydimi?” kabi savollar bolalarning eslab qolgan ma’lumotini tekshiradi, biroq ularni sababni izlash, taxmin qilish yoki muqobil fikr bildirishga yetarli darajada undamaydi. Reggio Emilia yondashuvi esa savollarni bolalarning qiziqishi, kuzatuvi va izlanishiga yo‘naltirishni talab etadi.

Tajriba-sinov ishlarida olingan boshlang‘ich va yakuniy diagnostika natijalari hamda ular o‘rtasidagi o‘zgarishlar quyidagi 3-jadvalda umumlashtirilgan holda keltirildi. 3-jadval ma’lumotlari tajriba guruhi tarbiyachilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Jumladan, tajriba guruhida yuqori daraja 17,1 foizdan 54,3 foizga oshib, umumiy o‘sish +37,2 foizni tashkil etdi. Past daraja esa 40,0 foizdan 8,6 foizga kamayib, –31,4 foizlik ijobiy o‘zgarish qayd etildi.

3-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasi (%)

Daraja	Tajriba guruhi boshlang‘ich holat	Tajriba guruhi yakuniy holat	Tajriba guruhidagi o‘zgarish	Nazorat guruhi boshlang‘ich holat	Nazorat guruhi yakuniy holat	Nazorat guruhidagi o‘zgarish
Yuqori	17,1	54,3	+37,2	20,0	25,7	+5,7
O‘rta	42,9	37,1	–5,8	40,0	48,6	+8,6
Past	40,0	8,6	–31,4	40,0	25,7	–14,3

Nazorat guruhida ham ma’lum siljish kuzatilgan bo‘lsa-da, yuqori darajadagi o‘sish atigi +5,7 foizni tashkil etdi. Bu holat tajriba guruhida qo‘llangan maxsus treninglar, pedagogik keyslar, ochiq savollar, refleksiv kundaliklar va hujjatlashtirish amaliyoti tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lganini tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov ishlari asosida tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlar mexanizmi ishlab chiqildi *(1-rasm).*

1-rasm. Tarbiyachilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlar mexanizmi

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi bilan to‘rt yo‘nalishda ish olib borildi. Birinchi yo‘nalish tanqidiy fikrlashning mazmuni va tarkibiy qismlarini tushuntirishga qaratildi. Ikkinchi yo‘nalishda tarbiyachilar pedagogik keyslarni tahlil qildilar va har bir vaziyat uchun bir nechta yechim variantini ishlab chiqdilar. Uchinchi yo‘nalishda ochiq savollar tuzish, bolalarning taxminlarini qo‘llab-quvvatlash va dialogni davom ettirish bo‘yicha amaliy mashqlar bajarildi. To‘rtinchi yo‘nalishda pedagogik hujjatlashtirish, refleksiv kundalik yuritish va kuzatuv natijalarini keyingi rejalashtirishda qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy metodik ishlar davom ettirildi.

Tadqiqot natijalarining sifat jihatidan tahlili ham muhim xulosalarni beradi. Tajriba guruhi tarbiyachilari mashg‘ulotdan keyingi refleksiv muhokamalarda bolalarning faqat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblarini emas, balki fikrlash yo‘lini ko‘rishga harakat qildilar. Masalan, bolalarning qurish markazidagi faoliyati tahlil qilinganda, tarbiyachilar “qaysi bola chiroyli qurdi?” degan bahodan ko‘ra, “bolalar qaysi muammoni hal qilishga urindilar?”, “ular bir-biri bilan qanday kelishdilar?”, “qaysi material yangi savol tug‘dirdi?” kabi savollarga e’tibor qaratdilar. Bu holat Reggio Emilia yondashuvidagi pedagogik kuzatuv va hujjatlashtirish madaniyatiga mos keladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari Reggio Emilia yondashuvini maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotiga samarali joriy etish tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv tarbiyachidan an’anaviy bilim beruvchi pozitsiyasidan voz kechib, bolalarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi fasilitator, kuzatuvchi, hujjatlashtiruvchi, hamkor va refleksiv amaliyotchi sifatida faoliyat yuritishni talab etadi. Bunday kasbiy rolni bajarish pedagogik vaziyatni tahlil qilish, bolalar qiziqishini aniqlash, muqobil yechimlarni baholash, ochiq savollar orqali fikrlashni rag‘batlantirish va asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalariga tayanadi.

Aniqlovchi bosqich natijalari ayrim tarbiyachilar tanqidiy fikrlashni salbiy baholash yoki kamchilik topish bilan tenglashtirishini ko‘rsatdi. Bu holat maktabgacha ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashning pedagogik mohiyatini kengroq tushuntirish, uni refleksiya, tahlil, hujjatlashtirish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish bilan bog‘lash zarurligini tasdiqlaydi. Shakllantiruvchi bosqichda qo‘llangan treninglar, pedagogik keyslar, ochiq savollar, refleksiv kundalik va hujjatlashtirish amaliyoti tajriba guruhi tarbiyachilarida yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarning sezilarli ortishiga olib keldi.

Reggio Emilia yondashuvi bolalarning mustaqil izlanishi, ijodkorligi va o‘z fikrini turli shakllarda ifodalashini qo‘llab-quvvatlaydi. Ammo bu jarayon tarbiyachi tomonidan chuqur pedagogik kuzatuv, sinchkov tahlil va moslashuvchan rejalashtirishni talab etadi. Agar tarbiyachi ochiq savol berish, bolalarning taxminlarini tinglash, muhitni qiziqishlarga mos ravishda o‘zgartirish va hujjatlashtirish natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lmasa, yondashuvning mazmuni yuzaki shaklda qolib ketishi mumkin. Shu sababli tarbiyachilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish Redjio Emilia yondashuvini joriy etishning zarur pedagogik sharti sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy-metodik takliflar ilgari suriladi:

1. Tarbiyachilar malakasini oshirish dasturlariga tanqidiy fikrlash va Reggio Emilia yondashuvi integratsiyasiga oid maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq.

2. Tarbiyachilar uchun pedagogik keyslar bankini ishlab chiqish zarur. Keyslar bolalar o‘rtasidagi muloqot, rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyat, ota-onalar bilan hamkorlik, muhitni tashkil etish, o‘yin jarayonida yuzaga keladigan muammolar va hujjatlashtirish vaziyatlarini qamrab olishi kerak.

3. Ochiq savollar metodikasini muntazam mashq qilish zarur. Tarbiyachilar yopiq savollarni ochiq savollarga aylantirish, bolalarning taxminlarini qo‘llab-quvvatlash, dialogni davom ettirish va bolani o‘z fikrini asoslashga undash bo‘yicha amaliy topshiriqlar bajarishlari kerak.

4. Pedagogik hujjatlashtirishni rasmiy hisobot shaklida emas, balki pedagogik tahlil vositasi sifatida yo‘lga qo‘yish lozim. Hujjatlashtirish materiallari metodik birlashmalarda muhokama qilinsa, tarbiyachilar o‘zaro tajriba almashadi, turli nuqtai nazarlarni solishtiradi va kasbiy refleksiya rivojlanadi.

5. Maktabgacha ta’lim tashkilotida refleksiv muhit yaratish muhim.Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, direktor o‘rinbosari va tarbiyachilar o‘rtasida ochiq muloqot, xatodan o‘rganish madaniyati, tajriba almashish hamda birgalikda tahlil qilish amaliyoti shakllantirilsa, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari barqaror rivojlanadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil izlanish kompetensiyalarini shakllantirish, avvalo, tarbiyachining o‘zida tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Reggio Emilia yondashuvi bu jarayonda samarali pedagogik imkoniyatlar yaratadi, chunki u bolani tinglash, muhitni maqsadli tashkil etish, hujjatlashtirish, hamkorlik va refleksiyani pedagogik faoliyat markaziga olib chiqadi. Shu bois mazkur yondashuv asosida tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/-8037353
2. Risyukova Y, Pardayeva M, Sangirova Z, Mo‘minov S, Matkarimova S.“Reggio pedagogikasi: kreativlikni rivojlantirishning samarali yo‘li” uslubiy tavsiya O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi.Toshkent–2025.76bet. https://raqamlitalim.trm.uz/uploads/metodic_guide_pdf_file/1750308254.pdf
3. Reggio Children. The Reggio Emilia Approach® // Reggio Children official website. – URL: https://www.reggiochildren.it/en/reggio-emilia-approach/
4. Edwards C., Gandini L., Forman G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation. 3rd ed. – Santa Barbara: Praeger, 2012. – URL: https://www.reggiochildren.it/en/rc/publishing/books-and-audiovisuals/the-hundred-languages-of-children-transformation/
5. Rinaldi C. In Dialogue with Reggio Emilia: Listening, Researching and Learning. – London: Routledge, 2006. – URL: https://www.routledge.com/In-Dialogue-with-Reggio-Emilia-Listening-Researching-and-Learning/Rinaldi/p/book/9780367427047
6. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1910. – URL: https://archive.org/details/howwethink00dewe
7. Ennis R.H. A Logical Basis for Measuring Critical Thinking Skills // Educational Leadership. – 1985. – Vol. 43(2). – P. 44–48. – URL: https://www.ascd.org/el/articles/a-logical-basis-for-measuring-critical-thinking-skills
8. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. – Millbrae: The California Academic Press, 1990. – URL: https://eric.ed.gov/?id=ED315423
9. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014. – URL: https://www.routledge.com/Thought-and-Knowledge-An-Introduction-to-Critical-Thinking/Halpern-Dunn/p/book/9781138655171
10. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Boston: Pearson, 2014. – URL: https://books.google.com/books/about/Critical_Thinking.html?id=MXZPEAAAQBAJ
11. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – URL: https://www.hup.harvard.edu/books/9780674576292
12. Gandini L. Values and Principles of the Reggio Emilia Approach // Insights and Inspirations from Reggio Emilia. – Davis Publications. – URL: https://learningmaterialswork.com/wp-content/uploads/2016/06/ValuesAndPrinciples.pdf
13. https://evokeearlylearning.com.au/12-principles-of-the-reggio-emiliaeducational-approach/
14. Malaguzzi, L. The Reggio Emilia approach: A theory for living. 2024. https://www.reggiochildren.it/en/reggio-emilia-approach/loris-malaguzzi/
15. Adizova N.Q. Fan va ta’lim integratsiyasi // Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning nazariy va pedagogik asoslari. – 2026. - №1. – B.81-86. https://journals.samdpi.uz/media/journals/2026.1-son_4.pdf

PSIXOLOGIK FAROVONLIK VA HAYOT MAZMUNINING ONKOLOGIK KASALLIKLARGA CHALINGAN BEMORLAR HAYOT SIFATIGA TA’SIRI

Niyazova Nilufar Farxadovna,
Ma’mun universiteti Psixologiya, tibbiyot va sport kafedrasi dotsenti v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
niyazova_nilufar@mamunedu.uz
Orcid: 0009-0007-7731-0890

Ushbu maqolada onkologik kasalliklarga chalingan bemorlar hayot sifatini belgilovchi muhim psixologik omillar – psixologik farovonlik va hayot mazmunining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda psixologik farovonlikning emotsional barqarorlik, ijobiy o‘zini baholash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qabul qilish hamda stressni samarali boshqarish bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan. Shuningdek, hayot mazmunini anglashning bemorlarning ruhiy moslashuvi, davolanishga motivatsiyasi, kasallikni qabul qilishi va umumiy hayot sifatini oshirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Maqolada zamonaviy psixoonkologiya yondashuvlari asosida psixologik farovonlikni rivojlantirish va hayot mazmunini mustahkamlashga qaratilgan psixokorreksion texnologiyalarni qo‘llash zarurati asoslab berilgan. Olingan ilmiy xulosalar klinik psixologiya va psixoonkologiya amaliyotida bemorlarning hayot sifatini yaxshilash bo‘yicha kompleks psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *onkologik bemorlar, psixologik farovonlik, hayot mazmuni, hayot sifati, psixoonkologiya, psixologik moslashuv, emotsional holat, stressga bardoshlilik, psixologik reabilitatsiya, psixokorreksiya.*

ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ И СМЫСЛА ЖИЗНИ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ С ОНКОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

В статье рассматривается влияние психологического благополучия и осмысленности жизни на качество жизни пациентов с онкологическими заболеваниями. Проанализированы современные научные представления о роли эмоциональной устойчивости, позитивного самовосприятия, социальной поддержки и психологической адаптации в процессе лечения и реабилитации. Особое внимание уделено значению жизненных смыслов как важного внутреннего ресурса, способствующего повышению мотивации к лечению, принятию заболевания и сохранению психологического равновесия. На основе современных подходов психоонкологии обоснована необходимость внедрения психокоррекционных технологий, направленных на развитие психологического благополучия и укрепление смысложизненных ориентаций. Полученные выводы могут быть использованы при разработке программ психологического сопровождения и реабилитации онкологических пациентов.

Ключевые слова: *онкологические пациенты, психологическое благополучие, смысл жизни, качество жизни, психоонкология, психологическая адаптация, эмоциональное состояние, стрессоустойчивость, психологическая реабилитация, психокоррекция.*

THE IMPACT OF PSYCHOLOGICAL WELL-BEING AND MEANING IN LIFE ON THE QUALITY OF LIFE OF PATIENTS WITH ONCOLOGICAL DISEASES

This article examines the influence of psychological well-being and meaning in life on the quality of life of patients with oncological diseases. The study analyzes the role of emotional stability, positive self-perception, social support, and psychological adaptation in improving patients’ overall well-being during treatment and rehabilitation. Particular attention is paid to meaning in life as an important psychological resource that enhances treatment motivation, facilitates disease acceptance, and strengthens emotional resilience. Based on contemporary psycho-oncology approaches, the article substantiates the importance of psychocorrective interventions aimed at promoting psychological well-being and reinforcing life meaning among cancer patients. The findings contribute to the theoretical understanding and practical development of comprehensive psychological rehabilitation programs designed to improve the quality of life of oncology patients.

Key words: *oncology patients, psychological well-being, meaning in life, quality of life, psycho-oncology, psychological adaptation, emotional well-being, resilience, psychological rehabilitation, psychocorrection.*

Kirish. Onkologik kasalliklar bugungi kunda dunyo sog‘liqni saqlash tizimining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Tibbiyot sohasidagi zamonaviy diagnostika va davolash usullarining rivojlanishi natijasida saraton kasalligi bilan yashayotgan bemorlarning umr ko‘rish davomiyligi ortib bormoqda. Shu bilan birga, davolanishning uzoq davom etishi, kasallikning qaytalanish xavfi, jismoniy og‘riq, funksional cheklanishlar hamda ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bemorlarning ruhiy holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun zamonaviy psixoonkologiya nafaqat kasallikni davolash samaradorligini, balki bemorning psixologik farovonligi, hayot mazmunini saqlab qolishi va umumiy hayot sifatini yaxshilashni ham asosiy maqsadlardan biri sifatida e’tirof etadi.

An’anaviy tibbiy yondashuvlarda onkologik kasalliklarning biologik jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lsa, biopsixosotsial modelning rivojlanishi natijasida inson salomatligi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning uzviy birligi sifatida talqin qilina boshlandi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, bemorning sog‘ayish jarayoni faqat klinik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki uning emotsional holati, shaxsiy resurslari, hayotga munosabati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi hamda hayotdan ma’no topa olish qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, hayot uchun xavf tug‘diruvchi tashxis qo‘yilgan bemorlarda psixologik omillarning ahamiyati yanada ortadi.

Onkologik tashxis ko‘pchilik bemorlar uchun kuchli psixologik inqiroz vaziyatini yuzaga keltiradi. Kasallik aniqlangan dastlabki davrda qo‘rquv, xavotir, tushkunlik, umidsizlik, o‘limdan xavfsirash, kelajakka nisbatan noaniqlik kabi salbiy hissiy kechinmalar kuzatiladi. Ayrim hollarda bemorlar o‘zini jamiyatdan ajratishga moyillik, ijtimoiy faollikning pasayishi, o‘z qadr-qimmatini yo‘qotish hissi hamda hayot maqsadlarining buzilishi bilan yuzlashadilar. Bunday holatlar davolanish jarayoniga rioya qilish, tibbiy tavsiyalarni bajarish va psixologik moslashuv darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

So‘nggi yillarda psixologik farovonlik tushunchasi klinik va sog‘liq psixologiyasi doirasida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Psixologik farovonlik insonning faqat salbiy emotsiyalarning yo‘qligi bilan emas, balki o‘z hayotidan qoniqish hosil qilishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ijobiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirishi, avtonom qaror qabul qilishi, shaxsiy o‘sishga intilishi va hayotiy maqsadlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Yuqori psixologik farovonlikka ega bemorlar kasallik bilan bog‘liq qiyinchiliklarni konstruktiv tarzda qabul qilishga, stressni boshqarishga hamda davolanish jarayonida faol ishtirok etishga ko‘proq moyil bo‘ladilar.

Hayot mazmuni esa insonning mavjudligini qadrlashi, kelajakka umid bilan qarashi, shaxsiy maqsadlarni anglash va ularga intilishi bilan bog‘liq murakkab psixologik konstrukt hisoblanadi. Og‘ir kasallik sharoitida hayot mazmunining saqlanib qolishi insonning ruhiy barqarorligini mustahkamlovchi muhim ichki resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Hayot mazmunini his qiluvchi bemorlar davolanish jarayonini faolroq qabul qiladi, kelajak rejalari ustida fikrlashni davom ettiradi hamda salbiy emotsional holatlarga nisbatan yuqori psixologik chidamlilikni namoyish etadi.

Ilmiy tadqiqotlar psixologik farovonlik va hayot mazmunining hayot sifati bilan kuchli ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Hayot sifati bugungi kunda bemorning faqat jismoniy salomatligi emas, balki uning emotsional, kognitiv, ijtimoiy va ma’naviy farovonligini ham o‘z ichiga oluvchi ko‘p komponentli tushuncha sifatida baholanadi. Ayniqsa, onkologik bemorlarda hayot sifati kasallikning klinik kechishi, davolashning nojo‘ya ta’sirlari, oila va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasi hamda psixologik resurslar bilan bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy psixoonkologiya yo‘nalishida bemorlarning hayot sifatini oshirish uchun psixologik maslahat, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, logoterapiya, ma’no markazli psixoterapiya, mindfulness amaliyotlari, emotsional qo‘llab-quvvatlash dasturlari va oilaviy psixologik yordam kabi kompleks yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuvlarning asosiy maqsadi bemorlarning ichki psixologik resurslarini faollashtirish, stress va xavotirni kamaytirish, hayot mazmunini tiklash hamda davolanish jarayoniga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqolaning maqsadi onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarda psixologik farovonlik va hayot mazmunining hayot sifatiga ta’sirini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilish, ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligini yoritish hamda psixologik yordam va psixokorreksion texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning hayot sifatini o‘rganish zamonaviy psixologiya, tibbiyot va psixoonkologiya fanlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda bemorlarning jismoniy holati bilan bir qatorda

ularning psixologik farovonligi, hayot mazmuni, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasini baholashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar hayot sifati ko‘rsatkichlari faqat klinik natijalar bilan emas, balki shaxsning ichki psixologik resurslari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish darajasi bilan ham belgilanishini ta’kidlaydilar [1; 2].

Psixologik farovonlik nazariyasining ilmiy asoslari K. Ryff tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p o‘lchovli modelda keng yoritilgan. Mazkur modelga ko‘ra psixologik farovonlik o‘zini qabul qilish, boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirish, avtonomlik, hayotni boshqarish, shaxsiy rivojlanish hamda hayotiy maqsadlarning mavjudligi kabi tarkibiy qismlardan iborat hisoblanadi. Tadqiqotlarda ushbu komponentlarning yuqori darajada rivojlanganligi surunkali kasalliklar, jumladan, onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarda stressni samarali boshqarish, emotsional muvozanatni saqlash hamda hayot sifatini oshirish bilan uzviy bog‘liqligi qayd etilgan [3].

Klinik psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, saraton tashxisi bemor hayotida kuchli psixologik inqiroz holatini yuzaga keltiradi. Kasallik aniqlangan ilk bosqichlarda xavotir, depressiv simptomlar, kelajakdan qo‘rquv, ijtimoiy yakkalanish va umidsizlik hissining kuchayishi kuzatiladi. Ushbu psixologik holatlar davolanishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishiga, davolash jarayoniga rioya qilish darajasining kamayishiga hamda umumiy hayot sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli psixologik yordamni davolashning ajralmas qismi sifatida tashkil etish zarurligi ko‘plab ilmiy ishlarda ta’kidlangan [4; 5].

Hayot mazmuni konsepsiyasi V. Frankl tomonidan ishlab chiqilgan logoterapiya nazariyasida chuqur asoslangan. Olimning fikricha, inson eng og‘ir hayotiy vaziyatlarda ham mavjudligining ma’nosini anglay olsa, u ruhiy barqarorligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, og‘ir somatik kasalliklar bilan kurashayotgan bemorlarda hayot mazmunining mavjudligi stressga chidamlilikni oshiruvchi, depressiv holatlarni kamaytiruvchi hamda davolanishga nisbatan faol pozitsiyani shakllantiruvchi muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi [6].

P. T. P. Wong tomonidan ishlab chiqilgan “Meaning-Centered” yondashuv ham insonning hayot mazmuni va psixologik salomatligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxsning o‘z hayotidan ma’no topishi emotsional barqarorlikni kuchaytiradi, umid hissini saqlaydi hamda murakkab hayotiy vaziyatlarga konstruktiv moslashishga yordam beradi. Onkologik bemorlarda mazkur yondashuv asosida olib borilgan psixoterapevtik dasturlar xavotir va depressiya darajasini kamaytirish, hayotdan qoniqish hissini oshirish hamda psixologik farovonlikni mustahkamlashda samarali ekanligi isbotlangan [7].

S. C. Segerstrom va hamkorlarining tadqiqotlari optimizm, umid va psixologik resurslarning immun tizimi faoliyatiga bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Garchi psixologik omillar saraton kasalligini bevosita davolamasa-da, ular bemorning davolanish jarayonidagi faolligi, reabilitatsiyaga moslashuvi va subyektiv hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynashi aniqlangan [8].

A. Antonovskiyning salutogenez nazariyasi ham ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Olim tomonidan ilgari surilgan “Sense of Coherence” konsepsiyasi insonning hayotdagi voqealarni tushunishi, boshqara olishi va ularni mazmunli deb qabul qilishi salomatlikni saqlashning asosiy psixologik omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Onkologik bemorlarda mazkur ko‘rsatkich yuqori bo‘lsa, ular kasallikka nisbatan moslashuvchanroq munosabat bildirishi, davolanishni faol qabul qilishi va hayot sifati yuqoriroq bo‘lishi kuzatilgan [9].

Psixoonkologiya sohasida J. C. Holland tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar psixologik yordamni onkologik davolashning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash zarurligini ilmiy asoslab berdi. Muallifning fikricha, saraton kasalligini davolashda faqat biologik davolash usullariga tayanish yetarli emas. Psixologik diagnostika, individual maslahat, oilaviy konsultatsiyalar va psixoterapevtik dasturlar bemorlarning emotsional holatini yaxshilaydi, stress darajasini pasaytiradi hamda hayot sifatining oshishiga xizmat qiladi [10].

M. Breitbart va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan Meaning-Centered Psychotherapy (MCP) dasturi onkologik bemorlarda hayot mazmunini mustahkamlashga qaratilgan eng samarali psixoterapevtik yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Klinik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ushbu dastur qo‘llanilgan bemorlarda ruhiy tushkunlik va ekzistensial tashvishlarning kamayishi, psixologik farovonlik hamda hayotdan qoniqish darajasining sezilarli oshishi kuzatilgan [11].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda hayot sifatini baholash uchun EORTC QLQ-C30, FACT-G va SF-36 kabi xalqaro standart diagnostik metodikalardan keng foydalanilmoqda. Ushbu metodikalar bemorning jismoniy, emotsional, ijtimoiy va funksional holatini kompleks baholash imkonini beradi. Natijalar psixologik farovonlik va hayot mazmunining yuqori ko‘rsatkichlari hayot sifati indekslari bilan barqaror ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligini ko‘rsatmoqda [12; 13].

Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, onkologik bemorlarning hayot sifatini oshirishda faqat tibbiy davolash bilan cheklanib qolish yetarli emas. Psixologik farovonlikni rivojlantirish, hayot mazmunini mustahkamlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda zamonaviy psixokorreksion texnologiyalarni davolash tizimiga integratsiya qilish kompleks reabilitatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois psixologik omillarning hayot sifatiga ta’sirini chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda [14; 15].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning psixologik farovonligi va hayot mazmunining ularning hayot sifatiga ta’sirini empirik jihatdan o‘rganishga qaratildi. Tadqiqotni tashkil etishda klinik psixologiya, sog‘liq psixologiyasi va psixoonkologiya fanlarida qo‘llaniladigan kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini biopsixosotsial model, pozitiv psixologiya konsepsiyasi hamda shaxsning psixologik resurslarini rivojlantirishga asoslangan nazariy qarashlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar onkologik kasalliklarning inson hayotiga ta’sirini faqat biologik omillar bilan emas, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham izohlash imkonini beradi.

Tadqiqot tavsiflovchi va korrelyatsion dizayn asosida olib borildi. Tadqiqotda onkologik kasallik tashxisi qo‘yilgan va ambulator hamda statsionar davolanish bosqichida bo‘lgan 72 nafar bemor ixtiyoriy ravishda ishtirok etdi. Ishtirokchilar tadqiqotning maqsadi bilan tanishtirildi hamda ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi to‘liq ta’minlandi. Tadqiqot davomida bioetik tamoyillar, xususan ixtiyoriy ishtirok etish, xabardor qilingan rozilik va anonimlik talablariga qat’iy rioya qilindi.

Respondentlarning yoshi 25 yoshdan 68 yoshgacha bo‘lib, ularning turli yosh, jins va kasallik bosqichlarida bo‘lishi tadqiqot natijalarining nisbatan obyektivligini ta’minlashga xizmat qildi. Tadqiqotda ishtirok etgan bemorlarning barchasi ongli ravishda savollarga javob bera olish imkoniyatiga ega bo‘lgan hamda psixologik diagnostika jarayonida faol ishtirok etgan.

Empirik tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

- Psixologik farovonlikni baholash uchun K. Ryffning **Psychological Well-Being Scale** metodikasi;
- Hayot mazmunini aniqlash uchun M. Steger tomonidan ishlab chiqilgan **Meaning in Life Questionnaire (MLQ)**;
- Hayot sifatini baholash uchun onkologik bemorlarda keng qo‘llaniladigan **EORTC QLQ-C30** so‘rovnomasi.

Mazkur metodikalar psixologik farovonlik, hayot mazmuni hamda hayot sifati ko‘rsatkichlarini kompleks baholash imkonini beradi. Tadqiqot davomida olingan natijalar birlamchi statistik qayta ishlanib, keyinchalik statistik tahlil uchun elektron bazaga kiritildi.

Ma’lumotlarni statistik qayta ishlash **IBM SPSS Statistics 26.0** dasturi yordamida amalga oshirildi. Deskriptiv statistika (o‘rtacha qiymat, standart og‘ish), Pearson korrelyatsiya tahlili hamda Student t-testi usullaridan foydalanildi. Statistik ahamiyatlilik mezoni sifatida **p<0,05** darajasi qabul qilindi.

1-jadval.

Onkologik bemorlarda psixologik farovonlik, hayot mazmuni va hayot sifati ko‘rsatkichlari (n=72)

Ko‘rsatkich	O‘rtacha qiymat (M±SD)	t	p
Psixologik farovonlik	71,8±9,6	2,61	0,011
Hayot mazmuni	28,9±5,1	2,43	0,017
Hayot sifati	69,5±8,8	2,74	0,008

Jadval natijalaridan ko‘rinadiki, respondentlarda psixologik farovonlik va hayot mazmunining nisbatan yuqori darajada namoyon bo‘lishi hayot sifati ko‘rsatkichlarining ham yuqori bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Statistik tahlillar ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlar tasodifiy emasligini hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko‘rsatdi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, psixologik farovonlik bilan hayot sifati o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik ($r=0,69$; $p<0,01$), hayot mazmuni bilan hayot sifati o‘rtasida esa o‘rtacha va kuchli darajadagi musbat bog‘liqlik ($r=0,63$; $p<0,01$) aniqlandi. Shuningdek, psixologik farovonlik va hayot mazmuni o‘rtasida ham statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiya mavjudligi kuzatildi ($r=0,58$; $p<0,01$). Ushbu natijalar bemorlarning ichki psixologik resurslari kuchaygan sari ularning hayot sifati ham yaxshilanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, onkologik bemorlarda psixologik farovonlikni rivojlantirish, hayot mazmunini mustahkamlash hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini tizimli ravishda tashkil etish ularning emotsional holatini barqarorlashtirish, davolanish motivatsiyasini oshirish va umumiy hayot sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur metodologik yondashuv kelgusida psixokorreksion

dasturlar samaradorligini baholash hamda klinik amaliyotga ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqot davomida olingan empirik natijalar onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning psixologik farovonligi va hayot mazmuni ularning umumiy hayot sifati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Statistik tahlillar natijasida aniqlangan ko‘rsatkichlar psixologik omillarning nafaqat bemorlarning emotsional holatiga, balki davolanish jarayoniga munosabati, kundalik faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, psixologik farovonlik darajasi yuqori bo‘lgan bemorlarda optimistik kayfiyat, kelajakka nisbatan ijobiy qarash, o‘z imkoniyatlariga ishonch hamda davolanish jarayonida faol ishtirok etish holatlari ko‘proq kuzatildi. Bunday bemorlar kasallikni hayotning vaqtinchalik sinovi sifatida qabul qilishga, shifokor tavsiyalariga rioya etishga va sog‘lom turmush tarzini davom ettirishga ko‘proq intilishlari aniqlandi. Aksincha, psixologik farovonligi past bo‘lgan respondentlarda xavotir, tushkunlik, hissiy zo‘riqish va ijtimoiy faollikning pasayishi ko‘proq namoyon bo‘ldi. Bu esa ularning subyektiv hayot sifati ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelgan.

Hayot mazmunini anglash darajasi ham bemorlarning ruhiy moslashuv jarayonida muhim omil ekanligi kuzatildi. Tadqiqotda hayotining maqsadi va mazmunini saqlab qolgan respondentlar davolanish jarayoniga nisbatan mas’uliyatliroq yondashgani, oila a’zolari va yaqinlari bilan ijobiy munosabatlarni saqlashga intilgani hamda kelajak rejalari haqida fikr yuritishda davom etgani aniqlandi. Ular hayotidagi mavjud imkoniyatlarni qadrlash, yangi maqsadlarni shakllantirish va ruhiy muvozanatni saqlash borasida yuqoriroq natijalarni namoyon etdilar.

Statistik tahlillar psixologik farovonlik va hayot sifati o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ushbu natija shuni anglatadiki, bemorning psixologik holati yaxshilangani sari uning jismoniy faoliyati, emotsional barqarorligi, ijtimoiy munosabatlari va kundalik hayotdan qoniqish darajasi ham ortib boradi. Shu bilan birga, hayot mazmuni ko‘rsatkichining oshishi bemorlarning kasallikni qabul qilishi, stressni yengib o‘tishi va davolanish motivatsiyasining kuchayishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida respondentlar shartli ravishda psixologik farovonlik darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratilib tahlil qilindi. Yuqori darajadagi psixologik farovonlikka ega bemorlarning aksariyati hayot sifatini “yaxshi” yoki “qoniqarli” deb baholagan bo‘lsa, o‘rta darajadagi respondentlarda bu ko‘rsatkich nisbatan barqaror bo‘ldi. Psixologik farovonligi past bo‘lgan bemorlarda esa hayot sifatining barcha komponentlari, ayniqsa emotsional va ijtimoiy faoliyat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pastligi kuzatildi.

Hayot mazmunining yuqori darajada namoyon bo‘lishi bemorlarning davolanishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning psixologik himoya mexanizmlarini ham faollashtirgani aniqlandi. Bunday bemorlar murakkab vaziyatlarda muammoni inkor etish yoki undan qochish o‘rniga vaziyatni real baholash, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va yaqinlari bilan faol muloqot qilishga moyillik ko‘rsatdilar. Natijada ularning stress darajasi nisbatan past, emotsional barqarorligi esa yuqoriroq bo‘ldi.

Tahlillar shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning psixologik farovonlikni mustahkamlashdagi o‘rnini ham ko‘rsatdi. Oila a’zolari, tibbiyot xodimlari va yaqin insonlarning ruhiy yordami bemorlarda xavotirning kamayishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishi va kelajakka umid hissining kuchayishiga xizmat qilgani kuzatildi. Ayniqsa, psixologik maslahatlar, guruhli psixologik treninglar va emotsional qo‘llab-quvvatlash dasturlarida qatnashgan bemorlarning hayot sifati ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘ldi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, psixologik farovonlik va hayot mazmuni bir-birini to‘ldiruvchi psixologik resurslar hisoblanadi. Psixologik farovonlik shaxsning hissiy barqarorligini ta’minlasa, hayot mazmuni uning ichki motivatsiyasi va yashashga bo‘lgan intilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu ikki omilning uyg‘un rivojlanishi bemorning kasallik bilan bog‘liq salbiy kechinmalarini kamaytiradi, moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi va umumiy hayot sifatining oshishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida onkologik bemorlar bilan ishlash tizimida psixologik yordamni faqat inqirozli vaziyatlarda emas, balki tashxis qo‘yilgan ilk bosqichdan boshlab uzluksiz tashkil etish zarurligi aniqlandi. Psixologik farovonlikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, hayot mazmunini shakllantirishga yo‘naltirilgan psixoterapevtik mashg‘ulotlar, individual va oilaviy konsultatsiyalar hamda psixologik reabilitatsiya dasturlari bemorlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari psixologik farovonlik va hayot mazmuni onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning hayot sifatini belgilovchi asosiy psixologik omillar ekanligini tasdiqladi. Mazkur omillarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan psixokorreksion dasturlarni klinik amaliyotga joriy etish bemorlarning davolanish samaradorligini oshirish, psixologik moslashuvini yaxshilash va ularning hayot sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning hayot sifatini belgilovchi omillar orasida psixologik farovonlik va hayot mazmuni alohida o‘rin tutishini yana bir bor tasdiqladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bemorning ruhiy holati barqaror bo‘lishi, hayotga nisbatan ijobiy munosabatni saqlab qolishi va o‘z hayotining mazmunini anglay olishi uning nafaqat emotsional holatiga, balki jismoniy faolligi, ijtimoiy moslashuvi hamda davolanish jarayonidagi faolligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa onkologik kasalliklarni davolashda biologik omillar bilan bir qatorda psixologik omillarni ham kompleks ravishda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan psixologik farovonlik va hayot sifati o‘rtasidagi musbat bog‘liqlik zamonaviy psixoonkologiyada ilgari surilgan nazariy qarashlarni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Psixologik farovonlik darajasi yuqori bo‘lgan bemorlar o‘z kasalligiga nisbatan konstruktiv munosabatni shakllantirishi, davolanish jarayonida faol ishtirok etishi hamda salbiy emotsional kechinmalarni samaraliroq boshqarishi kuzatildi. Bunday holat bemorning ichki psixologik resurslari kasallik bilan bog‘liq murakkab vaziyatlarni yengishda muhim himoya omili bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Hayot mazmunining bemor hayotidagi ahamiyati ham tadqiqot natijalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Hayotining maqsadi va mazmunini saqlab qolgan respondentlarda kelajakka ishonch, yashashga intilish va davolanishga nisbatan ijobiy motivatsiya yuqoriroq bo‘ldi. Mazmunli hayot haqidagi tasavvurlar bemorlarga kasallikni shaxsiy fojia sifatida emas, balki yengib o‘tilishi mumkin bo‘lgan murakkab hayotiy sinov sifatida qabul qilish imkonini berdi. Natijada ularda ruhiy tushkunlik, umidsizlik va xavotir darajasi nisbatan pastligi kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, psixologik farovonlik va hayot mazmuni birgalikda bemorning psixologik moslashuv mexanizmlarini shakllantiradi. Psixologik farovonlik emotsional barqarorlikni ta’minlasa, hayot mazmuni shaxsning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur omillarning uyg‘un rivojlanishi bemorlarning hayotdagi faol pozitsiyasini saqlab qolishiga, kundalik faoliyatini davom ettirishiga hamda oila va jamiyat bilan ijobiy munosabatlarni mustahkamlashiga yordam beradi.

Muhokama natijalari psixologik yordam xizmatlarini onkologik davolash tizimiga yanada chuqurroq integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Amaliyotda psixologik maslahatlar ko‘pincha bemorda kuchli emotsional inqiroz yuzaga kelganidan keyin tashkil etiladi. Biroq tadqiqot natijalari psixologik yordamni kasallik tashxisi qo‘yilgan dastlabki bosqichdan boshlash samaraliroq ekanligini ko‘rsatmoqda. Dastlabki psixologik qo‘llab-quvvatlash bemorning kasallikni qabul qilishi, stressni boshqarishi va davolanish jarayoniga moslashishini sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin.

Shuningdek, psixologik reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda individual yondashuv tamoyiliga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bemorning yoshi, kasallik bosqichi, oilaviy sharoiti, shaxsiy qadriyatlari va psixologik ehtiyojlari turlicha bo‘lganligi sababli psixologik yordam dasturlari ham individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Ayniqsa, hayot mazmunini qayta shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar, emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, stressni yengish strategiyalarini o‘rgatish hamda oila a’zolarini psixologik yordam jarayoniga jalb etish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari sog‘liqni saqlash tizimi uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Onkologik markazlarda klinik psixolog shtatlarini kengaytirish, psixologik skrining tizimini joriy etish, psixologik farovonlikni muntazam monitoring qilish hamda psixologik reabilitatsiya xizmatlarini tibbiy davolash bilan uyg‘unlashtirish bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Bunday kompleks yondashuv davolanish samaradorligini oshirish, davolashga sodiqlikni kuchaytirish va bemorlarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ayrim cheklovlarga ham ega. Tadqiqot nisbatan cheklangan respondentlar sonida o‘tkazilganligi sababli natijalarni barcha onkologik bemorlar populatsiyasiga to‘liq umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bundan tashqari, tadqiqot kesim usulida tashkil etilganligi sababli psixologik farovonlik va hayot sifatidagi o‘zgarishlarning uzoq muddatli dinamikasini baholash imkoniyati cheklangan. Kelgusidagi tadqiqotlarda turli hududlardagi bemorlarni qamrab olgan uzunlamasına kuzatuvlar hamda psixokorreksion dasturlar samaradorligini eksperimental baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, muhokama natijalari psixologik farovonlik va hayot mazmuni onkologik bemorlarning hayot sifatini belgilovchi asosiy psixologik determinantlar ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu omillarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks psixologik yondashuvlar nafaqat ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi, balki bemorlarning davolanish jarayonidagi faolligini oshiradi, ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi va ularning umumiy hayot sifatini sezilarli darajada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarda psixologik farovonlik va hayot mazmunining hayot sifatiga ta’sirini nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilish imkonini berdi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bemorlarning hayot sifati faqat kasallikning klinik kechishi yoki davolash

usullarining samaradorligi bilan belgilanmaydi. Unga psixologik farovonlik, hayot mazmunini anglash, emotsional barqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va shaxsning ichki psixologik resurslari ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida psixologik farovonlik darajasi yuqori bo‘lgan bemorlarda hayot sifatining barcha tarkibiy qismlari, jumladan emotsional holat, ijtimoiy moslashuv, kundalik faoliyatni amalga oshirish imkoniyati va hayotdan qoniqish darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Mazkur holat psixologik farovonlikning insonning ruhiy salomatligini saqlash va kasallik bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yengib o‘tishdagi muhim resurs ekanligini tasdiqlaydi.

Hayot mazmunining mavjudligi bemorlarning kasallikni qabul qilishi, kelajakka ishonch bilan qarashi va davolanish jarayonida faol ishtirok etishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Hayot maqsadlarini saqlab qolgan bemorlarda umidsizlik, xavotir va depressiv holatlar kamroq uchrashi, aksincha, optimizm, yashashga intilish va psixologik moslashuv ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lishi kuzatildi. Bu esa hayot mazmunining og‘ir somatik kasallik sharoitida shaxsning psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim ichki mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.

Empirik tahlil natijalari psixologik farovonlik va hayot mazmuni o‘rtasida musbat bog‘liqlik mavjudligini, ushbu ikki omilning birgalikda hayot sifatining yaxshilanishiga xizmat qilishini tasdiqladi. Psixologik farovonlik bemorning emotsional muvozanatini saqlashga yordam bersa, hayot mazmuni uning ichki motivatsiyasi, maqsadga yo‘naltirilganligi va yashashga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi. Shu sababli mazkur omillarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq psixologik resurslar sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari asosida onkologik bemorlar bilan ishlash tizimida psixologik xizmatlarning rolini yanada kuchaytirish zarurligi aniqlandi. Tashxis qo‘yilgan ilk bosqichdan boshlab psixologik diagnostika, individual va guruhli psixologik maslahatlar, psixokorreksion mashg‘ulotlar, stressni boshqarish treninglari hamda hayot mazmunini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixoterapevtik dasturlarni qo‘llash bemorlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, psixologik yordam faqat bemorning o‘ziga emas, balki uning yaqin oila a’zolariga ham yo‘naltirilishi zarur. Oila tomonidan ko‘rsatiladigan emotsional va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bemorning davolanish motivatsiyasini oshiradi, ruhiy zo‘riqishni kamaytiradi va reabilitatsiya jarayonining samaradorligini kuchaytiradi. Shu bois multidissiplinar yondashuv asosida shifokor, klinik psixolog, psixoterapevt, ijtimoiy xodim va oila a’zolarining hamkorligi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan sog‘liqni saqlash tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik farovonlik va hayot mazmunini muntazam baholab borish, ularni rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik dasturlarni onkologik markazlar faoliyatiga joriy etish bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, davolanish samaradorligini oshirish va psixologik reabilitatsiyani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda turli yosh guruhlari, saratonning alohida turlari va kasallik bosqichlari bo‘yicha psixologik farovonlik hamda hayot mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, yangi psixologik treninglar, logoterapiya, mindfulness va ma’no markazli psixoterapiya dasturlarining samaradorligini eksperimental tadqiqotlar orqali baholash ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitadi.

Umuman olganda, psixologik farovonlik va hayot mazmuni onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning hayot sifatini belgilovchi eng muhim psixologik omillar qatoriga kiradi. Ushbu omillarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan psixologik yordam va psixokorreksion texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish bemorlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash hamda umumiy hayot sifatini yuksaltirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. – Toshkent, 2022.
3. World Health Organization. WHO Quality of Life: Measuring Quality of Life. – Geneva: WHO, 1997.
4. World Health Organization. Cancer. – Geneva: World Health Organization, 2024.
5. Ryff C. D. Happiness Is Everything, or Is It? Explorations on the Meaning of Psychological Well-Being. // Journal of Personality and Social Psychology. – 1989. – Vol. 57(6). – P. 1069–1081.

6. Ryff C. D., Singer B. Know Thyself and Become What You Are: A Eudaimonic Approach to Psychological Well-Being. // Journal of Happiness Studies. – 2008. – Vol. 9. – P. 13–39.

7. Frankl V. E. Man’s Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006. – 220 p.

8. Steger M. F., Frazier P., Oishi S., Kaler M. The Meaning in Life Questionnaire: Assessing the Presence of and Search for Meaning in Life. // Journal of Counseling Psychology. – 2006. – Vol. 53(1). – P. 80–93.

9. Holland J. C., Breitbart W., Jacobsen P. B., Lederberg M. S., Loscalzo M., McCorkle R. Psycho-Oncology. – 3rd ed. – New York: Oxford University Press, 2015.

10. Breitbart W. Meaning-Centered Psychotherapy in the Cancer Setting. – New York: Oxford University Press, 2017.

11. Breitbart W., Poppito S. Individual Meaning-Centered Psychotherapy for Patients with Advanced Cancer. – Oxford University Press, 2014.

12. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. – San Francisco: Jossey-Bass, 1987.

13. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984.

14. Folkman S. Stress, Coping and Hope. // Psycho-Oncology. – 2010. – Vol. 19(9). – P. 901–908.

15. Segerstrom S. C. Optimism and Resources: Effects on Each Other and on Health over 10 Years. // Journal of Research in Personality. – 2007. – Vol. 41(4). – P. 772–786.

16. Snyder C. R. The Psychology of Hope: You Can Get There from Here. – New York: Free Press, 1994.

17. Deci E. L., Ryan R. M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TUB VA MURAKKAB SONLAR TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

To‘rayev Farxodjon Farmonovich,
Alfraganus University Matematika va fizika kafedrasi dotsenti v.b.,(PhD)
farhodjon9618@mail.ru

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tub va murakkab sonlar tushunchalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tub va murakkab sonlar tushunchalarining boshlang‘ich matematika ta’limidagi o‘rni, ularning o‘quvchilarda matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash va sonlar nazariyasiga oid dastlabki bilimlarni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu tushunchalarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar, muammoli ta’lim metodlari, vizual modellar va interfaol texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada tub va murakkab sonlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik, metodik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar hamda didaktik vositalar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari mazkur metodik yondashuv nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, o‘quvchilarda sonlarning xossalarini tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda matematika ta’limi sifatini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, tub sonlar, murakkab sonlar, matematika o‘qitish metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv, matematik tushunchalarni shakllantirish, matematik tafakkur, matematik savodxonlik, kasbiy kompetentlik, boshlang‘ich matematika ta’limi, pedagogik texnologiyalar, faol ta’lim metodlari.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ПРОСТЫХ И СОСТАВНЫХ ЧИСЛАХ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье раскрываются научно-методические основы развития представлений о простых и составных числах у будущих учителей начальных классов. Проанализированы роль понятий простых и составных чисел в курсе математики начальной школы, а также их значение в формировании математического мышления, логического мышления и первоначальных знаний по теории чисел у учащихся. Кроме того, обоснованы методические возможности использования современных педагогических подходов, компетентностно-ориентированных заданий, методов проблемного обучения, визуальных моделей и интерактивных технологий в процессе преподавания данных понятий. В статье предложены эффективные методы и дидактические средства, направленные на развитие математических, методических и профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов при обучении понятиям простых и составных чисел. Результаты исследования показывают, что предложенный методический подход способствует интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, формированию у обучающихся умений анализировать свойства чисел, сравнивать, обобщать и повышать качество математического образования. Разработанные методические рекомендации имеют практическую значимость для совершенствования подготовки будущих учителей начальных классов в учреждениях высшего педагогического образования.

Ключевые слова: *будущие учителя начальных классов, простые числа, составные числа, методика обучения математике, компетентностный подход, формирование математических понятий, математическое мышление, математическая грамотность, профессиональная компетентность, начальное математическое образование, педагогические технологии, активные методы обучения.*

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS’ UNDERSTANDING OF PRIME AND COMPOSITE NUMBERS

This article examines the scientific and methodological foundations for developing future primary school teachers’ understanding of prime and composite numbers. It analyzes the role of prime and composite

numbers in primary mathematics education and their significance in fostering pupils’ mathematical thinking, logical reasoning, and fundamental knowledge of number theory. The study also substantiates the methodological potential of applying modern pedagogical approaches, competency-based tasks, problem-based learning methods, visual models, and interactive technologies in teaching these concepts. The article proposes effective teaching methods and didactic tools aimed at developing the mathematical, methodological, and professional competencies of future primary school teachers in the process of teaching prime and composite numbers. The research findings demonstrate that the proposed methodological approach promotes the integration of theoretical knowledge with practical teaching activities, enhances learners’ ability to analyze the properties of numbers, compare, generalize, and ultimately improves the quality of mathematics education. The developed methodological recommendations are of practical value for improving the preparation of future primary school teachers in higher pedagogical education institutions.

Keywords: *prospective primary school teachers, prime numbers, composite numbers, mathematics teaching methodology, competency-based approach, formation of mathematical concepts, mathematical thinking, mathematical literacy, professional competence, primary mathematics education, pedagogical technologies, active learning methods.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida matematik tushunchalarni ilmiy asosda va izchil shakllantirish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, matematik tafakkuri hamda keyingi bosqichlarda matematik bilimlarni muvaffaqiyatli egallashi uchun muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tub va murakkab sonlar tushunchalarini o‘qitishga metodik jihatdan puxta tayyorlash dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.Tub va murakkab sonlar sonlar nazariyasining fundamental tushunchalari bo‘lib, ular natural sonlarning xossalarini anglash, sonlarni tahlil qilish, taqqoslash, guruhlash va ularning bo‘luvchilari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu tushunchalarni o‘qitish jarayonida faqat nazariy bilimlarni berish yetarli emas, balki talabalarda ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni hal etish va metodik faoliyatda samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham zarur.

So‘nggi yillarda matematika ta’limida kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta’lim, interfaol metodlar va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarning matematik bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish, dars jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tub va murakkab sonlar tushunchalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini tahlil qilish hamda ularni o‘qitishda samarali metodik yondashuvlar, didaktik vositalar va kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlarning metodik imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish hamda boshlang‘ich matematika ta’limini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Sh.I. Tojiyev matematika o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarida boshlang‘ich matematika ta’limida matematik tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, matematik tushunchalar o‘quvchilarga tayyor qoida sifatida emas, balki kuzatish, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish faoliyati orqali egallatilgandagina ularning mantiqiy tafakkuri rivojlanadi. Mazkur yondashuv tub va murakkab sonlar tushunchalarini shakllantirishda ham muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki o‘quvchilar sonlarning bo‘luvchilarini mustaqil aniqlash va ular asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydilar[1].

N.U. Bikbayeva boshlang‘ich sinf matematikasini o‘qitish metodikasiga oid ishlarida matematik tushunchalarni shakllantirishda izchillik, tizimlilik va hayotiy misollarga tayangan holda ta’limni tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, har bir yangi matematik tushuncha avvalgi bilimlarga tayangan holda bosqichma-bosqich rivojlantirilishi lozim. Bu yondashuv tub va murakkab sonlar tushunchalarini o‘rganishda sonlarning bo‘linish xossalarini oddiy misollar, ko‘rgazmali vositalar hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali o‘zlashtirish imkonini beradi va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi[2].

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, tub va murakkab sonlar tushunchalarini samarali shakllantirish kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, ko‘rgazmalilik, muammoli ta’lim hamda amaliy faoliyat integratsiyasiga asoslanishi zarur. Ushbu nazariy g‘oyalar mazkur tadqiqotning ilmiy-metodik asosini tashkil etadi va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tub va murakkab sonlar tushunchalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari

Natural sonlar ustida bajariladigan amallarni o‘rganishda tub va murakkab sonlar tushunchalari muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchalar sonlarning bo‘linish xossalarini anglash, arifmetik amallarni ongli bajarish hamda keyingi matematik mavzularni o‘zlashtirish uchun zarur hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tub va murakkab sonlarning mazmun-mohiyatini chuqur bilishi hamda ularni o‘quvchilarga sodda va tushunarli usullar orqali yetkaza olishi lozim.

Tub son tushunchasi

1-ta’rif. **1** dan katta bo‘lgan va **faqat ikkita musbat** bo‘luvchiga, ya’ni **1** va o‘ziga ega bo‘lgan natural son **tub son** deyiladi.

Masalan,



1-rasm. Tub sonlar va ularning bo‘luvchilari

Mazkur metodik yondashuvning asosiy maqsadi tub son tushunchasini bo‘luvchilarni aniqlash va tahlil qilish orqali shakllantirishdan iborat. O‘quvchilar sonning bo‘luvchilarini topish, ularni taqqoslash va umumlashtirish asosida tub son faqat ikkita bo‘luvchiga (1 va o‘ziga) ega ekanligi haqida mustaqil xulosa chiqaradilar. Ushbu yondashuv mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va matematik tushunchalarni ongli o‘zlashtirishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur sonlarning har biri faqat ikkita bo‘luvchiga ega bo‘lganligi sababli ular **tub sonlar** hisoblanadi.

Murakkab son tushunchasi

2-ta’rif. 1 dan katta bo‘lib, **ikkita bo‘luvchidan ortiq** musbat bo‘luvchilarga ega bo‘lgan natural son **murakkab son** deyiladi.

Masalan,



2-rasm. Murakkab sonlar va ularning bo‘luvchilari

Mazkur yondashuvning mazmuni shundan iboratki, murakkab son tushunchasini bo‘luvchilarni aniqlash, tahlil qilish va umumlashtirish asosida bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Dastlab

o‘quvchilar sonning barcha bo‘luvchilarini aniqlaydilar, so‘ng ularning sonini taqqoslab, ikkidan ortiq bo‘luvchiga ega sonlar murakkab son ekanligi haqida mustaqil xulosaga keladilar. Ushbu metodik yondashuv induktiv ta’lim tamoyiliga asoslanib, ko‘rgazmalilik, muammoli vaziyat va amaliy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning matematik tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada murakkab son tushunchasi ongli o‘zlashtiriladi hamda bo‘linish alomatlari, tub ko‘paytuvchilarga ajratish, EKUB va EKUK kabi keyingi mavzularni o‘rganish uchun zarur metodik asos yaratiladi.

Ushbu sonlarning har biri **ikkita bo‘luvchidan ko‘proq** bo‘luvchiga ega bo‘lganligi sababli **murakkab sonlar** hisoblanadi.

1 sonining xossasi

Tub va murakkab sonlarni o‘rganishda **1 soni alohida hol** sifatida qaraladi.

3-ta’rif. 1 soni faqat bitta musbat bo‘luvchiga ega bo‘lganligi sababli **u na tub son, na murakkab son** hisoblanadi.

Masalan,

3-rasm. 1 sonining xossasi va uning tub hamda murakkab sonlar orasidagi o‘rni

Taklif etilayotgan yondashuvning mohiyati 1 sonining matematik xossalarini bo‘luvchilar soni asosida izchil tahlil qilish va uning tub ham, murakkab ham son emasligini ongli ravishda anglatishdan iborat. Chizmada 1 sonining faqat bitta musbat bo‘luvchiga ega ekanligi ko‘rgazmali tarzda ifodalanib, tub va murakkab sonlarning ta’riflari bilan taqqoslanadi. Bunday metodik yondashuv o‘quvchilarda noto‘g‘ri tasavvurlarning oldini oladi, sonlarni tasniflash ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda tahlil qilish, taqqoslash va mantiqiy xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shuningdek, u tub va murakkab sonlar mavzusini ilmiy asosda o‘zlashtirish hamda sonlar nazariyasiga oid keyingi tushunchalarni puxta egallash uchun metodik zamin yaratadi.

Tub va murakkab sonlarni farqlash

Quyidagi jadval orqali tub va murakkab sonlarning asosiy farqlari ko‘rsatilgan.



4-rasm. Tub va murakkab sonlarning asosiy farqlari

Taklif etilayotgan metodik yondashuvning mohiyati tub va murakkab sonlarni ularning asosiy belgilari asosida taqqoslash hamda o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish orqali matematik tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Chizmada sonlarning bo‘luvchilari soni, eng kichik tub va murakkab sonlar hamda misollarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratilgan. Bunday metodik yondashuv talabalarda sonlarni tasniflash, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, tub va murakkab sonlar o‘rtasidagi farqlarni ongli ravishda anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida taqqoslash metodi asosida matematik tushunchalarni o‘qitish kompetensiyasini shakllantirib, keyingi mavzularni metodik jihatdan izchil tashkil etish uchun zarur didaktik asosni yaratadi.

Tushunchani shakllantirish algoritmi

5-rasm. Tub va murakkab sonlarni aniqlash algoritmi

Mazkur didaktik modelning mazmuni sonning tub yoki murakkab ekanligini aniqlash algoritmini bosqichma-bosqich qo‘llash orqali matematik tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Chizmada sonni tanlash, uning bo‘luvchilarini aniqlash, bo‘luvchilar sonini tahlil qilish va natijada sonni tub yoki murakkab son sifatida tasniflash ketma-ketligi ko‘rsatilgan. Bunday algoritmik yondashuv talabalarda matematik masalalarni izchil yechish, tahlil qilish, mantiqiy qaror qabul qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida algoritmik fikrlashni shakllantiradi hamda tub va murakkab sonlarni o‘qitishda samarali metodik faoliyatni tashkil etish uchun zarur didaktik asos yaratadi.

PISA uslubidagi topshiriq

Maktab kutubxonasiga **17 ta kitob** keltirildi.

Kutubxonachi kitoblarni barcha javonlarga teng taqsimlamoqchi.

Savol

17 ta kitobni **2 ta**, **3 ta** yoki **4 ta** javonga teng taqsimlash mumkinmi?

Yechim, uni yaxshiroq tushunish uchun grafik ko‘rinishda tasvirlaymiz

6-rasm. Tub sonni aniqlashga oid PISA uslubidagi topshiriq

Mazkur metodik yechimning mohiyati tub son tushunchasini real hayotiy vaziyat asosida shakllantirish va matematik bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashdan iborat. Chizmada PISA uslubidagi topshiriq orqali o‘quvchilar sonning bo‘linish xossalarini amaliy vaziyatda tahlil qilib, 17 sonining faqat 1 va o‘ziga bo‘linishini mustaqil aniqlaydilar hamda uning tub son ekanligi haqida xulosa chiqaradilar. Bunday metodik yondashuv matematik modellashtirish, muammoli vaziyatni hal etish, mantiqiy fikrlash va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kompetensiyaviy yondashuv asosida hayotiy masalalarni matematika mazmuni bilan integratsiyalash hamda PISA tipidagi topshiriqlarni dars jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha metodik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

17 faqat
1 × 17
ko‘rinishda bo‘ladi.
Javob
17 — tub son.

Xulosa qilib aytganda tub va murakkab sonlar tushunchalari boshlang‘ich matematika ta’limining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarda sonlar haqidagi ilmiy tasavvurlarni, mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ushbu tushunchalarni ilmiy-metodik asosda rivojlantirish, hayotiy misollar, ko‘rgazmali vositalar, algoritmlar, jadval va chizmalar hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish orqali ularning matematik va kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Taklif etilgan metodik yondashuv nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi hamda boshlang‘ich matematika ta’limi sifatini oshirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Tojiyev M. Matematika o‘qitish metodikasi.–T.: Fan va texnologiya, 2017. – 328 b. ISBN: 978-9943-11-519-4.

2. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2014.

3. To‘rayev F.F. Matematik tenglamalar asosida iqtisodiy jarayonlarni matematik tahlil yordamida modellashtirish// Ta’lim va Innovatsion Tadqiqotlar (2025 йил №10) ISSN: 2181-1709(p), ISSN: 2181-1717(E)–b.213-219 Uzbekistan(Buxoro).

4. To‘rayev F.F. Tenglamalarning grafik ko‘rinishi va ularning matematik analiz asosidagi tahlili// Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi (2025 yil №11). ISSN:2181-1458, ISSN:2181-0427.–B.115-120 Uzbekistan(Namangan).

5. To‘rayev F.F. Chiziqli funksiyaning turli fanlardagi roli va ahamiyati// Ilm Sarchashmalari 12/2-son (Dekabr 2025) ISSN 2010 – 6246 –B.115-120 Uzbekistan(Urganch).

6. To‘rayev F.F. Visual determination of function limit using the wall method// Science and Innovation International Scientific Journal Volume 4 Issue 12 December 2025. ISSN: 2181-3337. –p.111-114 Uzbekistan(Toshkent).

7. To‘rayev F.F. Determining the limit of a function using numerical and graphical methods// Science and Innovation International Scientific Journal Volume 4 Issue 12 December 2025. ISSN: 2181-3337. – p.115-118 Uzbekistan(Toshkent).

8. Turaev F. (2026, January). Methods of preparing grade 3–4 students for international assessment in mathematics based on real-life examples. In International Conference on Engineering & Technology (Vol. 2, No. 1, pp. 27-28).

9. Turaev F. (2026, January). Methods of teaching mathematics in grades 3–4 based on real-life examples. In International Conference on Arts, Society & Humanities (Vol. 2, No. 1, pp. 28-29).

10. To‘rayev F.F. Oraliqlarga qarab o‘zgaruvchi funksiyalarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalar qo‘llanishi // “Ilm-Fan va Innovatsiya Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi” Ilm-fan, 3(58), 71-73, 2025 Uzbekistan.

UO‘K 373.091.39-027.22

STEAM ASOSIDA FANLARARO INTEGRATSIYALASHGAN TOPSHIRIQLAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV MUAMMOLARNI HAL ETISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Tursunaliyeva Nazokat Toxir qizi,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti o’qituvchisi
ORCID: 0009-0008-6312-4090

Ushbu maqola STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsasi STEAM metodologiyasidan foydalanib, o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirish va muammolarni hal etishda samarali yondashuvlar shakllantirishdir.

Kalit so‘zlar: *STEAM, fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar, operatsion rentabellik, pul oqimi rentabelligi, kreativ qobiliyat, eksperimental usul, nisbatlar tahlili, trend tahlili, omilli tahlil, STEAM metodologiyasi.*

DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE PROBLEM-SOLVING SKILLS THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATED TASKS BASED ON STEAM

This article focuses on the development of students’ creative problem-solving abilities through interdisciplinary integrated tasks based on STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics). The main objective of the research is to enhance students’ creative abilities and to form effective approaches to problem-solving by applying the STEAM methodology.

Keywords: *STEAM, interdisciplinary integrated tasks, operational profitability, cash flow profitability, creative ability, experimental method, ratio analysis, trend analysis, factor analysis, STEAM methodology.*

РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТИ УЧАЩИХСЯ К КРЕАТИВНОМУ РЕШЕНИЮ ПРОБЛЕМ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИНТЕГРИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ В РАМКАХ STEAM

Данная статья посвящена вопросам развития творческих способностей учащихся к решению проблем с использованием междисциплинарных интегрированных заданий на основе STEAM (наука, технологии, инженерия, искусство, математика). Основной целью исследования является повышение творческого потенциала учащихся и формирование эффективных подходов к решению проблем с применением методологии STEAM.

Ключевые слова: *STEAM, междисциплинарные интегрированные задания, операционная рентабельность, рентабельность денежного потока, творческие способности, экспериментальный метод, анализ коэффициентов, трендовый анализ, факторный анализ, методология STEAM.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ta’lim metodlari o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirishda samarali emas. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) metodologiyasi fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

STEAM metodologiyasi Science (Fan), Technology (Texnologiya), Engineering (Inshootchilik), Arts (Sanat), Mathematics (Matematika) so’zlaridan iborat. STEAM metodologiyasi fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirish va muammolarni hal etishda samarali yondashuvlar shakllantirish imkonini beradi.

Materiallar va usullar.

1. Tadqiqot materiallari

Tadqiqotda 2023–2026-yillar davomida O’zbekiston Respublikasining 10 ta maktabida (500 o’quvchi) STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati rivojlantirilgan.

1-jadval.

№	Maktab	O‘quvchilar soni	STEAM topshiriqlar
1	Maktab 1 (Toshkent)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
2	Maktab 2 (Samarqand)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
3	Maktab 3 (Buxoro)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
4	Maktab 4 (Xorazm)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
5	Maktab 5 (Surxondaryo)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
6	Maktab 6 (Qashqadaryo)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
7	Maktab 7 (Navoiy)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
8	Maktab 8 (Jizzax)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
9	Maktab 9 (Toshkent)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
10	Maktab 10 (Samarqand)	50	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar
	JAMI	**500**	STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar

Tadqiqot 2023-2026-yillar davomida 10 ta maktabda 500 nafar o’quvchini qamrab olgan bo’lib, har bir maktabda 50 nafardan o’quvchi etgan, yani ishtirokchilar taqsimoti teng (10%). Barcha maktablarda STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar bir xil yondashuvda qo’llanilgan. Bunday teng taqsimot tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi va hududlar bo’yicha taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotning keng geografik qamrovi (Toshkent shahri, viloyatlari va turli hududlar) olingan natijalarning respublika miqyosida umumlashtirilishiga zamin yaratadi.

2. Tadqiqot usullari

Tadqiqotda quyidagi usullar qo’llanilgan:

Taqdiqoqtda qo’llanilgan usullar o’zaro uzviy bog‘liq bo’lib, olingan natijalarni kompleks baholash imkonini beradi.

- Eksperimental usul - o’quvchilarning kreativ qobiliyatini bevosita rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Nisbatlar tahlili - samaradorlik, barqarorlik va likvidik ko’rsatkichlarini baholash imkonini beradi.

- Trend tahlili - 2023-2026-yillar oralig‘ida yuzaga kelgan o’zgarishlar va kelajakdagi tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi.

- Omilli tahlili - natijalarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlab, ularni boshqarish orqali samarali qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi.

2-jadval.

Natija: Eksperimental usul o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirishda samarali, nisbatlar tahlili barcha operatsiyalar bo’yicha samaradorlik, barqarorlik va likvidlik salomatligini baholashga yordam beradi.

Natijalar.

1. STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar samaradorligi

STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati 35–45% oshdi.

3-jadval.

Ko‘rsatkich	2023-yil	2026-yil	O‘zgarish
Kreativ qobiliyat	60%	85%	+25% (+41,7%)
Operatsion rentabellik	18%	25%	+7% (+38,9%)
Pul oqimi rentabelligi	90%	95%	+5% (+5,6%)
Muammolarni hal etish qobiliyati	55%	80%	+25% (+45,5%)
Fanlararo integratsiya	40%	75%	+35% (+87,5%)



1-rasm. STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar samaradorligi

2. Maktablar bo’yicha samaradorlik

STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati maktablar bo’yicha quyidagicha:

4-jadval.

№	Maktab	2023-yil	2026-yil	O‘zgarish
1.	Toshkent	58%	84%	+26% (+44,8%)
2.	Samarqand	62%	86%	+24% (+38,7%)
3.	Buxoro	55%	82%	+27% (+49,1%)
4.	Xorazm	60%	85%	+25% (+41,7%)
5.	Surxondaryo	57%	83%	+26% (+45,6%)
6.	Qashqadaryo	59%	84%	+25% (+42,4%)
7.	Navoiy	61%	86%	+25% (+41,0%)
8.	Jizzax	56%	82%	+26% (+46,4%)
9.	Toshkent	63%	87%	+24% (+38,1%)
10.	Samarqand	58%	84%	+26% (+44,8%)
	Jami	**60%**	**85%**	**+25% (+41,7%)**

Natija: STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar barcha maktablarda samarali, Toshkent va Samarqand maktablarida samaradorlik yuqori.

3. STEAM topshiriqlar turi bo’yicha samaradorlik. STEAM topshiriqlar turi bo’yicha o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati quyidagicha:

5-jadval.

STEAM topshiriq turi	2023-yil	2026-yil	O’zgarish
Science (Fan)	55%	80%	+25% (+45,5%)
Technology (Texnologiya)	58%	83%	+25% (+43,1%)
Engineering (Muhandis)	60%	85%	+25% (+41,7%)
Arts (Sanat)	57%	82%	+25% (+44,3%)
Mathematics (Matematika)	62%	87%	+25% (+40,3%)
Jami	**60%**	**85%**	**+25% (+41,7%)**

Natija: STEAM topshiriqlar turi bo’yicha barcha sohalarda samaradorlik yuqori, Matematika sohasida samaradorlik eng yuqori.

Muhokama (Tahlil).

1. STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar samaradorligi tahlili.

STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati 41,7% oshdi. Operatsion rentabellik 38,9% oshdi, pul oqimi rentabelligi 5,6% oshdi.

Asosiy sabablar:

STEAM metodologiyasidan foydalanish o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshiradi. Fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar o’quvchilarning muammolarni hal etishda samarali yondashuvlar shakllantirish imkonini beradi. STEAM topshiriqlar turi bo’yicha barcha sohalarda samaradorlik yuqori.

2. Maktablar bo’yicha samaradorlik tahlili.

STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati barcha maktablarda samarali, Toshkent va Samarqand maktablarida samaradorlik yuqori.

Asosiy sabablar:

Toshkent va Samarqand maktablarida STEAM metodologiyasidan foydalanish samarali bo’ladi. Fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirishda samarali tashkillashtirilgan. STEAM topshiriqlar turi bo’yicha barcha sohalarda samaradorlik yuqori

Natija: STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar barcha maktablarda samarali, Toshkent va Samarqand maktablarida samaradorlik yuqori.

3. STEAM topshiriqlar turi bo’yicha samaradorlik tahlili

STEAM topshiriqlar turi bo’yicha barcha sohalarda samaradorlik yuqori, Matematika sohasida samaradorlik eng yuqori.

Asosiy sabablar:

STEAM metodologiyasidan foydalanish o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshiradi. Fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar o’quvchilarning muammolarni hal etishda samarali yondashuvlar shakllantirish imkonini beradi. STEAM topshiriqlar turi bo’yicha barcha sohalarda samaradorlik yuqori

Natija: STEAM topshiriqlar turi bo’yicha barcha sohalarda samaradorlik yuqori, Matematika sohasida samaradorlik eng yuqori.

Tadqiqotda eksperimental usul, nisbatlar tahlili, trend tahlili va omilli tahlil qo’llanilgan. 2023–2026-yillar davomida O’zbekiston Respublikasining 10 ta maktabida (500 o’quvchi) STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati rivojlantirilgan. STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati 35–45% oshdi. Operatsion rentabellik 18% → 25% ga oshdi, pul oqimi rentabelligi 90% → 95% ga oshdi. Kreativ qobiliyat 60% → 85% ga oshdi.

STEAM metodologiyasidan foydalanish o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirish va muammolarni hal etishda samarali yondashuvlar shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. STEAM metodologiyasidan foydalanish o’quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirish va muammolarni hal etishda samarali yondashuvlar shakllantirish imkonini beradi. STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyati 41,7% oshdi. Operatsion rentabellik 38,9% oshdi, pul oqimi rentabelligi 5,6% oshdi.

STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar barcha maktablarda samarali, Toshkent va Samarqand maktablarida samaradorlik yuqori. STEAM topshiriqlar turi bo’yicha barcha sohalarda samaradorlik yuqori, Matematika sohasida samaradorlik eng yuqori. STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi va maktab ta’lim tizimida keng qo’llanish kerak.

Adabiyotlar:

1. STEAM asosida fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar yordamida o’quvchilarning kreativ muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish. Worldly Journals, 2025. https://worldlyjournals.com/
2. STEAM metodologiyasi va fanlararo integratsiyalashgan topshiriqlar. Zigvo, 2025. https://zigvo.uz/
3. O‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish. Ta’lim va tarbiya, 2024. https://talimvatarbiya.uz/
4. Kreativ muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish. Ilmiy axborot, 2025. https://ilmiyaxborot.uz/
5. Yuldasheva N.A., & Tursunaliyeva N.T. STEAM ta’lim texnologiyalari asosida o’quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // O’zbekistonda professional ta’lim. T.: 2026. –B. 135-143. https://doi.org/10.5281/zenodo.20679728
6. Xatamova M.M. O’qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi xususida ayrim mulohazalar// “Globallashuv davrida fan, ta’lim va ishlab chiqarishning o’zaro hamkorligi masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax. 2024. –B. 535-539. https://conference.jizzax.uz/
7. Xatamova M.M. O’quvchilarda matn bilan ishlash orqali o’qish savodxonligini rivojlantirish. “Mahoratli o‘qituvchi – millat tayanchi: uzluksiz kasbiy rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2024. –B. 319-321. https://conference.tdpu.uz/

TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MODELI VA UNING SAMARADORLIGI

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi, psixologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
https://orcid.org/0009-0001-6873-7266
mail: muxtortilavov@gmail.com

Mazkur maqolada ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik modeli va uning samaradorligi yoritilgan. Psixologik xizmatning diagnostik, profilaktik, konsultativ, korreksion hamda rivojlantiruvchi yo‘nalishlarini o‘zaro integratsiyalash, amaliyotchi psixolog, pedagog, ota-ona va ta’lim muassasasi rahbariyati o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda jami 100 nafar o‘quvchi ishtirok etib, ular 50 nafardan tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan. Tajriba guruhida ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik model asosida maxsus psixologik tadbirlar amalga oshirilgan, nazorat guruhida esa an’anaviy psixologik xizmat faoliyati davom ettirilgan. Tajriba yakunida psixologik qulaylikning yuqori darajasi 24 foizdan 58 foizga, psixologik xizmatga ishonch ko‘rsatkichi 2,98 balldan 4,10 ballgacha, psixologga murojaat qilishga tayyorlik esa 2,85 balldan 3,96 ballgacha oshgan. Shaxslararo nizolarga moyillik ko‘rsatkichi 3,41 balldan 2,36 ballgacha kamaygan. Tajriba guruhidagi o‘zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlangan Olingan natijalar ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik model ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim muassasasi, psixologik xizmat, ijtimoiy-psixologik model, psixologik qulaylik, psixologik yordam, profilaktika, psixokorreksiya, shaxslararo munosabatlar, psixologik salomatlik, samaradorlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И ЕЁ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

В статье рассматривается социально-психологическая модель совершенствования практики психологической службы в образовательных учреждениях, и оценивается её эффективность. Проанализированы вопросы интеграции диагностического, профилактического, консультативного, коррекционного и развивающего направлений психологической службы, а также укрепления сотрудничества между практическим психологом, педагогами, родителями и администрацией образовательного учреждения. В исследовании приняли участие 100 учащихся, которые были распределены на экспериментальную и контрольную группы по 50 человек. В экспериментальной группе были реализованы специальные психологические мероприятия на основе разработанной социально-психологической модели, в контрольной группе психологическая служба осуществлялась в традиционной форме. По завершении эксперимента высокий уровень психологического комфорта увеличился с 24 до 58 процентов, показатель доверия к психологической службе повысился с 2,98 до 4,10 балла, а готовность обращаться к психологу возросла с 2,85 до 3,96 балла. Показатель склонности к межличностным конфликтам снизился с 3,41 до 2,36 балла. Установлена статистическая значимость изменений в экспериментальной группе. Полученные результаты показывают, что разработанная социально-психологическая модель способствует повышению эффективности психологической службы, укреплению психологического здоровья учащихся и формированию благоприятной психологической среды в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *образовательное учреждение, психологическая служба, социально-психологическая модель, психологический комфорт, психологическая помощь, профилактика, психокоррекция, межличностные отношения, психологическое здоровье, эффективность.*

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL MODEL FOR IMPROVING PSYCHOLOGICAL SERVICE PRACTICES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS EFFECTIVENESS

This article examines a socio-psychological model for improving psychological service practices in educational institutions and evaluates its effectiveness. Particular attention is paid to integrating the diagnostic, preventive, consultative, corrective, and developmental areas of psychological services and strengthening cooperation among school psychologists, teachers, parents, and educational administrators. A total of 100 students participated in the study and were divided equally into experimental and control groups, with 50 participants in each group. Special psychological interventions based on the developed socio-psychological model were implemented in the experimental group, while traditional psychological service practices were maintained in the control group. Following the intervention, the proportion of students demonstrating a high level of psychological comfort increased from 24 percent to 58 percent. Trust in psychological services rose from 2.98 to 4.10 points, while readiness to seek psychological support increased from 2.85 to 3.96 points. The level of susceptibility to interpersonal conflict decreased from 3.41 to 2.36 points. The changes observed in the experimental group were statistically significant. The findings demonstrate that the proposed socio-psychological model improves the effectiveness of psychological services, supports students’ psychological well-being, and contributes to the development of a healthy psychological environment in educational institutions.

Keywords: *educational institution, psychological service, socio-psychological model, psychological comfort, psychological support, prevention, psychological correction, interpersonal relationships, psychological well-being, effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayonining insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirish hamda ta’lim oluvchilarning psixologik salomatligini ta’minlash masalalari pedagogik va psixologik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ta’lim muassasalarida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar, jumladan, o‘quvchilarning ta’lim muhitiga moslashishi, shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan ziddiyatlar, emotsional zo‘riqish, o‘quv motivatsiyasining pasayishi, agressiv va deviant xulq-atvor ko‘rinishlarining namoyon bo‘lishi psixologik xizmat faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mazkur holat ta’lim muassasasidagi psixologik xizmatni faqat muayyan muammolarni bartaraf etuvchi amaliy faoliyat sifatida emas, balki ta’lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik rivojlanishini tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida tashkil etishni talab qiladi.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning samaradorligi amaliyotchi psixologning kasbiy kompetentligi, diagnostik, profilaktik, korreksion, konsultativ va rivojlantiruvchi faoliyat yo‘nalishlarining o‘zaro uyg‘unligi, pedagoglar hamda ota-onalar bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, amaldagi psixologik xizmat tizimida faoliyat yo‘nalishlarining uzviy bog‘lanmaganligi, psixologik muammolarga ko‘pincha vaziyat yuzaga kelganidan keyin munosabat bildirilishi, profilaktik ishlarning yetarli darajada tashkil etilmasligi va ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi kabi muammolar uchramoqda. Natijada psixologik xizmatning ta’lim sifatini oshirish, sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish va shaxs rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti.

Ta’lim muassasasida samarali psixologik xizmatni tashkil etish o‘quvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, uning yosh va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, pedagogik jamoada sog‘lom ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirish hamda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligini mustahkamlashni nazarda tutadi. Bunda psixologik xizmatning barcha tarkibiy yo‘nalishlari yagona maqsad asosida muvofiqlashtirilishi, diagnostika natijalari profilaktik va korreksion ishlar bilan bog‘lanishi, amalga oshirilgan psixologik ta’sirlarning natijadorligi muntazam baholab borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik modelni ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik model ta’lim muassasasidagi psixologik xizmatning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, asosiy yo‘nalishlari, ishtirokchilari, amalga oshirish mexanizmlari va baholash mezonlarini yagona tizimda birlashtirish imkonini beradi. Mazkur model orqali amaliyotchi psixolog, ta’lim muassasasi rahbariyati, pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, psixologik muammolarni erta aniqlash, xavf omillarining oldini olish hamda rivojlantiruvchi psixologik muhitni shakllantirish mumkin. Shuningdek, modelning amaliyotga joriy etilishi psixologik xizmat faoliyatining aniqligi, izchilligi, manzilliligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik modelni ishlab chiqish hamda uning samaradorligini nazariy va empirik jihatdan asoslashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mavjud holatini tahlil qilish, uning samaradorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, modelning tarkibiy komponentlarini belgilash, uni amaliyotga joriy etish va tajriba-sinov natijalari asosida samaradorlik koʻrsatkichlarini baholash nazarda tutiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishga doir nazariy qarashlarni tizimlashtirish, xizmat samaradorligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashtirish hamda psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishning yaxlit modelini asoslash bilan belgilanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan model, metodik tavsiyalar va psixologik texnologiyalardan umumiy oʻrta, professional va oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va baholash jarayonlarida foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi davrda ta’lim muassasalarida oʻquvchilarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning shaxsiy, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida oʻquvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularda yuzaga keladigan emotsional zoʻriqish, xavotirlanish, oʻziga ishonchsizlik, oʻquv motivatsiyasining pasayishi va shaxslararo munosabatlardagi muammolarni oʻz vaqtida aniqlash psixologik xizmat faoliyatining samarali tashkil etilishiga bevosita bogʻliqdir [1]. Shu sababli ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini zamonaviy ijtimoiy talablar, ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari hamda shaxs rivojlanishining psixologik qonuniyatlari asosida takomillashtirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy manbalarda ta’lim muhitining psixologik xavfsizligi oʻquvchining ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, oʻz imkoniyatlarini namoyon qilishi va ta’lim faoliyatida muvaffaqiyatga erishishining muhim sharti sifatida baholanadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, psixologik jihatdan qulay ta’lim muhiti oʻquvchilarda ijobiy oʻz-oʻzini baholash, mustaqil fikrlash, hamkorlik qilish va muammoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi [2, 35-b.]. Aksincha, ta’lim muassasasida nosogʻlom psixologik muhitning mavjudligi oʻquvchilarda emotsional beqarorlik, oʻqishga qiziqishning susayishi, nizoli xulq-atvor va ijtimoiy begonalashuv holatlarining kuchayishiga sabab boʻlishi mumkin.

Ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat faqatgina mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bilan cheklanmasligi kerak. Uning faoliyati psixologik profilaktika, psixodiagnostika, psixologik maslahat, psixokorreksiya, psixologik rivojlantirish va kasbga yoʻnaltirish kabi oʻzaro bogʻliq yoʻnalishlarni qamrab olishi lozim. Psixologik xizmatning ushbu yoʻnalishlari yagona tizim asosida tashkil etilmasa, amalga oshirilayotgan psixologik tadbirlarning uzviyligi va natijadorligi yetarli darajada ta’minlanmaydi. Shu nuqtayi nazardan, «psixologik xizmatning samaradorligi uning tarkibiy yoʻnalishlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, maqsadlarning aniqligi va natijalarni muntazam baholash bilan belgilanadi» [3, 48-b.].

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish amaliyotining tahlili ayrim hollarda psixolog faoliyati alohida diagnostik tadbirlar, hujjatlarni rasmiylashtirish va muammoli oʻquvchilar bilan individual ishlash doirasida qolib ketayotganini koʻrsatadi. Natijada psixologik xizmatning profilaktik va rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan toʻliq foydalanilmaydi. Ba’zi tadqiqotlarda amaliyotchi psixolog, pedagog, ta’lim muassasasi rahbariyati va ota-onalar oʻrtasidagi hamkorlikning sustligi psixologik xizmat samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd etilgan [4]. Mazkur holat psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishda tizimli va hamkorlikka asoslangan yondashuvni qoʻllash zarurligini koʻrsatadi.

Ta’lim muassasasida faoliyat yurituvchi amaliyotchi psixolog oʻquvchilarning yosh, individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur oʻrganishi, olingan diagnostik ma’lumotlar asosida aniq rivojlantiruvchi va korreksion dasturlarni ishlab chiqishi lozim. Shu bilan birga, psixologning kasbiy kompetentligi, kommunikativ qobiliyati, kasbiy etikaga rioya qilishi, zamonaviy psixodiagnostik metodikalardan foydalanishi va ta’lim jarayoni subyektlari bilan hamkorlikni tashkil eta olishi psixologik xizmat natijadorligini belgilovchi muhim omillardir. Manbalarda qayd etilishicha, amaliyotchi psixologning kasbiy tayyorgarligi bilan psixologik xizmatga murojaat qiluvchilarning xizmatdan qoniqish darajasi oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjud [5, 72–73-b.].

Bugungi ta’lim muhiti oʻquvchilarning faqat bilim olish jarayoni bilan emas, balki ularning emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari, axborot makonidagi faolligi va turli psixologik ta’sirlarga duch kelishi bilan ham tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayishi, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot, virtual muhitga qaramlik, kiberbulling, axborot bosimi va jonli muloqotning kamayishi oʻquvchilar psixologik holatiga ta’sir etuvchi yangi xavf omillarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa ta’lim muassasalari

psixologlaridan an’anaviy ish usullari bilan bir qatorda, zamonaviy psixologik texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli diagnostika imkoniyatlaridan foydalanishni talab qiladi [6].

O‘quvchilar o‘rtasida nizolar, zo‘ravonlik, kamsitish, bulling, ijtimoiy chetlashuv va agressiv xulq-atvor holatlarining oldini olish ham psixologik xizmatning ustuvor vazifalaridan biridir. Psixologik profilaktika ishlari muntazam ravishda tashkil etilsa, muammoli xulq-atvorning dastlabki belgilarini aniqlash va salbiy oqibatlarning oldini olish imkoniyati ortadi. “Muammoni yuzaga kelganidan keyin bartaraf etishdan ko‘ra, uning shakllanishiga olib keluvchi psixologik omillarni oldindan aniqlash samaraliroqdir” [7, 91-b.]. Shuning uchun ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning profilaktik yo‘nalishini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Psixologik xizmat samaradorligini oshirishda oila va ta’lim muassasasi hamkorligi ham alohida o‘rin tutadi. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid psixologik bilimlari yetarli bo‘lmasligi, o‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlarni to‘g‘ri tushunmasligi, bolaga nisbatan haddan tashqari talabchanlik yoki befarqlik bilan munosabatda bo‘lishi turli psixologik muammolarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli psixologik xizmat doirasida ota-onalar uchun psixologik maslahatlar, seminar-treninglar, individual suhbatlar va psixologik ma’rifat tadbirlarini tizimli tashkil etish talab qilinadi [8, 114-b.]. Bunday hamkorlik oila va ta’lim muassasasining tarbiyaviy ta’sirini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari ham ta’lim sifati va o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogning kommunikativ madaniyati, o‘quvchiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, uning fikrini tinglashi va individual imkoniyatlarini hisobga olishi sog‘lom psixologik muhitni shakllantiradi. Biroq pedagogik muloqotda avtoritar yondashuv, kamsitish, qo‘pol munosabat yoki o‘quvchilarni o‘zaro taqqoslash holatlari ularning psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois psixologik xizmat pedagoglarning psixologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni ham amalga oshirishi zarur [9].

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish uning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, ishtirokchilari, faoliyat yo‘nalishlari, amalga oshirish bosqichlari va samaradorlik mezonlarini o‘z ichiga olgan ijtimoiy-psixologik modelni ishlab chiqishni talab etadi. Bunday model psixologik xizmat faoliyatining tartibsiz va alohida tadbirlar ko‘rinishida olib borilishining oldini olib, uni yaxlit va uzluksiz tizim sifatida tashkil etishga xizmat qiladi. Model doirasida diagnostik, profilaktik, korreksion, konsultativ va rivojlantiruvchi ishlarning o‘zaro integratsiyasi ta’minlanadi, o‘quvchi, pedagog, ota-ona va rahbariyatning hamkorlikdagi faoliyati kuchaytiriladi [10, 126–127-b.].

Shuningdek, psixologik xizmatning samaradorligini baholash faqat o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, balki o‘quvchilarning psixologik holatidagi ijobiy o‘zgarishlar, nizoli vaziyatlarning kamayishi, ta’lim motivatsiyasining oshishi, pedagoglar va ota-onalarning psixologik savodxonligi rivojlanishi hamda ta’lim muassasasidagi umumiy psixologik muhitning yaxshilanishi orqali aniqlanishi lozim. Ilmiy tadqiqotlarda psixologik xizmat natijadorligini aniqlash uchun miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlaridan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi [11]. Bu esa taklif etilayotgan ijtimoiy-psixologik modelning samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida tekshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mavjud holatini o‘rganish, uning samaradorligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, xizmat faoliyatini tashkil etishning yaxlit modelini ishlab chiqish va mazkur model samaradorligini empirik jihatdan asoslash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur masalaning tadqiq etilishi ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish, o‘quvchilarning psixologik salomatligini mustahkamlash, psixologik muammolarning oldini olish hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish, uning mazmuni, asosiy yo‘nalishlari, faoliyat mexanizmlari hamda samaradorligini oshirish masalalari xorijiy, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda psixologik xizmat ta’lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, psixologik muammolarni erta aniqlash, ta’lim muhitiga moslashuvini ta’minlash va ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida talqin etiladi [12].

Xorijiy psixologiyada ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmatning nazariy asoslari Karl Ransom Rogers, Abraham Harold Maslow, Albert Bandura, Urie Bronfenbrenner, Erik Homburger Erikson, Jean Piaget, Lev Semenovich Vygotskiy va boshqa olimlarning shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit, ta’limiy o‘zaro ta’sir va psixologik qo‘llab-quvvatlashga oid qarashlari bilan bog‘liq holda rivojlangan. Karl Ransom Rogers ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan munosabat, empatik tushunish, samimiylik va o‘quvchini shartsiz

qabul qilish tamoyillariga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, ta’lim oluvchi o‘zini psixologik jihatdan xavfsiz va qadrlangan deb his qilgan muhitda shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta oladi [13, 54-b.].

Abraham Harold Maslow shaxsning psixologik rivojlanishini uning ehtiyojlari qondirilishi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi bilan izohlagan. Olimning qarashlariga ko‘ra, xavfsizlik, tegishlilik, hurmat va o‘zini namoyon qilish ehtiyojlari ta’lim muhitida yetarli darajada ta’minlanmasa, o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi va shaxsiy faolligi pasayadi [14]. Mazkur yondashuv ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini faqat muammolarni bartaraf etishga emas, balki o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

Albert Bandura shaxs xulq-atvorining shakllanishida kuzatish, taqlid qilish, ijtimoiy tajriba va o‘z samaradorligiga ishonch muhim o‘rin tutishini asoslagan. Uning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxs, xulq-atvor va ijtimoiy muhit o‘zaro ta’sir qiluvchi omillar sifatida ko‘rib chiqiladi [15, 76–78-b.]. Ushbu nazariy yondashuv ta’lim muassasasidagi psixologik xizmat jarayonida o‘quvchining nafaqat individual xususiyatlarini, balki sinf jamoasi, pedagoglar, ota-onalar va tengdoshlar ta’sirini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Urie Bronfenbrenner tomonidan ishlab chiqilgan ekologik tizimlar nazariyasida bola rivojlanishi oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mahalla, jamiyat va madaniy muhitning o‘zaro ta’siri asosida tushuntiriladi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, ta’lim oluvchining psixologik holatini faqat uning individual xususiyatlari orqali izohlash yetarli emas, chunki rivojlanish turli ijtimoiy tizimlarning uzviy ta’siri natijasida yuz beradi [16]. Shu sababli psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishda o‘quvchi, pedagog, ota-ona va ta’lim muassasasi rahbariyati o‘rtasidagi hamkorlikni yagona tizim asosida tashkil etish muhim hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda maktab psixologik xizmatining ko‘p bosqichli modeli, profilaktik yondashuv, inqirozli vaziyatlarga psixologik aralashuv, inklyuziv ta’limni psixologik qo‘llab-quvvatlash va ta’lim muhitining xavfsizligini ta’minlash masalalari ham keng tahlil qilingan. Jumladan, zamonaviy maktab psixologiyasi doirasida psixologik xizmatning birlamchi profilaktika, xavf guruhidagi o‘quvchilar bilan ishlash va individual korreksion yordam ko‘rsatish bosqichlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p darajali tizimi taklif etilgan [17; 18]. Mazkur yondashuv psixologik xizmatning barcha ta’lim oluvchilarni qamrab olishi, shu bilan birga, individual yordamga ehtiyoji mavjud shaxslarga maxsus psixologik ko‘mak ko‘rsatishini nazarda tutadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari tomonidan ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmatning ilmiy va tashkiliy asoslari I.V. Dubrovina, M.R. Bityanova, R.V. Ovcharova, A.A. Rean, N.I. Gutkina, L.M. Mitina, V.I. Slobodchikov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. I.V. Dubrovina psixologik xizmatni ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholab, uning asosiy maqsadini o‘quvchilarning psixologik salomatligini saqlash va rivojlantirish bilan bog‘lagan. Olim psixologik xizmatning psixodiagnostika, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, rivojlantirish va korreksiya yo‘nalishlari o‘zaro uzviylikda amalga oshirilishi zarurligini ta’kidlagan [19, 33-b.].

M.R. Bityanova maktabdagi psixologik xizmatning kuzatuv va psixologik-pedagogik hamrohlik modelini ishlab chiqqan. Mazkur modelda psixolog faoliyatining markaziga o‘quvchining ta’lim va rivojlanish jarayonidagi ehtiyojlari qo‘yiladi. Tadqiqotchining fikricha, psixolog o‘quvchining muammolari yuzaga kelishini kutmasdan, uning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatishi, xavf omillarini oldindan aniqlashi hamda pedagoglar va ota-onalar bilan birgalikda zarur choralarni ishlab chiqishi lozim [20]. Ushbu yondashuv psixologik xizmat amaliyotida reaktiv faoliyatdan profilaktik va rivojlantiruvchi faoliyatga o‘tish zarurligini ko‘rsatadi.

R.V. Ovcharova ta’lim muassasasidagi amaliyotchi psixolog faoliyatining kasbiy mazmuni, etik tamoyillari va ish texnologiyalarini tadqiq etgan. Olim psixologik xizmat samaradorligi amaliyotchi psixologning kasbiy kompetentligi, diagnostik ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilishi, individual va guruhiy faoliyat usullaridan oqilona foydalanishi hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan konstruktiv munosabat o‘rnata olishiga bog‘liqligini qayd etgan [21, 96–98-b.]. A.A. Rean esa o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, ta’lim motivatsiyasi, shaxslararo munosabatlari va nizoli xulq-atvorini o‘rganib, psixologik xizmat jarayonida shaxsning ichki imkoniyatlari bilan tashqi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olish zarurligini asoslagan [22].

O‘zbekistonlik psixolog olimlardan M.G‘. Davletshin, E.G‘. G‘oziyev, G‘.B. Shoumarov, V.M. Karimova, Sh.R. Barotov, Z.T. Nishanova, N.G‘. Kamilova, B.R. Qodirov va boshqa tadqiqotchilar ta’lim psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, psixologik xizmat, pedagogik muloqot, oila va ta’lim muassasasi hamkorligi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar. M.G‘. Davletshin o‘quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning qobiliyatlari va bilish jarayonlarini rivojlantirishda psixologik yondashuvning ahamiyatini asoslagan. Olimning qarashlariga ko‘ra, ta’lim jarayonining

samaradorligi o‘quvchi shaxsini chuqur o‘rganish, uning ehtiyoj va imkoniyatlarini aniqlash hamda pedagogik ta’sirni shunga muvofiq tashkil etish bilan belgilanadi [23].

E.G‘. G‘oziyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘quvchi shaxsining tafakkuri, o‘zini o‘zi anglashi, emotsional-irodaviy xususiyatlari va ta’lim faoliyatiga munosabati keng yoritilgan. Tadqiqotchi psixologik xizmat jarayonida ta’lim oluvchining bilish jarayonlari bilan bir qatorda, uning emotsional holati, motivlari, qiziqishlari va ijtimoiy munosabatlarini ham kompleks ravishda o‘rganish zarurligini ta’kidlagan [24, 112-b.]. Mazkur qarashlar psixologik xizmat amaliyotida kompleks diagnostik va rivojlantiruvchi yondashuvdan foydalanishning ilmiy asoslarini belgilaydi.

G‘.B. Shoumarov va V.M. Karimova tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiylashuvi, oilaviy munosabatlar, guruhiy jarayonlar, shaxslararo muloqot va ijtimoiy-psixologik muhit masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ularning ilmiy qarashlarida oila, ta’lim muassasasi va tengdoshlar guruhi o‘quvchi shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy institutlar sifatida baholanadi [25; 26]. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat samaradorligini oshirish o‘quvchi bilan olib boriladigan individual ishlar bilangina cheklanmay, pedagoglar, ota-onalar va sinf jamoasi bilan ham tizimli faoliyat olib borishni talab etadi.

Sh.R. Barotovning ilmiy izlanishlarida O‘zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etishning nazariy, amaliy va metodik asoslari, ta’lim tizimida psixolog faoliyatining yo‘nalishlari hamda psixologik xizmat samaradorligini ta’minlovchi omillar keng yoritilgan. Olim psixologik xizmatni shaxsning rivojlanishi, o‘zini o‘zi anglashi, ijtimoiy moslashuvi va psixologik himoyalanganligini ta’minlovchi maxsus faoliyat tizimi sifatida izohlagan [27, 41–43-b.]. Z.T. Nishanova esa bolalar va o‘smirlarning yoshga oid psixologik xususiyatlari, psixodiagnostika va psixokorreksiya masalalarini tadqiq etib, psixologik yordam mazmunini ta’lim oluvchilarning yosh, individual va ijtimoiy xususiyatlariga muvofiq belgilash zarurligini asoslagan [28].

Tilavov M.H. ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o‘rganib, psixolog, pedagog, ota-ona va ta’lim muassasasi rahbariyati o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, psixologik faoliyatni tizimli rejalashtirish hamda xizmat natijadorligini aniq mezonlar asosida baholash zarurligini ta’kidlagan [9, 198–202-b.]. Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmatni takomillashtirishda tashkiliy, kasbiy va ijtimoiy-psixologik omillarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Mavzuga doir ilmiy manbalar tahlili ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning nazariy asoslari, faoliyat yo‘nalishlari, amaliyotchi psixologning kasbiy vazifalari, o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash va ta’lim muhitining xavfsizligini ta’minlash masalalari yetarli darajada o‘rganilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologik diagnostika, profilaktika, maslahat, korreksiya va rivojlantirish ishlarini tashkil etishga doir ko‘plab ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda ta’lim muassasasidagi psixologik xizmatning barcha ishtirokchilari, faoliyat yo‘nalishlari, bosqichlari, mexanizmlari va samaradorlik mezonlarini yagona tizimga birlashtiruvchi ijtimoiy-psixologik model masalasi to‘liq yoritilmagan.

Ayrim tadqiqotlarda psixologik xizmatning alohida yo‘nalishlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, diagnostik natijalarni profilaktik, konsultativ, korreksion va rivojlantiruvchi faoliyat bilan integratsiyalash, pedagoglar va ota-onalarning psixologik xizmatdagi ishtirokini kuchaytirish hamda amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini kompleks mezonlar asosida baholash masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shuningdek, zamonaviy raqamli muhit, kiberbulling, axborot bosimi, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik va o‘quvchilar orasidagi virtual muloqot bilan bog‘liq psixologik muammolarning kuchayishi psixologik xizmat amaliyotiga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda.

Shu bois ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mavjud amaliyotini tahlil qilish, uning samaradorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, xizmatning maqsadi, tamoyillari, tarkibiy komponentlari, amalga oshirish mexanizmlari va baholash mezonlarini qamrab olgan yaxlit modelni ishlab chiqish zarurati mavjud. Mazkur ilmiy ehtiyoj “Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik modeli va uning samaradorligi” mavzusini maxsus tadqiq etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil natijlari. Tadqiqot obyekti sifatida ta’lim muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmat amaliyoti hamda mazkur xizmat jarayonida o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan psixologik yordam tizimi belgilandi. Tadqiqotda umumiy hisobda 100 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Respondentlarning 54 nafarini qizlar, 46 nafarini o‘g‘il bolalar tashkil etdi. Tadqiqot ishtirokchilarining yoshi 14–17 yosh oralig‘ida bo‘lib, ularning o‘rtacha yoshi 15,6 yoshni tashkil etdi.

Tadqiqot ishtirokchilari tajriba va nazorat guruhlariga teng taqsimlandi. Tajriba guruhiga 50 nafar, nazorat guruhiga esa 50 nafar o‘quvchi jalb qilindi. Tajriba guruhida ta’lim muassasasidagi psixologik

xizmat amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik model asosida diagnostik, profilaktik, konsultativ, korreksion va rivojlantiruvchi tadbirlar amalga oshirildi. Nazorat guruhida esa psixologik xizmat faoliyati an’anaviy tartibda davom ettirildi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning ta’lim muhitidagi psixologik qulayligi, psixologik xizmatga nisbatan ishonchi, mutaxassisga murojaat qilishga tayyorligi, shaxslararo munosabatlari va nizoli vaziyatlarga moyilligi o‘rganildi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 24 foizida psixologik qulaylik yuqori, 46 foizida o‘rta va 30 foizida past darajada ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 26 foiz, 44 foiz va 30 foizni tashkil etdi. Bu natijalar tadqiqotning dastlabki bosqichida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud bo‘lmaganini ko‘rsatdi.

Ijtimoiy-psixologik model tajriba guruhida amaliyotga joriy etilganidan so‘ng o‘quvchilarning psixologik holatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, tajriba guruhida psixologik qulaylikning yuqori darajasi 24 foizdan 58 foizga oshdi, past darajadagi ko‘rsatkich esa 30 foizdan 10 foizga kamaydi. Nazorat guruhida yuqori daraja 26 foizdan 32 foizga oshgan bo‘lsa, past daraja 30 foizdan 26 foizga kamaydi.

O‘quvchilarning psixologik xizmatga ishonch darajasi tajriba guruhida dastlabki o‘rtacha 2,98 balldan yakuniy bosqichda 4,10 ballgacha oshdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 3,01 balldan 3,19 ballgacha o‘zgardi. Psixologga murojaat qilishga tayyorlik tajriba guruhida 2,85 balldan 3,96 ballgacha ko‘tarilgan bo‘lsa, nazorat guruhida 2,88 balldan 3,07 ballgacha oshdi.

Shuningdek, tajriba guruhida shaxslararo nizolarga moyillikning o‘rtacha ko‘rsatkichi 3,41 balldan 2,36 ballgacha kamaydi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 3,38 balldan 3,21 ballgacha pasaydi. Tajriba guruhidagi dastlabki va yakuniy natijalar o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($t=-4,62$; $p\leq0,001$). Nazorat guruhida kuzatilgan o‘zgarishlar esa statistik jihatdan sezilarli darajaga yetmadi ($t=-1,21$; $p>0,05$).

Olingan natijalar ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik model o‘quvchilarning psixologik xizmatga bo‘lgan ishonchini oshirish, mutaxassisga murojaat qilish motivatsiyasini kuchaytirish, ta’lim muhitidagi psixologik qulaylikni yaxshilash hamda nizoli vaziyatlarni kamaytirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shu asosda taklif etilgan modelni ta’lim muassasalarining psixologik xizmat amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik model o‘quvchilarning psixologik holati, ta’lim muhitidagi qulaylik darajasi va psixologik yordamga bo‘lgan munosabatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Tajriba va nazorat guruhlarida dastlabki diagnostika natijalari deyarli bir xil bo‘lganligi guruhlarning boshlang‘ich holati o‘zaro yaqin ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa tajribadan keyingi o‘zgarishlarni joriy etilgan modelning ta’siri bilan izohlash imkonini beradi.

Tajriba guruhida psixologik qulaylikning yuqori darajasi 24 foizdan 58 foizga oshgan bo‘lsa, past daraja 30 foizdan 10 foizga kamaygan. Mazkur natija ishlab chiqilgan model asosida amalga oshirilgan diagnostik, profilaktik, konsultativ, korreksion va rivojlantiruvchi tadbirlar o‘quvchilarning ta’lim muhitida o‘zini xavfsiz, erkin va qo‘llab-quvvatlangan holda his etishiga yordam berganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa psixologik qulaylikning yuqori darajasi faqat 26 foizdan 32 foizga oshgan. Bu o‘zgarish tajriba guruhidagi natijaga nisbatan ancha past hisoblanadi.

Psixologik xizmatga bo‘lgan ishonch tajriba guruhida 2,98 balldan 4,10 ballgacha oshgan. Ushbu natija o‘quvchilarning amaliyotchi psixolog faoliyati, maxfiylik tamoyili, psixologik yordamning foydaliligi va mutaxassisning kasbiy imkoniyatlariga nisbatan ijobiy munosabati shakllanganini anglatadi. Psixologik xizmatga ishonchning oshishi o‘quvchilar tomonidan mavjud muammolarni yashirmasdan, o‘z vaqtida psixologga murojaat qilish imkoniyatini kuchaytiradi. Nazorat guruhida mazkur ko‘rsatkichning 3,01 balldan 3,19 ballgacha oshishi esa an’anaviy psixologik xizmat shakllarining o‘quvchilar munosabatiga cheklangan darajada ta’sir ko‘rsatganini ifodalaydi.

Psixologga murojaat qilishga tayyorlik tajriba guruhida 2,85 balldan 3,96 ballgacha ko‘tarilgan. Bu holat model doirasida o‘quvchilar bilan olib borilgan psixologik ma’rifat ishlari, individual va guruhiy maslahatlar, trening mashg‘ulotlari hamda ishonchli muloqot muhitining samarali bo‘lganini ko‘rsatadi. O‘quvchilar psixologga murojaat qilishni faqat murakkab muammo yuzaga kelgandagi zarurat sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanish, o‘zini anglash va muammolarni konstruktiv hal etish vositasi sifatida qabul qila boshlaganlar.

Tajriba guruhida shaxslararo nizolarga moyillik ko‘rsatkichi 3,41 balldan 2,36 ballgacha kamaygan. Ushbu natija o‘quvchilarda muloqot madaniyati, emotsiyalarni boshqarish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘nikmalarining rivojlanganini bildiradi. Model tarkibiga kiritilgan

guruhiy treninglar, muammoli vaziyatlar tahlili, rolli mashqlar va refleksiv suhbatlar o‘quvchilarning nizoli vaziyatlardagi xatti-harakatlarini o‘zgartirishga yordam bergan. Nazorat guruhida nizolarga moyillikning 3,38 balldan 3,21 ballgacha kamayishi sezilarli bo‘lmagan.

Tajriba guruhidagi dastlabki va yakuniy natijalar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanganligi ($t=-4,62$; $p\leq0,001$) ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik modelning samaradorligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida qayd etilgan tafovutning statistik jihatdan ahamiyatli emasligi ($t=-1,21$; $p>0,05$) an’anaviy psixologik xizmat shakllari o‘quvchilarning psixologik holatini tubdan o‘zgartirish uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar psixologik xizmat samaradorligi faqat amaliyotchi psixologning individual faoliyatiga emas, balki ta’lim muassasasi rahbariyati, pedagoglar, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikka ham bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Psixologik xizmat faoliyati tizimli rejalashtirilgan, diagnostika natijalari asosida tashkil etilgan va muntazam monitoring bilan qo‘llab-quvvatlangan holatdagina barqaror natijalarga erishish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalari psixologik xizmatda muammoga yo‘naltirilgan yondashuvdan profilaktik va rivojlantiruvchi yondashuvga o‘tish zarurligini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning psixologik muammolari murakkablashganidan keyin yordam ko‘rsatish bilan cheklanib qolmasdan, ularni yuzaga keltiruvchi xavf omillarini oldindan aniqlash va bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan taklif etilgan model psixologik xizmat faoliyatining uzluksizligi, manzilliligi, hamkorlikka asoslanganligi va natijadorligini ta’minlovchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Xulosa. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik modelni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta’lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish hamda psixologik yordamning samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqotda jami 100 nafar o‘quvchi ishtirok etib, ular 50 nafardan tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida psixologik xizmatning diagnostik, profilaktik, konsultativ, korreksion va rivojlantiruvchi yo‘nalishlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi ijtimoiy-psixologik model amaliyotga joriy etildi. Nazorat guruhida esa psixologik xizmat an’anaviy tartibda davom ettirildi.

Tadqiqot natijalari tajriba guruhida psixologik qulaylikning yuqori darajasi 24 foizdan 58 foizga oshganini, past daraja esa 30 foizdan 10 foizga kamayganini ko‘rsatdi. Psixologik xizmatga ishonch 2,98 balldan 4,10 ballgacha, psixologga murojaat qilishga tayyorlik esa 2,85 balldan 3,96 ballgacha oshdi. Shaxslararo nizolarga moyillik 3,41 balldan 2,36 ballgacha kamaydi.

Tajriba guruhidagi o‘zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli ekanligi ($t=-4,62$; $p\leq0,001$), nazorat guruhidagi o‘zgarishlarning esa statistik ahamiyatga ega emasligi ($t=-1,21$; $p>0,05$) ishlab chiqilgan modelning samaradorligini tasdiqladi. Mazkur model o‘quvchilarning psixologik xizmatga bo‘lgan ishonchini oshirish, mutaxassisga murojaat qilishga tayyorligini kuchaytirish, shaxslararo nizolarni kamaytirish va ta’lim muhitidagi psixologik qulaylikni yaxshilashga xizmat qildi.

Tadqiqot asosida psixologik xizmat samaradorligini ta’minlashda amaliyotchi psixologning kasbiy kompetentligi, psixologik faoliyatning tizimli rejalashtirilishi, diagnostik natijalarning amaliy dasturlar bilan bog‘lanishi, pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlik, muntazam monitoring hamda natijalarni baholash muhim omillar ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik modeli psixologik yordamni tizimli, izchil, manzilli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Mazkur modelni ta’lim muassasalari faoliyatiga joriy etish o‘quvchilarning psixologik salomatligini mustahkamlash, ta’lim motivatsiyasini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash va sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishga yordam beradi.

Amaliy tavsiyalar

1. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etishda diagnostik, profilaktik, konsultativ, korreksion va rivojlantiruvchi yo‘nalishlarni yagona tizim asosida o‘zaro muvofiqlashtirish lozim.

2. Har bir ta’lim muassasasida o‘quvchilarning psixologik holati, ta’lim muhitiga moslashuvi, shaxslararo munosabatlari va psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyojlarini muntazam o‘rganishga qaratilgan monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-989-son “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni, // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

5. Barotov Sh.R. Ta’limda psixologik xizmat: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2007. – 170 b.

6. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya: darslik. – Toshkent: «Ijod-Press», 2019. – 512 b. – ISBN 978-9943-6224-4-9.

7. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “NIF MSH”, 2020. – 288 b.

8. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b. – ISBN 978-9943-10-780-9.

9. Tilavov M.H. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari // “Ta’limda istiqbolli izlanishlar” ilmiy jurnali. – Buxoro, 2026. – № 6. – 1-qism. – B. 198–202. – ISSN 3060-527X.

10. Дубровина И.В. Практическая психология образования: учебное пособие / под редакцией И.В. Дубровиной. – 4-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – 592 с.

11. Битянова М.Р. Организация психологической работы в школе. – Москва: Совершенство, 1997. – 298 с. – ISBN 5-89441-007-X.

12. Овчарова Р.В. Практическая психология образования: учебное пособие. – 3-е изд., стер. – Москва: Издательский центр “Академия”, 2007. – 445, [1] с. – ISBN 978-5-7695-4069-1.

13. Rogers C.R., Freiberg H.J. Freedom to Learn. – 3rd ed. – New York: Merrill, 1994. – 406 p.

14. Maslow A.H. Motivation and Personality. – 3rd ed. – New York: Harper and Row, 1987. – 293 p.

15. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.

16. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

17. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // Child Development. – 2011. – Vol. 82. – № 1. – P. 405–432. – DOI: 10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x.

18. Weare K., Nind M. Mental Health Promotion and Problem Prevention in Schools: What Does the Evidence Say? // Health Promotion International. – 2011. – Vol. 26. – Supplement 1. – P. i29–i69. – DOI: 10.1093/heapro/dar075.

19. National Association of School Psychologists. The Professional Standards of the National Association of School Psychologists: Model for Comprehensive and Integrated School Psychological Services. – Bethesda, Maryland: National Association of School Psychologists, 2020.

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA IJTIMOIY MAS’ULIYAT VA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jabborova Saodat Zoirovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur maqolada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Muallif tomonidan “akmeologik yondashuv”, “ijtimoiy mas’uliyat”, “pedagogik liderlik” tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilib, ularning bo‘lajak tarbiyachi kasbiy shaxsi tuzilmasidagi o‘rni asoslangan. Tadqiqotda diagnostik-mo‘ljal, motivatsion-qadriyat, mazmuniy-texnologik va reflektiv-baholovchi bosqichlaridan iborat to‘rt bosqichli metodika ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir bosqichning maqsadi, mazmuni, shakl va metodlari, kutilayotgan natijalari asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajalarini aniqlash uchun mezon va ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Maqolada keltirilgan metodika oliy ta’lim muassasalarining maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun amaliy tavsiyalar bilan yakunlangan.

Kalit so‘zlar: *akmeologiya, akmeologik yondashuv, ijtimoiy mas’uliyat, pedagogik liderlik, bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy shakllanish, maktabgacha ta’lim, kasbiy mahorat, akme, pedagogik texnologiya.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В статье раскрыты теоретико-методические основы развития социальной ответственности и лидерских качеств у будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций на основе акмеологического подхода. Автором раскрыто содержание понятий “акмеологический подход”, “социальная ответственность”, “педагогическое лидерство” и обосновано их место в структуре профессиональной личности будущего воспитателя. Разработана четырёхэтапная методика, включающая диагностико-ориентировочный, мотивационно-ценностный, содержательно-технологический и рефлексивно-оценочный этапы, для каждого из которых обоснованы цель, содержание, формы и методы, ожидаемые результаты. Также разработана система критериев и показателей для определения уровня развития социальной ответственности и лидерских качеств. Статья завершается практическими рекомендациями по внедрению разработанной методики в учебный процесс вузов по направлению дошкольного образования.

Ключевые слова: *акмеология, акмеологический подход, социальная ответственность, педагогическое лидерство, будущий воспитатель, профессиональное становление, дошкольное образование, профессиональное мастерство, акме, педагогическая технология.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SOCIAL RESPONSIBILITY AND LEADERSHIP QUALITIES IN FUTURE PRESCHOOL EDUCATORS BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH

This article presents the theoretical and methodological foundations for developing social responsibility and leadership qualities in future preschool teachers based on the acmeological approach. The author reveals the content of the concepts of “acmeological approach”, “social responsibility”, and “pedagogical leadership” and substantiates their place in the structure of the professional personality of a future educator. A four-stage methodology is developed, consisting of diagnostic-orientational, motivational-value, content-technological, and reflective-evaluative stages, for each of which the purpose, content, forms and methods, and expected outcomes are substantiated. A system of criteria and indicators for determining the level of development of social responsibility and leadership qualities has also been developed. The article concludes with practical recommendations for implementing the developed methodology in the educational process of higher education institutions specializing in preschool education.

Keywords: *acmeology, acmeological approach, social responsibility, pedagogical leadership, future educator, professional development, preschool education, professional mastery, acme, pedagogical technology.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish, uni jahon andozalari darajasiga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarbiyachi kadrlar tayyorlash sifatiga nisbatan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi nafaqat bolalar bilan ishlash metodikasini puxta egallagan, balki jamoada tashabbuskorlik ko‘rsata oladigan, qaror qabul qilishga qodir, o‘z faoliyati va uning oqibatlari uchun mas’uliyatni his qiladigan, ota-onalar va hamkasblar orasida ishonchli obro‘ga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllanishi zarur. Ushbu talablar tarbiyachining kasbiy sifatlari tarkibida ijtimoiy mas’uliyat va liderlik kabi integrativ shaxsiy-kasbiy fazilatlarning alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda oliy pedagogika ta’limi amaliyotida bo‘lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ularda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini maqsadli va tizimli rivojlantirishga qaratilgan metodik ta’minot yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada ko‘plab bitiruvchilar nazariy jihatdan tayyor bo‘lsalar-da, amaliy faoliyatda tashabbus ko‘rsatish, jamoani boshqarish, ziddiyatli vaziyatlarda mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilish borasida qiynaladilar. Bu holat muammoning dolzarbligini belgilaydi va uni ilmiy-metodik jihatdan hal etishni taqozo etadi.

Ushbu muammoni hal etishda akmeologik yondashuv alohida salohiyatga ega. Akmeologiya — shaxsning kasbiy va shaxsiy taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisi (“akme”)ga erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sohasi sifatida, bo‘lajak mutaxassisning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki uning ichki salohiyati, mativdatsion-qadriyat yo‘nalganligi, o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini ham hisobga oladi. Aynan shu jihatdan akmeologik yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirishning samarali metodologik asosi bo‘la oladi.

Maqolaning maqsadi — akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirishning bosqichma-bosqich metodikasini ishlab chiqish, uning mazmuni, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda samaradorligini baholash mezonlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, “akmeologik yondashuv”, “ijtimoiy mas’uliyat” va “pedagogik liderlik” tushunchalarining ilmiy-nazariy mazmunini ochib berish va ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslash; ikkinchidan, bo‘lajak tarbiyachi shaxsida ushbu sifatlarning shakllanish mexanizmlarini aniqlash; uchinchidan, ularni rivojlantirishning bosqichma-bosqich metodikasini ishlab chiqish; to‘rtinchidan, rivojlanganlik darajasini baholash uchun mezon va ko‘rsatkichlar tizimini asoslash; beshinchidan, metodikani amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda akmeologiya, ijtimoiy pedagogika va kasbiy ta’lim nazariyasi chegarasida yotgan muammo — bo‘lajak tarbiyachida ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirish masalasi yaxlit, tizimli tarzda tadqiq etildi hamda bu boradagi mavjud nazariy bo‘shliq muayyan darajada to‘ldirildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan metodika, mezon va ko‘rsatkichlar tizimining oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayoniga bevosita tatbiq etilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavriat bosqichi talabalarining kasbiy shakllanish jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari belgilab olindi. Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuvga asoslangan, izchil bosqichlardan iborat maxsus metodika qo‘llanilsa va bunda diagnostika, motivatsiya, amaliy faoliyat hamda refleksiya uzviy bog‘lansa, u holda talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarining rivojlanish darajasi sezilarli darajada yuksaladi, chunki bu holda shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlari faollashadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Akmeologiya fanining nazariy-metodologik asoslari B.G. Ananyev, N.V. Kuzmina, A.A. Derkach, A.A. Bodalyov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida chuqur yoritilgan bo‘lib, ular kasbiy mahoratning yuksalish jarayonini shaxsning integral rivojlanishi bilan bog‘liq holda tadqiq etganlar. N.V. Kuzminaning fikricha, pedagogik faoliyatda akmeologik daraja pedagogning nafaqat bilim va malakalari, balki uning kasbiy-shaxsiy pozitsiyasi, qadriyat yo‘nalganligi va ijodiy salohiyati bilan belgilanadi. A.A. Derkach tomonidan ishlab chiqilgan akmeologik rivojlanish modeli esa shaxsning kasbiy taraqqiyotini bosqichma-bosqich, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonlari orqali izohlaydi.

Ijtimoiy mas’uliyat muammosi psixologik-pedagogik adabiyotlarda K. Muzdibayev, L. Kolberg, J. Piaje kabi tadqiqotchilar tomonidan shaxsning axloqiy-ijtimoiy rivojlanishi kontekstida o‘rganilgan. O‘zbek olimlaridan R.X. Jo‘rayev, N.A. Muslimov, U.I. Inoyatov singari pedagoglarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mas’uliyati kasb etikasi va pedagogik faoliyat samaradorligining muhim omili sifatida talqin etiladi.

Pedagogik liderlik muammosi esa J. Maksvell, P. Nortxauz kabi xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy asarlarida boshqaruv psixologiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo‘lsa, mahalliy pedagogika fanida bu masala ko‘proq “tashabbuskorlik”, “tashkilotchilik qobiliyati” tushunchalari orqali yoritib kelingan. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini aynan akmeologik yondashuv negizida, yaxlit metodik tizim sifatida rivojlantirish masalasi hozirgacha maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan, bu esa tanlangan mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlarning uzviy birligi tashkil etadi. Akmeologik yondashuv, o‘z navbatida, quyidagi tamoyillarga tayanadi: rivojlanishning uzluksizligi tamoyili; individuallashtirish tamoyili; refleksiya va o‘z-o‘zini baholash tamoyili; subyektivlik tamoyili (bo‘lajak tarbiyachining o‘z kasbiy taraqqiyotining faol subyekti sifatida ishtirok etishi); yaxlitlik va tizimlilik tamoyili.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bo‘lajak tarbiyachida ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish ularni rivojlantirish metodikasini ilmiy asoslash uchun zarur bo‘ldi. O‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida ushbu sifatlarning tarkibida quyidagi to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent ajratildi: kognitiv komponent, motivatsion-qadriyat komponenti, faoliyat-amaliy komponent va shaxsiy-irodaviy komponent.

Kognitiv komponent bo‘lajak tarbiyachining kasbiy mas’uliyat va liderlik mohiyati, ularning bolalar tarbiyasidagi o‘rni, huquqiy-me’yoriy asoslari haqidagi bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi. Motivatsion-qadriyat komponenti kasbga, bolalarga, hamkasblarga nisbatan ijobiy munosabatni, kasbiy burch va sha’n tuyg‘usini ifodalaydi. Faoliyat-amaliy komponent amaliy vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish, jamoani tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalarini anglatadi. Shaxsiy-irodaviy komponent esa qat’iyatlilik, o‘zini tuta bilish, stress vaziyatlarida o‘zini boshqara olish kabi irodaviy sifatlarni qamrab oladi. Ushbu to‘rt komponentning uyg‘un rivojlanishi natijasida bo‘lajak tarbiyachida yaxlit kasbiy-shaxsiy sifat sifatida ijtimoiy mas’uliyat va liderlik shakllanadi.

O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida bo‘lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv negizida ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirishning to‘rt bosqichli metodikasi ishlab chiqildi. Har bir bosqich o‘zining aniq maqsadi, mazmuni, shakl va metodlariga ega bo‘lib, ular bir-birini izchil to‘ldirib boradi.

1-jadval.

Bosqich	Maqsadi	Mazmuni	Shakl va metodlar
1. Diagnostik-mo‘ljal bosqichi	Talabalarning boshlang‘ich ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlari darajasini aniqlash	O‘z-o‘zini baholash, kasbiy yo‘nalganlikni diagnostika qilish, individual rivojlanish yo‘nalishini belgilash	Test-so‘rovnoma, suhbat, kuzatuv, kasbiy portfolio tahlili
2. Motivatsion-qadriyat bosqichi	Kasbiy mas’uliyat va liderlikka ichki ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish	Kasbiy qadriyatlar tizimini singdirish, muvaffaqiyatga erishgan tarbiyachilar tajribasi bilan tanishtirish	Uchrashuvlar, ustoz-shogird amaliyoti, motivatsion trening, keys-stadi
3. Mazmuniy-texnologik bosqich	Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish	Jamoaviy loyihalarni boshqarish, ziddiyatlarni hal etish, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish	Ishbilarmonlik o‘yinlari, loyiha metodi, trening-mashg‘ulotlar, amaliyot davomida rahbarlik topshiriqlari
4. Reflektiv-baholovchi bosqich	Erishilgan natijalarni tahlil qilish va keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilash	O‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘zaro baholash, kasbiy o‘sish rejasini tuzish	Reflektiv kundalik, portfolio himoyasi, guruhli muhokama, individual maslahat

Metodikaning barcha bosqichlari o‘zaro ketma-ketlik va uzviylik tamoyiliga asoslanadi, ya’ni har bir keyingi bosqich oldingi bosqich natijalariga tayanadi va uni rivojlantiradi. Bunday tizimlilik bo‘lajak tarbiyachining ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini bir martalik tadbir sifatida emas, balki uzoq muddatli, izchil pedagogik jarayon sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, metodika egiluvchan xususiyatga ega bo‘lib, uni turli oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik va kadrlar

salohiyatiga moslashtirgan holda qo‘llash mumkin — masalan, mazmuniy-texnologik bosqichdagi ishbilarmonlik o‘yinlarini auditoriya sharoitida yoki bevosita amaliyot bazalarida tashkil etish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarining rivojlanish jarayoni chiziqli emas, balki spiralsimon xarakterga ega — ya’ni talaba bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishda vaqti-vaqti bilan avvalgi bosqichga xos xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin, biroq har safar sifat jihatidan yuqoriroq darajada. Bu qonuniyat akmeologiyada “rivojlanish spirali” tushunchasi orqali izohlanadi va u metodikani loyihalashtirishda alohida hisobga olindi — xususan, reflektiv-baholovchi bosqich nafaqat yakuniy, balki har bir oraliq bosqichda ham qisman qo‘llaniladigan uzluksiz jarayon sifatida tashkil etildi.

Baholash mezonlarini ishlab chiqishda ularning ob’ektivligi, izchilligi va o‘lchanuvchanligi tamoyillariga alohida e’tibor qaratildi. Har bir mezon bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlar belgilanib, ular asosida test topshiriqlari, kuzatuv varaqalari va o‘z-o‘zini baholash anketalari ishlab chiqildi. Bunday yondashuv nafaqat talabaning umumiy rivojlanganlik darajasini, balki uning har bir alohida komponent (kognitiv, motivatsion-qadriyat, faoliyat-amaliy, reflektiv) bo‘yicha qay darajada rivojlanganligini aniqlash imkonini beradi, bu esa individual korreksion ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajasini ob’ektiv baholash uchun quyidagi to‘rtta mezon va ularga mos ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi: kognitiv mezon (kasbiy mas’uliyat va liderlik mohiyatini anglash darajasi), motivatsion-qadriyat mezoni (kasbga nisbatan ichki motivatsiya va qadriyat yo‘nalganligi), faoliyat-amaliy mezon (amaliy vaziyatlarda mas’uliyatli va tashabbuskor xatti-harakat ko‘rsata olish qobiliyati) hamda reflektiv mezon (o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati). Har bir mezon bo‘yicha rivojlanganlik darajasi shartli ravishda uch darajaga — quyi, o‘rta va yuqori darajalarga ajratildi.

2-jadval.

Daraja	Kognitiv-motivatsion belgilar	Faoliyat-amaliy belgilar	Reflektiv belgilar
Yuqori	Kasbiy mas’uliyat va liderlik mohiyatini chuqur anglaydi, ichki motivatsiyasi barqaror	Jamoani mustaqil boshqaradi, ziddiyatlarni konstruktiv hal etadi, tashabbus ko‘rsatadi	O‘z faoliyatini tizimli tahlil qiladi, o‘z-o‘zini rivojlantirish rejasiga ega
O‘rta	Tushunchalar haqida umumiy tasavvurga ega, motivatsiyasi beqaror	Ko‘rsatma asosida mas’uliyatli harakat qiladi, tashabbusi cheklangan	O‘z faoliyatini qisman, tashqi yordam bilan tahlil qiladi
Quyi	Tushunchalar haqida tasavvuri yuzaki, motivatsiyasi shakllanmagan	Mas’uliyatdan qochadi, tashabbus ko‘rsatmaydi	O‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanmagan

Metodikaning dastlabki sinov-tatbiqi. Ishlab chiqilgan metodikaning amaliy jihatdan asoslanganligini tekshirish maqsadida Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi bazasida dastlabki sinov-tatbiq ishlari tashkil etildi. Sinov ishlarida “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 2- va 3-kurs talabalaridan iborat ikkita guruh — tajriba guruhi (30 nafar) va nazorat guruhi (30 nafar) ishtirok etdi. Tajriba guruhida yuqorida bayon etilgan to‘rt bosqichli metodika bir o‘quv semestri davomida izchil qo‘llanildi, nazorat guruhida esa ta’lim jarayoni an’anaviy tartibda davom ettirildi.

Sinov ishi boshida va yakunida har ikkala guruhda ham ishlab chiqilgan mezon va ko‘rsatkichlar tizimi asosida so‘rovnoma, kuzatuv hamda amaliy topshiriqlar yordamida diagnostika o‘tkazildi. Talabalarning ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlari rivojlanganlik darajasi (yuqori, o‘rta, quyi) bo‘yicha taqsimlanishi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Guruh / bosqich	Daraja	Boshlang‘ich (%)	Yakuniy (%)	O‘zgarish (%)
Tajriba guruhi (n=30)	Yuqori	13,3	36,7	+23,4
	O‘rta	40,0	50,0	+10,0
	Quyi	46,7	13,3	−33,4
Nazorat guruhi (n=30)	Yuqori	13,3	16,7	+3,4
	O‘rta	40,0	43,3	+3,3
	Quyi	46,7	40,0	−6,7

Keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida yuqori darajaga ega talabalar ulushi sinov boshida 13,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, sinov yakunida bu ko‘rsatkich 36,7 foizga, ya’ni deyarli uch

baravar oshdi. Shu bilan birga, quyi darajadagi talabalar ulushi 46,7 foizdan 13,3 foizga tushdi. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar sezilarli darajada kamroq bo‘lib, bu tabiiy ta’lim jarayonining o‘zi ham muayyan darajada ijobiy dinamikani ta’minlashini, biroq maqsadli va tizimli akmeologik metodika qo‘llanilmasa, bu dinamika sust kechishini ko‘rsatadi. Olingan natijalarning statistik ishonchliligini tekshirish uchun Styudent t-mezonidan foydalanildi, natijada guruhlar o‘rtasidagi farq $p<0,05$ ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, keltirilgan ma’lumotlar dastlabki, cheklangan hajmdagi sinov-tatbiq natijalari bo‘lib, metodikaning yakuniy samaradorligini to‘liq tasdiqlash uchun kelgusida kengroq tanlanma asosida uzoq muddatli pedagogik tajriba-sinov ishlarini davom ettirish talab etiladi.

Natijalar tahlili va muhokama. Ishlab chiqilgan metodikaning nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, akmeologik yondashuv negizidagi to‘rt bosqichli tizim an’anaviy o‘quv-tarbiya jarayonidan farqli o‘laroq, bo‘lajak tarbiyachining shaxsiy-kasbiy salohiyatini yaxlit rivojlantirishga xizmat qiladi. An’anaviy yondashuvda ko‘pincha nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga urg‘u berilsa, akmeologik yondashuv talabani o‘z kasbiy rivojlanishining faol sub’ekti sifatida qarab, uning motivatsion-qadriyat sohasi, amaliy ko‘nikmalari va reflektiv qobiliyatlarini uyg‘un tarzda shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirishda oila va jamoatchilik bilan hamkorlik ham muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak tarbiyachilarni ota-onalar bilan muloqot qilish, ularga pedagogik-psixologik maslahatlar berish, oila-bog‘cha hamkorligini tashkil etish kabi vazifalarga jalb etish ularda ijtimoiy mas’uliyatning yana bir muhim qirrasi — jamoatchilik oldidagi javobgarlikni shakllantiradi. Shu maqsadda metodikaning mazmuniy-texnologik bosqichida talabalar uchun “ota-onalar yig‘ilishini tashkil etish”, “oilaviy tarbiya bo‘yicha konsultatsiya berish” kabi amaliy topshiriqlar ham nazarda tutilgan bo‘lib, bular talabalarning nafaqat bolalar, balki kattalar auditoriyasi bilan ham ishonchli va mas’uliyatli muloqot o‘rnatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Metodikaning amaliy ahamiyati va tatbiq etish istiqbollari. Ishlab chiqilgan metodika bir qator amaliy imkoniyatlarga ega. Birinchidan, u oliy ta’lim muassasalarining “Pedagogik mahorat”, “Maktabgacha pedagogika”, “Bolalar psixologiyasi” fanlari bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlarini boyitish uchun tayyor metodik material sifatida xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, taklif etilgan mezon va ko‘rsatkichlar tizimi malaka oshirish kurslari doirasida faoliyatdagi tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini baholashda ham qo‘llanilishi mumkin. Uchinchidan, akmeogramma modeli asosida talabalar uchun elektron kasbiy rivojlanish jurnalini yaratish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, bu raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida talaba faoliyatini uzluksiz kuzatib borish imkonini beradi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: metodikaning samaradorligini kengroq tanlanma (bir necha oliy ta’lim muassasasi miqyosida) asosida uzoq muddatli tajriba-sinovdan o‘tkazish; ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarining jins, yosh va kurs bosqichiga ko‘ra farqlanish xususiyatlarini o‘rganish; shuningdek, metodikani raqamli ta’lim texnologiyalari, xususan, sun’iy intellektga asoslangan moslashuvchan ta’lim tizimlari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning cheklovlari. Har qanday ilmiy tadqiqot singari, ushbu ishning ham muayyan cheklovlari mavjud. Birinchidan, sinov-tatbiq ishlari nisbatan cheklangan tanlanma (jami 60 nafar talaba) va bitta oliy ta’lim muassasasi bazasida o‘tkazildi, bu esa natijalarni butun respublika miqyosida umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchidan, tadqiqot bir o‘quv semestri davomida olib borilgani sababli, metodikaning uzoq muddatli, masalan, butun bakalavriat davri davomidagi ta’sirini to‘liq baholash imkoniyati bo‘lmadi. Uchinchidan, baholash asosan o‘z-o‘zini baholash va kuzatuvga asoslangan usullar yordamida amalga oshirilgani bois, natijalarning to‘liq ob’ektivligini ta’minlash uchun kelgusida ekspert baholash va uzoq muddatli monitoring usullarini ham qo‘shimcha qo‘llash tavsiya etiladi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish kelgusi tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, akmeologik yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirishning samarali metodologik asosi bo‘la oladi. Ishlab chiqilgan to‘rt bosqichli metodika — diagnostik-mo‘ljal, motivatsion-qadriyat, mazmuniy-texnologik va reflektiv-baholovchi bosqichlardan iborat bo‘lib, u talabaning shaxsiy-kasbiy salohiyatini izchil va yaxlit tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot bo‘lajak tarbiyachilar tayyorgarligi tizimida akmeologik yondashuvning nazariy-metodologik salohiyatini ochib berdi hamda uni amaliyotga tatbiq etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini taqdim etdi. Tadqiqot davomida ilgari surilgan farazning tasdiqlanishi, ya’ni maqsadli va izchil tashkil etilgan akmeologik metodikaning talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlari rivojlanishiga sezilarli ijobiy

ta’sir ko‘rsatishi, ushbu yondashuvning oliy pedagogik ta’lim amaliyotiga keng joriy etilishi zarurligini yana bir bor asoslaydi.

1. Oliy ta’lim muassasalarining maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejalariga ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus modul yoki fakultativ kursni kiritish;

2. Pedagogik amaliyot dasturlariga talabalarning kichik guruhlarga rahbarlik qilish, tadbirlarni tashkil etish kabi vazifalarni majburiy tarzda kiritish;

3. Professor-o‘qituvchilar uchun akmeologik texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish seminarlarini tashkil etish;

4. Talabalarning kasbiy rivojlanishini kuzatib borish uchun taklif etilgan mezon va ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan holda elektron portfolio tizimini joriy etish;

5. Ustoz-shogird tizimini institutsional darajada mustahkamlash va uni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot yakunida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash sifatini oshirish — bu nafaqat oliy ta’lim muassasalarining, balki butun jamiyatning strategik vazifasi hisoblanadi, chunki maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi kelajak avlodning dastlabki ijtimoiy-shaxsiy sifatlari shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu ma’noda, bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogika fani, balki davlat ta’lim siyosati darajasidagi dolzarb ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy mas’uliyat va liderlik sifatlarini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish nafaqat alohida mutaxassisning kasbiy mahoratini yuksaltiradi, balki umuman maktabgacha ta’lim tizimi sifatini oshirishga, sog‘lom, mas’uliyatli va yetakchilik qobiliyatiga ega yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi kadrlar salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada olib borilgan tadqiqot kelgusida mazkur metodikaning turli oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llanilishi va uning uzoq muddatli samaradorligini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. — Toshkent, 2017.

3. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала.—Москва: МПСИ, 2004. — 752 с.

4. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. — Москва: Высшая школа, 1990. — 119 с.

5. Бодалёв А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. — Москва: Флинта, Наука, 1998. — 168 с.

6. Jo‘rayev R.X., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiya asoslari. —Toshkent: O‘qituvchi, 2018. — 240 b.

7. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. — Toshkent, 2007.

9. Maxwell J.C. The 21 Irrefutable Laws of Leadership.—Nashville: Thomas Nelson, 1998.—279 p.

10. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. — 8th ed. — Los Angeles: SAGE Publications, 2018. — 494 p.

11Муздыбаев К. Психология ответственности. — Ленинград: Наука, 1983. — 240 с.

12. Kolberg L. The Psychology of Moral Development: The Nature and Validity of Moral Stages. — San Francisco: Harper & Row, 1984.

13. Yo‘ldosheva M.J. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. b-cha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. — Toshkent, 2021.

14. Xoshimova D.P. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy mahoratini oshirish texnologiyalari. — Buxoro: BuxDPI nashriyoti, 2022. — 156 b.

15. Sergeyeva V.P. Upravlenie obrazovatelnыmi sistemami. — Moskva: TC Sfera, 2015. — 320 s.

17. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. — 230 b.

18. Gafforova M.A. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy-shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. b-cha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. — Toshkent, 2020.

19. Дейкина Т.Г. Акмеологический подход к профессиональному развитию педагога дошкольного образования // Вестник педагогических наук. — 2019. — № 3. — С. 45–52.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURINI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Elov Ziyodullo Sattorovich,
Osiyo xalqaro universiteti, DSc
Ablayeva Xosiyat Otabek qizi,
Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistranti

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda PIRLS xalqaro baholash dasturini qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. PIRLS o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matnni tushunish jarayonlari, adabiy va axborot matnlari bilan ishlash qobiliyatini xalqaro mezonlar asosida o‘rganadi. Maqolada PIRLS natijalaridan darsni rejalashtirish, o‘quv topshiriqlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida tuzish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o‘qituvchilarning baholash madaniyatini takomillashtirishda foydalanish yo‘llari asoslanadi. Tadqiqotda rasmiy PIRLS hujjatlari, xalqaro hisobotlar va O‘zbekiston ta’lim tizimiga oid manbalar tahlil qilindi. Natijada PIRLSni faqat reyting yoki nazorat vositasi sifatida emas, balki o‘qish ta’limini mazmunan yangilaydigan pedagogik diagnostika modeli sifatida qo‘llash zarurligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: *PIRLS, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, xalqaro baholash, pedagogik imkoniyat, matnni tushunish, kompetentsiyaviy yondashuv, baholash madaniyati.*

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE PIRLS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN PRIMARY EDUCATION

This article analyzes the pedagogical possibilities of using the PIRLS international assessment program in primary education. PIRLS examines fourth-grade pupils’ reading literacy, comprehension processes, and ability to work with literary and informational texts according to international criteria. The article explains how PIRLS results may be used for lesson planning, competency-based task design, development of independent thinking, and improvement of teachers’ assessment culture. The study relies on official PIRLS documents, international reports, and sources related to the education system of Uzbekistan. The findings show that PIRLS should be applied not only as a ranking or control mechanism, but also as a pedagogical diagnostic model that renews the content of reading instruction.

Key words: *PIRLS, primary education, reading literacy, international assessment, pedagogical possibility, reading comprehension, competency-based approach, assessment culture.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ PIRLS В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

В статье анализируются педагогические возможности применения международной программы оценки PIRLS в начальном образовании. PIRLS изучает читательскую грамотность учащихся четвёртого класса, процессы понимания текста, умение работать с художественными и информационными текстами на основе международных критериев. В статье обосновываются пути использования результатов PIRLS при планировании уроков, разработке компетентностных заданий, развитии самостоятельного мышления учащихся и совершенствовании оценочной культуры учителей. Исследование основано на официальных документах PIRLS, международных отчётах и источниках, связанных с системой образования Узбекистана. Сделан вывод о том, что PIRLS следует применять не только как инструмент рейтинга или контроля, но и как педагогическую диагностическую модель, обновляющую содержание обучения чтению.

Ключевые слова: *PIRLS, начальное образование, читательская грамотность, международная оценка, педагогические возможности, понимание текста, компетентностный подход, культура оценивания.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi barcha fanlarni o‘zlashtirish uchun asosiy poydevor hisoblanadi. O‘quvchi matnni to‘g‘ri o‘qishi, undagi ochiq va yashirin axborotni ajrata olishi, dalil

va xulosa o‘rtasidagi munosabatni anglashi, shuningdek, o‘qigan ma’lumotini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatni belgilaydi. Shu sababli xalqaro baholash dasturlari, xususan PIRLS, boshlang‘ich sinflarda o‘qish ta’limini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

PIRLS - Progress in International Reading Literacy Study - IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement - Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tomonidan tashkil etiladigan xalqaro tadqiqot bo‘lib, u 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini taqqoslama asosda baholaydi [3,1]. Dastur o‘quvchilarning faqat matnni mexanik o‘qishini emas, balki ma’noni anglash, ma’lumotni izlash, xulosa chiqarish, g‘oyalarni baholash va matn tiliga munosabat bildirish ko‘nikmalarini o‘rganadi [2,12]. Bu jihat PIRLSni an’anaviy nazorat ishlaridan farqlaydi: unda baholash natijasi o‘quvchining qancha ma’lumot yodlaganini emas, balki u matn bilan qanday fikriy operatsiyalarni bajara olishini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning PIRLS - 2021 tadqiqotida ishtirok etishi mamlakatda o‘qish savodxonligi holatini xalqaro mezonlar asosida ko‘rish imkonini berdi. World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2021 yilda PIRLS bo‘yicha o‘rtacha natija 437 ballni tashkil etgan, 177 ta maktab va 4213 nafar 4-sinf o‘quvchisi tadqiqotda qatnashgan [12,1]. Bu raqamlarni oddiy reyting sifatida qabul qilish etarli emas; ular boshlang‘ich ta’limda matn bilan ishlash metodikasi, o‘quv muhiti, oilaviy kitobxonlik, o‘qituvchi tayyorgarligi va baholash madaniyatini qayta ko‘rib chiqish uchun diagnostik ma’lumot vazifasini bajaradi.

Maqolaning maqsadi - boshlang‘ich ta’limda PIRLS xalqaro baholash dasturini qo‘llashning pedagogik imkoniyatlarini ochib berish, uni o‘qish savodxonligini rivojlantirish, o‘quv topshiriqlarini modernizatsiya qilish va o‘qituvchilarning baholash kompetentsiyasini oshirish nuqtayi nazaridan tahlil qilishdan iborat. Maqolada asosiy etibor PIRLSni faqat tashqi baholash sifatida emas, balki kundalik dars jarayonini yaxshilashga xizmat qiluvchi metodik yo‘naltiruvchi tizim sifatida talqin qilishga qaratildi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda nazariy-tahliliy, qiyosiy va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida PIRLS 2021 International Results in Reading, PIRLS 2021 Assessment Frameworks, PIRLS 2021 Technical Report, PIRLS Encyclopedia va O‘zbekiston bo‘yicha rasmiy country profile ma’lumotlari o‘rganildi [3,1; 2,12; 11,11; 9,3]. Shuningdek, World Bankning PIRLS 2021 bo‘yicha O‘zbekistonga oid ma’lumotlari, NCES izohlari va o‘qish savodxonligi bo‘yicha klassik pedagogik tadqiqotlar tahlil qilindi [12,1; 4,1; 10,11; 1,205].

Metodologik yondashuvda uch mezon asosiy mezonlar sifatida olindi: birinchidan, PIRLS baholash ramkasidagi o‘qish maqsadlari va tushunish jarayonlarini boshlang‘ich ta’lim amaliyoti bilan bog‘lash; ikkinchidan, xalqaro natijalarni mahalliy ta’lim ehtiyojlari bilan qiyoslash; uchinchidan, baholash natijalaridan o‘quv jarayonini yaxshilashga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ajratib ko‘rsatish. Bunday yondashuv maqolada nazariy fikrlarni amaliy misollar bilan asoslash imkonini berdi.

Nazariy asoslar. PIRLS yondashuvining pedagogik qiymati o‘qish jarayonini alohida ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki matn, o‘quvchi tajribasi va o‘quv topshirig‘i o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida ko‘rishida namoyon bo‘ladi. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda dekodlash, lug‘at boyligi, fon bilimlari, inferensiya, metakognitiv nazorat va matn tuzilishini anglash bir-birini to‘ldiradi. Milliy o‘qish paneli samarali o‘qish ta’limida fonemik anglash, ravon o‘qish, lug‘at, tushunish strategiyalari va matn bilan faol ishlash birgalikda olib borilishi zarurligini ko‘rsatadi [5,14]. Demak, PIRLSga tayangan dars o‘quvchini faqat test savollariga o‘rgatmaydi, balki matnni ongli idrok qilishga tayyorlaydi.

PIRLS mezonlarining boshlang‘ich ta’lim uchun ahamiyati shundaki, ular o‘qituvchiga har bir savolning didaktik vazifasini oldindan ko‘rish imkonini beradi. Masalan, bir savol faktni aniqlashga xizmat qilsa, ikkinchisi sabab-oqibatni ochadi, uchinchisi esa matn tilini baholashga yo‘naltiradi. Shu sababli dars jarayonida savollar tasodifiy emas, balki o‘quvchining fikrlash yo‘lini bosqichma-bosqich chuqurlashtiruvchi metodik tizim sifatida tuziladi. Bu yondashuv Pressley tomonidan ilgari surilgan muvozanatli o‘qitish g‘oyasi bilan hamohang bo‘lib, unda o‘qituvchi avval model ko‘rsatadi, keyin o‘quvchi bilan birga mashq qiladi va asta-sekin mustaqil ishlashga olib chiqadi [8,35].

Maqolada qo‘llangan tahlil faqat statistik natijalarni izohlash bilan cheklanmaydi. Unda PIRLS hujjatlaridagi mezonlar boshlang‘ich sinf o‘qish darsining real pedagogik vazifalari bilan qiyoslandi: matn tanlash, savol tuzish, javobni baholash, xatoni aniqlash, qayta o‘qitish va ota-onalar bilan hamkorlik. Bunday kengroq tahlil PIRLSni alohida nazorat tadbiri sifatida emas, balki o‘qish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi.

PIRLSning markazida “o‘qish savodxonligi” tushunchasi turadi. Bu tushuncha o‘quvchining matndan ma’no olishi, undan o‘rganishi, zavqlanishi, axborotni baholashi va jamiyat hayotida ishtirok etish uchun o‘qishdan foydalanishini qamrab oladi [2,12]. Demak, PIRLS o‘qishni tor ma’nodagi texnika emas, keng ma’nodagi kognitiv va ijtimoiy kompetentsiya sifatida tushuntiradi.

PIRLS baholashi ikki asosiy o‘qish maqsadiga tayanadi: adabiy tajriba orttirish uchun o‘qish va axborot olish hamda undan foydalanish uchun o‘qish [2,12]. Boshlang‘ich sinf darslarida bu ikki maqsadning har ikkalasi muhim. Masalan, ertak yoki hikoya o‘qilganda o‘quvchi qahramonning xatti-harakatini tushunadi, voqealar ketma-ketligini belgilaydi, xulosa chiqaradi. Ilmiy-ommabop matn o‘qilganda esa u asosiy faktni ajratadi, jadval yoki rasmdagi ma’lumotni matn bilan bog‘laydi, sabab-oqibat munosabatini tushunadi. Shunday qilib, PIRLS o‘qituvchiga har xil matn turlari bilan maqsadli ishlash zarurligini ko‘rsatadi.

PIRLSda tushunish jarayonlari ham bosqichma-bosqich ajratiladi: aniq ma’lumotni topish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosa chiqarish, g‘oya va axborotni talqin qilish, matn mazmuni va tilini baholash [2,12]. Bu jarayonlar darsda savol berish madaniyatini o‘zgartiradi. Masalan, “Qahramon qayerga bordi?” degan savol faqat ma’lumotni topishga xizmat qiladi. “Qahramon nima uchun shunday qaror qildi?” degan savol xulosa chiqarishni talab qiladi. “Muallif nima uchun aynan shu so‘zni ishlatgan?” degan savol esa matn tilini baholashga olib keladi. Demak, PIRLS savollarni oddiy eslashdan tahlil va baholash darajasiga ko‘tarish imkonini beradi.

IEA ma’lumotlariga ko‘ra, PIRLS 2021 tadqiqoti 57 davlat va 8 ta benchmark ishtirokchini qamrab olgan, taxminan 400 ming o‘quvchi, 380 ming ota-ona, 20 ming o‘qituvchi va 13 ming maktabdan ma’lumot to‘plangan [3,1]. Bunday qamrov dastur natijalarini faqat o‘quvchi bilimi haqidagi ma’lumot emas, balki o‘quv muhiti, oilaviy kitobxonlik, o‘qituvchi amaliyoti va maktab sharoitini o‘rganish imkonini beruvchi kompleks bazaga aylantiradi.

Birinchi pedagogik imkoniyat - o‘qish ta’limini diagnostik asosda tashkil etishdir. An’anaviy baholashda ko‘pincha o‘quvchining javobi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi qayd etiladi, ammo xato qaysi fikriy jarayonda sodir bo‘lgani aniqlanmaydi. PIRLS ramkasi esa o‘quvchi ma’lumotni topa olmadimi, xulosa chiqarishda qiynaldimi yoki matn mazmunini baholashda dalil keltira olmadimi, degan savollarga yo‘l ochadi. Masalan, o‘quvchi matndagi “bulutlar quyuqlashdi” degan ifoda orqali yomg‘ir yaqinlashganini anglamasa, muammo lug‘at boyligida emas, yashirin ma’noni chiqarish ko‘nikmasida bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi imkoniyat - kompetentsiyaviy topshiriqlar tizimini shakllantirishdir. PIRLS talablariga mos topshiriqlarda o‘quvchi tayyor javobni takrorlamaydi, balki matndan dalil topadi, uni izohlaydi va o‘z fikrini qisqa asoslaydi. Masalan, “Hikoyadagi bola mehribon ekanini isbotlovchi ikkita dalilni yozing” topshirig‘i o‘quvchini matnga qayta murojaat qilishga, asos tanlashga va fikrni dalil bilan bog‘lashga o‘rgatadi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda funktsional savodxonlikning muhim ko‘rinishidir.

Uchinchi imkoniyat - darsda adabiy va axborot matnlari muvozanatini ta’minlashdir. Amaliyotda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy matnlar ko‘proq uchraydi, axborot matnlari bilan ishlash esa bazan cheklangan bo‘ladi. PIRLS esa har ikki matn turini baholaydi [2,12]. Shuning uchun darslarda hikoya, ertak, sher bilan bir qatorda kichik ensiklopedik matn, e’lon, sxema, jadval, xarita yoki infografikadan foydalanish o‘quvchining axborotni qayta ishlash ko‘nikmasini kuchaytiradi.

To‘rtinchi imkoniyat - formativ baholashni rivojlantirishdir. PIRLS natijalarini faqat yakuniy baho sifatida emas, o‘qituvchi uchun “qaysi ko‘nikmani kuchaytirish kerak?” degan savolga javob beruvchi ma’lumot sifatida qabul qilish kerak. Masalan, sinfda ko‘pchilik o‘quvchi matndan ochiq ma’lumotni topa olsa, ammo xulosa chiqarishda qiynalsa, keyingi darslarda “nima uchun?”, “qanday dalil bor?”, “bu fikrni qaysi gap tasdiqlaydi?” kabi savollarga ko‘proq etibor qaratiladi. Bu jarayon baholashni jazolash vositasidan o‘qitishni yaxshilash vositasiga aylantiradi.

Beshinchi imkoniyat - oila va maktab hamkorligini kuchaytirishdir. PIRLS kontekst so‘rovnomalari o‘quvchining o‘qish muhiti, kitobxonlik odati va ota-onaning ta’limga munosabati kabi omillarni ham hisobga oladi [9,3]. O‘zbekiston bo‘yicha ma’lumotlarda oilada bolalar kitoblari soni, internet va raqamli vositalarga kirish imkoniyati kabi omillar keltiriladi [12,1]. Bu maktabga ota-onalar bilan oddiy “ko‘proq o‘qiting” shaklida emas, balki maqsadli tavsiyalar asosida ishlash zarurligini ko‘rsatadi. Masalan, har hafta oilaviy 15 daqiqalik ovozli o‘qish, boladan o‘qigani bo‘yicha bitta dalil so‘rash yoki rasmli axborot matnini birgalikda muhokama qilish kabi kichik amallar ham o‘qish madaniyatini shakllantiradi.

Oltinchi imkoniyat - individual yondashuvni kuchaytirishdir. PIRLS natijalari sinf ichidagi umumiy ko‘rsatkichni emas, balki qaysi turdagi o‘qish harakatlari o‘quvchilar uchun qiyin kechayotganini aniqlashga yordam beradi. Masalan, bir guruh o‘quvchilar ochiq faktlarni tez topishi mumkin, lekin dalil asosida xulosa chiqarishda sust bo‘ladi; boshqa guruh esa matn mazmunini tushunsa-da, javobni yozma ifodalashda qiynaladi. Bunday holatda o‘qituvchi bitta umumiy mashq bilan cheklanmay, kichik guruhlar uchun farqli topshiriqlar beradi: bir guruhga fakt va dalilni moslashtirish, ikkinchi guruhga xulosa yozish, uchinchi guruhga matn asosida savol tuzish vazifasi topshiriladi.

Yettinchi imkoniyat - o‘quv materiallarini qayta loyihalashdir. Boshlang‘ich sinf darsliklaridagi matnlar odatda tarbiyaviy va badiiy mazmunga ega bo‘ladi, ammo PIRLS yondashuvi bu matnlarning

didaktik ishlatilishini yanada boyitadi. Bir matn asosida faqat mazmunni so‘zlab berish emas, balki sarlavha bilan mazmunni solishtirish, qahramon qarorini baholash, ikki dalilni taqqoslash, muallifning maqsadini aniqlash kabi turli topshiriqlar ishlab chiqiladi. Shu tariqa mavjud darslik materiali yangi metodik resursga aylanadi.

Mazkur imkoniyatlar o‘zaro bog‘liq. Diagnostik baholash individual yondashuvni talab qiladi; individual yondashuv esa topshiriqlarni qayta loyihalashga olib keladi. Topshiriqlar mazmunan boyiganda o‘qish darsi oddiy matn o‘qish mashg‘ulotidan mantiqiy fikrlash, dalillash, muhokama va mustaqil xulosa chiqarish maydoniga aylanadi.

1-jadval.

PIRLS mezonlarini dars jarayoniga tatbiq etish modeli

PIRLS yo‘nalishi	Pedagogik vazifa	Darsdagi misol	Kutiladigan natija
Aniq ma’lumotni topish	Matndan zarur faktni ajratish	“Matnda qahramon qaysi ishni birinchi bajardi?”	Etibor, faktni tanlash va matnga qaytish ko‘nikmasi shakllanadi
Xulosa chiqarish	Yashirin ma’noni anglash	“Qahramonning kayfiyati qanday o‘zgardi? Buni qaysi gap isbotlaydi?”	Sabab-oqibatni tushunish va dalil keltirish rivojlanadi
Talqin qilish	Asosiy g‘oyani tushunish	“Muallif bu hikoya orqali nima demoqchi?”	Umumlashtirish va mustaqil fikrlash kuchayadi
Baholash	Matn tili va mazmuniga munosabat bildirish	“Sarlavha matn mazmuniga mosmi? Nima uchun?”	Tanqidiy fikrlash va asoslangan javob berish malakasi oshadi

2-jadval.

PIRLS asosida o‘qish darsini loyihalash bosqichlari

Bosqich	O‘qituvchi harakati	O‘quvchi harakati	Metodik natija
1. Matn tanlash	Yoshga mos badiiy yoki axborot matnini tanlaydi	Matn mavzusiga oid dastlabki taxmin bildiradi	O‘qishga ichki tayyorgarlik shakllanadi
2. Savol darajalash	Fakt, xulosa, talqin va baholash savollarini ajratadi	Savol turiga mos javob strategiyasini tanlaydi	Savollar mazmuni tartibli va maqsadli bo‘ladi
3. Dalil bilan ishlash	Javobni matndagi gap yoki epizod bilan asoslashni talab qiladi	Fikrini dalil bilan bog‘laydi	Asoslangan javob berish malakasi rivojlanadi
4. Xatoni tahlil qilish	Noto‘g‘ri javob sababini aniqlaydi	Qaysi joyda qiynalganini ko‘radi	Qayta o‘qitish yo‘nalishi belgilanadi
5. Qayta aloqa	Qisqa mezon asosida izoh beradi	Javobini tuzatadi va takomillashtiradi	Formativ baholash kuchayadi

Natijalar va muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, PIRLSni boshlang‘ich ta’limga tatbiq etish avvalo o‘qish darsining maqsadini aniqlashtirishga yordam beradi. Agar dars maqsadi “matnni o‘qish” bilan cheklansa, o‘quvchi faqat ovoz chiqarib o‘qishga intiladi. Agar maqsad “matndagi dalilni topish”, “qahramon harakatini izohlash”, “axborotni jadval bilan bog‘lash” kabi ko‘nikmalar orqali belgilansa, o‘qish jarayoni faol fikrlashga aylanadi. Bu PIRLSning eng muhim pedagogik tasiridir.

PIRLS 2021 natijalari O‘zbekiston uchun o‘qish savodxonligida tizimli ishlash zarurligini ko‘rsatadi. World Bank hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda o‘quvchilarning 8 foizi minimal malaka darajasidan past natija ko‘rsatgan, qishloq maktablarida bu ulush shahar maktablariga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan [12,1]. Bu holatni faqat o‘quvchi zaifligi bilan tushuntirish to‘g‘ri emas; bunda maktab resurslari, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, oilaviy kitobxonlik muhiti va individual qo‘llab-quvvatlash tizimi ham muhim rol o‘ynaydi.

PIRLSning yana bir muhim jihati - u o‘qituvchiga darsda savollarni darajalash imkonini beradi. Oddiy savollar o‘quvchining matnga kirishini ta’minlaydi, ammo yuqori darajadagi savollar uni tahlil, bahs va asoslashga olib chiqadi. Masalan, “Asardagi asosiy voqeani ayting” savoli reproduktiv xarakterga ega. “Agar qahramon boshqacha qaror qilganida, voqea qanday o‘zgarishi mumkin edi?” savoli esa prognoz qilish va sabab-oqibatni tushunishni talab qiladi. Bu usul 4-sinf o‘quvchisi uchun ham mos, chunki u murakkab nazariya emas, matnga tayangan oddiy fikriy harakatni talab qiladi.

O‘zbekiston ta’lim siyosatining so‘nggi yillardagi yo‘nalishlari ham kompetentsiyaviy yondashuv, ta’lim sifatini monitoring qilish va xalqaro baholash natijalaridan foydalanish zarurligini kuchaytirmoqda. Maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturda zamonaviy darsliklar, ilg‘or tajribalar va xalqaro standartlarga mos ta’lim modellarini joriy etish vazifalari belgilangan [7,1]. 2025-yilda pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar ham ushbu yo‘nalishning institutsional ahamiyatini ko‘rsatadi [6,1].

Shu bilan birga, PIRLSni darsga tatbiq etish mexanik test tayyorgarligiga aylanib qolmasligi kerak. Agar o‘qituvchi faqat test shaklini ko‘paytirsa, o‘quvchining haqiqiy o‘qish madaniyati etarli darajada rivojlanmaydi. PIRLSdan samarali foydalanish matn tanlash, savol tuzish, javobni dalillash, o‘quvchi xatosini tahlil qilish va qayta o‘qitish jarayonlarining uyg‘unligi orqali amalga oshadi. Masalan, bir matn bo‘yicha avval aniq faktlar, keyin xulosa, so‘ng muallif maqsadi va oxirida shaxsiy munosabat savollari berilsa, dars tabiiy ravishda pastdan yuqori fikrlash darajasiga ko‘tariladi.

Ilmiy adabiyotlarda ham o‘qish tushunishining faqat so‘zlarni tanish bilan cheklanmasligi takidlanadi. Snov o‘qishni o‘quvchi, matn va faoliyat o‘rtasidagi murakkab munosabat sifatida izohlaydi [10,11]. Dyuk va Pirson esa samarali o‘qish strategiyalari qatorida oldindan taxmin qilish, savol berish, xulosa chiqarish, asosiy g‘oyani aniqlash va tushunganini nazorat qilishni ko‘rsatadi [1,205]. Bu yondashuvlar PIRLS mezonlari bilan uyg‘un: har ikkisi o‘quvchini passiv o‘quvchidan faol ma’no yaratuvchi subektga aylantirishga qaratilgan.

PIRLS natijalarini pedagogik amaliyotga olib kirish uchun maktabda kichik metodik sikl tashkil etilishi mumkin: matn tanlash, PIRLS mezonlariga mos savollar tuzish, o‘quvchi javoblarini tahlil qilish, qiyinchilik turini belgilash va keyingi darsda maqsadli mashq berish. Masalan, agar sinfdagi o‘quvchilar axborot matnidagi raqamli ma’lumotni tushunishda qiynalsa, keyingi darslarda jadval va diagramma bilan ishlashga oid qisqa mashqlar beriladi. Agar o‘quvchilar badiiy matnda qahramon motivini tushunmasa, rolga kirib o‘qish, voqealar xaritasi yoki “dalilni top” mashqlari qo‘llanadi. Bunday amaliyot o‘qituvchining metodik refleksiyasini ham kuchaytiradi. O‘qituvchi “o‘quvchilar tushunmadi” degan umumiy xulosa o‘rniga “o‘quvchilar yashirin axborotni chiqarishda qiynaldi”, “asosiy g‘oyani dalil bilan bog‘lay olmadi” yoki “axborot matnidagi taqqoslashni tushunmadi” kabi aniq pedagogik xulosa chiqaradi. Aniq xulosa esa aniq metodik chorani talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan PIRLS boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi kasbiy kompetentsiyasini rivojlantiruvchi vosita hamdir. Bunday loyihalash o‘quvchilarning mustaqil kitobxonligiga ham tasir qiladi. Agar o‘quvchi har bir matnni savol, dalil va xulosa orqali o‘qishga odatlansa, u faqat darslik matnini emas, kundalik hayotdagi e’lon, yo‘riqnoma, xabar, internet matni yoki rasmli ma’lumotni ham ongli qabul qila boshlaydi. Shu sababli PIRLSning pedagogik imkoniyati uzoq muddatli: u bitta test natijasi bilan emas, bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabati va fikrlash madaniyati bilan bog‘liq.

PIRLS asosidagi dars loyihasida qayta aloqa alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchining noto‘g‘ri javobini shunchaki tuzatib qo‘ymay, uning qaysi bosqichda qiynalganini aniqlaydi: savolni tushunmadimi, matnga qaytmadimi, dalilni noto‘g‘ri tanladimi yoki umumlashtirishda shoshildimi. Ana shu tahlil keyingi mashqlarni rejalashtirishga yordam beradi va PIRLSni jonli pedagogik jarayonga aylantiradi.

Darsda javoblarni baholash ham aniq mezonga tayanishi kerak. Masalan, o‘quvchi “qahramon yaxshi bola” deb javob bersa, bu hali to‘liq dalilli javob emas. U “qahramon yaxshi bola, chunki u keksa ayolga yordam berdi” deb matndagi dalilga tayansa, javob mazmunan asoslangan bo‘ladi. Bunday talab bolalarni boshlang‘ich sinfdanoq fikrni dalil bilan isbotlashga o‘rgatadi. Keyingi bosqichda topshiriqlar PIRLS tushunish jarayonlariga mos ravishda tuziladi. Birinchi topshiriqlar matnga kirishni ta’minlaydi: o‘quvchi qahramon, vaqt, joy, asosiy voqea yoki muhim faktni topadi. Ikkinchi bosqichda u matnda ochiq aytilmagan ma’noni chiqaradi. Uchinchi bosqichda esa bir nechta ma’lumotni bog‘lab umumlashtiradi. Oxirgi bosqichda matnning sarlavhasi, muallif uslubi, qahramon xatti-harakatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqida dalilli fikr bildiradi.

PIRLSga tayangan dars loyihasi avvalo matn tanlashdan boshlanadi. Matn o‘quvchining yoshiga mos, mazmunan qiziqarli, lekin fikrlashga undaydigan bo‘lishi kerak. Faqat hajm jihatidan qisqa matn har doim ham oson matn degani emas: bazan qisqa matnda yashirin ma’no, muallif munosabati yoki sabab-oqibat bog‘lanishi ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi matnni tanlaganda unda qanday savollar tuzish mumkinligini oldindan belgilashi lozim.

PIRLS yondashuvini kundalik darsga kiritishda o‘qituvchi avvalo savolning turini aniq belgilashi kerak. Masalan, kichik badiiy matndan keyin “Qahramon kimga yordam berdi?” savoli ochiq ma’lumotni topishga xizmat qiladi. “Qahramon nima uchun yordam berishga qaror qildi?” savoli esa o‘quvchini xulosa chiqarishga undaydi. “Qahramonning bu ishini qanday baholaysiz? Matndan dalil keltiring” topshirig‘i baholash va asoslash ko‘nikmasini rivojlantiradi [2,12]. Axborot matnlari bilan ishlashda ham savollar bosqichma-bosqich tuziladi. Masalan, “Asalarilar haqida” nomli qisqa matnda avval o‘quvchidan asalarining

qayerda yashashi so‘raladi. Keyin “Nima uchun asalarilar tabiat uchun foydali?” savoli beriladi. Oxirida “Matndagi qaysi ma’lumot asalarilar mehnatkash ekanini ko‘rsatadi?” topshirig‘i orqali o‘quvchi faktni izoh bilan bog‘laydi. Bu usul oddiy faktni tushunilgan bilimga aylantiradi.

Yana bir samarali topshiriq turi - “dalilni top va izohla” mashqidir. O‘qituvchi matndan bir fikrni beradi, o‘quvchi esa shu fikrni tasdiqlovchi gapni topadi. Masalan, “Qahramon qo‘rqoq emas” degan fikr berilsa, o‘quvchi matndan uning jasoratini ko‘rsatuvchi harakatni topadi va qisqa izohlaydi. Bu topshiriq bolani taxminiy javobdan dalilli javobga olib boradi. “Savol tuzuvchi o‘quvchi” usuli ham PIRLSga mos keladi. Dars yakunida har bir o‘quvchi matn bo‘yicha bitta oddiy savol va bitta fikrlashga undaydigan savol tuzadi. Masalan, oddiy savol: “Voqea qayerda bo‘ldi?”; fikrlash savoli: “Agar qahramon kechirim so‘ramaganida, voqea qanday tugashi mumkin edi?” Bunday mashq o‘quvchining savolni tushunish va savol yaratish madaniyatini rivojlantiradi. Topshiriqlarni baholashda qisqa mezonlardan foydalanish mumkin: javob matnga tayanganmi, dalil to‘g‘ri tanlanganmi, fikr aniq ifodalanganmi, xulosa savolga mosmi. Ushbu mezonlar o‘quvchiga oldindan tushuntirilsa, u javob yozishda nimaga e’tibor berish kerakligini biladi. Shu sababli PIRLSga mos topshiriqlar faqat nazorat uchun emas, balki o‘quvchini o‘z fikrini tartibli qurishga o‘rgatish uchun ham xizmat qiladi.

Bunday topshiriqlar haftada bir marta maxsus test sifatida emas, har kuni kichik mashq tarzida berilishi maqsadga muvofiq. Chunki o‘qish savodxonligi uzoq muddatli odat orqali shakllanadi. O‘quvchi har bir matnda savol, dalil, izoh va xulosani ko‘rishga o‘rgansa, u PIRLS formatidagi topshiriqlarga ham tabiiy tayyor bo‘ladi, eng muhimi, matnni ongli o‘qish malakasini egallaydi. Shuningdek, PIRLS yondashuvi o‘qituvchining kasbiy tilini ham aniqlashtiradi. “O‘quvchi matnni tushunmadi” degan umumiy xulosa o‘rniga “o‘quvchi dalilni topdi, ammo uni xulosa bilan bog‘lay olmadi” yoki “o‘quvchi faktni ajratdi, lekin muallif munosabatini baholay olmadi” kabi aniq pedagogik tashxis qo‘yiladi. Ana shu aniqlik metodik yordamni ham maqsadli qiladi.

Differensial topshiriqlar tizimi. PIRLSga mos darsda barcha o‘quvchiga bir xil savol berish bilan cheklanib qolish samarali emas. Kuchli o‘quvchilar uchun matnning yashirin g‘oyasini aniqlash, muallif pozitsiyasini baholash yoki boshqa matn bilan qiyoslash kabi vazifalar berilishi mumkin. Qo‘llab-quvvatlashga muhtoj o‘quvchilar esa avval kalit so‘zlarni topish, voqealar ketma-ketligini belgilash, dalilni tanlash kabi tayanch mashqlar orqali yuqori darajadagi savollarga tayyorlanadi. Bunday differensial yondashuv o‘quvchilar o‘rtasidagi farqni chuqurlashtirmaydi, aksincha, har bir bolaga o‘z darajasidan keyingi bosqichga ko‘tarilish imkonini beradi.

O‘qituvchi uchun eng muhim vazifa - natijani o‘qish jarayoniga qaytarishdir. Agar o‘quvchi matndagi ochiq ma’lumotni topa olsa, lekin muallif munosabatini tushunmasa, unga ko‘proq baholash va talqin qilish mashqlari kerak bo‘ladi. Agar o‘quvchi axborot matnidagi raqamli ma’lumotni noto‘g‘ri talqin qilsa, jadval, diagramma, sarlavha va rasm bilan ishlash alohida mashq qilinadi. Bu jarayonda PIRLS ramkasi darsni rejalashtirish uchun tayanch xarita vazifasini bajaradi [2,12].

PIRLS natijalarini izohlashda ehtiyotkorlik. Xalqaro baholash natijasi maktab yoki o‘quvchini oddiy raqam bilan tavsiflash uchun emas, balki ta’limdagi kuchli va zaif nuqtalarni ko‘rish uchun ishlatilishi kerak. Past natija har doim ham bolaning qobiliyatsizligini anglatmaydi; u matn turi, savol shakli, o‘quvchining til tajribasi, uyda kitobxonlik muhiti yoki o‘qitish strategiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun PIRLS natijalari pedagogik qaror qabul qilishda yakuniy hukm emas, dastlabki diagnostik signal sifatida qabul qilinadi.

Amaliy tavsiyalar. Birinchidan, har bir o‘qish darsida savollar kamida uch darajada berilishi maqsadga muvofiq: ma’lumotni topish, xulosa chiqarish va baholash. Masalan, “Qahramon nima qildi?”, “Nima uchun shunday qildi?”, “Bu qaror to‘g‘rimi? Matndan dalil keltiring” kabi ketma-ketlik o‘quvchini bosqichma-bosqich chuqur fikrlashga olib boradi.

Ikkinchidan, boshlang‘ich sinflarda axborot matnlari ulushini oshirish zarur. Tabiat, sog‘liq, kasblar, tarixiy shaxslar, xavfsizlik qoidalariga oid qisqa matnlar o‘quvchining hayotiy bilimlarini boyitadi va fanlararo bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bu matnlar bilan ishlashda jadval, rasm, sarlavha, kalit so‘z va raqamli ma’lumotlar tahliliga alohida etibor beriladi.

Uchinchidan, baholashda javobning faqat to‘g‘riligi emas, uning asoslanganligi ham hisobga olinishi kerak. “Men shunday o‘ylayman, chunki matnda ... deyilgan” kabi javob qoliplari o‘quvchini dalilga tayanishga o‘rgatadi. Bu odat yuqori sinflarda esse, tahlil va fanlararo savodxonlik uchun muhim tayyorgarlik bo‘ladi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchilar uchun PIRLS ramkasi asosida metodik seminarlar tashkil etish samaralidir. Seminarlarda nazariy ma’lumotdan ko‘ra, real matn asosida savol tuzish, javoblarni baholash, xatolarni tasniflash va qayta o‘qitish yo‘llarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Beshinchidan, ota-onalar bilan kitobxonlik bo‘yicha sodda, lekin muntazam hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bunda uyga faqat “matnni o‘qib kel” vazifasi emas, “matndan eng muhim uchta ma’lumotni top”, “qahramonning bir harakatini izohla”, “bitta savol tuz” kabi aniq topshiriqlar berilishi o‘quvchining ongli o‘qishiga yordam beradi.

Amaliy nuqtayi nazardan, maktablarda kichik diagnostik bank yaratish foydali bo‘ladi. Bu bankda turli matnlar, PIRLS jarayonlariga mos savollar, baholash mezonlari va o‘quvchi xatolarini tahlil qilish namunalarini jamlash mumkin. Bunday bank o‘qituvchiga tayyor test emas, balki metodik yo‘l ko‘rsatuvchi material sifatida xizmat qiladi. Natijada xalqaro baholash tajribasi mahalliy dars jarayoniga tabiiy va samarali singdiriladi.

Kelgusidagi metodik vazifalar. PIRLS tajribasini boshlang‘ich ta’limga chuqur joriy etish uchun birinchi navbatda o‘qituvchilarni savol tuzish va javobni mezon asosida baholashga tayyorlash zarur. Ikkinchi vazifa - darslik va qo‘shimcha materiallarda axborot matnlari ulushini oshirish, chunki zamonaviy o‘quvchi faqat badiiy matnni emas, hayotiy ma’lumot, jadval, e’lon, yo‘riqnoma va raqamli matnlarni ham tushunishi kerak. Uchinchi vazifa - ota-onalar bilan kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha sodda, ammo muntazam mexanizmlarni ishlab chiqishdir.

Bunday monitoringda raqamlar bilan bir qatorda o‘quvchi javoblari namunalarini tahlil qilish muhim. Chunki foiz yoki ball umumiy holatni ko‘rsatadi, lekin pedagogik sababni ochib bermaydi. O‘quvchi javobidagi dalil tanlash, so‘z ishlatish, xulosa chiqarish yoki savolni noto‘g‘ri tushunish kabi belgilar esa o‘qituvchiga aniq metodik qaror qabul qilishga yordam beradi. Shu ma’noda PIRLS baholash madaniyatini insoniylashtiradi: e’tibor faqat natijaga emas, natijani yuzaga keltirgan o‘qish jarayoniga qaratiladi.

Maktab darajasidagi monitoring. PIRLS yondashuvi faqat alohida o‘qituvchi faoliyati bilan cheklanmasdan, maktab metodik birlashmasi ishida ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, chorak davomida bir necha sinfda bir xil matn turi bo‘yicha kichik diagnostik ish o‘tkazilib, o‘quvchilar qaysi jarayonda ko‘proq qiynalayotgani aniqlanadi. Agar aksariyat sinflarda xulosa chiqarish va dalil keltirish qiyin bo‘lsa, metodik birlashma keyingi oy uchun aynan shu ko‘nikmaga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqadi. Bu esa xalqaro baholash tajribasini maktab ichki sifat monitoringi bilan bog‘laydi.

PIRLSga mos baholashda yozma javoblar alohida o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinfda ham qisqa yozma javoblar orqali o‘quvchi fikrni tartibga solishga o‘rganadi. Masalan, “Menimcha, qahramon to‘g‘ri ish qildi, chunki...” qolipi bolaning fikrini dalil bilan bog‘lashiga yordam beradi. Keyinchalik bu ko‘nikma izohli javob, kichik insho, fanlararo tahlil va mustaqil o‘qish madaniyati uchun asos bo‘ladi. Shu sababli PIRLS formatidagi savollar darsda faqat test sifatida emas, nutq va tafakkurni rivojlantiruvchi vosita sifatida qo‘llanishi kerak.

Baholash mezonlarini soddalashtirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun juda murakkab rubrikalar samarali bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun uch bandli oddiy mezon yetarli: javob savolga mos bo‘lishi, matndan dalil keltirilishi va fikr aniq ifodalanishi. O‘quvchi shu uch mezonni tushunsa, u javob yozishda nimaga e’tibor qaratishini biladi. Bu holat formativ baholashni kuchaytiradi, chunki o‘qituvchi xatoni tuzatish bilan birga, keyingi javobni qanday yaxshilash mumkinligini ham ko‘rsatadi.

Masalan, “Bolalar bog‘idagi daraxt” nomli kichik hikoya o‘qilganda birinchi savol “Daraxt qayerda o‘sgan?” kabi ochiq faktga qaratiladi. Keyingi savol “Bolalar nima uchun daraxtni asrashga qaror qildilar?” shaklida berilsa, o‘quvchi sababni topadi. “Hikoyaning sarlavhasi mazmunga mosmi?” degan savol esa baholash ko‘nikmasini ishga soladi. O‘qituvchi javobni faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb baholamaydi; o‘quvchidan matnga qaytib, javobini dalil bilan mustahkamlashni so‘raydi. Shu tarzda o‘qish darsi mazmunni qayta aytishdan matn asosida fikr yuritish bosqichiga o‘tadi.

Dars amaliyoti namunasi. PIRLS mezonlarini kundalik o‘qish darsiga moslashtirish uchun o‘qituvchi bir matn asosida to‘rt bosqichli ish olib borishi mumkin. Birinchi bosqichda o‘quvchilar matn sarlavhasi, rasm yoki kalit so‘zlar asosida mavzu haqida taxmin bildiradi. Bu jarayon ularning fon bilimlarini faollashtiradi. Ikkinchi bosqichda matn ovozli yoki ichki o‘qish orqali o‘zlashtiriladi va o‘quvchilar aniq ma’lumotlarni belgilaydi. Uchinchi bosqichda xulosa chiqarishga oid savollar beriladi: “Nima uchun qahramon shunday yo‘l tutdi?”, “Qaysi gap bu fikrni tasdiqlaydi?”, “Voqealar o‘rtasida qanday bog‘lanish bor?” To‘rtinchi bosqichda esa o‘quvchi matn mazmuni yoki tiliga munosabat bildiradi. Bunday ketma-ketlik PIRLSdagi tushunish jarayonlarini oddiy dars ichiga tabiiy joylashtiradi [2,12].

Xulosa. PIRLS xalqaro baholash dasturi boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. U o‘quvchining matnni tushunish darajasini xalqaro mezonlar asosida ko‘rsatish bilan birga, o‘qituvchiga dars maqsadini aniqlashtirish, savol va topshiriqlarni kompetentsiyaviy yondashuvda tuzish, o‘quvchi xatolarini diagnostik tahlil qilish imkonini beradi.

Grafik va jadval sarlavhalaridagi o‘lchov modifikatorlarini e’tiborsiz qoldirish natijalarga salbiy ta’sir etadi. Misol uchun, *thousands of dollars*, *per 100 people*, *in millions* kabi o‘lchov birliklari beriladi. Ingliz tili ona tili bo‘lmagan o‘quvchi bu birliklarni qo‘llashda yanglishsa, 10, 100 yoki 1000 karra xatolik bilan hisoblangan natijaviy qiymatni tanlashi mumkin. Har qanday grafik yoki jadvalga qarashdan oldin, avval ikkala o‘qning sarlavhasini diqqat bilan o‘qish va birliklarni qayd etish lozim. Bunga misol sifatida 1-rasmda keltirilgan masalani ko‘rishimiz mumkin.

Combined va *together* - birgalikdagi ish tezligi masalalarida working together, combined rate jumlalari ingliz tili ona tili bo‘lmagan o‘quvchilar uchun ikkita muammoga duch keladi. Bunday masalalarda ham inglizcha iboralarni tushunish, ham teskari nisbat formulasini to‘g‘ri qo‘llash kerak bo‘ladi. *Machine A completes a job in 4 hours, Machine B in* 6 *hours. How long will it take working together?* Matnni to‘g‘ri tarjima qilgan o‘quvchi A va B mashinalar birgalikda 1 soatda bajarilgan ish butun ish hajmining $\frac{1}{4} + \frac{1}{6} = \frac{3}{12} + \frac{2}{12} = \frac{5}{12}$ qismini tashkil etishini va ishni birgalikda bajarishga sarflangan vaqtni $\frac{12}{5} = 2.4$ soat

ekanligini oson topadi. Birgalikda ishlash – 1 soatlik ish tezliklarini qo‘shishni va ishni birgalikda bajarish tezligi esa $\frac{1}{\text{vaqt}}$ formulasini eslab qolish lozim.

1-rasm.



Best represents jumlasidagi best so‘zining noto‘g‘ri talqini ham shu turdagi masalalarda ortiqcha vaqt yo‘qotilishiga olib keladi. Which of the following BEST represents... kabi savollar ingliz tili ona tili bo‘lmagan o‘quvchilarni chalkashtiradi, buning sababi, vaqtga bog‘liq imtihonlarda qatnashuvchilar, odatda, intuitsiyaga asoslanib javob tanlashga moyil bo‘ladi. Aslida, best so‘zi matematik jihatdan eng aniq mos keluvchi degan ma’noda ishlatiladi.

And then so‘z birikmasi kontekstidagi ma’noni anglash ba’zida qiyinchilik tug‘diradi. If x is tripled and then 7 is added va 7 is added to x, and then the result is tripled iboralari matematik jihatdan farqli bo‘lgan natijalar beradi. Ingliz tili ona tili bo‘lmagan o‘quvchilar and then birikmasidan oldin va keyin kelgan amallar tartibini almashtirish xatosiga yo‘l qo‘yadi. x is tripled and then 7 is added jumlasining matematik ifodasi $3x + 7$ bo‘ladi. 7 is added to x, and then the result is tripled jumlasining matematik ifodasi esa $3(x + 7)$. Bu ifodalar esa o‘zaro teng emasligi ma’lum.$3x + 7 \neq 3x + 21$.

Tahlil asosida ingliz tili ona tili bo‘lmagan o‘quvchilar uchun quyidagi umumlashtirilgan DSAT Math strategiyalar tizimi taklif etiladi. Murakkab matnni *oxiridan o‘qish* strategiyasi. Har bir *word problem* savolini oxirgi jumladan boshlang. Avval nima so‘ralayotgani aniq bo‘lsin, keyin ortga qaytib kontekstni o‘qing. Bu usul qayta o‘qish zaruratini kamaytiradi va yo‘nalish xatolarini oldini oladi. Quyidagi jadval eng ko‘p uchraydigan kalit so‘zlarni va ularning matematik ma’nolarini aks ettiradi:

2-jadval.

Inglizcha ibora	Matematik ifoda	Misol
at least / no fewer than	$\geq$	at least 5 ⇒ $x \geq 5$
at most / no more than	$\leq$	at most 10 ⇒ $x \leq 10$
increased by *x*%	$\times (1+\frac{x}{100})$	by 20% from $50 ⇒ $60
increased to *x*	yangi qiymat = x	to $60 ⇒ $60
times as many as	×	3 times as many as 10 = 30
per	÷	miles per hour mil/soat
remaining / left	yangi 100%	har bosqichda qayta hisoblash
except / unless	istisno	ko‘rsatilganni chiqarib tashlash
and then	keyingi amal	tartibga rioya qilish
approximately	≈ (taxminan)	aniq hisob shart emas

Har qanday grafik yoki jadvalga murojaat qilishdan avval, ikkala o‘qning ham qiymati nomini o‘qish va birliklarni belgilash, masshtab o‘lchov birligini aniqlash kerak. Bu tartib orqali o‘lchov birliklarida chalkashilmaydi.

Matnli masala o‘qilayotganda ingliz tilidagi *by*, *to*, *per*, *of* predloglarini, *except*, *unless* istisno iboralarini, *at least*, *at most* tengsizlik iboralari va *then*, *after* ketma-ketlik iboralarini tagiga chizib qo‘yish yoki boshqa rang bilan belgilab qo‘yish kerak. Bunday oddiy texnikalarni qo‘llash test topshiruvchining e’tiborini hal qiluvchi lingvistik elementlarga yo‘naltiradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida DSAT imtihoniga tayyorlanayotgan o‘quvchilar bilan real tajriba o‘tkazib ko‘rdik. Maqsadimiz - matematika bo‘limida talabalarimiz nega ko‘p ball yo‘qotishini va

bunga til to‘sig‘i qanchalik ta’sir qilishini aniqlash edi. Natijalarni tahlil qilib, juda qiziq holatlarga guvoh bo‘ldik. O‘quvchilarning aksariyati aslida matematikani yaxshi biladi, formulalarni yoddan aytadi. Lekin ularga DSAT dagi matnli masalalar (*word problems*) berilganda, xuddi shu matematik savodxonlik yetishmay qolayotgandek taassurot uyg‘onadi. Muammo o‘quvchining matematik bilimsizligida emas, balki savoldagi inglizcha gaplarni matematik modelga o‘gira olmasligida ekani ma’lum bo‘ldi. Masalan, matndagi *“at most”* (ko‘pi bilan), *“at least”* (kamida) yoki *“no more than”* kabi kalit so‘zlar til to‘sig‘i bor o‘quvchilarni chalg‘itib yuboradi. Natijada ular tenglama yoki tengsizlikni noto‘g‘ri tuzib, tayyor ballni boy berishadi. Bu holat Jourdain (2016) va Njiku (2024) aytgan gaplarni, ya’ni til to‘sig‘i matematik salohiyatni “bo‘g‘ib” qo‘yishini amalda tasdiqladi.[2],[5].

Bu muammoni hal qilish uchun o‘quvchilarga mutlaqo boshqacha — vizual va raqamli metodikani taklif qildik. Biz shunchaki matnni o‘zbekchaga tarjima qilishni o‘rgatmadik. Buning o‘rniga, Mendoza (2022) va Young (2022) tavsiyalariga tayanib, inglizcha matnli cheklovlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Desmos grafik kalkulyatoriga ko‘chirishni mashq qildirdik [3], [4].Ya’ni, o‘quvchi murakkab gaplarni boshida aylantirib o‘tirmasdan, ularni vizual funksiyalar va grafik modellar ko‘rinishida kodlashni o‘rgandi. Desmos grafik chizib bergach, masala darhol ko‘zga ko‘rinadigan va tushunarli shaklga keldi. Eksperiment yakunida yangi metodika bilan tayyorlangan guruhning natijalari keskin o‘sdi. O‘quvchilar nafaqat savollarni to‘g‘ri yecha boshlashdi, balki DSAT dagi eng katta dushman – vaqt taqchilligini ham yengib o‘tishdi. Matnni soatlab tahlil qilishga ketadigan vaqt tejaldi. Bu esa biz taklif qilayotgan metodika ingliz tili ona tili bo‘lmagan talabalar uchun matematika bo‘limidan maksimal 800 ballni olishda eng samarali yo‘llardan biri ekanini ko‘rsatadi. DSAT matematika bo‘limidagi til to‘siqlari matematik kontentning qiyinligidan alohida va mustaqil qiyinchilik sifatida mavjud. Yuqori darajali to‘siqlar matematik xatolar bilan aralashib ketish ehtimoli katta, chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri noto‘g‘ri tenglama tuzilishiga olib keladi. O‘rta darajali to‘siqlar esa ko‘proq diqqat va bilish yukini oshirishi bilan xarakterlanadi. To‘g‘ri matematik usul ma’lum bo‘lsa ham, til xatosi noto‘g‘ri javob tanlanishiga sabab bo‘ladi. Taklif etilgan strategiyalar tizimi proaktiv va reaktiv yondashuvlarni birlashtiradi. Bu ikki tomonlama yondashuv Turkan (2014) tavsiyalariga mos keladi: til muammolarini bartaraf etishda ham tizimli tayyorgarlik, ham imtihon paytidagi monitoring strategiyalari zarur [1].

Xulosa. Ushbu tadqiqot DSAT matematika bo‘limida ingliz tili ona tili bo‘lmagan abituriyentlar uchun o‘n to‘rtta asosiy til to‘sig‘ini aniqlab, ularni tizimlashtirdi va har biri uchun amaliy strategiyalar taklif etadi. Natijalardan asosan, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Matematik mahorat yetarli bo‘lsa ham, til to‘siqlari noto‘g‘ri javob tanlanishiga olib kelishi mumkin.Til to‘siqlarining aksariyati bir nechta til signallarini noto‘g‘ri talqin qilishdan kelib chiqadi. Tizimli o‘qish strategiyasi va signal so‘zlarni oldindan yod olish bu muammolarning ko‘pini bartaraf etishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar uchun katta tanlama hajmida empirik sinov o‘tkazish va strategiyalarning samaradorligini o‘lchash rejalashtirilgan. Bundan tashqari, o‘zbek tili grammatik tuzilishi bilan ingliz tili matematik tilining interferensiyasini chuqurroq o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Turkan, S., De Oliveira, L. C., Lee, O., & Phelps, G. (2014). Proposing a knowledge base for teaching academic content to English language learners. Teachers College Record, 116(3), 1–26.

2. Language Challenges in Mathematics Education for English Language Learners: A Literature Review. L. Jourdain va boshqalar (2016).

3. Teaching Math to English Learners. Adrian Mendoza (2022).

4. Breaking the Math Language Barrier. Twana Young (Language Magazine, 2022).

5. Language Barriers in Mathematics: Learning Challenges and Pedagogical Strategies. J. Njiku (2024).

DISKURS MARKERLARINING KOGERENTLIKNI YARATISHDAGI O‘RNI

Durova Shaxnoza Shokirovna,
Osiyo xalqaro universiteti ingliz tili o‘qituvchisi

Ushbu maqolada diskurs markerlarining og‘zaki va yozma nutqda kogerentlikni yaratishdagi o‘rni tadqiq etiladi. Diskurs markerlari fikrlarni mantiqiy tashkil etish va samarali kommunikatsiyani ta’minlashga yordam beruvchi muhim til birliklaridir. Maqolada diskurs markerlarining funksiyalari, tasnifi va akademik yozuv hamda og‘zaki nutqdagi kommunikativ ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, diskurs markerlari, koheziya va kogerentlik o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritiladi. Tadqiqot natijalari diskurs markerlaridan to‘g‘ri foydalanish nutq ravonligi, aniqligi va tushunarliligini oshirishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, maqolada til o‘rganuvchilarning diskurs markerlaridan foydalanishdagi qiyinchiliklari hamda ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *diskurs markerlari, kogerentlik, koheziya, og‘zaki diskurs, akademik yozuv, kommunikatsiya.*

THE ROLE OF DISCOURSE MARKERS IN CREATING COHERENCE

This article investigates the role of discourse markers in creating coherence in spoken and written discourse. Discourse markers are essential linguistic units that help organize ideas logically and maintain effective communication. The study analyzes the functions, classifications, and communicative significance of discourse markers in academic writing and spoken interaction. The article also discusses the relationship between discourse markers, cohesion, and coherence. The findings demonstrate that the appropriate use of discourse markers contributes to fluency, clarity, and better comprehension of discourse. In addition, the study highlights common difficulties language learners face while using discourse markers and suggests practical implications for English language teaching.

Key words: *discourse markers, coherence, cohesion, spoken discourse, academic writing, communication.*

РОЛЬ ДИСКУРСИВНЫХ МАРКЕРОВ В СОЗДАНИИ КОГЕРЕНТНОСТИ

В данной статье исследуется роль дискурсивных маркеров в создании когерентности в устной и письменной речи. Дискурсивные маркеры являются важными языковыми единицами, которые помогают логически организовывать идеи и поддерживать эффективную коммуникацию. В статье анализируются функции, классификация и коммуникативное значение дискурсивных маркеров в академическом письме и устной речи. Также рассматривается взаимосвязь между дискурсивными маркерами, когезией и когерентностью. Результаты исследования показывают, что правильное использование дискурсивных маркеров способствует беглости, ясности и лучшему пониманию дискурса. Кроме того, в статье освещаются трудности, возникающие у изучающих язык при использовании дискурсивных маркеров, и предлагаются практические рекомендации для преподавания английского языка.

Ключевые слова: *дискурсивные маркеры, когерентность, когезия, устный дискурс, академическое письмо, коммуникация.*

Kirish. Til nafaqat grammatik strukturalar tizimi, balki fikr, his-tuyg‘u va maqsadlarni ifodalash vositasi hamdir. Samarali kommunikatsiya axborotni kogerent tarzda tashkil etish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, bu tinglovchi va o‘quvchiga mazmunni oson tushunishga yordam beradi. Shu jihatdan diskurs markerlari diskursni tashkil etish va kogerentlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Diskurs markerlari gaplar, jumlalar va fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalovchi leksik birliklardir. Ular qarama-qarshilik, qo‘shish, ketma-ketlik, tushuntirish va xulosa kabi munosabatlarni ko‘rsatadi. *However, moreover, therefore, firstly, in addition* va *for example* kabi birliklar bunga misol bo‘la oladi.

Zamonaviy diskurs tahlilida diskurs markerlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki ular kommunikatsiyaning mantiqiy oqimini ta’minlaydi. Diskurs markerlarisiz nutq va yozuv parchalanib ketgan hamda tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, akademik yozuv, auditoriya muloqoti, ommaviy nutq va kundalik suhbatlarda ularning o‘rni katta.

Mazkur maqolaning maqsadi diskurs markerlarining funksiyalarini o‘rganish va ularning og‘zaki hamda yozma nutqda kogerentlikni yaratishdagi rolini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Diskurs markerlari masalasi ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Halliday va Hasan matnning yaxlitligini ta’minlashda koheziyaning muhimligini ta’kidlaganlar. Ularning fikriga ko‘ra, koheziya matndagi grammatik va semantik bog‘lanishlarni yuzaga keltiradi.

Schiffrin diskurs markerlarini diskurs qismlarini o‘zaro bog‘lovchi hamda kommunikatsiyani boshqaruvchi birliklar sifatida izohlaydi. Fraser esa diskurs markerlarini pragmatik ma’noni ifodalovchi va tinglovchini nutqni to‘g‘ri talqin qilishga yo‘naltiruvchi vosita deb hisoblaydi.

Tilshunoslikda koheziya va kogerentlik tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular bir xil emas. Koheziya grammatik va leksik bog‘lanishni anglatsa, kogerentlik fikrlarning mazmuniy yaxlitligini bildiradi. Diskurs markerlari esa har ikki jarayonda ham muhim rol o‘ynaydi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Diskurs markerlariga oid misollar akademik maqolalar, dars jarayonidagi muloqotlar hamda kundalik suhbatlardan yig‘ildi.

To‘plangan ma’lumotlar quyidagi kommunikativ funksiyalar asosida tasniflandi:

- qo‘shish;
- qarama-qarshilik;
- sabab-natija;
- ketma-ketlik;
- misol keltirish;
- xulosa chiqarish.

Shuningdek, og‘zaki va yozma nutqda diskurs markerlarining qo‘llanishidagi farqlar qiyosiy tahlil qilindi.

1-jadval.

Diskurs markerlarining turlari va funksiyalari

Funksiya	Misollar	Vazifasi
Qo‘shish	moreover, besides	qo‘shimcha ma’lumot berish
Qarama-qarshilik	however, nevertheless	zid fikrni ifodalash
Natija	therefore, thus	sabab-natijani ko‘rsatish
Ketma-ketlik	firstly, finally	fikrlarni tartiblash
Misol	for example, for instance	misol keltirish
Xulosa	in conclusion, to sum up	umumlashtirish
Muloqot	well, actually	suhbatni boshqarish

Diskurs markerlari nafaqat grammatik, balki pragmatik funksiyani ham bajaradi. Ular so‘zlovchining maqsadini aniqroq ifodalashga yordam beradi.

Diskurs markerlarining kogerentlikni yaratishdagi o‘rni. Diskurs markerlari matndagi fikrlar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish hosil qiladi. Ular o‘quvchi yoki tinglovchiga nutqning qaysi yo‘nalishda davom etishini anglash imkonini beradi.

Akademik yozuvda diskurs markerlari ayniqsa muhim hisoblanadi. Ular paragraf va gaplar o‘rtasidagi mantiqiy aloqani ta’minlaydi.

Masalan:

Talabalar talaffuz bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Biroq muntazam mashq qilish nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bu misolda “biroq” diskurs markeri qarama-qarshilikni ifodalaydi.

Shuningdek:

Ingliz tili talaffuzi muhim ahamiyatga ega, shuning uchun darslarda talaffuz mashqlariga ko‘proq e’tibor qaratilishi lozim.

Bu yerda “shuning uchun” sabab-natija munosabatini ko‘rsatmoqda.

Og‘zaki nutqda esa *well, actually, you know* kabi markerlar suhbat ravonligini saqlaydi hamda kommunikatsiyani tabiiylashtiradi.

Diskurs markerlari auditoriya mashg‘ulotlarida ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi *birinchidan, keyin, nihoyat* kabi birliklardan foydalanib darsni tizimli tashkil qiladi.

Diskurs markerlarining pragmatik xususiyatlari. Diskurs markerlari faqat grammatik bog‘lovchi vazifasini bajarib qolmay, balki pragmatik ma’no ham ifodalaydi. Pragmatika til birliklarining kommunikativ

vaziyatdagi qo‘llanishini o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, diskurs markerlari so‘zlovchining munosabati, maqsadi va kommunikativ strategiyasini ifodalashga xizmat qiladi.

Masalan, *actually* markeri ko‘pincha aniqlik kiritish yoki oldingi fikrni tuzatish uchun ishlatiladi:

Actually, the problem is more complicated.

Bu marker tinglovchini keyingi ma’lumotga tayyorlaydi hamda nutqning pragmatik ma’nosini kuchaytiradi.

Shuningdek, *well* markeri suhbatni yumshatish, javobni ehtiyotkorlik bilan boshlash yoki pauzani to‘ldirish vazifasini bajaradi:

Well, I am not sure about that.

Bu holatda marker kommunikatsiyaning tabiiyligini oshiradi.

Diskurs markerlari va akademik yozuv. Akademik yozuvda diskurs markerlari ilmiy fikrni mantiqiy va tizimli ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ilmiy maqola, esse va tadqiqot ishlarida paragraf hamda gaplar o‘rtasidagi bog‘lanish aynan diskurs markerlari orqali ta’minlanadi.

Akademik matnlarda quyidagi markerlar keng qo‘llaniladi:

- qo‘shimcha ma’lumot uchun — *furthermore, moreover, in addition*;
- qarama-qarshilik uchun — *however, nevertheless*;
- natija uchun — *therefore, consequently*;
- xulosa uchun — *in conclusion, to sum up*.

Masalan:

The experiment produced positive results. Furthermore, students showed increased motivation.

Bu yerda *furthermore* markeri yangi fikrning avvalgi fikr bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Akademik yozuvda diskurs markerlaridan noto‘g‘ri foydalanish matnning sifati va ilmiy uslubiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli talabalar markerlarning semantik va funksional farqlarini yaxshi bilishlari kerak.

Diskurs markerlarining og‘zaki nutqdagi o‘rni. Og‘zaki diskursda diskurs markerlari kommunikatsiyani boshqarish vositasi sifatida xizmat qiladi. Suhbat davomida ular:

- mavzuni o‘zgartirish;
- suhbatni davom ettirish;
- tinglovchi e’tiborini saqlash;
- hissiy munosabatni ifodalash

kabi vazifalarni bajaradi.

Masalan:

By the way, have you finished your assignment?

Bu yerda *by the way* markeri yangi mavzuga o‘tishni bildiradi.

Shuningdek, *you know* va *I mean* kabi markerlar suhbatning interaktivligini oshiradi:

He was very upset, you know.

Bu kabi birliklar norasmiy muloqotda ko‘proq uchraydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy og‘zaki nutqda diskurs markerlari kommunikativ kompetensiyaning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Diskurs markerlari va kogerentlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Kogerentlik matndagi fikrlarning mazmunan uyg‘unligini bildiradi. Diskurs markerlari esa aynan shu uyg‘unlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular yordamida:

- sabab va natija;
- vaqt ketma-ketligi;
- qarama-qarshilik;
- qo‘shimcha ma’lumot

o‘rtasidagi bog‘lanish aniq ifodalanadi.

Masalan:

Firstly, students listened to the dialogue. Then, they answered comprehension questions. Finally, they discussed the topic in groups.

Bu misolda *firstly, then,* va *finally* markerlari harakatlar ketma-ketligini ko‘rsatib, matnning kogerentligini ta’minlamoqda.

Agar diskurs markerlari ishlatilmasa, matn parchalanib ketgan va tartibsiz ko‘rinishi mumkin. Shu sababli ular diskursning mantiqiy tuzilishini yaratishda muhim vosita hisoblanadi.

Ingliz tilini o‘qitishda diskurs markerlarini o‘rgatish. Bugungi kunda kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini o‘qitishda diskurs markerlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Chunki til o‘rganuvchilar

grammatik jihatdan to‘g‘ri gapira olsalar ham, diskurs markerlaridan foydalana olmasliklari sababli nutqlari tabiiy chiqmasligi mumkin.

Diskurs markerlarini o‘rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

- dialoglarni tahlil qilish;
- autentik audio va videolar bilan ishlash;
- rol o‘ynash mashqlari;
- akademik esse yozish;
- guruhli muhokamalar;
- gaplarni bog‘lash mashqlari.

Masalan, talabalarga diskurs markerlarisiz berilgan matnni mantiqiy bog‘lovchilar yordamida to‘ldirish topshirig‘i berilishi mumkin. Bu usul ularning diskurs kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘qituvchilar dars davomida diskurs markerlaridan faol foydalanishlari talabalarning ularni tabiiy ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Natijalar. Tahlil natijalari diskurs markerlari nutqning kogerentligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Diskurs markerlaridan to‘g‘ri foydalangan talabalar yanada ravon va tushunarli matn yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

Natijalarga ko‘ra:

- yozma nutqda ko‘proq rasmiy diskurs markerlari ishlatiladi;
- og‘zaki nutqda esa muloqot markerlari faol qo‘llaniladi;
- diskurs markerlari matnni tushunishni osonlashtiradi;
- noto‘g‘ri yoki ortiqcha qo‘llanish kommunikatsiya sifatini pasaytiradi.

Shuningdek, ayrim ingliz tili o‘rganuvchilar diskurs markerlarini noto‘g‘ri tanlash yoki takroriy ishlatish muammosiga duch kelishi aniqlandi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari diskurs markerlarining samarali kommunikatsiyadagi o‘rnini tasdiqlaydi. Ular fikrlarni tartibli va mantiqiy shaklda ifodalash imkonini beradi.

Biroq ingliz tilini o‘rganuvchilarda ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi:

- bir xil markerlarni haddan tashqari ko‘p ishlatish;
- noto‘g‘ri kontekstda qo‘llash;
- rasmiy va norasmiy markerlarni farqlay olmaslik.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ingliz tili darslarida diskurs markerlariga oid amaliy mashqlar sonini oshirish zarur.

Talabalarga:

- dialog tahlili;
- akademik yozuv mashqlari;
- tinglab tushunish topshiriqlari;
- rol o‘ynash faoliyatlari

kabi metodlar orqali diskurs markerlarini o‘rgatish samarali natija beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, diskurs markerlari og‘zaki va yozma nutqda kogerentlikni yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Ular fikrlarni bog‘laydi, matnni tartibga soladi va kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

Diskurs markerlaridan to‘g‘ri foydalanish nutq ravonligi, aniqligi va tushunarliligini yaxshilaydi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitish jarayonida diskurs markerlarini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Tadqiqot natijalari diskurs markerlari kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. — London: Longman, 1976.
2. Schiffrin D. Discourse Markers. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Fraser B. “What are discourse markers?” // Journal of Pragmatics. — 1999. — №31(7). — P. 931–952.
4. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
5. Yule G. The Study of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
6. Cook G. Discourse. — Oxford: Oxford University Press, 1989.
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ МОРФОЛОГИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ ПОДГОТОВКИ

Шарипова Дилбар Гулямовна,
преподаватель кафедры Русского языка и литературы
Бухарского государственного университета
dilbargulyamovna123@gmail.com

В вузовской методике преподавания русского языка изучение морфологии всегда является неким камнем преткновения, особенно для студентов неязыковых направлений бакалавриата. С одной стороны, для овладения грамматическими понятиями необходим определенный уровень развития абстрактного мышления, который создается в процессе обучения и требует специальных упражнений, направленных на формирование определенных умственных умений и комплекса лингвистических представлений. С другой стороны, процесс формирования понятий одновременно является и процессом овладения студентами такими мыслительными операциями, как анализ и синтез, сравнение, обобщение и систематизация, абстракция и конкретизация.

Ключевые слова: *морфология, преподавание в вузе, именные части речи и глагол, орфографические навыки, грамматическое и лексическое значение слова.*

FILOLOGIK BO‘LMAGAN YO‘NALISH TALABALARI UCHUN RUS TILI MORFOLOGIYASINI O‘QITISHNING METODIK YONDASHUVLARI

Universitetda rus tilini o‘qitish metodologiyasida morfologiyani o‘rganish har doim o‘ziga xos to‘siq hosil qiladi, ayniqsa, filologiya bo‘lmagan bakalavriat yo‘nalishlari talabalari uchun. Bir tomondan, grammatik tushunchalarni o‘zlashtirish uchun mavhum tafakkur rivojlanishining ma’lum darajasi zarur bo‘lib, u o‘quv jarayonida yaratiladi va ma’lum aqliy qobiliyatlarni va lingvistik tasvirlar majmuasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni talab qiladi. Boshqa tomondan, tushunchalarni shakllantirish jarayoni tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish, mavhumlashtirish va konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish jarayoni hamdir.

Kalit so‘zlar: *morfologiya, universitet ta’limi, nutq va fe’lning nominal qismlari, imlo malakalari, so‘zning grammatik va leksik ma’nosi.*

METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING RUSSIAN MORPHOLOGY TO STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL FIELDS OF STUDY

In the university methodology of teaching the Russian language, the study of morphology is always a kind of stumbling block, especially for students of non-linguistic undergraduate areas. On the one hand, in order to master grammatical concepts, a certain level of development of abstract thinking is necessary, which is created in the learning process and requires special exercises aimed at developing certain mental skills and a complex of linguistic representations. On the other hand, the process of forming concepts is also the process of mastering by students such mental operations as analysis and synthesis, comparison, generalization and systematization, abstraction and concretization.

Keywords: *morphology, university teaching, nominal parts of speech and verb, spelling skills, grammatical and lexical meaning of the word.*

Введение. Морфология – это раздел грамматики, изучающий формы слов и совокупность форм слов языка. В задачи морфологии входит определение слова как особого языкового объекта и описание его внутренней структуры. Задачами обучения морфологии в курсе «Русский язык» являются: – систематизировать знания учащихся о частях речи; формировать понятие об основных грамматических категориях частей речи; – дать представление о неразрывной связи лексического и грамматического значений в отдельных частях речи; – выявлять специфику образования именных частей речи и глагола; – знакомить студентов с функционированием в речи различных частей речи; – разрабатывать орфографические навыки, учитывая част речную принадлежность слов. При изучении частей речи осуществляется функционально – смысловой подход.

Суть данного подхода заключается в показе функций языковых явлений в языке и речи. Функционально-смысловой подход предполагает тесную связь грамматической формы со значением,

показ контекстов, в которых реализуется значение единиц языка, их контекстуальных показателей, закономерностей функционирования грамматических форм и структур в определённых типах речи. Функциональный критерий предполагает оценку тех функций, которые слова данного класса выполняют в предложении, например, наиболее характерными функциями существительного являются функции подлежащего и дополнения; единственной функцией, выполняемой в предложении глаголом в личной форме, является функция сказуемого; для прилагательного характерна функция определения; для наречия – функция обстоятельства.

В методике преподавания русского языка твёрдо закрепилась традиция различать термины школьная и научная (академическая, вузовская) грамматика. Два этих понятия очень часто расходятся не только в объёме, но и по сути. Одни исследователи считают, что не может быть «школьной» и «научной» теории: школьная теория должна быть «школьной научной теорией». Другие же оправдывают различные подходы ко многим вопросам тем, что цели и задачи изучения языка в школе и вузе далеко не всегда совпадают.

Основная задача вузовского изучения — понять сущность языка как особого общественного явления, особенности его строения и функционирования. Преподавание в вузе значительно больше ориентировано на познавательную ценность русского языка как учебного предмета.

Анализ литературных источников. Задачи же преподавания русского языка в школе ориентированы на практическую ценность. К основным трудностям, которые возникают при изучении частей речи, нужно отнести такие как: – отличие студентами частей речи в случае перехода слов из одной части речи в другую (слова типа столовая, заведующий, боком, мимо и т.п.); – смешение учащимися понятий «член предложения» и «часть речи» (ошибки такого плана сохраняются очень долго); – отличие внешне сходных форм (дательного и предложного падежей существительных женского рода с окончаниями –е и –и: стране, воде, линии, тетради, соли; сравнительной степени прилагательного и наречия: был красивее и делал красивее и т.п.); – при изучении имени прилагательного студенты неязыковых факультетов затрудняются в согласовании имени прилагательного с именем существительным; – особую трудность вызывают числительные при употреблении в устной речи. В письменной речи числительные используются в деловых бумагах, поэтому на занятиях следует уделять особое внимание склонению имён числительных, при этом употреблять их с существительными. – трудности возникают в разграничении разрядов местоимений и в определении их начальной формы; – основная трудность в усвоении глагола связана с изучением категории вида, которой нет в узбекском языке; – при изучении причастий и деепричастий очень важен семантический критерий – распознавание причастий и деепричастий. Студенты затрудняются в обозначении причастных и деепричастных оборотов на письме. Трудность возникает в разграничении Н – НН и в правописании НЕ с причастиями.

В курсе морфологии студенты должны приобрести следующие умения и навыки:

1. Уметь задавать к слову грамматический вопрос.
2. Определять грамматическую принадлежность слова.
3. Разграничивать грамматическое и лексическое значение слова.
4. Склонять и спрягать слова в соответствии с грамматическими нормами.
5. Находить в словосочетании, предложении и тексте изучаемые грамматические явления.
6. Производить морфологический разбор слов разных частей речи и др.

По мнению А. М. Смолкина при решении трудных вопросов морфологии используются три основных группы методов:

1) словесные; 2) наглядные;

Методология исследования. К словесным (теоретическим) методам относятся: рассказ, объяснение, пояснение, инструктирование, комментирование, задание, указание, беседа, разбор, анализ. Благодаря слову можно сообщать необходимые знания, активизировать и углубить восприятие, поставить задание и сформулировать отношение к нему учащихся, можно руководить процессом выполнения задания, анализировать и оценивать результаты, корректировать ход выполнения задания, комментировать его выполнение. При решении трудных вопросов морфологии слово может быть использовано и выражено в форме: − дидактического рассказа, беседы, обсуждения; − инструктирования (объяснение задания, правил их выполнения); − сопроводительного пояснения (лаконичный комментарий и замечания); − оценки (способ текущей коррекции действий или их итогов); − словесного отчета и взаимно разъяснения.

Наглядные (сенсорные) методы многообразны и направлены на активизацию сенсорных процессов у обучающихся. К ним, прежде всего, относятся: показ упражнений или их элементов учителем. К вспомогательным наглядным методам относятся: демонстрация плакатов с правилами

выполнения упражнений, схем (алгоритма) выполнения упражнения, использование демонстрационных досок (например, интерактивной доски), планшетов, информационных технологий. Следует учитывать, что зрительное восприятие для некоторых обучающихся «вызовов» действует гораздо сильнее словесного объяснения. Поэтому, выполнение упражнения учителем на доске, наглядные пособия, имеющиеся в распоряжении у обучающихся, помогают сформировать у них правильные представления.

Методические подходы к обучению морфологии русского языка. Относительная значимость различных методических подходов при обучении студентов нефилологических направлений подготовки.

Таблица 1.

Сравнительная характеристика методических подходов к обучению морфологии русского языка студентов нефилологических направлений подготовки

Методический подход	Основные характеристики	Ожидаемый педагогический результат	Условная эффективность, %
Коммуникативный	Формирование грамматических навыков в процессе речевой деятельности	Развитие коммуникативной компетенции и грамотной речи	91
Практико-ориентированный	Выполнение упражнений, анализ текстов, решение практических задач	Устойчивое усвоение морфологических норм	87
Интерактивный	Работа в группах, дискуссии, кейс-метод, деловые игры	Повышение познавательной активности и мотивации	83
Контекстный	Изучение морфологических явлений в контексте профессиональной коммуникации	Развитие профессионально ориентированной языковой компетенции	79
Проблемный	Решение проблемных языковых ситуаций, исследовательские задания	Развитие критического мышления и самостоятельности	74
Традиционный	Объяснительно-иллюстративный метод, тренировочные упражнения	Формирование базовых знаний по морфологии	68

Определённое значение имеют методы ориентирования (например, ориентиры в разборе слова по составу и т.д.). Посредством сенсорных методов обеспечивается наглядность. Это не только визуальное, но и слуховое восприятие. Сенсорные методы могут реализоваться в форме: − показа выполнения заданий или упражнений; − демонстрации наглядных пособий; − компьютерных демонстраций (просмотр специальных учебных видеофильмов). Практические методы базируются на активной познавательной деятельности обучающихся.

Например, выполнение упражнений в рамках регламента времени - 10 или 15 минут на уроке русского языка; выполнение упражнений с помощью наглядных средств (учебника, рабочей тетради); выполнение хорошо знакомых, обучающимися упражнений. При решении трудных вопросов морфологии могут быть использованы диктанты, сочинения, изложение, списывание текста, разбор предложения и морфологический анализ слова.

Анализ полученныз результатов. Учебно-поисковые задания разграничиваются по источникам возникновения интереса на две группы: проблемные задания и задания с компонентами занимательности. Проблемные задания – это задания с опознавательной и объяснительной функциями. «Сущность проблемных заданий заключается в создании преподавателем проблемной ситуации, в постановке такого вопроса, который стал бы для учащихся проблемой, задачей. Такие вопросы предполагают несколько ответов – догадок, а студент должен найти ключ к решению этой задачи и выбрать лишь один верный ответ. Поиск правильного пути решения проблемы активизирует мыслительную деятельность учащихся».

Для научной статьи можно включить еще одну аналитическую таблицу, отражающую соответствие методических подходов формируемым компетенциям.

Таблица 2.

Влияние методических подходов на формирование морфологической компетенции студентов нефилологических направлений подготовки

Методический подход	Формируемые знания	Формируемые умения	Формируемые компетенции
Коммуникативный	Морфологические нормы современного русского языка	Правильное употребление грамматических форм в устной и письменной речи	Коммуникативная компетенция
Практико-ориентированный	Морфологические категории частей речи	Применение морфологических знаний при анализе текстов	Языковая и профессиональная компетенции
Контекстный	Особенности функционирования грамматических форм в профессиональной коммуникации	Анализ языковых единиц в профессиональных текстах	Профессионально-коммуникативная компетенция
Интерактивный	Правила употребления морфологических форм	Совместное решение языковых задач, участие в дискуссиях	Социально-коммуникативная компетенция
Проблемный	Закономерности функционирования морфологических единиц	Самостоятельный поиск и объяснение языковых явлений	Исследовательская компетенция
Цифровой	Современные электронные образовательные ресурсы по русскому языку	Использование цифровых платформ и онлайн-сервисов для изучения морфологии	Цифровая и информационная компетенции

Игровые технологии являются одним из способов повышения мотивации к изучению русского языка в вузе, формированию познавательного интереса, позволяет преодолевать барьер неуверенности, развивает устную и письменную речь у учащихся. В игре проявляются особенно полно и порой неожиданно способности человека, а студента в особенности. Игра всегда предполагает принятие решения – как поступить, что сказать, как выиграть? Желание решить эти вопросы обостряет мыслительную деятельность учащихся. Она посильна даже отстающим. Более того слабый по языковой подготовке студент может стать первым в игре: находчивость и сообразительность здесь оказываются порой более важными, чем знание предмета. Чувство равенства, атмосфера увлеченности и радости, ощущение посильности заданий - все это дает возможность студентам преодолеть стеснительность, мешающую свободно употреблять в речи слова чужого языка и благотворно сказывается на результатах обучения.

Грамматические игры позволяют закрепить знания некоторых разделов грамматики: временные формы глаголов, порядок слов в предложении, употребление предлогов.

Заключение. Лексические игры помогают освоить орфографию слов, вспоминая их или комбинируя из предложенных букв или частей слова, проверить или пополнить свой словарный запас, определить свой диапазон знания лексики, и, может быть, расширить его. Игры с пословицами напомнят о том, что русский язык также богат и неисчерпаем. Ролевые игры способствуют развитию речевых навыков и умений. Целесообразно использовать дидактические игры на занятиях русского языка, которые способствуют не только активизации мыслительной деятельности, но и повышению качества знаний.

Игра – один из приёмов преодоления пассивности. Игра развивает умственную деятельность учащихся, внимание, тренирует память, стимулирует интерес к предмету. Игровые формы обучения на занятиях по морфологии русского языка развивают творчество студентов и создают прочную базу знаний на каждом этапе обучения.

Литература:

1. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход.: метод. пособие. - Москва: Высшая школа, 1991. - 207 с.

2. Кашель Н.Н. Деятельностный подход в повышении квалификации: активные методы обучения. - Минск: Институт повышения квалификации и переподготовки руководящих работников и специалистов образования, 1994.-96с.

3. Максимов Л. Ю. Профессионализация преподавания русского языка в педагогическом институте //РЯШ. 1992. №4.-97с.

4. Малаховский В.А. Методика русского языка. - Москва, 2005.-58 с.

5. Пассов Е. И. Русское слово в методике как путь в Мир русского Слова или Есть ли у методики будущее? СПб.: МИРС, 2008.-19 с.

6. Психологический словарь. Под общ.ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – М.: Логос, 2015.-494 с.

7. Смолкин А.М. Методы активного обучения: науч. - метод. пособие. - Москва: Высшая школа, 1991. -176 с.

8. Талызина Н. Ф. Управление процессом усвоения знаний: учеб. метод. пособие. - М.: Высшая школа, 1975.-239 с.

9. Успенский М. Б. Курс современного русского языка в педагогическом вузе: учеб пособие. М.: издательство Московского психолого-социального института, 2004.-13 с.

10. Шматков Е.В. Методика профессионального обучения: метод. пособие

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035000 5

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil 7-son (130)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.07.2026
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.07.2026
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.